

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO'LIMI

“BANK ISHI” KAFEDRASI

ORTIQOV O.A., TILLAYEV X.S.

BANK MENEJMENTI fanidan

MARUZA MATNLARI

TOSHKENT 2013

Astanov X.Z, Raximov A.A. “Bank menejmenti” T.: TDIU, 2013 yil, 117 b.

Maruza matnlarida bank menejmenti bo'yicha asosiy tushunchalari, bank faoliyatini, jamoasini boshqarish nazariyasi va amaliyoti, shuningdek bank boshqaruv tizimi, qatnashchilari, bank tizimi operatsiyalarida yuzaga keladigan risklar hamda ularni boshqarish kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Mazkur maruza matnlari avvalo iqtisodiyot yo'nalishi oliy o'quv yurtlarining talabalari, kollej o'quvchilari, bank, moliya va ishlab chiqarish korxonalari hamda boshqa qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharir:

Н.Х.Жумаев,
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti rektori,
i.f.d., professor.

Taqrizchilar:

O.Yu. Rashidov,
“Bank ishi” kafedrasida professori, iqtisod fanlari
doktori. Iminov O.K. - iqtisod fanlari doktori,
professor.

O.K. Iminov,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
ho'zurdagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi
qoshidagi Oliy Biznes maktabining “Moliya”
kafedrasining mudiri.

Ekspertlar:

Н.Ф.Каримов,
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
professor, i.f.d.

© Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1-BOB. BANKLAR VA BANK XIZMATLARI	7
2-BOB. BANK FAOLIYATINI TASHKIL QILISH VA YANGI BANKLARNING TASHKILY TUZILISHI.....	45
3-BOB. BANKLARNING MOLIYAVIY HISOBOTLARI.	58
4-BOB. BANKLARNING KREDIT SIYOSATI VA TEXNIKASI.	82
5-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KREDITLASH USULLARI VA ULARNI BOSHQARISH.....	99
6-BOB. BANKNING INVESTITSION FUNKTSIYASI.....	144
7-BOB. LIKVIDLILIK, ZAXIRALARNI BOSHQARISH STRATEGIYASI VA TAKTIKASI.	171
8-BOB. BANK MABLAGLARINI MANBALARINI BOSHQARISH.....	181
9-BOB. AKTIV VA PASSIVLARNI RISKDAN HIMOYALASH STRATEGIYALARI. BANKNING YANGI XIZMATLARI.....	187
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	202
IZOHLI LU'GAT.....	208

KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik yuritishning yuksak daromadlarga erishilishini ta'minlovchi samarali yusinlari va uslublarini izlash aloxida ahamiyat kasb etmokda. Bu maqsadga erishuvda ishlab chiqarishni boshqarish uslublari hamda vositalarini takomillashtira borishga ya'ni menejment va marketingga aloxida rol ajratilmokda.

Xorijiy mamlakatlarda ko'p yillardan beri nixoyatta katta ahamiyat berib kelinayotgan bu jarayon bizning Respublikamizda ham rivojlanib bormokda. Bu sohada tezrok muvaffaqiyat qozonish uchun esa shu davrga qadar to'plangan hozirgi paytda boshqaruvga doir mujassamlashgan bilimlardan foydalanish zarur. Bo'larni takomillashtirish, amaliyotga kiritish, foydalanish bugungi kunning dolzarb mavzularidan hisoblanadi. chunki juda ko'p hollarda bank xodimlari bu mexanizmni to'g'ri tushunib etmaetirlar.

Prezidentimiz I.Karimov ham o'z ma'ro'zalarida quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: «Biz iqtisodiyotni erkinlashtirish deganda bank va moliya tizimini bundan buyon ham qilishni nazarda tutamiz. Albatta, bu borada ko'pgina ishlar qilinmokda, lekin bunda banklar va ayniqsa Markaziy bank muhim rol uynaydi, Markaziy bank esa davlat madadidan foydalanib, to'lov tizimini bozor qatnashchilari bilan hisob-kitob qilish uchun zarur bo'lgan juda katta ta'minlash imkoniyatiga ega.

Bank ishi o'z ichiga boshqaruv jarayonini amalga oshirib, moliyaviy, moddiy, tashkiliy, huquqiy, ma'naviy psixologik shartsharoitlarni yaratish, boshqaruv vazifalarini bevosita ijro etilishi bilan ilmiy tadqiqot ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Bank tizimida yuzaga kelayotgan holatlar, bugungi kunda bank menejmenti va marketingini yanada rivojlantirishni talab qilmoqda. Banklar sonini ko'payishi bu raqobatning kuchayishidir. Bu esa bank boshqaruvida yangi yangi vazifalar belgilaydi.

Bank menejmenti o'z ichiga boshqaruv jarayonini amalga oshirib, moliyaviy, moddiy, tashkiliy, huquqiy, ma'naviy psixologik shartsharoitlarni yaratish, boshqaruv vazifalarini bevosita ijro etilishi, bilan bog'liq jarayonlarni oladi.

Bank menejmenti fanini urganish orkali nafaqat respublikamiz tijorat banklari faoliyati balki dunyodagi kata nufo'zli banklar faoliyati ularning ish tajribalarini ham urganishga imkon beradi.Hozirgi vaqtdagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inkiroz davrida banklarning roli uta muximdir. Bu borada prezidentimiz I.A.Karimov shunday ta'kidlaganlar: “2010 йилда тижорат банкларининг жами капитали 36 фоизга ортди ва банкларимиз эришган 23 фоиз миқдоридаги капиталнинг етарлилик даражаси дунёда қабул қилинган халқаро стандартлардан 3 баробардан кўпдир. Фақат ўтган йилнинг ўзида депозитлар ҳажми 1,5 баробардан зиёд ошди.

Бугунги кунда мамлакатимизнинг 15 та тижорат банки “Фитч Рейтингс”, “Мудис” ва “Стандарт энд Пурс” каби етакчи халқаро рейтинг агентликларининг “барқарор” деган рейтинг даражасига эгадир.

Банкларнинг кредит ва инвестиция фаолиятида ҳам ижобий ўзгаришлар амалга оширилмокда. 2010 йилда иқтисодиётнинг реал секторига йўналтирилган кредитларнинг умумий ҳажми 35 фоизга кўпайди. Шуниси эътиборга лойиқки, 2010 йилнинг охиридаги ҳолат бўйича ички манбалар ҳисобидан берилган кредитларнинг тижорат банклари умумий кредит портфелидаги ялпи улуши 85,1 фоизни ташкил этди.”¹

¹ И.А.Каримов “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади.”Тошкент. 21.01.2011 й.

1-BOB. BANKLAR VA BANK XIZMATLARI

1. Bank menejmenti tushunchasi va mohiyati.
2. Bank menejmentining tarkibiy tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Bank xizmatlari bozori va ularni boshqarish.
4. Jahon moliya bozori xizmatlari.

Bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik yuritishning yuksak daromadlariga erishilishini ta'minlovchi samarali yusnlari va uslublarini izlash aloxida ahamiyat kasb etmokda. Bu maqsadga erishuvda ishlab chiqarishni boshqarish uslublari hamda vositalarni takomillashtira borishga aloxida rol ajratiladi.

Ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida iqtisodiyotni boshqarish borasida boy tajriba to'plangan. Shu tajriba asosida boshqaruv sohasi rahbarlari va mutaxassislarining yangi avlodini tarbiyalash respublikamizda ham tobora keng yoyilmoqda.

Ayni shu masala e'tiborga molik topilganligi bejiz emas, chunki boshqarish darajasi bilan xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Boshqaruvning yuksak darajasi bilan yuqori darajadagi mehnat intizomi va mehnat unumdorligi, yuqori daromadlar va shunga muvofiq ravishda tannarxning, resurslar isrofgarchiligining pastligi o'zaro uygunlashib ketadi.

Boshqaruv bu eng avvalo ishlab chiqariladigan mahsulot ob'ekti va turishi belgilab olindiki, xodimlar o'rtasida ishlarning xajmi va turlarini taksimlashni, resurslar bilan ta'minlashni, qilinayotgan sarf harajatlarni hisob-kitob va nazorat qilib borishni, moliyalashtirish va mehnatga haq to'lashni, daromadlarni vujudga keltirish va ularni taksimlashni, davlat mahsulot etkazib beruvchilar va iste'molchilar oldidagi majburiyatlarni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, kengaytirilgan ishlab chiqarishni takmillashtiri, rivojlanib boruvchi mehnat taksimoti, ishlarning muayyan qismini bajaruvchi ishlab chiqaruvchilar kooperatsiyasi bo'larning hammasi boshqaruvning ahamiyatini oshiribgina qolmay, boshqaruv mehnatining bevosita ishlab chiqarish sohasidan farq qiluvchi faoliyatning aloxida turiga qonuniy ravishda aylanishiga olib boradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek «O'zbekiston o'zining ishonchli va to'lov qobiliyatiga ega hamkor ekanini, mamlakatimizda chet el sarmoyasini jalb etish bo'yicha har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratilganini amalda isbotlamokda.

2007—2008 yillar davomida o'zlashtirilgan chet el investitsiyalari hajmi 2,5 barobardan ko'proq oshganining o'zi ham buni tasdiqlab turibdi.

Umuman, 2009 yilda mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan xorijiy va ichki investitsiyalarni hisobga olganda, kapital qo'yilmalarning umumiy qajmi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining kamida 25 foizini tashkil etadi.»²

Xorijiy mamlakatlarda allaqachonlardan beri nixoyatda katta ahamiyat berib kelinayotgan boshqaruv jarayoni shu tarika rivojlanib boradi. Boshqaruv uslublari hamda vositalari tarixi, shuningdek uning iqtisodiy tarkkiyotiga ta'siri sohasidagi tahlil ko'rsatib turibdiki, boshqaruv muvaffakiyatlari rivojlanib borgan mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish sur'atlari ham eng yuqori darajada bo'lgan. Masalan, XIX asr oxiri XX asr boshida boshqaruv fani va amalyotining dunyoviy markazi bo'lgan Frantsiyada shunday xolat yo'z bergan. Anri Fayol bu sohada etirof etilgan peshkadam sanaladi, u boshqarish bu barcha resurslardan eng ko'p darajada foyda olib, jamoani uning maqsadi sari etaklashni anglatadi», deya ta'kidlaydi. Bunday tasnif bugungi kullab kelinmokda.

Keyinrok 20 yillarga kelib ishlab chiqarishni, mehnatni oshkaruvni tashkil qilish bobida Germaniya oldingi marraga chiqib oldi. Milliy an'ana va madaniy unsuri bulmish nemislarga xos aniqlik va mehnatsevarlik bu masalada koyilmokom darajada kul keldi, zero ayni shu sifatlar ishlab chiqarishning muvaffakiyatli rivojlanishiga ko'p jihatdan yordam beradi. Shuning uchun ham

² I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi.O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.»O'zbekiston .T.2009.y.

ikkinchi jahon urushi boshlanishi davrida Germaniya iqtisodiyoti bekiyos katta imkoniyatlarga ega bo'lgan, eng yuksak darajada tarakkiy etgan va kudratli iqtisodiyotlardan biri bo'lganligi bejiz emas.

Ikkinchi jahon urushi tugashidan ko'p utmay Amerika ishlab chiqarishni boshqarish sohasida barcha tomondan tan olgan peshkadam bo'lib oldiki, uning mutaxassislari boshqaruv nazariyasi va amaliyotiga katta xissa kushdilar. Bu jabxadagi sa'yharakatlar zoya ketmadi: AQSh iqtisodiyoti jadallik bilan bark urib gullash yo'liga kirdi. Xususan, ular tomonidan menejmentning zarurligi to'g'risidagi nazariya ishlab chiqildi:

Ishlab chiqarishni maxsus tayyorgarlik kurgan professionallar boshqarmogi lozim, deb hisoblovchi amerikaliklar ikkita boshqaruv akademiyasini tashkil etishdi. Bundan tashkari mamlakatda 10 ta biznes maktabi ishlab turibdi, boshqaruvga oid 200 dan ko'prok jurnal nashr etilmokda. Boshqaruv xodimlari AQSh da eng yuqori maosh oladigan mutaxassislar jumlasiga kiradi.

Germaniya va AQSh tajribasi bekor kolib ketmaydi: ko'pgina mamlakatlar uni o'z amaliyoti uchun qabul kildilar. Hech kim kutmaganida 80 yillarda boshqaruv sohasida jahonda oldingi marraga chiqib olgan Yaponiya bu borada eng sobit kadam mamlakatlarda sanaladi. Boshqaruvning amalda butunlay yangi bo'lgan kontsepsiyasi aynan shu erda ishlab chiqildi, uning mohiyati shundaki, ishlab chiqarishning vujudga kelishidan tortib tovar ishlab chiqarishgacha bo'lgan jaryon o'zluksiz sur'atda amalga oshiriladi. Bu tizim shu qadar samarali chiqdiki, xomashyo manbalariga boy bulmagan Yaponiya o'z iqtisodiy tarakkiyotida nihoyatda ilgarilab ketdi.

Bugungi kunda menejment butun dunyoda tobora keng yoyilmoqda. Bozor munosabatlari yo'liga qadam qo'ygan O'zbekiston ham undan mustasno emas. Bu sohada tezrok muvaffaqiyat qozonish uchun esa shu davrga qadar to'plangan, hozirgi paytda boshqaruvga doir haqiqiy fan bo'lib mujassamlashgan bilimlardan imkonni boricha foydalanish zarur. Bu fan, uning asoschilaridan biri bo'lgan amerikalik olim F. U. Teylor ta'biri bilan aytganda, «aniq belgilangan qonunlar, koidalar va printsiplarga tayanadi». Ularni o'zlashtirib olgach keyinchalik amaliyotda qo'llamasdan turib, ishlab chiqarish faoliyatida muvaffaqiyat qozonish deyarli mumkin emas.

Buning ustiga, xorijdagi iqtisodchi olimlar, menejment faqat ishlab chiqarish muammolarigina emas, balki ijtimoiy muammolarni ham xal qilishga kodir, degan fikrdadirlar. Ular, barcha ijtimoiy muammolar, iqtisodiyotdagi barcha kiyinchiliklar, agar ular «amaliy jihatdan» bunedkor menejment nuktai nazaridan karab chiqiladigan bulsa, bartaraf qilinishi mumkin, deb hisoblaydilar. Qisqasi, amerikalik boshqaruv nazariyachilari hozirgi davrni ilmiy menejmentlari deb e'lon kildilar. Ularning fikricha aynan menejment hozirgi biznesning asosiy orzuniyatlarini ifodalaydi. U iqtisodiyotdagi o'zgarishlar inson xaetini yaxshilashning va ijtimoiy adolat urnatishning kudratli harakatlantiruvchi vositasiga aylanishi mumkinligiga ishonchni mustaxkamlaydi.

Dadil aytish mumkinki, bugungi kunda menejment jamiyatning barcha sohalarini va boshqaruvning barcha vazifalarini kamrab oladi. Xususan, moliya menejmenti, savdo menejmenti va xokazo menejmentlar mavjud. O'zbekistonda isloxotlarning takdiri va ularning natijalari ham ko'p jihatdan menejmentni rivojlantirishga bog'liq ekanligi ham shubxasizdir.

Respublikamizda mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solish, unumli ishlash uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga muxim ahamiyat berilayapti. Mamlakat konstitutsiyasi 37 moddasida shunday deyiladi: «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, odilona sharoitlarda ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan ximoyalanish huquqiga egadir». Bu qoida mehnat haqidagi qonunchilikni takomillashtirish jarayonida yanada rivojlantirildi.

Moliya menejmentining mehnatga daxldor jihatlari moliya sohasida bozor mexanizmlarini tartibga solish masalalariga bagishlangan qonunlar va me'riy xujjatlarda ifodalangan va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning raqobatbardoshligini oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bunda sondan sifatga o'tish koidasi amal qiladi, ya'ni, katta biznesga sarmoyalarning ko'plab okib kelishi va pul operatsiyalari yarashadi. Bunday biznes moliyasini boshqarish uchun iqtisodiyot, huquq, ruxshunoslik, fanshunoslikdan chuqur bilimga ega professionallar, boshqacha aytganda, moliya va kadrlar bo'yicha menedjerlar kerak. Moliya, menejment va uning mehnatga daxldor huquqiy

jihatlaridan yaxshi xabardor menejer faoliyat ko'rsatish jarayonida tashkilotchilik ijodietidan tajriba orttiradi, ichdan xis etishni shakllantiradi, unda bozor talablariga sezgirlik paydo bo'ladi, moliyaviy resurslar harakatini iqtisodiy boshqarish tizimida asosiy shaxsga aylanadi.

Moliya va kadrlar menejmentiga anchagina ilmiy ishlar bagishlangan. Bu ishni davom ettirish, tadbikotlarni chukurlashtirish, mehnat va u bilan bog'liq huquqiy munosabatlar sohasida tashkilotchilik ijodietini rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy asoslarni ishlab chiqish zaruriyatiga extiej esa, juda katta.

Bank tizimida yuzaga kelayotgan holatlar, bugungi kunda bank menejmenti va marketingini yanada rivojlantirishni talab qilmoqda. Banklar sonini ko'payishi bu raqobatning kuchayishidir. Bu esa bank boshqaruvida yangi yangi vazifalar degani, shuning uchun bank tizimidagi menejment va marketingni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Aolarni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni belgilab olish zarur.

- bank menejmentining iqtisodiy mohiyatini nazariy o'rganish ularni xorij tajribasi bilan solishtirish;
- banklarning yangi xizmat turlarini taklif etish, bankdagi operatsiyalarni boshqarishni yaxshilash;
- bank xodimlarini boshqarishni yaxshilash tufayli mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish.

Bank menejmenti boshqaruv jarayonini amalga oshirib, moliyaviy, moddiy, tashkiliy, xuquqiy, ma'naviy psixologik shart-sharoitlarni yaratish, boshqaruv vazifalarini bevosita ijro etilishi bilan boqliq jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Bank menejmenti asosida, avvalambor, odamlar bilan ishlay olish mahorati yotadi, shu bois bank menejmentining muhim tarkibiy qismlaridan biri xodimlarni boshqarishdir. Sir emaski, inson resurslari sifati ularning bank oldida turgan maqsadlarini amalga oshirishga qo'shgan hissasi hamda bank faoliyatining sifati ko'p jihatdan xodimlar bilan ishlashni samarali yo'lga qo'yilganiga boqliq.

Ikki bosqichli bank tizimining shakllantirilishi, uning tarkibiy takomillashtirilishi, shuningdek, elektron to'lovlari tizimining yaratilishi joylarda yangi tuzilmalarning: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bosh hududiy boshqarmalari va Hisob-kassa markazlarining yaratilishiga va ularning faoliyatini yo'lga qo'yilishiga olib keldi. Bu esa bank muassasalarining yangi turi bo'lib, o'ziga xos funktsiyalarga ega. Bu funktsiyalar mamlakatimizda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy bank to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlarida belgilab berilgan.

Ushbu tuzilmalarning tashkil etilishi xodimlar bilan ishlashda bank tizimini yanada isloh etish hamda tijorat banklarini hududiy bo'linmalari oldiga qo'yiladigan vazifalarini amalga oshirishda mosligini ko'rsatmoqda. Bank uchun kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan va zamonaviy bank texnologiyalaridan foydalana oladigan, o'z ishini muntazam ravishda takomillashtirishga intiladigan mutaxassislar kerak. Bunday sharoitda yuqori ishchanlikka ega jamoani shakllantirish uchun xodimlar sonini rejalashtirish va istiqbolini belgilash, uning kasbiy darajasini oshirish va mutaxassislarni maqsadga muvofiq holda tanlash, barcha turdagi mukofotlashlarni hisobga olishning yagona tizimini yaratish lozim. Aytish joizki, xodimlarni boshqarish mahalliy adabiyotlarimizda ancha keng baxs-munozaralarga sabab bo'lmoqda, chunki bank faoliyatini takomillashtirishning ushbu yo'nalishining dolzarbligi bu muammoning salbiy oqibatlarini boshidan kechirgan xorijiy banklar tajribasida ham o'z tasdiqini topmoqda. Xodimlarni boshqarish muammosini belgilashga, uni hal qilish usullariga turli yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar o'z maqolalarida ichki firma menejmenti – bu eng yuqori samaradorlik va foydalilikka erishish maqsadida tashkilot resurslarini boshqarish tamoyillari, usullari va vositalari yig'indisi deb ta'rif berar ekan, xodimlarning resurs sifatidagi alohida fazilatlarini ko'rsatib beradi. Umuman olganda xodimlarni bir jinsli substantsiya deb qarash yaramaydi, har bir xodim o'ziga xos qadriyatlariga va motivlarga ega. Xodimlarni boshqarish uzluksiz jarayon bo'lib, odamlarning maksimal darajada ishchanligini oshirish va tegishlicha yuksak yakuniy natijalarga erishish maqsadida ularni motivatsiyalashni maqsadli o'zgartirishga qaratilgandir. Xodimlar bilan ishlashning yakuniy

maqsadi – tashkilot maqsadlarini xodimning manfaatlariga yuqori darajada yaqinlashtirish kerak. Shularga asoslanib xodimlarni boshqarishning kontseptual modelini taklif qilish mumkin.

Boshqa bir guruh olimlar xodimlar iqtisodiyotini individuallashtirish mavzusini davom ettiradi. Ularning fikricha, xodimlar iqtisodiyoti maqsadi individuallashtirishga yo'nalish olish barobarida individni faqat umumiy, jamoaviy vazifalarni hal qilishga jalb etilishi oqibatida ishga solinmay kelingan individual salohiyatini namoyon qilish natijasida tashkilot samaradorligini oshirishdan iborat. Shunga ko'ra, menejmentning muammosi ko'rsatilayotgan xizmatlarni xodimlarning haqiqiy talablariga qaratish yo'li bilan qo'shimcha xarajatsiz ular mehnatini ra'batlantirish samaradorligini oshirish bilan bo'liq. Bunday siyosat natijasida xodimlarning o'z ishidan mamnunligi va o'z majburiyatlarini vijdonan bajarishga tayyorligi asosida individual ishchanlikning ortishini kutish mumkin. Xodimlarni boshqarishga bo'liq ishlab chiqarish xo'jalik muammolari ham iqtisodiy shart-sharoitlarga, ham hulq-atvor xususiyatlariga tayanishi lozim. Bank menejmentida xodimlarni boshqarish haqida gap ketganda shuni aytib o'tish kerakki, bu jihatdan xodimlarni bank tizimida boshqarish boshqa faoliyat turlaridan birmuncha farq qiladi, bu esa banklarning boshqa tashkiliy institutlardan farq qilishi bilan asoslanadi.

Bizning fikrimizcha, xodimlar menejmenti deganda uchta strategik vazifalarni amalga oshirish zarur.

Bankning mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini tezkor va to'liq qondirish uchun zarur ixtisoslashuvni va malaka darajasini ta'minlash. xodimlarning o'zlariga yuklangan funktsiyalarni eng yuqori darajada samarali bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

Tizimning bank menejmentini boshqa yo'nalishlari va elementlari bilan kerakli darajadagi o'zaro ta'sirini ta'minlashga qaratilgan xodimlarni boshqarishning kompleks tizimini yaratish.

Shunga ko'ra, xodimlarni boshqarish tizimi doim uchta o'zaro ta'sir qiluvchi bloklardan tashkil topadi. Bular: boshqaruv strategiyasi, boshqariluvchi kichik tizimlar, tizimning umumiy faoliyatini ta'minlovchi blok.

Bank personalni menejmenti strategiyasi deganda xodimlarni boshqarishning umumiy vazifalarini amalga oshirishda kontseptual yondashuvlarning yi'indisidir. Boshqariladigan kichik tizimlar deganda - kompleks boshqaruv tizimining aniq ta'riflangan muayyan vazifasini amalga oshirishga qaratilgan elementlarni tushunish lozim. Bank personalni menejmentini ta'minlash deganda uning tarkibini muayyan jarayonga qaratilmagan, ammo barcha operatsion kichik tizimlarning faoliyatini ta'minlovchi mustaqil elementi tushuniladi.

Bank personalini boshqarish kontseptsiyasi, xodimlarni boshqarish kichik tizimi u yoki bu bank doirasida javob berishi lozim bo'lgan talablarga mos holda ishlab chiqilishi kerak.

Bank personalini boshqarish kichik tizimi quyidagilarga qaratilgan:

- har bir ish o'rni, bo'lim, boshqarma ishining hajmini belgilash asosida kadrlar tarkibini maqbullashtirish;

- shtat lavozimlarini mehnat jarayonining murakkabligi va o'ziga xosligidan kelib chiqib funktsional majburiyatlarning maqbul to'plami bilan ta'minlash;

- malakali kadrlarni bankda belgilangan lavozimlar tarkibiga mos holda va har bir mutaxassisning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, shuningdek ularni moslashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratgan holda sifatli tanlash, ajratish va joylashtirish;

- xodimning salohiyatini va imkoniyatlarini aniqlash asosida, uning xizmatdagi o'sishini rejalashtirish asosida kadrlar tarkibidan oqilona foydalanishni tashkil qilish;

- xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish;

- har bir xodimning umumiy ishga qo'shgan hissasiga mos holda mehnatga haq to'lash, mehnatni motivatsiyalashning boshqa turlarini takomillashtirish.

Ushbu kontseptsiya quyidagi tamoyillarni o'z ichiga olishi mumkin deb o'ylaymiz:

1. Har bir bo'limda xodimlar sonini maqbullashtirish.

2. Malakasi va individual imkoniyatlari bajariladigan ishga mos keladigan xodimlarni tanlash.

3. Mehnatni maksimal ravishda avtomatlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish.


4. Funktsiyalarning takrorlanishini istisno etish.

5. Ish vaqtini tejash.

6. Zarur ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish.

Me'yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqishda kadrlar zahirasi, rahbarlikka nomzodlarni shakllantirish, mutaxassislarni asosiy lavozimlarga tanlov asosida taklif qilish, o'qishga yuborish, mutaxassislarning kasbiy o'sishi, ular mehnatini motivatsiyalash va baholashga bo'liq masalalarni hal etishga amaliy yondashuvlarni shakllantirish kerak.

Bular xodimlar bilan ishlarni tizimlashtirishga, bo'linmalarni bank mutaxassislariga qo'yiladigan zamonaviy talablarga javob beradigan xodimlar bilan ta'minlashga, ish o'rinlarining jihozlanganligini va mehnat madaniyatini oshirishga imkon beradi.



1-rasm. Tijorat banklari personalini boshqarish tizimi.

Tijorat bankida xodimlar bilan ishlash kontseptsiyasi uning asosiy mexanizmlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar asosida qurilishi mumkin (5-rasm):

- xodimlarni rejalashtirish va prognozlash;
- xodimlarni tanlash va ajratish;
- xodimlarni baholash;
- xodimlarni kasbiy rivojlantirish;
- xodimlarni motivatsiyalash.

Shunday qilib, ish o'rni modelidan kelib chiqib, ish o'rnida nomzodga qo'yiladigan talablarning to'liq ro'yxati ishlab chiqiladi. Ro'yxatga quyidagi elementlar kiradi:

- hisobga olish ma'lumotlari (yoshi, jinsi va h.k., ya'ni shaxsiy varaqada, avtobiografiyada, tavsiyalarda, mehnat daftarchasida va boshqalarda aks etgan ma'lumotlar);
- malaka darajasi (ma'lumoti, mutaxassisligi, diplom olgandan keyingi qayerda o'qiganligi va malakasini oshirganligi);
- bank ishi, iqtisod, moliya, boshqaruv, psixologiya, dasturlar, xorijiy til va hokazolar bo'yicha kasbiy bilimlari;
- kasbiy ko'nikmalari (odamlar bilan ishlash, nizomlar, metodikalar, qo'llanmalar, dasturlar va rejalarni ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ish yuritish, zamonaviy dasturiy mahsulot bilan ishlash va h.k.);
- ish tajribasi (mutaxassisligi bo'yicha, moliya-kredit, bank tizimidagi ish staji, jamoat ishlaridagi ishtiroki);

- shaxsiy-psixologik fazilatlari (halollik, mehnatsevarlik, kirishimlilik, intizomlilik, aqliy salohiyati, ortiqcha ishlashga va stressga chidamliligi va h.k.);

- mehnat sharoitlari (ish xonasi, telefon, transport, kompyuter texnikasi, o'quv-metodik markaz, kutubxona);

- mehnatga haq to'lash va ijtimoiy imtiyozlar (lavozim maoshi, ustamalar, mukofotlar, oylik kompensatsiya to'lovlari, mehnat ta'tiliga, yubiley sanalariga, yaqinlarining o'limi hollarida, tabiiy ofatlarda va baxtsiz xodisalarda moddiy yordam, su'urtalash, imtiyozli yo'llanmalar, qo'shimcha ta'til berish, jismoniy tarbiya-so'lomlashtirish majmualaridan foydalanish, qo'shimcha pensiya tayinlash).

Rahbar ish o'rnini tavsiflashda boshqaruv vazifalarining boshqaruv ta'siri doirasi, qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlik, bajariladigan ishlarning bir xilligi, rejalashtirishning ko'lamlari, muvofiqlashtirish darajasi kabi omillari ham kiritiladi. Bu, o'z navbatida, rahbarlik lavozimiga nomzodning boshqaruv fazilatlari yi'indisi, ya'ni: istiqbollarni ko'ra bilish, rejalashtirish, rahbarlikni amalga oshirish ishtiyoqi, shaxsiy fazilatlari ichida etakchilik xususiyatining borligi, odamlar ishini tashkil qila olishi, boshqalarning ishini taqsimlash va nazorat qilish, ishga o'rgatish kabi uning kasbiy darajasiga qo'yiladigan talablar ro'yxatini shakllantiradi.

Har bir lavozim toifasiga unga mos keladigan murakkablik darajasidagi mehnat funktsiyalarining bajarilishi belgilangan.

Amaliyotda texnologik tuzilmalarning har bir toifa mutaxassislarining mansab majburiyatlari bajariladigan ishlarning aqliy jihatdan murakkabligidan kelib chiqib shakllantiriladi va tavsiflanadi.

Bank doirasidagi menejment – bu eng katta samaradorlik va foyda olish maqsadida bank resurslarini boshqarishning zamonaviy qoidalari, usullari va vositalari yi'indisidir. Bank doirasidagi menejment shunday ta'riflanganda personalning resurs sifatidagi alohida tavsiflari ham ajratib ko'rsatilmo'gi kerakdir.

Personalning – bu resurs ekanini anglagan holda boshqa resurslardan (moliyaviy, xom-ashyo, moddiy va boshqa resurslardan)shunisi bilan farq qiladiki, yollanma xodim, ishchi, xizmatchi undan foydalanishda asoslanish mo'ljallanayotgan shartlardan voz kechishga haqli; o'z xohishiga ko'ra ishdan bo'shashi; e'tiroz bildirish; boshqa kasblarni o'rganish; ish haqi to'lash darajasi to'g'risida muzokaralar olib borish; qanday toifadagi kasblar uning uchun ijtimoiy jihatdan nomaqbul ekanini, umuman esa bir turdagi substantsiya deb qaralish mumkin emasligi to'g'risidagi masalalarni hal etish huquqlariga, o'z shaxsiy dalil va qadriyatlariga ega.

Bank sohasidagi menejment quyidagilarni o'z ichiga oladi: bosh menejment, operatsion ishlar menejmenti va personal menejmenti.

Bosh menejer bilan barcha menejerlar ular tarkibiy bo'linmalar boshli'gi ekani yoki boshliq emasligidan qat'i nazar shu'ullanadilar. Ular muayyan missiyalar hamda strategiyalar shakllantirilishi, siyosiy ishlab chiqilishi va vazifalar qo'yilishi uchun, xullas rejalashtirish va tashkil etish, bankni nazorat qilish va boshqarish bilan bo'liq bo'lgan yo'nalishlar uchun javobgardir.

Operatsion menejment yoki ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati menejmenti bank umumiy strategiyasini amalga oshiruvchi maqsad hamda vazifalar qo'yilishi, tuzilma shakllantirilishini, majburiyatlar taqsimlanishini; mehnat nizolarini tartibga solinishini; rejalarning bajarilishini, xodimlarning sifatli ishlarini ra'batlantirilishini, bo'linma doirasidagi ishlab chiqarish jarayoni muvofiqlashtirib turilishini, zarur kommunikatsiyalar va aloqalar yo'lga qo'yilishini ta'minlaydi.

Bank personalni menejmenti quyidagi vazifalarni hal etadi: xodimlarning butun kuch-ayratini bank missiyasi va strategiyasi bajarilishiga, uning maqsadlariga erishishiga qaratish: xodimlarning aqliy va jismoniy imkoniyatlaridan samarali foydalanish: korxonani kerakli xodimlar bilan ta'minlash, xodimlar imkoniyatlarini to'la ishga solish; xodimlar turmushi korporativ madaniyat talablariga javob beradigan darajada bo'lishini qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish.

Bank doirasidagi menejmentning har uch turi bir ob'ekt – insonga taalluqlidir. Zero bank rivoji uning kundalik mehnat faoliyatiga qo'shilishi darajasiga bo'liqdır.

Personalni boshqarish – bu kishilar mumkin qadar samaraliroq ishlashiga, shu orqali yuksak pirovard natijalarga erishish maqsadida ularning qiziqishlarini aniq maqsad sari o'zgartirishga yo'naltirilgan uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Chet el tajribasida bank personalini boshqarish muammolarini hal qilishga doir ikkita asosiy yondashuv mavjud.

Biriinchi yondashuv diqqat e'tiborini shunga qaratdiki, "inson resurslarini boshqarish" mazkur muammoni hal qilishning strategik jihatlarini, shu jumaldan, ijtimoiy rivojlantirish masalalarini qamrab oladi.

"Personalni boshqarish" esa, ko'proq kadrlar bilan operativ ish olib borishga ta'luqlidir. Ikkinchi yondashuv shunga asoslanadiki, "odam resurslarini boshqarish" avvalo mehnat va bandlik sohasidagi munosabatlarni davlat yo'li bilan tartibga solish masalalariga, "personalni boshqarish" esa, bank darajasidagi mehnat munosabatlariga qaratilgan.

Personalni boshqarish uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo'ladi. U xodimlarning mehnat qilish sabablarini, undan yuqori darajada foyda olishni va korxonalar faoliyatida pirovard yuksak natijalarni qo'lga kiritilganligini bildiradi.

Amaliy nuqtai nazardan personal bankning eng muhim resursi bo'lib, uning imkoniyatlarini samarali amalga oshirish xodimlarning muayyan guruhi yoki ayrim xodim tomonidan hal etiladigan aniq ishlab chiqarish vazifalarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq ravishda ijtimoiy echimlarni talab qiladi.

Yangi kontseptsiya avvalo xodimlar faoliyatining iqtisodiy mezonlarini hisobga olgan holda, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish, boshqariladigan xulq-atvordan maqsadga muvofiq foydalanish, alohida shaxsning ham, turli professional va ijtimoiy guruhlarining ham imkoniyat va qobiliyatlarini mumkin qadar yaxshiroq ochish uchun zarur investitsiyalarda aks ettirish lozim. Uni qurishda personalni rivojlantirishga qilinadigan pul xarajatlari bilan foyda ko'rinishidagi amaliy natijalar nisbati hisobga olinishi darkor. Bunday yondashuv biznesning uzoq muddatli strategiyasiga asoslanadi.

Bir tomondan, u o'zi boshchilik qilayotgan bo'linma xodimlariga nisbatan liniya menejeri hisoblanadi, ikkinchi tomondan bankning boshqa tuzilmalari bilan funktsional munosabatlarda bo'ladi. Funktsional menejment esa faqat maslahat va tavsiyalar berishni ko'zda tutadi. Personal bilan ishlash xizmatining rahbari boshqa bo'linmalarda o'zgartirishlarni bevosita o'tkaza olmaydi, lekin shunday o'zgartirish yunalishi to'g'risida tavsiyalar berish huquqiga ega.

Bank personal menejmentining vazifasi bankdagi hamma xodimlarni hamkorlik qilishni ta'minlashdan iboratdir. Shuni hisobga olish kerakki, xodimlar faoliyatini boshqarish ustuvorligi masalasi barcha xodimlar uchun ancha nozik masala hisoblanadi.

Professional bilim va ko'nikmalar (demak, mos keluvchi investitsiyalar ham) ikki turda: umumiy va o'ziga xos(spetsifik) bo'ladi. Umumiy inson kapitali turli banklarda ishlagan holda mehnat bozorida talabga ega bo'lishga imkon beruvchi keng doiradagi bilim va ko'nikmalarga asosan shakllanadi. Shu sababli, avvalo xodimning o'zi bunday investitsiyalardan manfaatdor bo'ladi. Maxsus inson kapitali u yoki bu firmaning faoliyat xususiyatlarini (xizmatlar, texnologiyalar, tashkiliy tuzilmalar) aks ettiradi. Shuning uchun maxsus tayyorlov asosan firmalarning o'zi tomonidan moliyalashtiriladi.

Texnologiyalarning murakkablashuvi, innovatsion xizmatlarni yaratish zarurati tobora ko'proq maxsus firmadagi ichki ko'nikmalarni talab qilmoqda. Maxsus inson kapitali ish beruvchi va xodimni bir-biriga kuchliroq bo'laydi. Bank endi osonlik bilan bir xodimni boshqasi bilan almashtira olmaydi, chunki bu inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalardan potentsial daromadni yo'qotish, shuningdek, yangi investitsiyalar kiritish bilan bo'liq. Xodim o'z navbatida uning professional mahorat va ko'nikmalarining katta qismi faqat shu bank doirasida qimmatga ega ekanligi haqida o'ziga hisobot beradi. Aynan shu sababli bitta joyda ij staji katta bo'lgan xodimlar mehnat qiluvchi tashkilotda xodimlar qo'nimsizligi ko'rsatkichi past bo'ladi, bo'sh o'rinlarni esa firma tashqaridan xodimlarni yotash emas, balki firma xodimlarini ichki xizmat pillapoyasi bo'ylab harakatlantirish hisobiga to'ldirishni afzal ko'radi.

Hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy vokeligi uchun bunday muammo, ayniqsa, dolzarbdir. Zero, har qanday tashkilot, birinchi galda moliya muassasasi rahbaridan zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun ijodiy endoshish talab etiladi. U yangiliklardan foydalanishi, kadrlar menejmentidagi ilgor yutuklarni joriy etishi, mehnatga daxldor huquqiy tartibotni

takomillashtirishga va istiqbolda mehnat huquqining ancha samarali me'rlarini yaratishga kumaklashishi lozim.

Ishga ijodiy endosha olmaydigan rahbarlar bozor sharoitida ogir axvolga tushib koladilar. Bir kolipdagi tashkiliy echimlar endilikda biz xoxlagan natijalarni bermaydi. Moliya muassasalarini boshqarishga novatorlarcha endashuvlarni ragbatlantirishning yangi vositalarini izlash masalasi pishib etildi. Ayni paytda boshqaruvchilik faoliyatining o'ziga xosligi uning huquqiy jihatdan tartibga solinish murakkabligidan ham kelib chiqkandir.

Tashkilotchilik ijodieti tushunchasini belgilash uchun, ijod shunday mehnatki, uning asosida tafakkur etadi, degan koidadan foydalanishni maqsadga muvofiq, deb topdik. U ilxomni nazarda tutadi, ilxom tufayli tegishli vaqt, makon va axboriy chegaralarda o'z yangiligi va ijtimoiy ahamiyatibila ajralib turuvchi maxsul yaratiladi. Tashkilotchilik ijodiyoti natijasi bulmish yangiliklarni moddiylashtirish ikki xil darajaga ega. Birinchisi kayd etiladigan (aytilgan yoki yozilgan) tashkiliy echim hamda ikkinchisi tashkilotlarni boshqarishga yangicha ijtimoiy munosabatdir. Yangilik o'z ishiga yangicha ijodiy endoshuvda hamda olinadigan ijtimoiy natijaning yangiligida namoen bo'ladi. Novatorlarcha endoshuv deganda, nafaqat butunlay, balki, ilgari ishlab chiqilgan, xo'jalik yuritishning o'zgargan sharoitlariga tatbik etilganida o'zini oklagan tashkiliy echimlarni ham tushunish mumkin. Tashkiliy echimlarning yangiligini kayd etish yo'lga qo'yilmaganligini, u yoki bu darajada mehnat huquqidagi kamchiliklardan biri, deb hisoblash mumkin. Ushbu nuksonni bartarf etish maqsadlarida Mehnat kodeksi asosida yangi tashkiliy echimlarni ximoyalash haqida maxalliy Nizomni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ishga novatorlarcha yondashuvlarni ragbatlantirayotgan tashkilotlarni aloxida takdirlashni uylab kurish zarur, deb hisoblaymiz. Ijodiyot, uning xosilasining ijtimoiy ahamiyati bilan bog'liq ijodiyot mezonlari shu maxsuldan ijtimoiy maqsadlarda foydalanish imkoniyatlari ko'rsatilishi bilan tuldirilishi muximdir.

Bu xildagi ishlanmalarni tuplash va tahlil etish «Tashkilotchilik ijodiyoti» tushunchasini boshqaruvchilik mehnatining ifodasi sifatida belgilash imkonini bergan bulur edi. Uning asosida esa, yangi tashkiliy echimga olib keluvchi va butun yangi natijalar beruvchi o'ziga xos ilxombaxsh tafakkur yotadi. Keng ma'noda olganda, buijtimoiy munosabatlar menejmenti tufayli vujudga kelgan muayyan tizim bo'lib, menejrlarning tashkilotchilik ijodiyoti qaror topishiga kumaklashadi; yangi tashkiliy echimning mohiyatini aniqlaydi; tashkilotlarni boshqarishda ijodiy jarayonga kulaylik yaratadi; moliya tashkilotida yoki undan tashkarida qabul qilingan tashkiliy echimni ruyobga chiqarishni ta'minlaydi; tashkilotchilik ijodiyoti bilan shugullanuvchi sub'ektning tashkilot o'zining va umuman butun jamiyatning qonuniy manfaatlarini ximoyalaydi.

Davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy kafolatlar birinchi navbatda moliya tashkiloti rahbariga ham tadbik etilishi lozim.»Xodim ish beruvchi vakili» koidasining ikki tomonliligi mehnat munosabatlarini, xizmatchilar ushbu toifasi ishtirokida, huquqiy jihatdan tartibga solishni tabakalashtirish zarurligiga olib keladi. Shu munosabat bilan mehnat qonunlari moddalarini xodimlarning xizmat vazifalariga oid Nizom xususiyatlaridan kelib chiqib tabakalashtirish maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda xodimlar ayrim guruxlarining huquqiy axvollari tabakalanishini ifodalovchi mehnat huquqi va me'yorlari bozor printsiplarining nisbati haqidagi masala kundalang bo'ladi. Birinchi rahbarlarga kelganda esa, ularga nisbatan, fikrimizcha, ularning huquqlarini aslo kamsitmagan holda, makbul yondashuvlar zarur.

Mehnati shartnomasini rahbarlarga, ularning ishida ijodiy tashabbuskorlikni ragbatlantirish masalalarida, ta'sir utkazishning asosiy huquqiy dastak va tashkilotchilik ijodiyoti erkinligini ijtimoiy chegaralarini urnatish usuli sifatida karash darkor. Mazkur huquqiy «dastak» dan noto'g'ri foydalanilsa, u ijodiy tashabbuskorlikni bugib, xatto uni yukka chiqarib, umumiy ishga kuchli salbiy ta'sir utkazadi.

Rahbarning ijodkorga aylanishida uning koraftaligi, ya'ni rahbar sifatida o'z sohasini chukur bilishi muxim shartdir. Mazkur xolatni aniqlash maqsadida shunday me'yorni ko'zda to'tish kerakki, birinchi rahbarlar uning talablariga, ya'ni, sinovlar, tanlovlar, shaxodat sinovlari, imtixonlar va haqozalar yordamida majburiy tekshiruvlarda javob berishsagina, o'z vazifalarini bajarishga

kuyilsin. Rahbar bilan mehnatga oid huquqiy munosabatlar yuzaga kelishi uchun dastlabki muxim shart sifatida tanlov va tanlov orkali saralash bo'yicha saylanishdan foydalanish mumkin.

Rahbar alohida vakolatlarga ega bo'lganligi, shuningdek, uning zimmasiga yuklatiladigan katta mas'uliyat, xususiyl shartnomalarda xodimlarni ishdan bushatish uchun kushimcha asoslar va boshqa muxim shartlarni mustaxkamlab kuyilishi imkoniyati mavjudligi sabab, u bilan tuzilgan yozma shakldagi mehnat kontraktiga rioya etish maqsadga muvofiqdir. Bunday xulosa, chunonchi, rahbar faoliyatida ijodiy tashabbuskorlikni ximoya qilish zarurati munosabati bilan kelib chiqmokda.

Ish beruvchi tashabbusi bilan ishdan bushatish muddatlar bo'yicha ham makbul bulishi lozim. Negaki, rahbar o'z dasto'rini ruyobga chiqarishi, uylab qo'ygan ijodiy rejalarini amalga oshirishi uchun etarli vaqt kafolatiga ega bulishi kerak.

Rahbarning ijodiy imkoniyatlarini raxbatlantirish zaruratini hisobga olgan holda, u bajaradigan ishlar doirasiga keng mikesli ta'rif berish ancha murakkab. Ular istalgan tarmoqda, tabir joiz bulsa, «mufassal»lik tusidagi, faoliyatning iqtisodiy, huquqiy va boshqa jihatlarini kamrab oladi. Birinchi shaxsning vazifalarini unga buysunuvchi barcha xodimlarining mehnat funktsiyasi «tortib olishi»ga yo'l kuymaslik darkor. Aks holda, tashkilotchilik faoliyati haqida gapirishga umuman xojat yuk. Yangi rahbar amalga oshiradigan birinchi navbatdagi tadbirlar orasida, nazarimizda boshqaruvchilik vazifalari bilan bog'liq ilgari tuzilma samaradorligini taftish qilish bulishi darkor. Bu tuzilmani shunday xolatga keltirish kerakki, u rahbarni tashkilot faoliyatining tub muammolari bo'yicha tashkilotchilik ijodiyotini namoyish qilish uchun barcha zarur shartsharoitlar bilan taminlansin. Rahbar vazifalarini belgilashda lavozim yuriknomasi muxim ahamiyat kasb etadi. Unda, tashkilotchilik ijodiyotini raxbatlantirish nuktai nazaridan, korxonaning o'ziga xos xususiyatlarini va boshqaruvchilik faoliyatidan kutilaetgan natijalarni hisobga oluvchi, boshqaruvchilik ishlari samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari ruyxatini berish ayni muddao bulur edi.

Bizningcha, rahbar mehnatining ijodiy tusdaligi meyorlashtirilmagan ish kunini, demakki, shunday tusdagi ish uchun sarflangan mehnat urnini koplashning huquqiy masalalarini xal etishni talab etadi. Gap shundaki, tashkilotchilik ijodiyotining butun mazmunmohiyati rahbarning mehnat tartibotiga rioya etishida emas, u qabul qiladigan qarorlarning samaradorligida, ularni ruyobga chiqarishga va eng yuqori ko'rsatkichlarga erishishga qobilligidadir.

Xullas, yuqorida aytilgan takliflarning amaliy ahamiyati moliya menejmentining mehnatga daxldor huquqiy jihatlarini aniqlash, uni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish, moliya menejmenti sohasida yangi me'yoriy xujjatlarni shakllantirishga zamin hozirlashga intilishdan iboratdir.

Jahon bank tizimida ruy berayotgan tub o'zgarishlar, MDX mamlakatlari bank tizimiga ham tobora ko'prok ta'sir ko'rsatayotir. Xush, gap qaysi o'zgarishlar to'g'risida bormoqda?

Birinchidan, bu o'zgarishlar tulovlarning yangi integratsiya vositalarini yuqori sur'atlar bilan shakllantiradigan bank operatsiyalarini kompyuterlashtirishning texnologik inkilobi bilan bog'liq. Bu jarayonlar talaygina moliyaviy harajatlar talab qiladi, bank ishi qimmatlashadi, biroq uning samaradorligi va uning tezkorligi oshadi, bu esa harajatlar usishini koplaydi.

Ikkinchidan, bank ishida usib borayotgan raqobat banklarning kushilib ketishiga olib keladi, bu esa sarmoyalar bozorida va iqtisodning investitsiyalar sohasida yangi sharoitlarni vujudga keltiradi. O'zbekistonning bank tizimi unga kam kuvvatli talay banklar kirganligi sababli, yakin vaqt ichida bu ta'moyilning ta'sirini boshdan kechiradi. Bu xodisaga respublika bank xizmati bozorida anchagina raqobatbardosh va samarali bo'lgan chet el banklarining paydo bulishi ham erdam beradi.

Uchinchidan, bu an'anaviy bank xizmatlari bozoriga tobora shaxdam odimlar bilan kirib kelayotgan bankdan tashkari tuzilmalar bilan raqobatning kuchayishi. Jumladan, axoliga kredit kartochkalari bilan xizmat ko'rsatish sohasida turli xildagi tijorat tuzilmalari faoliyat ko'rsata boshlaydilar.

Turtinchidan, bank ishlariga bu xizmatlarning ko'p sonli iste'molchilari ta'siri ortadi. Iste'molchi operatsiyalarining tezligi va sifati, hisobkitoblarning kulayligi, mijozlarning

extiyojlariga dikkate'tibor qaratilishiga nisbatan banklarga tobora kattik talablar kuya boshlaydi. Bank tizimi hozir xal qilinishi kiyin bo'lgan dilemmaning keskinlashuvi sharoitida turibdi. Qo'yilmalarni jalb qilishda banklar ekspansiyasi va omonatchilarni zararlardan kafolatlash o'rtasida asosiy muvozanatsizlik mavjud. Kafolatlar moliya institutlariga kushimcha qo'yilmalarni jalb qilish imkonini beradi. Qo'yilmalar faoliyatining omonatchilar tomonidan boshqarilmasligi esa, banklarga bu qo'yilmalardan foydalanishda keng imkon yaratib beradi. Bu ikki omilning o'zaro uygunligi kreditlash xajmlarining usishi uchun sharoit yaratadi. Birok bu boshqarilmaslik goyasining kuchayishi bilan xavfxatar va kompensatsiya o'rtasidagi muvozanatsizlik ortadi. Shuning uchun ham bank tizimini rivojlantirish va boshqarishga nisbatan samarali siyosat olib borish zarur.

Bu vazifalarning barchasi bank menejmenti bilan bogliqdir.

Menejment tashkil etish va boshqarishning tizimini to'g'riroq olib borishi haqidagi ilmiy bilimdir. Menejment tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati turlicha tushuniladi. Qisqa ma'noda menejment so'zi jamoani tashkil qilish va boshqarish bilan bog'liq bulsa, keng ma'noda menejment bank faoliyatini va uning ishchilarini shakllantirishni boshqarish tushuniladi.

Menejment asosini inson omili, o'z ishini biluvchi, shaxsiy hamda jamoa mehnat faoliyatini tashkil eta oluvchi hamda samarali boshqaruvchishaxs tashkil etadi. Bu borada boshqaruvchi kasbiy bilimga va shaxsiy sifatlarga: yuqori bilimli, uylash qobiliyati chukur va zexnli, xavfni boshqara oladigan hamda rejalashtirgan ishlarni kurkmasdan amalga oshira oladigan shu bilan birga jamoasi orasida etakchilik kila oladigan shaxs bulishi shartdir.

Menejmentning asosiy maqsadiboshqarishning ratsional usuli orkali foyda olishdir. Lekin respublikamizning hozirgi iqtisodiy sharoitida bank menejmentining asosiy maqsadi faqatgina foyda olish emas, balki jamiyatning ijtimoiy iste'mol talablarini kondirishdan ham iboratdir. Oxirgi yillarda bank menejmentining maqsadlariga jamoaning ijtimoiy muammolarini ham xal qilishdan iborat bo'lgan masalalar turibdi. Busiz inson o'z potentsialini namoyish eta olmaydi va mehnat kila olmaydi. Lekin menejmentfan sifatida bir xil printsiplardan iboratdir. Bo'lar quyidagilar:

- boshqarish sub'ekti faoliyatining aniq maqsadlarga erishish uchun yunaltilishi;
- maqsad, natija va unga erishish vositasining birligi;
- boshqarish jarayoning uyushganligi: rejalashtirish, tahlil, tartibga solish va nazoratning birligi;
- joriy va kelajak rejalarning birligi, hamda o'zluksizligi;
- qabul qilinayotgan boshqarish qarorlari ustidan qarorni amalga oshirish omili sifatida doimiy nazorat;
- jamoa a'zosining barchasi va har biri ning ijodiy aktiv faoliyati, erishgan natijalari va yutuklarini moddiy va ma'naviy ragbatlantirish;
- jamoa a'zosining har biriga ularning potentsiallarini tularok olish uchun yakka holda ularga yondashish;
- har bir ishni o'zining kasbiy malakasini oshirish maqsadida, doimiy ukish va yangi bilim egallash uchun qiziqish uygotish;
- jamoada soglom psixik sharoit yaratishga erishish;
- funktsional va boshqaruv vazifalarini xal qilishga sharoit yaratuvchi tashkiliy tuzilishga ega bo'lgan boshqaruvni tashkil etish.

Bo'larning barchasi bank menejmentiga ham bevosita bog'liq va taaluklidir. Lekin bank menejmentining ikki tomoni mavjuddir. chunki bank iqtisodchisi korxona menejmenti xolatiga bank mijozlariga hamda bank menejmentiga ham e'tibor berishlari zarur.

Shu bilan bank menejmentining yana bir xususiyati bank biznes xususiyatiga bevosita bog'liqdir. Bank biznesi boshqa tarmoqlarga karaganda uning farqi maxsus «tovar» «pul» bilan faoliyat ko'rsatishidir. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda bank menejmentining o'ziga xos xususiiyatlarni va maqsadlarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu xususiyatlarga:

- pul bozori sharoitida xo'jalik sub'ekti sifatida bank ishini rentabelligini ta'minlash;

- kreditor va jamgarmachilar qiziqishini ta'minlash maqsadida, bankni ishonchli sherik sifatida uning balansi likviditligini ta'minlash;
- bank mijozlariga ko'rsatilayotgan xizmatlarini xajmi, turi, sifatini yaxshilagan holda ular orasidagi alokalarni doimiylikni ta'minlash uchun mijozlar talablarini maksimal kondirish;
- jamoaning ishlab chiqarish, tijorat hamda ijtimoiy muammolarni birgalikda hisobga olgan holda xal qilish;
- mutaxassislarning potentsialidan tularok foyda olish maqsadida ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni joylariga kuyish.

Bu maqsadlarga erishish uchun bank menejmenti miqdoriy va sifat hamda ijtimoiy ko'rsatkichlarga tayanadi.

Miqdoriy ko'rsatkichlar bank menejmentining barcha sohalariga tegishlidir. Miqdoriy ko'rsatkichlarga: bank mijozlari va raqamlari soni, depozit xajmi, kredit qo'yilmalri, operatsiya va xizmatlar xajmi va boshqalar misol bo'la oladi.

Sifat ko'rsatkichlariga esa bankning daromad va harajat ko'rsatkichlari mablaglarning aylanish tezligi, operatsiyalarni amalga oshirish harajatlari va mehnat xajmi, xujjatlarni qayta ishlash kabilar kiradi. Hozirgi kunda bu masalalar kundan kunga xal qilib borilmokda. Axborot tizimi, elektron tulov tizimi bunga yakkol misol bo'la oladi. Bank menejmentining ijtimoiy ko'rsatkichlarini uch guruxga ajratib ko'rish mumkin. Bular:

- jamoa a'zolarining kasbiy tayyorgarligi;
- ularning mehnatga munosabati;
- ijtimoiy muammolarni farq qilish darajasi.

Bank menejmentining asosiy xususiyatlaridan yana biri, bu ma'sul masalarni xal qilishda jamoa usulining mavjudligidir. Hozirgi davrda bank menejmentining aniq yo'nalishi qanday. Ularni ikkita yirik yo'nalishga ajratish mumkin. Birinchi gurux savollariga, bankni ixtiyorida bo'lgan iqtisodiy muammolarni boshqarishni tashkil etish, ikkinchi gurux savollariga esa bank jamoasini boshqarishni tashkil etishdan iboratdir.

Bo'larning har biri aloxida yo'nalishlardan iborat. Lekin biz ularning har birini aloxidaaloxida ko'rib chiqa olmaymiz. Ammo ba'zi birlari bilan tanishib o'tishga harakat kilamiz.

Yo'nalishlarning barchasi bank siyosatiga bevosita bog'liqdir. Bank siyosatining tahlili natijasini aniqroq chiqarish va uni olib borish bank marketingiga chambarchas bog'liqdir. Bu masala ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zining birlamchi ko'rsatkichlaridan ekanligini namoyon qildi. Bank marketingi bu bozorda bo'layotgan jarayonlarni to'la hisobga olgan holda kompaniya va firma faoliyatini bajarish va tashkil etish tizimidir. Bank marketingi esa shu ma'lum bir regionda va regiondan tashqarida bank xizmatlariga bo'lgan talab va taklifni o'rganish, bank xizmatlariga bo'lgan talabni boshqarish va qondirish, turli banklar tomonidan amalga oshirilayotgan bir turdagi operatsiyalar harajatini taqqoslash, reklamani amalga oshirish tizimidir.

Bank marketingi birinchi navbatda bankning potentsial mijozlarini qidirib topishini bildiradi. Bank mijozni hamda o'zining iqtisodiy potentsialini birgalikda qo'shib o'rganadi. Bank xizmatini yangi turlariga bo'lgan talabni urganish hozirgi zamon banklarining eng dolzarb masalasidir. Oxirgi yillarda bank muamolasiga kiritilgan; Faktoring, lizing, ishonch (trast), vositachilik xizmatlari va ularga bo'lgan talabni urganib chiqish shular jumlasiga kiradi. Tijorat banklarinig maslaxat xizmati, qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalari ham bundan mustasno emasdir.

Bankning o'z marketing xizmatini olib borishi bir necha usullariga ega. Bo'larning eng birinchisi hamda oddiysi mijozlar bilan olib boriladigan bevosita olib boradigan mulokatidir. Mijozni ham bank ishchisini moddiy tomonidan ragbatlantirilishi bu vazifani xal qilishning asosiy mezonlaridan biridir.

Mijozlar bilan mulokat qilish uslubiga kura bank marketingi ikki turga, aktiv va passivga bulinadi.

Aktiv marketing o'z ichiga:

- to'g'ri marketing, telefon, pochta va televideniyaning o'z ichiga olgan marketingni;
- telemarketing, ya'ni yangi bulimdan kura iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan marketingni;
- konferentsiyalar utkazish orkali bank xizmatlarini reklama kiluvchi marketingni;
- axolining keng ommasini surokka to'tish orkali urganiladigan gap marketingni;
- bankda tashkil topadigan fokusguruxlarning tashkiliy diskussiya baxslashuv guruxlari marketingi;
- mijoz bilan bevosita mulokotda bo'lgan marketingni oladi.

O'z navbatida passiv marketing esa matbuotda bosib chiqarish yo'li bilan bank xizmatlarini reklama qilish usuliga bulinadi. Bank marketingining tashkiliy kimlari bo'lib:

- ✓ Axborotni tuplash (bozorni urganish uchun);
- ✓ Tovarni urganish va bahosini aniqlash (tovarbaho);
- ✓ Xizmatlarni junatishni (sotishni) tashkil etish kabilar hisoblanadi.

Har bir gurux savollarini o'ziga xos yo'nalishlari, muammolari va xususiyatlari mavjuddir.

Bank marketingini funktsiyalari qaysilar?

Ular bir nechtdir. Asosiylari quyidagilar:

bozorni umumlashgan holda urganish va istiqbolini belgilash, hamda unga bo'lgan talabni, bankga tashki muxitning ta'sirini urganishdan iboratdir.

- bankning ishlab chiqarish (iqtisodiy kredit) potentsialini, barcha qobiliyatini real baholash;
- uzoq muddatli marketing strategiyasini bozor talablarini hamda o'z potentsialini hisobga olgan holda rejalashtirish;
- talab asosida yangi xizmatlarni joriy qilish va ularni sotish;
- bankning marketing faoliyatini tashkil qilish va uning ustidan doimiy nazorat urnatishdir.

Yuqoridagi bayon qilingan barcha vazifalar hozirgi kunda respublikamizda mavjud bo'lgan barcha tijorat banklari uchun dolzarb, birlamchi, vazifalar bo'lib hisoblanadi.

Chunki turli turdagi (mulik shaklidagi va tarmoq banklarining) banklarni vujudga kelishi, ular orasida raqobatni kelitirib chiqarmokda.

Banklarimiz mijoz uchun kurash kunda, xattoki har dakikada olib borilmoqda.

Bu o'z navbatida banklarning bozor talabi asosida mijozlarga yangiyangi bank xizmatlarini kidirib topib, ularga taklif qilishni talab qilmoqda.

Shu munosabat bilan marketingmenejment, umuman bank sohasidagi boshqaruv va marketing texnologik jihatidan, kasbiy mutaxassislar bilan ta'minlash orkali, hamda boshqa jahon standartlari asosida taboro rivojlantirishga harakat qilmoqdalar.

Bank xizmatlarini o'rganishda bank marketingi muhim ahamiyat kasb etadi. Bank marketing sohalaridan biri hisoblanib, kredit resurslari bozorini o'rganish, mijozlarning moliyaviy holatini tahlil qilish va shunga asoslanib bankka mablag' quyilmalarini jalb etish, hamda bankning kelgusidagi xatti-harakatlarini prognoz qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Demak, bank marketingi - bu bankning strategiya va falsafasi bo'lib, unga obdon tayergarlik ko'rilishini, chuqur va har tomonlama tahlil qilinishini, hamda xamma bo'limlarning, ya'ni ular qaysi pog'onadaligidan qat'iy nazar, faol ishlashini talab etadi. Bank sohasidagi marketingning xususiyatlari, avvalambor, bank mahsulotining o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Bizdagi iqtisod bo'yicha adabiyotlarda va amaliyotda "bank mahsuloti" atamasi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida paydo bo'lib, bank tomonidan bajariladigan har qanday xizmat yoki operatsiyaning bildiradi.

Tovar va xizmatlarni sotish bozor sharoitida ishlayotgan har qanday korxonaning muhim vazifasi hisoblanadi, chunki busiz biznes muvaffaqiyatsizlikka uchrashi muqarrar. Bank ishi ham bundan mustasno emas. Shu sababli bank boshqarmasi siyosatining maqsadi va hamma bo'limlarining faoliyati mijozlarni jalb qilish, o'z xizmatlari sotiladigan sohalarini kengaytirish,

bozorni egallash va olinadigan foydani o'ltirishga qaratilgan. Bu bank marketingining muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi. Hozirgi paytda, bank xizmatlari bozoridagi raqobat keskin kuchayishi ta'sirida bank marketingining mazmuni va maqsadi sezilarli darajada o'zgarib bormoqda.

Hozirgi davrda bank bozorida raqobat shu qadar keskinlashdiki, omon qolish uchun banklar mahsulot va xizmatlarining to'la majmuini sotishga o'rganishlari zarur, ya'ni mijozga bir rastaning o'zida xizmat ko'rsatadigan o'ziga xos "bank univermagi" vujudga keltirishlari lozim. Bank operatsiyalarining diversifikatsiyasi shunga olib keldiki, G'arbda banklarni "moliyaviy univermag" deb atay boshladilar. Masalan, AQShda amerika banklarining shunday reklama e'lonlari paydo bo'ldi: "Sizning bankingiz - sizga zarur bo'lgan mahsulot va xizmatlarning to'la majmuiga ega bo'lgan moliyaviy tashkilotdir".

Bugungi kunda tijorat banki mijozlarga 200ga yaqin turli bank mahsulot va xizmatlarini taklif qilishga qodirdir. Operatsiyalarning keng diversifikatsiyasi banklarga o'z mijozlarini saqlab qolish bilan birga ularning sonini ko'paytirishga ham imkon bermoqda. Zamonaviy banklarning faoliyati doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. Bunday sharoitda bank marketingining muhim aspekti konkret bank mahsuloti va xizmatiga ta'rif berishdir.

Bank mahsuloti - bu konkret bank hujjati (yoki guvohnomasi) bo'lib, bank tomonidan mijozga xizmat ko'rsatish va operatsiyani o'tkazish uchun tuziladi. Bu veksel, chek, bank foizi, depozit, istagan sertifikat (investitsion) va h.k. bo'lishi mumkin. Bank xizmati - bu mijozga xizmat ko'rsatish bo'yicha amalga oshiriladigan bank operatsiyalaridir. Bank mahsuloti va bank xizmatining o'xshashlik tomoni shundaki, ular mijoz ehtiyojini qondirishga qaratilgan va foyda olish qobiliyatiga ega. Masalan, depozitlar bo'yicha to'lanadigan bank foizi bank mahsuloti bo'lib, uni doimiy ravishda to'lash esa bank xizmati hisoblanadi. Ikkala holda ham ular mijoz ehtiyojini qondirib, daromad olishga xizmat qilmoqdalar. Yana bir misolni ko'rib o'tamiz, bank hisobini ochish - bu mahsulot, mazkur hisob bo'yicha xizmat ko'rsatish bu xizmatdir. Lekin bu holda mahsulot ham, xizmat ham komissiya ko'rinishidagi daromad olishni ko'zda tutadi. Yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ko'pchilik hollarda bank mahsuloti birlamchi xarakterga ega bo'ladi, bank xizmati esa - ikkilamchi.

Bank mahsulotlari va xizmatlarining turlari juda ko'p bo'lib, ularning keng spektri AQSh, Evropa, Yaponiya va boshqa davlatlarning deyarli barcha banklari tomonidan taklif etiladi. Ushbu xizmatlarning ro'yxati tez sur'atlar bilan ortib bormoqda. Bu esa bankning marketing bo'yicha bajaradigan ishlari ahamiyatini keskin ortishiga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda har bir bank boshlig'i va mutaxassisi marketing bo'yicha ekspert bo'lishi lozim. Ular endi o'z e'tiborini maksimal darajada mijozlar ehtiyojini qondirishga qaratmoqdalar.

Madomiki, sotishga mo'ljallangan tovar va xizmatlar xaridorlar talabini qondirishi lozim ekan, unda marketingning asosiy printsiplari - iste'molchi talabani nazarda tutib ish ko'rishdir. Shu o'rinda, mavjud bo'lgan ushbu marketing kontseptsiyasini aytib o'tish joizdir, ya'ni ishlab chiqara olingan narsani odamlarga zo'rlab o'tkazishga harakat qilishning o'rniga sotib olinishi muqarrar bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish va sotish lozim.

Boshqa tomondan olib qaraganda, agar iste'molchilarga qanday yangi tovar va xizmatlar yoki mavjud tovar va xizmatlarning yangi sifatlarini istaysiz, deb savol berilsa, ularning ko'pchiligi aniq javob bera olmasligi turgan gap. Shu sababli bozorga yangi turdagi mahsulot yoki mahsulotning yangi sifati bilan chiqishni taklif etayotgan korxona o'z mahsulotini sotilishini ta'minlash uchun mazkur axborotni potentsial iste'molchilarga etkazishi kerak. Binobarin, bizning nuqtai nazarimizga asosan, marketingning yana bir printsiplari iste'molchi talabiga faol ta'sir etish, boshqacha qilib aytganda, iste'molchi talabini vujudga keltirishdir.

Avval aytib o'tilganidek, ishga marketing nuqtai nazaridan qarash, bankning, birinchi navbatda, o'z mahsulotini emas, balki mijozlarning haqiqiy talablarini ko'zlab ish ko'rishini taqozo etadi. Shuning uchun bozorni puxta o'rganish, bank xizmatlari iste'molchilarining o'zgarib borayotgan didlari va afzal ko'rishi mumkin bo'lgan tomonlarni tahlil qilishi lozim. Hozirgi kunda bank xodimi "bank univermagi"da bank mahsulotlari va xizmatlari sotuvchisiga aylanmoqda. Bu esa oxirgi 20-30 yil avvalgi holat bilan solishtirilganda eng muhim siljish hisoblanadi. Shu sababli u, har bir mijoz bilan bo'ladigan muloqot jarayonida, mijoz muhtojlik sezayotgan moliyaviy

xizmatlarning konkret shakllarini aniqlab, unga har bir bitimning zarurligi va foydasini tushuntirib berishga layoqatli bo'lish kerak.

Marketing falsafasi doirasida bank va mijozlar o'rtasidagi munosabat sifat jihatidan o'zgacha tus olmoqda. Agar, ilgari bank mablag' qo'yuvchi va qarz oluvchilarga bank mahsulotlarining standart to'plamini taklif etgan bo'lsa, endi mijozlarning muayyan guruhlari yirik firma, mayda korxona va jismoniy shaxslarning alohida kategoriyalariga mo'ljallangan xizmatlarning yangi turlarini doimiy ravishda ishlab chiqishga majburdir.

Hozirgi vaqtda bank ishining birdan-bir mezon - mijozlarning real talablari bo'lib bormoqda. Shunday qilib, agar biron-bir bank xizmatiga talab bo'lmasa, uni taklif qilish yoki iste'molchilarga zo'rlab o'tkazishning umuman keragi yo'q.

Hozirgi kunda bank amaliyotida O'zbekistonning tijorat banklari ko'p yillik obro'ga ega, chet el banklari qanday xizmatlarni amalga oshirayotgan bo'lsalar, xuddi shunday xizmatlarni taklif etmoqdalar. Lekin bizda g'arb amaliyotida o'zlashtirilgan xizmatlarning uchdan birinigina uchratish mumkin. O'zbekistonda chop etilayotgan gazetalarda moliyaviy tashkilot va banklarimizning pul qo'yish bo'yicha reklama takliflarini uchratish mumkin. Lekin bu takliflar bir-biridan faqat foiz stavkalari bilangina farq qiladilar. Shuning uchun bank operatsiyalarining asosiy turlarini ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir. Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bank marketingi bu mijozlarning real talablarini hisobga olgan holda, bankning o'z mahsulotlari uchun eng qulay bozorlarni axtarib topish va ulardan foydalanishni anglatadigan jarayondir. Uni amalga oshirish uchun bankning maqsadi aniq belgilangan bo'lishi, unga erishish uchun yo'l-yo'riqlar vujudga keltirilishi va rejalarini bajarish maqsadida raqobatbardosh chora-tadbirlar ishlab chiqilishi talab etiladi. Shunday qilib, bank marketingining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- mavjud resurslar yordamida ma'lum turdagi mahsulotning dinamikasi va o'tkazilayotgan boshqa tadbirlariga ta'sir etib, unga mohirlik bilan bo'lgan talab va taklif o'rtasida optimal mutanosiblikni ta'minlash;

- bank xizmatlari bozorining qatnashchilari o'rtasida shartnoma va bozor munosabatlari tizimini vujudga keltirish;

- bank mahsulotlarini yangilash, ularni takomillashtirish va sifatini yaxshilashni rag'batlantirish maqsadida bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatish;

- yangi bozorlarni faol izlash, mavjudlarini esa kengaytirish, bozor munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini optimal darajaga etkazish.

Sanoati taraqqiy topgan davlatlarda aholini bank operatsiyalari bilan qamrash darajasi nixoyatda yuqori. Chunki uy xo'jaliklarining 80% banklarning mijozlari hisoblanadi, ular joriy va jamg'arma hisoblar kredit kartalariga egadirlar. Bundan tashqari, banklar o'z mijozlari uchun yangi xizmat turlarini taklif etmoqdalar. Ma'lum bir operatsiyani amalga oshirish maqsadida bankka murojaat qilayotgan odamlar doimo shu operatsiyani to'ldiradigan yoki shunga o'xshash xizmatlarning xaridori sifatida maydonga chiqadilar.

Shunga asoslanib, bank marketingining asosiy maqsadi – bank xizmatlarining butun yo'li davomida (bankdan to pirovard iste'molchi, ya'ni mijozgacha bo'lgan yo'lda) optimal tezlikni ta'minlash, ya'ni shunday tezlikni ta'minlash kerakki, bunda sotishlar bilan pulning aylanishi mos kelsin, hamda moliyaviy resurslarni saqlash bilan bog'liq bo'lgan eng kam harajatlar mijozlar talabini to'la va o'z vaktida qondirish qobiliyatini ta'minlasin deyish mumkin.

Yuz berayotgan bunday o'zgarishlar tabiiydir, chunki bozor iqtisodiyoti davlatning yalpi pul aylanishini boshqarishning iqtisodiy usullarini, hamda kredit resurslaridan mohirlik bilan foydalanish usullarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Asta-sekin banklar ko'proq darajada bozor qonunlariga bo'ysunib boradilar. Banklar faoliyatining tijorat xarakteriga egaligi marketingdan keng miqyosda foydalanishni talab etadi. Bank sohasidagi marketingning o'ziga xosligi, faqatgina bank ishini tijoratlashga ko'maklashib va pul resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashdangina emas, balki pul aylanishining xususiyatlaridan ham kelib chiqadi. Bundan bank marketingi, birinchi navbatda, iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblarni takomillashtirish va tezlashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim, degan xulosa kelib chiqadi. Marketing bank mijozlarining hisob-kitoblarini tez va to'g'ri amalga oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini tahlil qilish va qondirishga

xizmat qilishi lozim. Bank marketingi bank mijozlarining xo'jalik faoliyati xarakterini maksimal darajada hisobga oluvchi, sheriklarning joylashgan eri xususiyatlari, ularning moliyaviy holati va pul oborotining tezligiga ta'sir etuvchi boshqa omillarni inobatga oluvchi hisob-kitoblarning yangi shakllari bilan bog'lanmoqda.

Bank marketing faoliyatining o'ziga xos xususiyati - doimo nazorat ostida bo'lishi lozim bo'lgan omillar keng gammasining mavjudligidir. Bunga makro- va mikrodarajalarda pul aylanishi va kredit munosabatlari, hamda turli ichki va tashqi holatlarga bog'liq bo'lgan pulli operatsiyalarni bajarishdagi ozmuncha tavakkalliklarning borligi kabilarni aytib o'tish lozim.

Hozirgi paytda, umuman, bank tizimi va mamlakatimizda marketing muammolariga bo'lgan e'tibor kuchaytirilganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Bu jarayonning asosida xalqaro iqtisodiyotga xos bo'lgan ikki tendentsiya, ya'ni bank institutlari, mahsulot va xizmatlarining baynalminallashuvi, hamda moliya bozorlarining qayta tartibga solinishi yotibdi.

Bundan tashqari, o'tgan 10 yillikda bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan davlatlarning bank tizimlarida va oxirgi vaqtda O'zbekistonda ham bank faoliyatini qiyinlashtirishga olib kelgan sezilarli o'zgarishlar yuz berdi, ya'ni:

1) banklar o'rtasida pul qo'yuvchilar uchun jalb etilgan resurslarni ko'proq o'ziga tortuvchi shartlar asosida joylashtirish uchun raqobatning kuchayishi bank faoliyati ko'rsatkichlarida o'z aksini topdi (o'sish sur'atlarining pasayishi, ba'zida bank foydasining kamayishi, aktivlarda shubhali qarzlarning o'sishi, ayrim banklarning tugatilishi);

2) bank bo'lmagan kredit-moliyaviy tashkilotlar, ya'ni turli sug'urta, moliyaviy, investitsion kompaniyalar, nafaqa fondlari tomonidan raqobat kuchaydi. Ushbu tashkilotlar mablag'larga ega bo'lib, ularni kredit resurslari bozorida taklif qilmokdalar. Bunday tashkilotlar bo'sh pul mablag'larni jalb qilishda (eng avvalo aholidan) banklar bilan jiddiy raqobat qilmoqdalar;

3) banklarga xos bo'lmagan aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish kabi pul mablag'larini o'zlashtirish usullari ko'proq o'rin egallamoqda;

4) 1995 yilning apreldan boshlab Markaziy Bank qimmatli qog'ozlarning yangi turlari - davlatning pul majburiyatlari, korxonalarning moliyaviy veksellaridan faol foydalana boshladi. Bunday vositalar kompaniyalarga eskidan odat bo'lib qolgan bank kreditiga murojaat pul mablag'larini bir-biridan olib o'zlashtirishga imkon bermoqda. To'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan xo'jalik aloqalarini rivojlanishi bank operatsiyalarini kamaytirishga olib kelishi lozim.

5) so'nggi 3 yil davomida qo'shma va chet el banklari tashkil etildi, bu esa O'zbekiston bozorida faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan bu banklar tomonidan raqobatni kuchayishiga olib keldi. Baynalminallashuv, hamma rivojlangan kredit tizimlarining xarakterli tomoniga aylanganligi sababli bunday jarayon bizning mamlakatimizda ham amalga oshmoqda. Bu esa mahalliy banklar uchun qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Vujudga kelgan bunday holat banklarning uzoq muddatli strategiya asosida o'z faoliyatlarini takomillashtirishga undaydi. Raqobatli kurashda omon qolish uchun banklar birinchi o'ringa aktsiya egalarining manfaatlarini qo'yishi, har bir mijoz uchun kurashishi kerak. Tijorat banklarining bozorda zamonaviy marketing nazariyasi va amaliyoti asosida ish ko'rishi ob'ektiv zaruratga aylanganligini shu bilan izohlash mumkin. Bugungi kunda marketing biznesning mavjud bo'lishi yoki inqirozga uchrashini hal qiladigan dolzarb masala hisoblanadi.

Shu bilan birga, bankirlarning o'zi uchun ham marketing asoslarini bilishi ob'ektiv zarurat hisoblanadi. Avvalambor, bankirning burchi o'z bankiga mijoz bo'lishi mumkin bo'lgan korxona va kompaniyalar bozorida amalga oshirilayotgan ishlarga baho bera olishdir. Korxonaning (mijozning) moliyaviy barqarorligi olib borilayotgan marketingga ko'p jihatdan bog'liqligi shubha tug'dirmaydi. Shu sababli, marketing darajasiga baho berish mijozning kredit salohiyatini tahlil qilishning tarkibiy elementlaridan biri hisoblanib, u bilan kredit munosabatlari o'rnatishning qanchalik xatarli ekanligini aniqlashga imkon beradi.

. Bank xizmatlari bozorida marketing strategiyasi

Bank marketingining asosiy masalasi (vazifasi) bozorni urganish va kuzatishdan iboratdir. Bu muammoni amalga oshirish esa uz navbatida, bozorni kuzatish maksadida axborotni tuplash; tovarni urganish va uni baxosini aniklash; sotishni amalga oshirishdan iboratdir.

«Tovar» xamda «tovar ishlab chikaruvchi» tushunchalari uzaro chambarchas boglikdir. Yaxshi tovar ishlab chikaruvchiga obru-e'tibor keltiradi. Ishlab chikaruvchining yorlig'i esa tovarning bozorda muvaffaqiyatli sotilishiga garov bulib xizmat kiladi. Bozor munosabatlari karar topayotgan paytda korxonaning « umri kanchalik uzun bulishi» va kelajakdagi muvaffakiyati uning tovar siyosati kanchalik samarali amalga oshirilayotganligiga boglikdir.

Tovar siyosatining asosi korxonaning boshkariladigan resurslari tashki bozorning boshkarib bulmaydigan yoki yaxshi boshkarilmaydigan shart-sharoitlariga moslashishidan iboratdir.

Bozor qaror topib borayotgan sharoitda korxonaning tovar siyosati kuyidagi asosiy unsurlarni uz ichiga oladi:

- tovarlarning rakobatbardoshligini ta'minlash;
- tovar bozorlarini kompleks taxlil kilish va prog-nozlash;
- talabni shakllantirish;
- sotishni ragbatlantirish;
- narx va investitsiya siyosati;
- servis va sotishdan keyingi xizmat.

Bulardan tashkari, tovar siyosati ikki jixatga ega bulib, ular korxonalarning marketing strategiyasida uzaro boglangan bulishi kerak. Bular: ishlab chikarish(kam chikim bilan eng yaxshi tovar ishlab chikarish) va tijorat jixati (tovarni yukori baxoda sotish tufayli uz imidjini yaxshilash).

Bozor munosabatlarining rivojlanishini ishlab chika-ruvchini uz tovarlarining bozordagi mavkeini muttasil nazorat kilib, ularning zarur darajada rakobat bardoshligini ta'-minlashga majbur kiladi. Birok rakobatbardoshlikni oshiradigan boshkaruv vositalari xususida ishlab chikilayotgan uslublar, tavsiyalar va yuriknomalar yagona metodologik bazaning yukligi tufayli bir-biriga mos kelmaydi va vaqt omilini xisobga olmaydi.

Shu sababli tovarlarning rakobatbardoshligini aniqlash soxasida korxona bozor sharoitida ishlaganida iste'molchilar bilan ishlab chikaruvchilarning manfaatlarini uygunlashtirish, boshlangich parametrlarning uzgaruvchan xarakteristikalarini aniklash va ana shu asosda tovarlarning rakobatbardoshligini taxmin kilish, boshlangich kursatkichlarning tabiatini va rakobatbardoshlik kursatkichini xisobga olib, taxminlarning aniklik darajasini oshirish vazifalarini xal kilishda tovarning rakobatbardoshligini xam iste'molchi, xam ishlab chikaruvchi nuktai nazaridan aniklash talab kilinadi.

Bundagi fark shundan iboratki, iste'molchi uchun tovarning iste'mol xossalaridan foydalanish samarasi uni sotib olish va ishlatishga kilingan xarajatlardan ortik bulmog'i kerak, ishlab chikaruvchi uchun esa olinadigan foyda texnologiya va tovar ishlab chikarishni tashkil etish bilan boglik xarajatlarni koplashi zarur.

Tovarning raqobatbardoshligini taxlil kilishning muxim boskichi baxolanishi kerak bulgan zarur va etarli parametrlar guruxlarni, shuningdek, xar bir gurux ichidagi aloxida kursatkichlarni belgilab olishdan iboratdir. Ushbu kursatkichlar ierarxiyasini joriy etib, iste'molchi uchun xammadan kura axamiyatlirok bulganlarini birinchi uringa chikarish xam muximdir. Xususan xozirgi bozor iktisodiyoti sharoitida uni aloxida-aloxida taxlil kilishda segmentatsiyalash, ya'ni bankning uz ustunligini aniklash uchun konkurent(rakobatbardosh) banklar imkoniyatlari bilan solishtirish, gurux iste'molchilarini aniklash, bankning kaysi xizmatlariga kizikish kupligini uning asosiy segmentlari orkali aniklash usullari katta axamiyatga egadir. Bozorni segmentatsiya kilish negizida bank xizmatlari (kredit, operatsion-amaliyot, investitsiya va boshkalar), va mijoz belgilari (yuridik, jismoniy shaxslar, korporatsiya, bank- korrespondentlar va davlat organlar)yotadi. Bank amaliyotida yana geografik, demografik, psixomadaniy va axlokiy segmentatsiyalarga bulinadi.

Bankni segmentatsiya kilishda uning xajmi, faoliyat turi, shularning soni, boshkaruvchining boshkarish darajasi, talab turi kabilarga e'tibor karatiladi.

Bankning geografik segmentatsiyalash bulib uni geografik muxitda joylashgan joyi, xolati, mamlakat iktisodiy muxitidagi va boshkaruv birligidagi urni(shaxar, mikrorayon va boshkalar) .

Bank eng birinchi navbatda yaqin bozorni urganadi. Geografik segmentatsiya asosan yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar bozorini urganishda ishlatiladi.

Demokratik segmentatsiya jismoniy shaxslar bozori bilan bevosita boglik. Bu segmentatsiya axolining ijtimoiy - kasbiy tabakalanishini(dexkon, ishchi, xizmatchi, boshkaruvchi, yukori esholon (vazifadagi) raxbarlar, xizmat kursatuvchilar), yosh buyicha, jinsiy tomonlarini, oilaviy xolat, oila xajmi, daromadi, bilim darajasi va boshka kursatkichlariga asoslanadi. Demokratik segmentatsiya kimmatbaxo kogozlar bozori rivoj-langan joylarda juda katta axamiyatga egadir. Chunki bu davlatlarda kimmatbaxo kogozlarni sotib oluvchilar asosan axoli xisoblanadi. Respublikamizda demokratik segmentatsiyalash xozirgi kunda endi-endi yulga kuyilmokda. Sababi shuki res-publikada kimmatbaxo kogozlar bozori endigina yulga kuyila boshlandi. Shu sababli bankning demografik (marketingi) segmentatsiyasi oldida juda ma'suliyatli ishlar va muammolar mavjuddir.

Psixomadaniy segmentatsiya- jismoniy shaxslarga kursatiladigan xizmatlarga nisbatan xisobga olinadi.

Bu axlok aloxida shaxslarning xususiyalariga va ijtimoiy xolatiga boglik. Bunda doimiy belgilar axolini ijtimoiy guruxlarini birlashtirishga olib keladi.

Axlokiy segmentatsiya - mijozning ma'lumoti, xabarlariga asosan urganiladi. Bularga mijozning bankdagi xisob rakami va operatsiyalari va boshkalar misol bula oladi. Urganib chikilgan axborotlar asosida tijorat banki uz strategiyasini ishlab chikadi. Bunga yangi ochilgan xizmatlarni eski mijozlarga sotish, eski xizmatlarni yangi mijozlarga sotish, eski xizmatlarni yangi bozorga sotish xamda yangi xizmatlarni yangi bozorlarda sotish va boshkalarga sotish kabilar kiradi. Bularning barchasi banklarning bozor sharoitida uz mavkeini saklab kolishlariga bevosita ta'sir kiladi. Bank marketingining ikkinchi kismi bu(tovar-baxo) sotiladigan xizmatlar xarakteri va uning baxosini urganishdan iboratdir. Rakobatbardoshlikni aniklashda foydalaniladigan boshlangich ma'lumotning tarkibi va mazmuni kup jixatdan kurib chikilayotgan tovarga boglik buladi xamda vakt utishi bilan ancha uzgaradi. Shu sababli, boshlang'ich parametrlarning uzgaruvchan xarakteristikalarini aniklash muxim boskich bulib, sungra ulardan rakobatbardoshlikni oldindan aniklash chogida foy-dalaniladi. Rakobatbardoshlikni xisoblab chikishda foydalani-ladigan parametrlarning kattagina kismi oldindan ma'lum bulmagan tasodifiy omillarga boglik buladi(masalan, bozor konyunkturasini kursatuvchi parametrlar). Shu sababli konkret tovarlarni realizatsiya kilish chogida bozor muxitining uzgarishini taxmin kilish uchun matematik statistika usullari asosida parametrlarning rakamda ifodalangan tasniflarining extimol tutilgan kiymatini aniklash maksadga muvofikdir.

Boshlang'ich parametrlarning extimollik xarak-teristikalarining xamda rakobatbardoshlik kursatkichidan foy-dalanish amalda bankning tovar va narx soxasida yuritadigan siyosatini ancha anik taxmin kilish imkonini beradi.

Bozor rivojlanib borgan sari korxonaning tashki muxitga qaramligi kuchayib borishi bozor konyunkturasining uzgarish konuniyatlarini urganishni xamda ishlab chikarishning tex-nikaviy-iktisodiy imkoniyatlarini bu konuniyatlar bilan muvofiklashni talab kiladi. Tovar sotish bozorlarini kompleks taxlil kilishning xam absolyut, xam nisbiy kursatkichlar tizimi buyicha taxlil kilish yullaridan (sifat va mikdor buyicha) tula foydalanishni nazarda tutuvchi usullarini ishlab chikish korxo-nani yangi xujalik shart-sharoitlariga moslashtirishning muxim unsuridir.

Bankning tovar siyosatini muvaffakiyatli olib borish uchun yangi yaratilayotgan « tovarlarning » (xizmatlarning) aloxida turlari buyicha xamda amalga oshirilayotgan tadbirlarning xammasi buyicha baxolash mezonlarini ishlab chikish zarur. Bozorning betartib rivojlanish sharoitida bank tomonidan yangi «tovar»ni shakllantirish kup mezonli murakkab jarayon bulib,kup sonli axborotni taxlil kilish, uni tashkil etish va samaradorlik taxlilining tegishli usullaridan foydalanishni talab kiladi. Karor kabul kilishning axborotga boglik jixatini ancha kengaytirish bankning xozirgi ijtimoiy-iktisodiy muxitga moslashuvini jadallashtirish imkonini beradi.

Bozorni shakllantirish sharoitida bank ishlab chikarayotgan xizmatlar assortimntining istikbolini taxlil kilish aloxida rol uynaydi. Bu taxlilda foydalaniladigan asosiy ma'lumotlar ruyxati bozor talablarini xamda banklarning imkoniyatlarini xisobga olgan xolda ishlab chikilishi kerak.

Tovarlar assortimentining istikbollilik shartlari kup mezonli bulishi va bank ularni turli vaziyatlariga boglik xolda uz ixtiyoriga kura tanlab olishimiz mumkin.

Tovarning rentabelligi uning istikbolga egaligini kursatuvchi mezon kilib olingan takdirda assortimenti shu kursatkichining mikdori kamayib borishi tartibida osongina joylashadi. Bordi-yu, tovarning istikbolliligini baxolashga bir nechta shart va mezonlar asos kilib olinsa, u kurib chikilayotgan talablarning xammasini va bu talablar bank faoliya-ting taxmin kilinayotgan natijalariga kursatadigan ta'siri-ning ustuvorligini xisobga olgan xolda baxolanishi kerak.

Banklarning ish tajribasini, ularning ixtisoslashuvini xisobga olib, ularning nomenklaturaviy shayligini va bozordagi vaziyat uzgarganida ixtisoslashishni kengaytira yoki uzgartira olishini belgilash va taxlil xam muximdir.

Bank-xujalik faoliyatining iktisodiy samaradorligi u amalga oshiradigan ishning turli jixatlarini kursatuvchi bir turkum baxolar bilan belgilanishi kerak va kuyidagi kursatkich-lar guruxidan foydalanish maksadga muvofik:

- Bankning ishlab chikarish tijorat faoliyati samaradorligini umumlashtiruvchi kursatkichlar;
- Resurslarning asosiy turlaridan foydalanish kursatkichlari;
- Tovar siyosatiga doir turli unsurlarning samaradorlik kursatkichlari.

Ana shu uzgarib boruvchi kursatkichlar guruxlari buyicha ma'lumotlarni taxlil etish banklar faoliyatining turli tomonlari kanchalik samaradorligini xam, ularning bozor sharoitlariga moslashish darajasini xam baxolash imkonini beradi.

Yangi vaziyatda banklarda ishlab chikarishni boshkarish funktsiyasi sifatida iktisodiy taxlil vazifalari xam, uzgarib boradiki, bunga bank raxbarlarining bankni boshkarishdagi imkoniyatlari kengayishi, binobarin, karorlar kabul kilish uchun zarur bulgan taxliliy axborotga extiyojning xam ortib borishi, umuman bozorning va xususan, muayyan xizmatlar bozorini rivojlanish jarayonlariga doir foydalanilayotgan axborotning tasodifiyligi sharoitida marketing strategiyasini ishlab chikish zarurligi, hamda vaziyatni taxlil kilish kabul kilinayotgan karorlarning okibatlarini, mamlakatdagi umumiy vaziyatlarning uzgarish istikbollarini taxlil kilishning roli oshishi; tanlab olingan boshkarish strategiyasini doimo taxlil kilib borish xamda aktsiyadorlar va investorlar uchun kurashda istikbollarini baxolash uchun yoki bankning iktisodiy reytingini aniklash munosabati bilan bank faoliyati natijalarini rakobatchilarni kursatkichlariga takkoslash zarurligi sabab bo'ladi.

Xalkaro andozalarga mos keluvchi banklar (XAB) tuzish dasturi ikki asosiy kismdan tashkil topish mumkin. XAB sifatida malaka berilgan banklar tomonidan rioya kilinishi kerak bulgan talablar majmui; shunday banklar uchun imtiyozlar majmui.

Xalkaro darajadagi bankga bulgan asosiy talablar ruyxatiga kuyidagilar kiradi:

- bank xisob-kitoblarini oshkora olish imkoniyatini ta'minlash;
- bankning ishlayotgan aktivlarini kiskartirish;
- bank zaxiralarni birinchi navbatda uzok muddatli davlat kimmatbaxo kogoslarini sotib olish yuli bilan shakllantirish va bu zaxiralarni ishlaydigan aktivlarga aylantirish;
- bank turi, kuyilmalar summasi, omonatchilar toifasiga karab zaxiralash me'yorini diferentsiatsiyalash; kuyilma koldiklari uzgarishlarini anikrok ilgash imkonini beradigan zaxira xisob rakamlarini tez-tez tartibga solib turish;
- kredit xavf- xatarini tugri baxolash layokati;
- mablaglarni korxonalar aktsiyalariga joylashtirishda banklar uchun ragbatlar tizimini ishlab chikish va kreditlar berish;
- bank xizmat kursatishida «zichlik me'yorini»ni jaxon andozalari darajasida ta'minlash;
- bank sarmoyasini yukotish xavf xatarsiz mijozlar mablaglari xisobidan portfelli investitsiyalarni keng tarkatish;
- banklarning bozor axloki taktikasida urinlarning kuprogini ishonchli moliya vositalaridan foydalanishga berilishi;
- chet elda shaxobcha tarmogining mavjudligi;
- bank axborotining va shaxobcha tarmogini boshkarishni tizimlili;

- bankda tashki xavf xatardan ximoya kilishning kushimcha mexanizmlari ishlab chikilmogi lozim. Bunda bugungi kunda asosiy e'tibor mijoz bilan ishlashga ya'ni bank daromadining etakchi manbai-bank komissiyasiga karatilishini nazarda tutish zarur buladi;

- asosiy diqqat e'tibor xizmat sifatini oshirishga, bank maxsulotlarning turli-tumanlilikiga(kredit kartochkalari, sugurta, faktoring, moliya zaxiralarini joylashtirishda maslaxatlar berish va xokazo) xamda xalol reklamaga karatilishi kerak;

- banklar uzlarining katta-kichikligi, joylashgan urni xodimlarning malakasi, mijozlarning tarkibi va boshkalarga karab operatsiyalarni bajarishga ixtisoslashishlari, kiska muddatli kreditlash va investitsiyalash bilan shugullanishlari, kliring markazi bulishi kerak;

- bankning axborot tizimlari asosiga xisob rakamlarini tez moslashuvchan rejasi, xujjatli interfeys kuyilgan bulishi lozim.

Tijorat banklarida ishlab chikariladigan maxsulot uzida bank operatsiyalarini, bank xizmatlarini va bank ishlarini aks ettiradi. Jadvalda operatsiyalar utkazganda paydo buladigan xavf-xatar nuqtai nazaridan bank maxsulotlari xilma-xilligi kursatilgan.

Bank maxsulotlarini sotishdagi strategik yunalish, bank tarakkiyotining muxim muammosi bulib xisoblanadi. Umumiy ma'noda ularni funktsional-ob'ekt yunalishli, asosiy maksadi bir gurux bank maxsulotlarini sotish yuli bilan yoki mijozlar ma'lum guruxining aloxida bank maxsulotlariga bulgan extiyojlarini kondirish yuli bilan daromad olishdan iborat banklarga ajratish mumkin. Bu tizimda xisob rakamlar rejasining uzgarishiga moslanish imkoniyatini, xisob va shaxsiy rakamlarning uzgaruvchan tuzilmasini, mijozlarning istalgan soni bilan ishlashni, komission yigimlarni kushib yozib kuyishning turli usullarini, rivojlangan tizimlarda tuzilmali cheklashlarning oldini ta'minlash kerak.

Kupchilik muammolar boshkaruv sifatiga, bank marketingiga tashkilot tuzilmasiga, moliyaviy oqimlarga, xisob-kitobga, iqtisodiy taxlilga, biznes-rejalashtirishga, shuningdek, xodimlar malakasiga chambarchas bog`lik bo`ladi.

Tayanch iboralar:

Bank, menejment, xizmat, segment, bozor, moliya bozori, tovarlar va xizmatlar, bank xizmatlari, bank tovari, bank bozorini segmentlash.

Nazorat savollari:

1. Bank menejmenti va uning belgilari.
2. «Bank» tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati.
3. Banklar xo'jalik yurituvchi korxona sifatida.
4. Bank aktsioner tashkiloti sifatida.
5. O'zbekiston tijorat banklarida menejmentni rivojlantirish.
6. Bank tizimi.Bank turlari.
7. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi xolati va rivojlanish istiqbollari.
8. Bank xizmatlari bozori va ularni segmentlash.
9. Moliya bozori tovarlari va ularni o'ziga xos xususiyatlari.
10. Banklarning operatsiyalari va ularning tuzilishi.
11. Bank faoliyatiga beriladigan litsenziyalar.

2-BOB. BANK FAOLIYATINI TASHKIL QILISH VA YANGI BANKLARNING TASHKILY TUZILISHI

1. Banklarning tashkiliy tuzilishi
2. Bank tashkiliy tuzilishi variantlari
3. Banklarni tashkil qilish shartlari

Tijorat banki (xususiylashtirilgan yoki yakinda tashkil etilgan) o'zining asosiy vazifalarini rivojlanayotgan muxitning beqarorligini hisobga olgan holda belgilashi kerak. Bunda ustivor yo'nalishlar qilib, quyidagilar olinadi:

1. Bankning mijozlar bilan mavjud bo'lgan alokalari va bu mijozlarga xizmat ko'rsatish tajribasi.

2. Bevosita geografik muxitning iqtisodiy tuzilmasi.

3. Mavjud bank raqobati (raqobatli muxitda xizmat ko'rsatilgan sohalar va tarmoqlarni belgilash).

4. Bank xususiy sarmoyasi, depozitlarining xajmi va tuzilishi.

5. Iqtisodiyotning turli sohalrida yuzaga kelishi muxim bo'lgan daromadlilik.

6. Bank xodimlarining boshqaruvchilik va texnik omilkorligi.

Bank geografik bozorlari ob'ektlarini belgilovchi omillar:

1. Bevosita tijorat, moliya va sanoat muxitini mikyosi va tuzilishi.

2. Mintakaviy va milliy joylashishidan kelib chiqib boshqarish maqsadlari (bozoni geografik jihatdan bo'lib olish maqsadlari).

3. Geografik printsiplarga rioya qilishga extiyoj va xoxish hamda extimoldagi mijozlarni ko'paytirishga intilish.

4. Xodimlarning omilkorligi bilan bog'liq cheklovlar.

Har qanday menejmentning tadbirkorlik xususiyati va mulkchilik turidan qat'iy nazar eng muhim ikki vazifasi mavjud:

- a) mukammal va samarador tashkiliy tuzilmani tashkil etish va undan foydalanish;

- b) qaror qabul qilish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ichki nazorat tizimini yaratish.

Yangi iqtisodiy va tadbirkorlik muxitida muvaffakiyatli faoliyat ko'rsatish uchun menejment mehnat resurslarini boshqarish bo'yicha departament tashkil etishga munosib e'tibor berishi zarur.

Departament muntazam ravishda ahvol tahlilini taqdim etishi hamda xodimlar ahvolini va ishlar ijrosini samaradorligini qayd etib borishi, ragbatlantirishning moliyaviy va nomoliyaviy tizimini yaratish hamda xodimlarning xizmat lavozimlarida kutarilishiga yordam berishi zarur.

Shu ma'noda o'rta bugin xodimlarining texnik ko'nikmalarini takomillashtirish bo'yicha majburiy tarzda muntazam kurslarni, menejmentning o'rta va yuqori darajasi uchun seminarlar va konferentsiyalarni o'z ichiga oluvchi dasturlarni rejalashtirish bankning samarali faoliyati uchun zarur hisoblanadi. Yirik banklarda bu departamentning ahamiyatini hisobga olgan holda uning menejeri bank boshqaruvchilari kengashining tula huquqli a'zosi hisoblanadi.

Har qanday tadbirkorlikda bo'lgani kabi tijorat banklari operatsiyalarining uzoq muddatli smaradorligi va foydaliligi kelgusi faoliyatni rasmiy rejalashtirishga doim va davomiy e'tibor berishni talab etadi. Belgilangan rejalarni vaqti vaqti bilan muntazam sharxlash hamda o'zgartirish asosiy elementlardan hisoblandi.

Bank rahbariyati yuqorida aytilganlarga kushimcha sifatida foydalilikni oshirishni hamda tulov balansini yaxshilashni, sarmoya va mijozlarni tanlash mosligini aniq maqsad qilib olishi zarur.

Bu maqsadlar tavakkalchilikni ehtimol moyilligini hisobga olishi lozim.

Maqsadlarni belgilash, ularni amalga oshirishning borishini doimiy baholash menejmentning muxim vazifalaridan hisoblanadi. Rahbarlar bank ishining tashkil etish xolati haqida yaxshi xabardor bo'lganida tavakkalchilik darajasi uning barcha shakllarida eng past darajaga etadi.

Bankning tashkiliy darajasini barpo etish quyidagicha bulishi kerak:

- a) zamonaviy bulishi;

- b) bank faoliyatini barcha sohalarini aks ettirishi;

xodimlarga bank pogonalaridan o'z urnini aniqlashda yordam berish;
asosiy nazorat vazifalarini amalga oshirishda o'zaro bog'liqlik va barcha bulinmalarning hisobdorligini belgilashda yordam berish.

Bankning ishi tashkil etilishini ko'rsatuvchi tashkiliy diagrammalar har bir xodim o'zini bank tuzilmasining ajralmas qismi sifatida xis etishi bank pogonalaridagi o'z urnini anglashi uchun xodimlar o'rtasida tarkatilishi lozim.


Diagrammalar bank faoliyatini tahlil qilishda ham keng kullaniladi. harb mamlaktlarida, masalan, bank taftishchilari birinchi navbatda tashkiliy diagrammasini nusxasini talab qiladilar.

Diagramma tuzishdan maqsad bankning tashkiliy va pogona tuzilmasini tasvirlash hisoblanadi. Bunda tashkil etish falsafasi va maqsadi o'z aksini topadi.

Banklar tashkiliy tuzilishiga kura piramida shaklida, geografik shaklda va funktsional shaklda tuzilishi mumkin.

- harbiy va sobik milliy hamdo'stlikk malakatlarining aksariyat yangi banklari boshqaruvining odatdagi tuzilmasi ikkita aloxida kengashidan iborat;

- aktsiyadorlarning vakili bo'lgan hamda bankning strategiyasi va siyosatini yaxshilash uchun ma'sul supervayzerlar kengashi hamda rais (prezident) boshchiligidagi yuqori bugim menejerlardan iborat va bank faoliyatini kundaolik boshqaruvi uchun javobgar boshqaruvchilar kengashi.



2-rasm. Bankning piramida shaklida tuzilishi.

Kredit tavakkalchiligini eng past darajaga etkazish uchun kredit siyosatini rejalashtirishni qarz berish bo'yicha jroi faoliyatdan kat'iy tarzda ajratib olish zarur.

Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek jahon moliyaviy-iqtisodiy inkirozining kelib chiqish sabablaridan biri ham chet el banklarining kreditlash jarayonida yo'l qo'ygan xatoliklaridir.

«Avvalo, jahon moliyaviy inqirozi haqida. Bu inqiroz Amerika qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning etakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bo'larning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan boqliq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi»³.

Kredit siyosati departamenti bankda eng muxim o'rinlardan birini egallaydi, uning uchun uning rahbari boshqaruvchilar kengashining a'zosi bulishi lozim.

³ I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iktisodiy inkirozi.O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yullari va choralari.»O'zbekiston .T.2009.y.

Sobik milliy hamdo'stlikning ko'pgina mamlakatlarida hisobga olish shu qadar muxim ahamiyatga egaki, ko'pincha bosh buxgalterlar boshqaruvchilar kengashining a'zosi hisoblanadi. Tavakkalchilikni boshqarish hamda davlat xazinasini va rejalashtirish kabi sohalarida qaror qabul qilish jarayonining o'zgarishi bilan o'z ichiga buxgalterlik hisobini oluvchi «moliyaviy menejment» uchun mas'ul bo'lgan maxsus bulimlar tashkil etila boshladi.

Foydalilik, ushish va raqobat masalalari bilan bir qatorda yuqori e'tibor berish zarur bo'lgan bank xodimlari bank faoliyatining muxim tarkibiy kimslaridan hisoblanadi. Bankning yakuniy muvaffaqiyati xodimlarning fazilatlarini, kunkmalari va shakllanishiga bog'liqligi sababli mehnat resurslari departamentining menejeri boshqaruvchilar kengashining a'zosi bulishi lozim.

Qaror qabul qilish jarayonida tavakkalchilik omili kulami, xato va yanglishishlar bulishi extimoli bevosita kommunikatsiya samaradorligi bilan bog'liqdir.

Tavakkalchilikni boshqarish har departament va bulim faoliyati bo'yicha maxsus qo'llanmalar yaratishni o'z ichiga oladi.

Operatsiyalarga doir kullanma tarkibiy birliklar maqsadlari va vazfalari, xodimlarning mas'uliyati va vakolatlarini, ularning hisobdorlik zanjirini va qaror qabul qilish jarayonini battafsil ifodalaydi.


Bunday kullanmalarni boshqaruvchilar kengashi a'zolari rahbarligi ostida departament boshqaruvchilari ishlab chiqishi mumkin. Ular vaqtivaqti bilan yangilanib turishi va, zarur bulsa departamentlar yoki bulimlar o'rtasida tarkatilis.

Kullanma bank ichki nazorati vositasi hisoblanadi, uning vositasida va rahbariyat bank operatsiyalarini nazorat qiladi hamda tadbirlar va siyosat tavsifini ta'minlaydi. Samarali ichki nazorat supervayzerlar kengashi va boshqaruvchilar kengashi tegishli siyosat haqida qaror qabul kilgan paytdan boshlanadi. U bu siyosat va tegishli tadbirlarining ijrosi ustidan nazorat qilishni ko'zda tutadi.

Ichki auditor ichki nazorat qismi sifatida amalga oshirilayotgan faoliyatni baholash tadbirini utkazish tarkibiga, xususan, uning «bir xilligi, samaradorligi va unumdorligi» nukta'i nazaridan kiritiladi. Bunda auditorlar va yuqori turuvchi menejerlar, shuningdek boshqa xodimlar o'rtasidagi samarali bank ichki kommunikatsiyalari samarador tadbirlar va qat'iy ifodalangan siyosatning etarlicha mos emasligida tavakkalchilikni eng past darajaga etkazish uchun zarurdir. Samarali nazorat ichki nazoratchilar o'rtasida bank tarkibidagi puxta kommunikatsiyalar bulishini talab etadi.

Boshqaruvchilar kengashining huquq va majburiyatlarini belgilash super vayzerlar vakolati hisoblanadi. Shu bilan birga, yuqori va o'rta bugin menejerlarining huquq va majburiyatlarini boshqaruvchilar kengashi kullanma va ko'rsatmalar vositasida belgilaydilar. Noto'g'ri talkin etilishining oldini olish uchun bu kullanma va ko'rsatmalar tushunarli va batafsil aniqlikda bulishi zarur.

Huquq va majburiyatlarining o'zaro nisbati qanday aniqlanadi? Har qanday xokimiyat mas'uliyatni talab etadi. Masalan, agar bulim rahbari mazkur bulimga xodimlar qabul qilish vakolatiga ega bulsa, u ishning sifati uchun ham mas'ul bo'ladi.



3-rasm. Bank xoldingi.

Tijorat banklari depozitlarning aksiyadorlik sarmoyasiga 12:1 va undan yuqori nisbat sharoitida faoliyat ko'rsatadi. Avval boshdan jalb etilgan resurslar bilan faoliyat ko'rsatib kelgan banklar rahbarlari bu ish xususiy resurslardan foydalanishdagiga karaganda boshqacha tavakkalchiliklar bilan bog'liqligini hisobga olishlari zarur. Qarz berishda bank tavakkalchilikni o'z zimmasiga olishi ahamiyatli bir xolat. Tavakkalchilikni zimmasiga olish o'ziga xos faoliyatni tanlashdan kurilgan yutuk bilan o'zini oklaydi. Rahbarlar eng makbul qaror qabul qilish maqsadida tavakkalchilikning xususiyatiga baho berish va sifatli tahlil qilish layokatiga ega bulishi zarur. Hozirgi fanda tavakkalchilikni miqdor va sifat jihatidan aniqlash statistikada, ayniqsa, extimollik nazariyasida etarli darajada ishlab chiqilgan. Moliya va bank sohasida bu nazariyadan strategik rejalashtirish va taxminlashda foydalaniladi.

Taraqqiy etgan mamlkatalarning aksariyat qismida banklarning ko'pchiligi aksionerlik jamiyati sifatida tashkil etiladi. Aksionerlik jamiyati faqatgina bank soxasida emaas, balki tadbirkorlikning boshqa soxalarida ham mavjud. qishloq xo'jaligida esa yakka tartibdagi tadbirkorlik keng rivojlangan. Aksionerlik jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari va boshqa tadbirkorlik shakllarida farqi qo'yidagicha izohlanadi.

- yakka tartibdagi tadbirkorlik va boshqa o'rtoqliklarni tashkil etishda qandaydir rasmiyatchiliklar amalga oshirilishi talab etilmaydi. Ta'sisichilar operatsiyalarni xech qanday sanktsiyalarsiz amalga oshirishi mumkin. Kapitallarni o'zlari yoki kimlardandir olishi mumkin. Aksioner jamiyatlarida esa maxalliy xokimmiyat organlaridan ruxsat olishlari shart. Kompaniyaning tashkil etilishi to'g'risida ruxsatnomani taqdim etishlari shart.

- mulkchilik bo'yicha yakka tartibdagi tadbirkor barcha javobgarlikni o'ziga oladi va faoliyati bo'yicha majburiyatlari uchun javob beradi. Aksioner jamiyatda mulkchilik xuquqi aksiyalar bo'yicha taqsimlangan. Kapital jalb qilib aksioner jamiyat qarz majburiyatlari.

- obligatsiyalar chiqarish mumkin. Aksioner jamiyatda bo'yicha javobgarlik sotib olingan aksiyalar bo'yicha chegaralanadi.

Rossiya bank tizimi 18-19 asrlarda Xazina banklarining vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan. Mazkur banklarning asosiy maqsadi Rossiya pomehchiklari sinfining pul jamg'armalariga ko'maklashishga qaratilgan edi. Iqtisodning rivojlanib borishi natijasida aksioner va tijorat banklarining roli kuchayib bordi. 1914 yilda ularning soni 50 tadan ortdi xamda filiallar soni 778 tani tashkil etdi. Rossiyada ilk bor tashkil etilgan aksioner tijorat banki Peterburg xususiy bankidir (1864) va uning ustav fondi 5 mln.rubl miqdorida aniqlandi.

Oktyabr revolyutsiyasiga qadar Rossiyada ikki pog'onali kredit tizimi mavjud edi.

1. Bank tizimi (Markaziy Bank, tijorat banklari va ipoteka banklari).

2. Ixtisoslashtirilgan nobank institutlari (Sug'urta kompaniyalari. Kredit urtoqlik jamiyatlari va boshqa bir qator institutlari).

Revolutsiyadan so'ng ya'ni 1918 yildan boshlab ko'rsatib o'tilgan muassasalar milliyalashtirildi: (natsionalizatsiya).

30-yillarda kredit tizimini qayta tashkil etilishi natijasida banklarni yiriklashtirish va markazlashtirish yuz berdi. Natijada faqat Davlat banki (Gosbank), Sroymbank, Vneshtorbank va sberkassalar faoliyat ko'rsata boshladi. Buning kelib chiqishini asosiy sababi davlat tomonidan xalq xo'jaligini industrialashtirish va kollektivlashtirish ya'ni aniqroq, qilib aytganda planli xo'jalik siyosatini olib borilishi edi. Rossiyada keyingi paytda banklar soni keskin darajada ortib ketdi.

Banklar faoliyatini litsenziyalash tartibi xar bir davlatda ba'zi xususiyatlarga ko'ra bir biridan farq qiladi.

Mazkur jarayonni ba'zi rivojlangan davlatlar misolida ko'rib chiqamiz.

Italiyada 80 yillarga qadar qattiq litsenziyalash chegaralari mavjud bo'lgan bo'lsa, bu tartib 80-yillardan so'ng bir muncha engillashtirildi.

Ushbu mamlakatda hozirgi paytda litsenziyalashning qo'yidagi talablari mavjud:

- a) eng kam miqdordagi dastlabki bank sarmoyasi 8 mln.dollar.
- b) bank ma'muriyati kompetentligining etarli darajasi.
- c) bank ta'sischilari tomonidan bankning strategik rivojlanishi to'g'risida to'liq ma'lumot berish.
- d) shuningdek bank aksionerlarga ham talablar o'rnatilgan.

Jumladan: bankni oqilona va barqaror boshqarishni ta'minlash.

Bank mablag'larini uning aksionerlari-nomoliyaviy kompaniyalar tomonidan ishlatilishi oqibatida bank omonatchilari va bankning o'ziga zarar keltirilishini oldini olish maqsadida bank operatsiyalari bilan nobank operatsiyalari o'rtasida aniq chegaralar o'rnatish.

Italiya bank qonunchiligiga asosan bank kapitalida 5 foizdan ziyod ulushga ega bo'lgan mijozlarga bankni boshqarish xuquqini olishga ruxsat beriladi. Nobank va nomoliyaviy muassasalarning bank kapitalidagi ulushi 15 foizdan oshishi taqiqlanadi.

Bugungi kunda yangi bank filiallarini ochishda Italiya bankidan dastlabki majburiy ruxsatnomani olish talab etilmaydi. Biroq nazorat organlari agar bankda moliyaviy yoki boshqaruv ahvoli to'g'ri kelmasa bank filiallarini kengaytirish bo'yicha chegaralar qo'yishi mumkin.

Oddiy aktsiya emissiyasi hisobiga bank kapitali miqdorini oshirish uchun Italiya Bankidan maxsus ruxsatnoma talab etiladi. Bunda bankning taqsimlanmagan foyda miqdorini kamaytirmagan xolda yangi aktsiyalar bo'yicha dividendlarni to'lay olish qobiliyati e'tiborga olinadi.

Buyuk Britaniyada uzoq, vaqt mobaynida va 70 yillarning oxirigacha yangi banklarni ochishda ruyxatdan o'tkazish sistemasi amal qilib keldi. Bank ochish uchun maxsus litsenziya talab etilmas edi.

Mazkur mamlakatda banklarni tashkil etish va ularni faoliyatini tartibga solish «Kompaniyalar to'g'risida»ga (1948y) qonun asosida amalga oshirilgan. 1978 yildan boshlab esa banklarni ayrim operatsiyalari faqat Angliya Banki ruxsati bilan qilingan. Hozirgi paytda Angliya banklaridan litsenziya talab etilmaydi. Lekin ular Angliya banki tomonidan o'rnatilgan talablarga javob bermog'i lozim. Bu talablar quyidagilardan iborat:

- a) Ustav sarmoyasi miqdori 5 mln.funt sterlingdan kam bo'lmasligi kerak.
- b) Etarli diapazondagi bank xizmatlarini ko'rsatish.
- c) Bank raxbariyatining ishbilarmonlik nufuziga egaligi.

Yuqoridagi talablar asosida litsenziyalanadigan banklar toifasiga yirik Liring banklari. Savdo banklar va Xisob uylari, shuningdek chet el banklarining filiallari kiradi.

Boshqa toifadagi kredit institutlari bank xizmati ko'rsatish uchun angliya Bankidan maxsus ruxsatnoma olishlari shart. Yangidan ochilayotgan banklarga litsenziya berishdi Angliya banki tomonidan ularga qo'yilgan talablar sinchkovlik bilan o'rganib chiqilgandan so'ng beriladi. Bunda bank sarmoyasining miqdori (1 mln.f.s.), likvidlik darajasi, biznes rejaning xaqqoniyligi, hisob va nazorat sistemasi, zararni qoplash uchun shakllantirilgan mablag'larining etarililigiga, bank

raxbariyatining kompetentligi, samaradorlik printsiplariga amal qilinishi kabilar taxlil qilib chiqiladi.

Yaponiyada har qanday bank moliya vazirligi tomonidan beriladigan maxsus litsenziyasiz bank operatsiyalarini amalga oshira olmaydi. Litsenziyani olish uchun bank tasischilari qo'yilgan barcha talablarni bajarmoqlari lozim. Banklar faqat aktsionerlik jamiyatlari shaklida tashkil etilib, ularning kapitali 1 mlrd. yevradan kam bo'lmashiga kerak. Bank filiallarini ochish uchun xam Moliya Vazirligidan ruxsatnoma talab qilinadi.

Litsenziya olishda bank muassasalari bank ochish to'g'risidagi ariza bilan birga qo'yidagilarni taqdim etadi:

1. Bank muassasasini zarurligini to'liq asoslab berish.
2. Ta'sis yig'ilishini bayoni.
3. Yaqin 3 yil mobaynida olinadigan foydaning istiqboli.
4. Direktorlar Kengashi a'zolari va auditorlarning tarjimai xoli.
5. Bankning yirik aktsionerlari ruyxati.
6. Bankning balansi.
7. Bankning barcha filiallari ruyxati.

Rossiyada litsenziya olish maqsadida talabnoma bergan kredit muassasasi qo'yidagi talablarga javob bermog'i lozim:

1. Ustav sarmoyasining eng kam miqdori.
2. Dastlabki investitsion sarmoya manbaalari.
3. Asosiy aktsionerlarning tarkibi.

Tijorat banki o'zining asosiy vazifalarini rivojlanayotgan muxitning barqarorligini hisobga olgan xolda belgilashi kerak. Bunda ustivor yo'nalishlar qilib qo'yidagilar olinadi:

1. Bankning mijozlar bilan mavjud bo'lgan aloqalari va bu mijozlarga xizmat ko'rsatish tajribasi.
2. Bevosita geografik muxitning iqtisodiy tuzilmasi.
3. Mavjud bank raqobati.
4. Bank xususiy sarmoyasi, depozitlarning xajmi va tuzilishi.
5. Iqtisodiyotning turli soxalarida yuzaga kelishi muhim bo'lgan daromadlilik.
6. Bank xodimlarining boshqaruvchilik va texnik omilkorligi.

Bank geografik bozorlari ob'ektlarini belgilovchi omillar:

1. Bevosita tijorat, moliya va sanoat muxitni miqyosi va tuzilishi.
2. Mintaqaviy va milliy joylashishidan kelib chiqib boshqarish maqsadlari.
3. Geografik printsiplarga rioya qilishga extiyoj va xoxish xamda extimoldagi mijozlarni ko'paytirishga intilish.
4. Xodimlarning omilkorligi bilan bog'liq cheklovlar.

Xar qanday menejmentning tadbirkorlik xususiyati va mulkchilik turidan qat'iy nazar eng muhim ikki vazifasi mavjud:

A) mukammal va samarador tashkiliy tuzilmani tashkil etish va undan foydalanish;

B) qaror qabul qilish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ichki nazorat tizimini yaratish.

Yangi iqtisodiy va tadbirkorlik muxitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun menejment mehnat resurslarini boshqarish bo'yicha departament tashkil etishga munosib e'tibor berishi zarur.

Departament muntazam ravishda axvol taxlilini taqdim etishi xamda xodimlar ahvolini va ishlar ijrosini samaradorligini qayd etib borishi, rag'batlantirishning moliyaviy va nomoliyaviy tizimini yaratish xamda xodimlarning xizmat lavozimlarida ko'tarilishiga yordam berishi zarur.

Shu ma'noda o'rta bo'g'in xodimlarining texnik ko'nikmalarini takomillashtirish bo'yicha majburiy tarzda muntazam kurslarni, menejmentning o'rta va yuqori darajasi uchun seminarlar va konferentsiyalarni o'z ichiga oluvchi dasturlarni rejalashtirish bankning samarali faoliyati uchun zarur xisoblanadi. Yirik banklarda bu departamentning axamiyatini xisobga olgan xolda uning menejeri bank boshqaruvchilari kengashining to'la xuquqli a'zosi xisoblanadi.

Har qanday tadbirkorlikda bo'lgani kabi tijorat banklari operatsiyalarining uzoq muddatli samaradorligi va foydaliligi kelgusi faoliyatni rasmiy rejalashtirishga doim va davomiy e'tibor berishni talab etadi. Belgilangan rejalarni vaqti-vaqti bilan muntazam, sharxlash xamda o'zgartirish asosiy elementlardan xisoblanadi.

Bank raxbariyati yuqorida aytilganlarga qo'shimcha sifatida foydalilikni oshirishni hamda to'lov balansini yaxshilashni, sarmoya va mijozlarni tanlash mosligini aniq maqsad qilib olishi zarur.

Bu maqsadlar tavakkalchiligini extimol moyilligini hisobga olishi lozim.

Maqsadlarni belgilash, ularni amalga ohirishning borishini doimiy baxolash menejmentning muxim vazifalaridan hisoblanadi. Raxbarlar bank ishining tashkil etish xolati xaqida yaxshi xabardor bo'lganida tavakkalchilik darajasi uning barcha shakllarida eng past darajaga etadi.

Bankning tashkiliy darajasini barpo etish qo'yidagicha bo'lishi kerak:

- zamonaviy bo'lishi;
- bank faoliyatini barcha soxalarini aks ettirishi;
- xodimlarga bank pog'onalaridan o'z o'rnini aniqlashda yordam berish;
- asosiy nazorat vazifalarini amalga oshirishda o'zaro bog'liklik va barcha bo'linmalarning xisobdorligini belgilashda yordam berish.

Bankning tashkiliy tarkibini tuzish uning faoliyati va maqsadlarini bilishni aks ettiradi.

Bankning ishi tashkil etilishini ko'rsatuvchi tashkiliy diagrammalar xar bir xodim o'zini bank tuzilmasining ajralmas qismi sifatida xis etishi bank pog'onalaridagi o'z o'rnini anglashi uchun xodimlar o'rtasida tarqatilishi lozim.

Tayanch iboralar:

Bank, boshqaruv, tuzilma, tashkiliy tuzilish, tarkib, bank bo'limlari, vazifa, ?u?u?, majburiyat, litsenziya, risk.

Nazorat savollari:

1. Bank tuzilishi va bulimlari.
2. Bank tarkibi va ularga tavsif.
3. Banklarga litsenziya berish tartibi
4. Bankning operatsiyalari.
5. Tijorat bank va Markaziy bank orasidagi munosabat.
6. Na?d pul muomalasini tashkil etish xususiyatlari.
7. To'lov tizimini tashkil etish xususiyatlari.
8. Banklararo korrespondent munosabatlar tizimi.
9. O'zbekiston bank tizimi.

3-BOB. BANKLARNING MOLIYAVIY HISOBOTLARI

1. Banklarni miqdoriy va sifat tahlili
2. Balans, daromadlar va harajatlari
3. Bank operatsiyalari va ularni turkumlash

Yuqorida ko'rsatib utganimizdek, bank menejmentining asosiy masalasi (vazifasi) bozorni urganish va ko'zlashdan iboratdir.

Bu muammoni amalga oshirish esa o'z navbatida, bozorni ko'zlash maqsadida axborotni tuplash; tovarni urganish va uni bahosini aniqlash; sotishni amalga oshirishdan iboratdir.

«Tovar» hamda «tovar ishlab chiqaruvchi» tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liqdir. Yaxshi tovarni ishlab chiqaruvchiga obro' e'tibor keltiradi. Ishlab chiqaruvchining yorlig'i esa tovarning bozorda muvaffaqiyatli sotilishiga garrov bo'lib xizmat qiladi. Bozor munosabatlari qaror topayotgan paytda korxonaning «umri kanchalik o'zun bulishi» va kelajakdagi muvaffaqiyati uning tovar siyosati kanchalik samarali amalga oshirilayotganligiga bog'liqdir.

Tovar siyosatini asosi korxonaning boshqariladigan resurslari tashki bozorning boshqarib bulmaydigan yoki yaxshi boshqarilmaydigan shartsharoitlariga moslashishidan iboratdir.

Bozor qaror topib borayotgan sharoitda korxonaning tovar siyosati quyidagi asosiy unsurlarni o'z ichiga oladi:

- tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;
- tovar bozorlarini kompleks tahlil qilish va prognozlash;
- talabni shakllantirish;
- sotishni ragbatlantirish;
- narx va investitsiya siyosati;
- servis va sotishdan keyingi xizmat.

Bo'lardan tashkari, tovar siyosati ikki jihatga ega bo'lib, ular korxonalarning marketing strategiyasida o'zaro boglangan bulishi kerak. Bo'lar: ishlab chiqarish (kam chiqim bilan eng yaxshi tovar ishlab chiqarish) va tijorat jhati (tovarni yuqori bahoda sotish tufayli o'z imedjini yaxshilash).

Bozor munosabatlarining rivojlanishini ishlab chiqaruvchini o'z tovarlarining bozordagi mavkeini muttasil nazorat qilib, ularning zarur darajada raqobat bardoshligini ta'minlashga majbur qiladi. Biroq raqobatbardoshlikni oshiradigan boshqaruv vositalari xususida ishlab chiqilayotgan uslublar, tavsiyalar va yuriknomalar yagona metodologik bazaning yukligi tufayli birbiriga mos kelmaydi va vaqt omilini hisobga olmaydi.

Shu sababli tovarlarning raqobatbardoshligini aniqlash sohasida korxona bozor sharoitida ishlaganida iste'molchilar bilan ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini uygunlashtirish; boshlangich parametrlarning o'zgaruvchan karakteristikalarini aniqlash va ana shu asosda tovarlarning raqobatbardoshligini taxmin qilish; boshlangich ko'rsatkichlarning tabiatini va raqobatbardoshlik ko'rsatkichini hisobga olib, taxminlarning aniqlik darajasini oshirish vazifalarini xal qilishning quyidagi amaliy metodologiyasi kerak bo'ladi.

Tovarning raqobatbardoshligini ham iste'molchi, ham ishlab chiqaruvchi nuqtai nazaridan aniqlash talab qilinadi.

Bundagi farq shundan iboratki, iste'molchi uchun tovarning iste'mol xossalaridan foydalanish samarasi uni sotib olish va ishlatishga qilingan harajatlardan ortik bulmogi kerak, ishlab chiqaruvchi uchun esa olinadigan foyda texnologiya va tovar ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq harajatlarni koplashi zarur.

Tovarning raqobatbardoshligini tahlil qilishning muxim bosqichi baholanishi kerak bo'lgan zarur va etarli parametrlar guruxlarni, shuningdek, har bir gurux ichidagi aloxida ko'rsatkichlarni belgilab olishdan iboratdir. Ushbu ko'rsatkichlar ierarxiyasini joriy etib, iste'molchi uchun hammadan ko'ra ahamiyatliroq bo'lganlarini birinchi o'ringa chiqarish ham muximdir. Xususan hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida uni aloxida-aloxida tahlil qilishda segmentatsiyalash, ya'ni bankning o'z ustunligini aniqlash uchun konkurent(raqobatbardosh) banklar imkoniyatlari bilan

solishtirish, gurux iste'molchilarini aniqlash, bankning qaysi xizmatlariga qiziqish ko'pligini uning asosiy segmentlari orqali aniqlash usullari katta ahamiyatga egadir. Bozorni segmentatsiya qilish negizida bank xizmatlari (kredit, operatsionamaliyot, investitsiya va boshqalar), va mijoz belgilari (yuridik, jismoniy shaxslar, korporatsiya. Bank korrespondentlar va davlat organlar) yotadi. Bank amaliyotida yana geografik, demografik, psixomadaniy va axloqiy segmentatsiyalarga bo'linadi.

Bankni segmentatsiya qilishda uning xajmi, faoliyat turi, shularning soni, boshqaruvchining boshqarish darajasi, talab turi kabilarga e'tibor qaratiladi.

Bankning geografik segmentatsiyalash bo'lib uni geografik muxitda joylashgan joyi, xolati, mamlakat iqtisodiy rayonidagi va boshqaruv birligidagi urni (shahar, mikrorayon va boshqalar). Bank eng birinchi navbatda yaqin bozorni urganadi. Geografik segmentatsiya asosan yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar bozorini urganishda ishlatiladi.

Demografik segmentatsiya jismoniy shaxslar bozori bilan bevosita bog'liq. Bu segmentatsiya axolining ijtimoiy kasbiy tabakalanishini (daxkon, ishchi, xizmatchi, boshqaruvchi, yuqori esholon (vazifadagi) rahbarlar, xizmat ko'rsatuvchilar), yosh bo'yicha, jinsiy tomonlarini, oilaviy xolat, oila xajmi, daromadi, bilim darajasi va boshqa ko'rsatkichlariga asoslanadi. Demografik segmentatsiya qimmatbaho qog'ozlar bozori rivojlangan joylarda juda katta ahamiyatga egadir. chunki bu davlatlarda qimmatbaho qog'ozlarni sotib oluvchilar asosan axoli hisoblanadi. Respublikamizda demografik segmentatsiyalash hozirgi kunda endi endi yo'lga kuyilmokda. Sababi shuki respublikada qimmatbaho qog'ozlar bozori endigina yo'lga kuyila boshlandi. Shu sababli bankning demografik (marketingi) segmentatsiyasi oldida juda ma'suliyatli ishlar va muammolar mavjuddir.

Psixomadaniy segmentatsiya jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan hisobga olinadi.

Bu axloq aloxida shaxslarning xususiyalariga va ijtimoiy xolatiga bog'liq. Bunda doimiy belgilar axolini ijtimoiy guruxlarini birlashtirishga olib keladi.

Axloqiy segmentatsiya mijozning ma'lumoti, xabarlariga asosan urganiladi. Bo'larga mijozning bankdagi hisob raqami va operatsiyalari va boshqalar misol bo'la oladi.

Axoli axlokiy jihatdan frantsuz olimlari tomonidan quyidagicha bo'ladi:

- Bugungi kun bilan yashovchi odamlar;
- Avantiyuristlar;
- Foydalanuvchilar, ya'ni realistlar, o'z xolati bo'yicha passivlar, lekin moddiy qiymatliklarga xurmat bilan qarovchilar;
- Voqealar markazida bulishga harakat kiluvchilar.

Urganib chiqilgan axborotlar asosida tijorat banki o'z strategiyasini ishlab chiqadi. Bunga yangi ochilgan xizmatlarni eski mijozlarga sotish, eski xizmatlarni yangi mijozlarga sotish, eski xizmatlarni yangi bozorga sotish hamda yangi xizmatlarni yangi bozorlarda sotish va boshqalarga sotish kabilar kiradi. Bo'larning barchasi banklarning bozor sharoitida o'z mavqeini saqlab kolishlariga bevosita ta'sir qiladi. Bank marketingining ikkinchi qismi bu (tovar baho) sotiladigan xizmatlar harakteri va uning bahosini urganishdan iboratdir. Raqobatbardoshlikni aniqlashda foydalaniladigan boshlangich ma'lumotning tarkibi va mazmuni ko'p jihatdan ko'rib chiqilayotgan tovarga bog'liq bo'ladi hamda vaqt o'tishi bilan ancha o'zgaradi. Shu sababli, boshlangich parametrlarning o'zgaruvchan harakteristikalarini aniqlash muxim bosqich bo'lib, sungra ulardan raqobatbardoshlikni oldindan aniqlash chogida foydalaniladi. Raqobatbardoshlikni hisoblab chiqishda foydalaniladigan parametrlarning kattagina qismi oldindan ma'lum bulmagan tasodifiy omillarga bog'liq bo'ladi (masalan, bozor konyunkturasini ko'rsatuvchi parametrlar). Shu sababli konkret tovarlarni realizatsiya qilish chogida bozor muxitining o'zgarishini taxmin qilish uchun matematik statistika usullari asosida parametrlarning raqamda ifodalangan tasniflarining extimol tutilgan kiymatini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Boshlangich parametrlarning extimollik harakteristikalarining hamda raqobatbardoshlik ko'rsatkichidan foydalanish amalda bankning tovar va narx sohasida yuritadigan siyosatini ancha aniq taxmin qilish imkonini beradi.

Bozor rivojlanib borgan sari korxonaning tashki muxitga karamligi kuchayib borishi bozor konyunkturasi o'zgarish qonuniyatlarini urganishni hamda ishlab chiqarishning texnikaviy iqtisodiy imkoniyatlarini bu qonuniyatlar bilan muvofiqlashni talab qiladi. Tovar sotish bozorlarini kompleks tahlil qilishning ham absolyut, ham nisbiy ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha tahlil qilish yo'llaridan (sifat va miqdor bo'yicha) tula foydalanishni nazarda tutuvchi usullarini ishlab chiqish korxonani yangi xo'jalik shartsharoitlariga moslashtirishning muxim unsuridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yaqinda qabul qilingan farmoni bilan jahon moliya inqirozining oqibatlariga harshi kurash yo'lida bank va moliya tuzilmalariga qo'shimcha yordam berish, iqtisodiyotning real sektori korxona va kompaniyalarining faolligini kuchaytirish va rag'batlantirishga haratilgan chora-tadbirlarni ishga solish ko'zda tutilgan. Bank tizimini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish — O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marallarga chiqishning ishonchli yo'lidir.

«Iqtisodiyotimizning jahon xo'jalik va moliyaviy-iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotganini inobatga oladigan bo'lsak, jahon moliyaviy inqirozi, avvalo uning oqibatlari bizga ham salbiy ta'sir ko'rsatayotgani haqida gapirib o'tirishning hech qanday zarurati bo'lmasa kerak, deb o'ylayman.

Yana takror aytishga to'g'ri keladi — bunday ta'sir, avvalambor, umuman dunyo bozorida talab va narxlarning keskin tushib ketishida va tabiiyki, mamlakatimiz eksport qiladigan mahsulotlarning muhim turlariga nisbatan hamda eksportga yunaltirilgan etakchi tarmoqlar va ular bilan bog'liq turdosh korxonalar faoliyatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, butun iqtisodiyotimizning mutanosib va samarali rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, ko'zda tutilgan loyihalarni amalga oshirish, o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishish yo'lida ko'plab muammolarni tug'dirmoqda. Muxtasar aytganda, 2008 yil biz uchun, birinchi navbatda mamlakatimiz mehnatkashlari uchun g'oyat murakkab va o'g'ir bo'ldi.

Lekin, yuzaga kelgan barcha muammo va qiyinchiliklarga qaramay, xalqimizning fidokorona mehnati va amalga oshirilgan tadbirlar evaziga 2008 yilda iqtisodiyotimizning nafaqat barqaror faoliyat ko'rsatishiga, balki uning yuqori o'sish sur'atlarini izchil ta'minlashga erishdik.

2008 yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 9 foizni, sanoatda 12,7 foizni, jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda 17,7 foizni tashkil etdi, xizmat ko'rsatish hajmi 21,3 foizga o'sdi.

Iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari ham barqaror sur'atlar bilan rivojlandi: qurilish — 8,3 foiz, transportda yuk va yo'lovchi tashish hajmi — 10,2 foiz, savdo sohasi — 7,2 foizga o'sdi. qishloq xo'jaligida 4,5 foiz o'sishga erishilib, 3 million 410 ming tonna paxta xom ashyosi tayyorlandi, 6 million 330 ming tonna halla, shu jumladan, 6 million 145 ming tonna bug'doy etishtirildi.

Davlat byudjeti ortig'i bilan bajarildi, ko'zda tutilgan defisit o'rniga yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,5 foiz miqdorida profitstiga erishildi.

Puxta o'ylangan qat'iy pul-kredit siyosatini izchil olib borish tufayli inflyatsiya ko'zda tutilgan prognoz ko'rsatkichlari chegarasida, ya'ni yillik 7,8 foiz darajasida saqlab qolindi»⁴.

Bankning tovar siyosatini muvaffaqiyatli olib borish uchun yangi yaratilayotgan «tovarlarning» (xizmatlarning) aloxida turlari bo'yicha hamda amalga oshirilayotgan tadbirlarning hammasi bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur. Bozorning betartib rivojlanish sharoitida bank tomonidan yangi «tovar»ni shakllantirish ko'p mezonli murakkab jarayon bo'lib, ko'p sonli axborotni tahlil qilish, uni tashkil etish va samaradorlik tahlilining tegishli usullaridan foydalanishni talab qiladi. Qaror qabul qilishning axborotga bog'liq jihatini ancha kengaytirish bankning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy muxitga moslashuvini jadallashtirish imkonini beradi.

Bozorni shakllantirish sharoitida bank ishlab chiqarayotgan xizmatlar assortimentining istiqbolini tahlil qilish aloxida rol o'ynaydi. Bu tahlilda foydalaniladigan asosiy ma'lumotlar ruyxati bozor talablarini hamda banklarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi

⁴I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.» O'zbekiston .T.2009.y.

kerak. Tovarlar assortimentining istiqbollilik shartlari ko'p mezonli bulishi va bank ularni turli vaziyatlariga bog'liq holda o'z ixtiyoriga kura tanlab olishimiz mumkin.

Tovarning rentabelligi uning istiqbolga egaligini ko'rsatuvchi mezon qilib olingan takdirda assortimenti shu ko'rsatkichining miqdori kamayib borishi tartibida osongina joylashadi. Bordinu, tovarning istiqbolliligini baholashga bir nechta shart va mezonlar asos qilib olinsa, u ko'rib chiqilayotgan talablarning hammasini va bu talablar bank faoliyatining taxmin qilinayotgan natijalariga ko'rsatadigan ta'sirining ustuvorligini hisobga olgan holda baholanishi kerak.

Banklarning ish tajribasini, ularning ixtisoslashuvini hisobga olib, ularning nomenklaturaviy shayligini va bozordagi vaziyat o'zgarganida ixtisoslashishni kengaytira yoki o'zgartira olishini belgilash va tahlil ham muximdir.

Bank xo'jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligi u amalga oshiradigan ishning turli jihatlarini ko'rsatuvchi bir turkum baholar bilan belgilanishi kerak.

Nazarimizda, quyidagi ko'rsatkichlar guruxidan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- ✓ Bank ishlab chiqarish tijorat faoliyati samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar;
- ✓ Resurslarning asosiy turlaridan foydalanish ko'rsatkichlari;
- ✓ Tovar siyosatiga doir turli unsurlarning samaradorlik ko'rsatkichlari.

Ana shu o'zgarib boruvchi ko'rsatkichlar guruxlari bo'yicha ma'lumotlarni tahlil etish banklar faoliyatining turli tomonlari kanchalik samaradorligini ham, ularning bozor sharoitlariga moslashish darajasini ham baholash imkonini beradi.

Yangi vaziyatda banklarda ishlab chiqarishni boshqarish funktsiyasi sifatida iqtisodiy tahlil vazifalari ham, o'zgarib boradiki, bunga quyidagi xolatlar sababdir:

- bank rahbarlarining bankni boshqarishdagi imkoniyatlari kengayishi, binobarin, qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan tahliliy axborotga extiyojning ham ortib borishi;
- umuman bozorning va xususan, muayyan xizmatlar bozorini rivojlanish jarayonlariga doir foydalanilayotgan axborotning tasodifiyligi sharoitida marketing strategiyasini ishlab chiqish zarurligi;
- vaziyatni tahlil qilish qabul qilinayotgan qarorlarning okibatlarini, mamlakatdagi umumiy vaziyatlarning o'zgarish istiqbollarini tahlil qilishning roli oshishi;
- tanlab olingan boshqarish strategiyasini doimo tahlil qilib borish hamda aktsiyadorlar va investorlar uchun kurashda istiqbollarini baholash uchun yoki bankning iqtisodiy reytingini aniqlash munosabati bilan bank faoliyati natijalarini raqobatchilarni ko'rsatkichlariga takkoshlash zarurligi.

Xalqaro andozalarga mos keluvchi banklar (XAB) tuzish dasturi ikki asosiy qismdan tashkil topish mumkin.

XAB sifatida malaka berilgan banklar tomonidan rioya qilinishi kerak bo'lgan talablar majmui; shunday banklar uchun imtiyozlar majmui.

Xalqaro darajadagi bankga bo'lgan asosiy talablar ruyxatiga quyidagilar kiradi:

- bank hisob kitoblarini oshkora olish imkoniyatini ta'minlash;
- bankning ishlayotgan aktivlarini qisqartirish;
- bank zaxiralarini birinchi navbatda uzoq muddatli davlat qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish yo'li bilan shakllantirish va bu zaxiralarni ishlaydigan aktivlarga aylantirish;
- bank turi, qo'yilmalar summasi, omonatchilar toifasiga karab zaxiralash me'yorini diferentsiatsiyalash; qo'yilma koldiklari o'zgarishlarini aniqrok ilgash imkonini beradigan zaxira hisob raqamlarini teztez tartibga solib turish;
- kredit xavf xatarini to'g'ri baholash layokati;
- mablaglarni korxonalar aktsiyalariga joylashtirishda banklar uchun ragbatlar tizimini ishlab chiqish va kreditlar berish;

- bank xizmat ko'rsatishida «zichlik me'yori» ni jahon andozalari darajasida ta'minlash;
- bank sarmoyasini yukotish xavf xatarsiz mijozlar mablaglari hisobidan portfelli investitsiyalarni keng tartatish;
- banklarning bozor axloki taktikasida o'rinlarning ko'progini ishonchli moliya vositalaridan foydalanishga berilishi;
- chet elda shaxobcha tarmogining mavjudligi;
- bank axborotining va shaxobcha tarmogini boshqarishni tizimliliigi;
- bankda tashki xavf xatardan ximoya qilishning kushimcha mexanizmlari ishlab chiqilmogi lozim. Bunda bugungi kunda asosiy e'tibor mijoz bilan ishlashga ya'ni bank daromadining etakchi manbai bank komissiyasiga qaratilishini nazarda to'tish zarur bo'ladi;
- asosiy dikkat e'tibor xizmat sifatini oshirishga, bank mahsulotlarning turli tumanlilikiga(kredit kartochkalari, sugo'rta, faktoring, moliya zaxiralarni joylashtirishda maslaxatlar berish va xokazo) hamda xalol reklamaga qaratilishi kerak;
- banklar o'zlarining kattakichikligi, joylashgan urni xodimlarning malakasi, mijozlarning tarkibi va boshqalarga karab operatsiyalarni bajarishga ixtisoslashishlari, qisqa muddatli kreditlash va investitsiyalash bilan shugullanishlari, kliring markazi bulmogi kerak;
- bankning axborot tizimlari asosiga hisob raqamlarini tez moslashuvchan rejasi, xujjatli interfeys kuyilgan bulishi lozim.

Bu tizimlar hisob raqamlar rejasining o'zgarishiga moslanish imkoniyatini; hisob va shaxsiy raqamlarning o'zgaruvchan tuzilmasini; mijozlarning istalgan soni bilan ishlashni; komission yigimlarni kushib yozib kuyishning turli usullarini; rivojlangan tizimlarda tuzilmali cheklashlarning oldini ta'minlash kerak.

Ko'pchilik muammolar boshqaruv sifatiga bank menejmentiga, tashkilot tuzilmasiga, moliyaviy okimlarga, hisob-kitobga, iqtisodiy tahliliga, biznesrejalashtirishga, shuningdek, xodimlar malakasiga chambarchas bog'liqdir. Bank tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot o'zida bank operatsiyalarini, bank xizmatlarini va bank ishlarini aks ettiradi.

Bank tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot o'zida bank operatsiyalarini, bank xizmatlarini va bank ishlarini aks ettiradi. Jadvalda operatsiyalar utkazganda paydo bo'ladigan xavfxatar nuktai nazaridan bank mahsulotlari xilmaxilligi ko'rsatilgan.

Bank mahsulotlarini sotishdagi strategik yo'nalish, bank taraqqiyotining muxim muammosi bo'lib hisoblanadi. Umumiy ma'noda ularni funktsionalob'ekt yo'nalishli, asosiy maqsadi bir gurux bank mahsulotlarini sotish yo'li bilan yoki mijozlar ma'lum guruxining aloxida bank mahsulotlariga bo'lgan extiyojlarini kondirish yo'li bilan daromad olishdan iborat banklarga ajratish mumkin.

Bank xavfxatari bankning taraqqiyotini belgilaydigan kuchli omillar qatori kiradi, xavfxatarlarni boshqarish esa bank faoliyatining yuragi bo'lib hisoblanadi. Bank uchun eng katta xavfxatar bu minusli ogishlar, ya'ni, yukotish tavakkalidir. Xavfxatarlarning kariyb barcha turi bank mahsulotlarining molkiymat xususiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ayonki, o'zining xavfxatarli mahsulotining savdosida amalga oshira turib, bank yukotishlarning oldini olishga intilib, mahsulot narxini oshirib boradi.

Amerikalik mutaxasislar tomonidan ishlab chiqilgan «Kemel» usulidan foydalanib, banklarning mustaxkamligi bo'yicha etarli darajada ishonchli ma'lumotlarni olish mumkin. Ma'lum bulishicha, bank mustaxkamligini baholash usuli belgilangan majburiy normativlar asosiga kurilishi kerak. Iqtisodiy tahlil va nazorat xo'jalik ob'ekti sifatidagi bank boshqaruvining muxim unsuri bo'lib hisoblanadi.

Har bir tijorat bankidagi tahlil tizimi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

tadbik qilish muddatlarining afzalliklari bo'yicha tartiblangan tahlilning asosiy yo'nalishlari; tahlilni tashkil etish sxemasi va tartibi:

- a) boshqaruv bo'yicha, shaxobchalar va bulimlarning tarkibiy bulinmalari bo'yicha va mansabdor shaxslar bo'yicha analitik vazifalarning taksimlanishi;

- b) ierarxik buysunuvchanlik, analitik xizmatlarning o'zaro faoliyati;
- c) ishlarning xodimlar bilan ta'minlanishi (shu jumladan, analitiklarni tayyorlash);
- d) axborot bazasi va axborot okimlarini shakllantirish tartibi va tarkibi;
- e) muddati(tezkor, joriy, oylik, choraklik, yillik) analitik ishlarning saklanishi mazmuni;
- f) metodik yondashishlar, turlari, muddatlari, yo'nalishlari bo'yicha tahlil algoritmlari;
- g) tadqiqotlar ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi;
- h) tahlil natijalarini rasmiylashtirish va ularni amalda tadbik etishni ishlab chiqish.

Bunda quyidagi xolatlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Tahlil bank faoliyatning barcha jabxalariga «xizmat ko'rsatishi» kerakligini, uni baholash va prognozlash uchun asos bulishini inobatga olib, bankning mazmuni va yo'nalishlari bank oldida turgan vazifalar va maqsadli yo'lyuriklardan kelib chiqishi lozim. Bunda tahlil aloxidaaloxida strategik taktik yo'lyuriklarga aniq yunaltirishni ta'minlamogi lozim, zero uni utkazish usullari va tartiblari birbiridan sezilarli farq qiladi.

Faoliyatning yangi sharoitlari nafaqat an'anaviy bank qarorlari va operatsiyalarini, balki yangi texnologiyalarni ham faol kullashni talab qiladi.

Hozirgi sharoitlarda chet ellardagi va mamlakatdagi moliya institutlari bilan o'zaro faoliyat sohalari va shakllarini aniqlamay turib, bank operatsiyalarini, xizmat ko'rsatishni tashkil etish sohasida noan'anaviy echimlarni izlamay turib, bank taraqqiyotini amalga oshirish mumkin emas. Xalqaro andozalarga yaqinlashishga intilayotgan zamonaviy bank bu sohadagi ishini faollashtirishi zarur, shu bilan birga, bankning birinchi darajali chet el banklari, moliya kompaniyalari bilan hamkorlikdagi o'zaro faoliyati, bank menejmenti samaradorligining oshishi bilan bog'liq yangi texnologiyalar ayniqsa samaralidir.

Ilgor xorij tajribasini kullashga asoslangan yangi bank texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bank kafolati ostida qarzga olingan mablaglarni jalb qilish yo'li bilan dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etish;
- bank tomonidan aktsiyalangan chet el kompaniyalari bilan o'zaro faoliyat yuritish;
- marketingni faol kullash asosida usib boruvchi daromadli bank veksellarini sotish;
- tijorat bankining trast operatsiyalarini tashkil etish.

O'zbekiston banklari iqtisodiy vaziyatning ta'sirini boshdan kechiraetgan holda va ular o'tish bosqichida turibdi. Bu sharoitlarda ularning urni «iqtisodiy lokomotivlari» dan to islohotning bosh tormozigacha bo'lgan birbiriga zid xususiyatlar bilan baholanadi. Bu shu bilan izoxlanadiki salbiy tendetsiyalar (yirik operatsiyalarning salmogi pastligi,qisqa muddatli kreditlarning afzal kurilishi, valyuta operatsiyalari bilan boglanib kolish,hisobkitoblardagi imillanishlar va boshqalar) ijobiy tendentsiyalar (mablaglar jalb etilishining imkoniyati mavjudligi,biznesning ragbatlantirilishi va boshqalar) «chorraxa» da o'zaro «to'qnashadi».

Xalqaro andozalarga yunaltirilgan aloxida banklar va butun bank tizimining rivojlanish strategiyasi davom etaetgan iqtisodni islox qilish va uning jahon hamjamiyatiga faol kirib borishi bilan bog'liqdir. Bu quyidagilarni nazarda tutadi:

- iqtisodning zarur moliyaviy ka'rini yaratish, ilgor mamlakatlarda vujudga kelgan moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish ;
- tijorat va investitsion banklarni aniq farqlash (universal eki ixtisoslashtirilgan) bilan bank ishi modelini tanlash ;
- pulkredit tizimini difersifikatsiyasining keskin usishi, banklarda moliyaviy aktivlar ulushining torayishi ;

- moliya oboroti tuzilmasini aniqlovchi makroproportsiyalarning o'zgarishi(ko'pchilik bank operatsiyalarini qisqa muddatli inflyatsiyaning pasayishi bilan bog'liq sarmoya bozorida operatsiyalarining faol usishi bilan almashininshi lozim);
- bank sektorida davlat pul zaxiralari xajmining qisqarishi;
- individual korxonalar extiyojiga, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi kreditlar ulushi doimiy oshib borishi bilan banklar kredit qo'yilmalari tuzilmasining o'zgarishi;
- bank institutlari tarmoqlarining o'zgarishi(o'rta va kichik banklarining kattagina qismi bank shaxobchalariga, yoki shu'ba banklarga, kolagan qismi esa moliya kompaniyalari va boshqa kredit institutlariga aylanishi kerak);
- sarmoyaning yuqori aylanishini ta'minlovchi, jumladan, SWIFT, SIC va boshqa tizimlarning kullanilishi;
- bank sektoriga xizmat ko'rsatishga, xo'jalikning o'zaro bog'liq tarmoqlari yuzaga kelishi.

Bank sohasini rivojlantirishning tashkiliy tuzilmaviy muammolari qatoriga kichik va o'rta banklarni qaytadan tuzish, yirik banklar bilan kushish, ularning shaxobcha tarmoqlarini rivojlantirish bugungi kunda juda muhim bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonning ayrim tijorat banklari xalqaro andozalarga mos darajada ishlash qobiliyatiga egadirlar.

Qolganlaridan ham shu darajaga etishlari uchun xali anchamuncha kuch quvvat talab qilinadi.

Ma'lumki, banklar faoliyatida buxgalteriya hisobi yuritish ishini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega, chunki buxgalteriya hisobi va nazoratning puxta yo'lga qo'yilishi bankning o'z vazifalarini to'g'ri bajarishini ta'minlaydi. Buning uchun bankda amalga oshirilgan xar bir operatsiyaning to'g'ri rasmiylashtirilishi va hujjatlashtirilishi muhim ahamiyatga egadir. Demak, buxgalteriya hisobning tamoyillaridan biri bo'lgan hujjatlashtirish ma'lumotlarning to'g'ri etkazilishida hal qiluvchi o'rin egallaydi.

Hujjatlashtirish hisobga olinishi kerak bo'lgan har bir operatsiya ma'lumotlarini o'z ichiga olgan hamda ularning to'g'riligi va qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlar yig'indisi bo'lib hisoblanadi. Buxgalteriya hisobida o'tkaziladigan har bir operatsiya hujjatli tarzda amalga oshiriladi.

Har bir hujjat o'z mazmuni va o'tkazilish nuqtai nazaridan rekvizitlariga ega bo'ladi. Bular quyidagilar:

Hujjatning to'liq nomi (masalan, hisob-to'lov vedomosti, kirim kassa orderi, memorial order va b.

1. Hujjatning muddati va uning tartib raqami.
2. Tomonlarning to'liq nomlari, bank nomi va hisob raqamlari.
3. Operatsiyaning predmeti.
4. Shartnoma summasi (raqamlar va harflar bilan).
5. Rahbarning imzosi va korxonaning muhri.
6. Bank hujjatlariga kelsak, ular asosan
7. Korxonalar tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjatlar
8. Banklar tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjatlar

ga bo'linadi.⁵

Hujjatlarning asosiy qismi korxona va tashkilotlar tomonidan rasmiylashtirilib, banklarga topshiriladi. Korxona va tashkilotlar tomonidan to'ldiriladigan hujjatlarga asosan naqd pulsiz hisob-kitob bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar: to'lov talabnomasi, to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasining ro'yxati, cheklar ro'yxati, kassa operatsiyalari bo'yicha esa pul topshirish hakidagi hujjat (e'lon) kabilarkiradi. har bir hujjatlariga korxona rahbari va buxgalterining imzolari qo'yilib,

⁵ Abdullaeva Sh., Navro'zova K. Banklarda buxgalteriya hisobi asoslari. T. Moliya. 2001

ular muxr bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Bu hujjatlar banklarga korxonaning ma'lum xizmatchisi tomonidan maxsus ajratib ko'yilgan qutilarga solib qo'yish yo'li bilan, yoki aynan shu korxonaga xizmat ko'rsatuvchi mas'ul ijrochiga berish yo'li bilan topshiriladi. Hujjatlar mas'ul ijrochi tomonidan shakl va mazmun jihatidan puxta tekshiriladi, shundan so'ng shu hujjatlar asosida ma'lum bir operatsiya o'tkaziladi.

Bankka topshiriladigan har bir hujjat hatosiz, yozuv mashinkalarida bir yo'la bir necha nusxada to'ldiriladi yoki kompyuterda teriladi. Kassa operatsiyalari bo'yicha ishlatiladigan hujjatlar bundan mustasno, bunday hujjatlar qo'lda ruchka bilan to'ldiriladi.

Korxonalar tomonidan topshirilgan hujjatlar bilan ish ko'rish bilan bir qatorda banklarning o'zida ham ma'lum bir hujjatlar rasmiylashtiriladi. Masalan banklar o'rtasidagi o'zaro aloqalarda ishlatiladigan memorial va boshqa orderlar, kirim va chiqim jurnallari, balansdan tashqari hisoblaridan orderlari, bank xodimlari bo'yicha kirim-chiqim orderlari bank tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjatlarga kiradi.

Lekin hozirgi kunda, ikki pog'onali bank tizimi faoliyat ko'rsatayotgan bir paytda «avizo» deb nomlanuvchi hujjat asosan Markaziy bank muassasalari o'rtasida banklararo aylanmalar bo'yicha operatsiyalar o'tkazilganda rasmiylashtiriladi. Tijorat banklari esa mijozlarning hujjatlari asosida elektron to'lov hujjatlari rasmiylashtirib hisob Markaziga o'tkazadilar.

Hujjatlar sodir etiladigan operatsiyalarning xajmiga ko'ra:

- oddiy
- yig'ma

turlarga bo'linishi mumkin.

Oddiy hujjatlarda faqat bitta xo'jalik operatsiyasi aks etadi, yig'ma hujjatlarda esa bir necha operatsiyalar jamlangan bo'ladi. Oddiy hujjatlarga esa yig'ma to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasining ro'yhati, cheklar ro'yhati, yig'ma avizolar, kassa kirim jurnali, kassaning chiqim jurnalini kiritish mumkin.

Bundan tashqari bajariladigan operatsiyalarning mazmuniga ko'ra bank operatsiyalari bo'yicha barcha hujjatlarni 3 guruhga bo'lish mumkin:

- Naqd pulsiz hisob-kitoblarda ishlatiladigan hujjatlar;
- Naqd pul bilan bog'liq bo'lgan kassa hujjatlari;
- Balansdan tashqaridagi schetlar bo'yicha kirim-chiqim hujjatlari.

Ma'lumki har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z pul mablag'larini bankda hisob-varag'ida saqlaydi. U barcha pul bilan bog'liq operatsiyalarini mana shu hisob varaqlar orqali o'tkazadi. Pul o'tkazish mijozning topshirig'i yoki mol jo'natuvchi korxonaning to'lov talabnomasi orqali bank xodimlari tomonidan bajariladi. Bu holda naqd pul ishlatilmaydi. Operatsiyalar hisob varaqlardan yozuvlar bajarish orqali o'tkaziladi. Shuning uchun bunday operatsiyalarda ishlatiladigan hujjatlarni naqd pulsiz hisob-kitoblarda ishlatiladigan hujjatlar guruhiga mansubdir.

Bank orqali o'tadigan operatsiyalarning bir qismi naqd pul ishtirokida amalga oshiriladi. Bunga bankning kirim kassa operatsiyalari va chiqim kassa operatsiyalari misol bo'la oladi. Bank mijozlarni tomonidan ya'ni naqd pul bilan muomala qiluvchi savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, umumiy ovqatlanish va tashkilotlar tomonidan naqd pul tushumini topshirish bilan bog'liq operatsiyalar kirim kassa operatsiyalari hisoblanadi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlariga qarashli bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalar ishchi xizmatchilarga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarini to'lash uchun naqd pul oladilar. Bu operatsiyalar chiqim kassa operatsiyalari bo'lib hisoblanadi. Ushbu operatsiyalarda ishlatiladigan hujjatlar naqd pul bilan bog'liq kassa hujjatlari guruxiga mansubdir. Bankda balans ichidagi hisobvaraqlar bilan bir qatorda balansdan tashqari hisob varaqlar ham yuritiladi.

Yuqoridagilardan Qisqacha xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tijorat hujjatlarning aylanishi operatsiyalarning qonuniyligi, hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligini, hamda ularning hisobda to'g'ri aks ettirilishini tekshirish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni o'z ichiga olgan jarayondir. Hujjatlar aylanishi bank operatsiyalarning o'z vaqtida to'g'ri va qonuniy tarzda ammalga oshirilishda katta rol o'ynaydi.

Tijorat bankida har bir ish kunining taxminan 6 soati bevosita mijozlarga xizmat ko'rsatishga ajratiladi. Kunning kolgan qismida esa avvalgi kun hisob hujjatlari tekshiriladi, shu kunning operatsiyalariga yakun yasaladi va ertangi kun operatsiyalarga tayyorgarlik ko'riladi. Shu kun kelib tushgan hujjatlar shu kunning o'zida kechki payt kelib tushgan hujjatlari esa ertasi kun o'tkaziladi, chunki hujjatlar kechki pochta orqali kelishi mumkin. Hujjatlar aylanishi aks etgan jadvallarda bank operatsiyalarini bajaruvchi bank xodimlarining bir biriga hujjatlarni uzatish, banklararo aylanmalar gruppasi, kassaga yoki hisoblash markazlariga (kompyuter bo'limiga) uzatish vaqtlari belginadi.

Bankning mas'ul ijrochi hujjatlarning o'z vaqtida bir maromda kelib tushishi, ularning oldida katta navbatlar hosil qilishning oldini olish maqsadida har bir bank muassasalarida mijozlarga xizmat ko'rsatish jadvali tuziladi, unda bir kunda bank bilan muloqatda bo'ladigan, har bir mas'ul ijrochiga birlashtirilgan korxona va tashkilotlar nomi va ularga xizmat ko'rsatish vaqti ular bilan kelishgan holda belgilanadi. Demak, buxgalteriya xodimlarining ish kuni shunday tashkil etilishi kerakki, bunda kelayotgan hisob-kitob va pul hujjatlar o'z vaqtidaijro etilishii hamda ular hisobvaraqlar bo'yicha buxgalteriya hisobidan aks ettirilib, kundalik balans tuzilishi imkoniyatiga ega bo'lish kerak.

Bank ish kuni va hujjatlar aylanishini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan asosiy talablar ishlab chiqilgan bo'lib, ular «O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risida» gi Yo'riqnomada ko'rsatilgan talabnomalar quyidagilardir:

- ish kunining birinchi yarmida (bu vaqt operatsiya kuni deyiladi) bankka kelib tushgan barcha hisob-kitob-pul hujjatlari shu kunning o'zida qabul qilinishi, rasmiylashtirilishi va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirilishi lozim. Operatsiya kuni tugagandan keyin bankka kelib tushgan hisob-kitob-pul hujjatlari, keyingi ish kunida mijozlarning hisobvaraqlariga kiritiladi.

- operatsiya kuni davomida mijozlardan hisob-kitob-pul hujjatlarini bevosita buxgalteriya xodimlarining o'zlari qabul qilib oladilar. Operatsiya kunidan tashqari vaqtda hujjatlar bankka maxsus qurilmalar (qutilar) orqali topshirilishi mumkin. Ulardagi hujjatlar kamida har soatda bir marta olinadi;

- operatsiyalar hajmini tartibga solib turish uchun har bir bankda doimiy ravishda bankka katta miqdorda to'lov hujjatlari takdim etib turadigan asosiy mijozlardan hujjatlarni qabul qilish grafigi belgilanadi;

- jismoniy shaxslarning (turli badallarni topshiruvchi fuqarolarning, omonatchilarning) hisob-kitob va kassa operatsiyalari ushbu operatsiyalarni bajaruvchi buxgalteriya xodimlari tomonidan operatsiya kuni davomida amalga oshiriladi;

- barcha hisob-kitob-pul hujjatlari bo'yicha talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridan amalga oshiriladigan to'lovlar, jumladan byudjetga ajratmalar va ish haqi uchun to'lovlar faqat ushbu hisobvaraqlarda mablag' bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Yuqorida sanab o'tilgan talablarni hisobga olgan holda, har bir bankda mijozlarga xizmat ko'rsatish hamda hujjatlar aylanishi grafigi belgilab qo'yiladi. Unda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatishning aniq vaqti hamda ularga ishlov beruvchi uchastkalardan o'tadigan vaqti ko'rsatiladi. Mijozlarga xizmat ko'rsatish va hujjatlar aylanishi grafigini bank rahbari tasdiqlaydi.

Har bir bank yuqorida ko'rsatilgan namunaviy ko'rsatmalarga asosan o'z faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda buxgalteriya xodimlarining ish kuni tartibini ishlab chiqadi. Ushbu rejim bank rahbari tomonidan tasdiqlangandan so'ng har bir buxgalteriya xodimi unga amal qilishi qat'iy bo'lib hisoblanadi.

Quyida «O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risida» gi Yo'riqnomaga asoslangan holda banklarda buxgalteri xodimlarining ish kuni rejimining namunasi keltirilgan:

Mas'ul ijrochilarning ish kuni ertalab 8.00 (yoki 9.00) dan 17.00 (yoki 18.00) gacha davom etadi.

Soat 8.00 dan 9.00 gacha mijozlarning shaxsiy hisob varaqalardagi yozuvlarni tekshirish, analitik va sintetik hisob materiallarini bir-biri bilan solishtirish, kerakli hujjatlar bilan shaxsiy hisobvaraqlarini mijozlar bo'yicha hisob varaqalar kartotekasiga joylashtirish bilan shug'ullanadi.

Pul sanash kassasidan tushumni yig'ishga doir hujjatlar operatsion bo'lim - buxgalteriya xodimi qo'lga ish kuni boshlanish vaqtida kelib tushishi lozim. Operatsiya kuni davomida inkassatsiya qilingan tushum hujjatlari tushum sanab bo'lingandan keyin, lekin 13.00 dan kechikmay kassadan olinadi. Kassa daftarlarini kassa ma'lumotlari bilan solishtirish 15.00 gacha tugallanishi lozim.

Ish kunining ikkinchi yarimida mijozlardan qabul qilingan arfasida qaydlov uchun rasmiylashtiriladi. Mijozlardan hujjatlar butun ish kuni davomida qabul qilindi. Operatsion kun oxirgacha bankka kelib tushgan hujjatlar joriy kun balansi bo'yicha o'tkaziladi. Operatsion kun tugagandan so'ng yoki kun oxirida topshirilgan hujjatlar bankning keyingi ish kuni balansi bo'yicha o'tkaziladi.

Ish kuni yakunlanishiga kamida ikki soat qolganda inkassaga qabul qilingan boshqa to'lov talabnomalari to'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi banklarga o'sha kunning o'zidek jo'natiladi.

Mazkur bank mijozlarining hisobvaraqlari bo'yicha summalarni kiritish va olishi uchun hujjatlar bir operatsiya xodimlaridan boshqalariga kechiktirilmaslgi, ular kelib tushgani va hujjatlarga ishlov berilgani sayin topshirib turilishi lohim.

Joriy kun operatsiyalari bo'yicha hujjatlar hisob-kassa markaziga ular bilan kelishilgan maxsus grafik bo'yicha berilishi kerak. Ekspeditsiya bo'limiga hujjatlar ish kuni oxiriga kamida 1 - 1,5 soat qolganda qabul qilish to'xtatiladi.

Hozirgi kunda Respublikadagi barcha tijorat banklari yangi kompyuter va boshqa hisoblash texnikasi bilan ta'minlangan bo'lib, o'z ichki hisoblash Markaziga ega. Shu sababli korxona va tashkilotlarning shaxsiy hisobvaraqlari bo'yicha yakunlarini balans hisobvaraqlari va kutilmagan vaziyatlar hisobvaraqlari bilan solishtirish shu kun oxirida amalga oshirish tavsiya etiladi. Bu esa yangi ertangi kun operatsiyalarini o'z vaqtida boshlashga imkon beradi.

Tijorat banklarida amalga oshirilayotgan har bir operatsiya bo'yicha hujjatlar aylanishining o'z xususiyatlari bor. Naqd pulli operatsiyalar bo'yicha hujjatlar aylanishiga katta ahamiyat berilayotganligi uchun ham quyidagi jadvalda u bo'yicha hujjatlar aylanishini ko'rib chiqamiz.

Operatsiya mazmuni:

1. Mijoz nazoratchiga pul topshirganlik haqidagi e'lonni topshiradi.
2. Nazoratchi hujjatni tekshirudan o'tkazib, kassa kirim jurnalida undagi yozuvlarini aks ettirgandan so'ng e'lonni kirim jurnali bilan birga kassaga zatadi.
3. Mijoz kassaga naqd pul topshiradi.
4. Kassir pulni sanab e'lon va kirim jrnalidagi summa bilan solishtiradi, hujjatlarni summa bilan solishtiradi, hujjatlarni rasmiylashtirib kvitantsiyani klientga qaytaradi.
5. Order va kirim jurnali nazoratchiga qaytariladi.
6. Nazoratchi kun ohirida kassa kirim jurnali ma'lumotlarini kassa kitoblari bilan solishtiradi.
7. Bankning boshqa operatsiyalari bo'yicha ham hujjatlar aylanishi o'xshash tarzda amalga oshiriladi.

Bank operatsiyalari amalga oshirilayotganda ularning qonuniy rasmiylashtirilishi hamda mablag'lar va qimmatliklarning but saqlanishi tegishlicha nazorat qilinishini ta'minlash lozim. Bu ichki bank nazoratdir. Ichki bank nazorati 3 xil yo'l bilan amalga oshiriladi:

1. Dastlabki nazorat.
2. Joriy nazorat
3. Yakuniy nazorat.

Operatsiya bajarilishidan avval o'tkaziladigan nazorat dastlabki nazorat deyiladi. Talon-tarojga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ba'zi operatsilar yoki rahbar xodimlarining ruxsati bilan bajarilishi kerak bo'lgan operatsiyalar o'tkazishdan avval nazorat olib boriladi. Dastlabki nazorat bank boshqaruvchisi, bosh hisobchi, kredit bo'limi xodimi tomonidan amalga oshirildai. Masalan,

hisobvaraqlar ochish uchun bank boshqaruvchisi va bosh hisobchining ruxsati kerak, kassa operatsiyalari bo'yicha albatta hujjatlar nazoratchi tekshiruvdan o'tkazishi lozim, ssuda operatsiyalari esa kredit xodimi nazoratidan so'ng amalga oshirildi.

Qo'shimcha nazorat qilinishi kerak bo'lgan hujjatlar nazoratchiga yoki bosh buxgalterga topshiriladi, bunda hujjatlar nazorat ustxati olingandan so'ng ijroga qabul qilinadi.

Quyidagi ko'rsatilgan hisobvaraqlar va operatsiyalar bilan bog'liq hisob-kitob, pul hujjatlari nazoratchi xodim tomonidan tekshirilishi va imzolanishi lozim⁶.

a) hisob-kitob, pul hujjatlari:

Mijozlarning topshiriqlarisiz bajariladigan operatsiyalarga doir hujjatlar, xususan asosiy to'lov bilan undiriladigan penya summasini olishga doir orderlar;

summalar yuboriladigan manzilin o'zgartirish va qaytarib yuborish bilan bank vakillik hisobvarag'i bilan bog'liq orderlar;

b) tavsiliy hisob yozuvlari bo'yicha:

fuqarolar va harbiy xizmatchilarning jamg'arma depozit hisobvaraqlari;

hisob-kitob operatsiyalarini bajarish qoidalarini buzganlik uchun mijozlardan jarima undirish bo'yicha hisobvaraqlar;

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining kassa ijrosiga doir yo'riqnomada ko'zda tutilgan hollarda davlat byudjeti hisobvaraqlari;

vakolatli shaxslarning depozit hisobvaraqlari;

xususiy qarz oluvchilarning ssuda hisob varaqlari;

qimmatbaho metallar, bankning asosiy vositalari, kam baholi va tez eskiruvchan buyumlarni hisobga olib borish hisobvaraqlar.

- bank boshqaruv apparatini saqlash hujjatlariga oid hamda boshqa daromad va harajatlari bo'yicha hisobvaraqlavri va boshqalar;

Bank sarmoyalari, xorijiy operatsiyalar, qimmatbaho metallar, kassalarga yuborilgan qo'shimcha pullar, aylanma kassasi limitidan ortiqcha olingan yo'ldagi pullar, foyda va zararlar hisobga olinadigan hisobvaraqlar bo'yicha orderlar, depozit va ssuda hisobvaraqlarini yopish uchun tuzilgan orderlar, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish orderlariga bank bosh buxgalteri yoki uning muovini nazorat imzosini qo'yadi.

Pul va pul omborlarida saqlanayotgan boshqa boyliklarni qabul qilish hamda jo'natish orderlari, rezerv fondlari rezerv fondlari bilan bajariladigan operatsiyalar bo'yicha orderlarga bosh buxgalterdan tashqari bank boshqaruvchisi va kassa mudiri tomonidan imzo qo'yiladi.

Biror bir operatsiya o'tkazish jarayonida olib boriladigan nazorat asosan bank ma'sul ijrochilari tomonidan amalga oshiriladi. Mijozlardan kelib tushgan hisob-ktoblar bilan bog'liq hujjatlar har bir ma'sul ijrochi tomonidan shakl va mazmuni jihatidan tekshiriladi. Hisobvaraqlarni yurituvchi mas'ul ijrochi hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilganligini, shu jumladan hujjatni tasarruf etuvchilarning imzolari va muhr izi taqdim etilgan namunalarga mos kelishini hamda hisobvaraqlardan pul to'lanishi pul mablag'larining etarligining tekshirgandan so'ng qabul qiladi, shunday tekshiruv bo'lganini tasdiqlash uchun hujjatning barcha nusxalarini imzolaydi. Lekin imzolashdan avval hujjat nusxalarini solishtirib, ularning bir xilligiga ishonch hosil qilish kerak. Shundan so'ng, hujjatni oxirgi nusxasi mijozga qaytariladi. Shu nusxaga bosilgan ma'sul ijrochining shaxsiy shtampi hujjatlar ijro uchun qabul qilinganini tasdiqlovchi tilxat vazifasini bajaradi. Masalan, mas'ul ijrochi to'lov topshirig'ini mijozdan qabul qilib olar ekan, uning nusxalar soni etarliligi, to'liq va to'g'ri rasmiylashtirilganligi, shu koxona xo'jalik faoliyatiga mos kelishi, mijoz hisobvarag'ida mablag'larning etarli ekanligi, korxona muhri hamda rahbar va bosh buxgalterning o'zida saqlanayotgan kartochkadagi vakolatli shaxslar imzolari va korxona muhri bilan to'g'ri kelishini tekshirishi lozim. Shundan so'ngina pul o'tkazish bo'yicha operatsiyalar bajarilishi mumkin.

Operatsiyalar bajarilgandan so'ng, o'tkaziladigan nazorat yakuniy nazorat deyiladi. Yakuniy nazorat bank bosh buxgalteri (yoki uning muovini), taftish-nazorat (yoki ichki audit) xodimlari, bank rahbari tomonidan o'tkazilishi mumkin. Bu nazorat hujjatlar aylanishi operatsiyalar hisobi to'g'ri yo'lga qo'yilganligini bank xizmatchilari tomonidan ularga belgilab berilgan

⁶ «Ыйыды-түрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 й. 12 ой 18 кундаги қарори билан қабул қилинган.

majburiyatlarning bajarilishi ular tomonidan rasmiylashtirilgan operatsiyalarning to'g'riligini tekshirishdan iborat. Bank rahbari buxgalteriya ishi holatini umuman kuzatib turishi bilan bir qatorda balans va hisobotlar o'z vaqtida tuzilishini tekshirib borishi, mablag'lar mijozlarning hisobvaraqlariga o'z vaqtida va to'liq kiritilishi hamda chiqarilishini muntazam ravishda nazorat qilib turishi shart.

Bank bosh buxgalteri bank rahbari tasdiqlangan rejaga muvofiq buxgalteriya ishining alohida uchastkalarini muntazam ravishda keyingi nazoratdan o'tkazib turishi zarur. Bank rahbari va bosh buxgalterning xoxishiga ko'ra boshqa mutaxassislar ham tekshiruvlarga jalb etilishi mumkin. Tekshiruvlar rejalarga muvofiq o'tkaziladi. Bu rejalarda navbatdagi tekshiruvdan o'tkaziladigan uchastkalar hamda ularni o'tkazish xajmi va vaqti ko'zda tutiladi. Rejalar tuzilayotganda keyingi vaqtlarda qaysi uchastkalar taftish qilinganligi yoki o'rganlingani, shuningdek qaysi uchastkalarda taftish va tekshiruvlar o'tkazilganda jiddiy kamchiliklar topilgan hamda takroriy tekshiruv zarurligi hisobga olinadi.

Shu bilan birga bir qatorda bank buxgalteriya xodimlari o'zlarining bir turdagi muayyan vazifalarini qanday bajarayotganliklarini tematik tekshiruvdan o'tkazib turilishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olingan, ayniqsa yangi kelgan alohida ko'rsatmalar bo'yicha tekshirish tavsiya qilinadi.

Keyingi tekshiruvlar natijalari qisqa ma'lumotlar bilan rasmiylashtirilishi kerak. Bank rahbari keyingi tekshiruv vaqtida aniqlangan kamchiliklar to'g'risida ma'lumotnomalar olingandan keyin z kun muhlat ichida bu ma'lumotnomani buxgalteriya apparati xodimlari ishtirokida shaxsan ko'rib chiqishlari hamda bu kamchiliklar sabablarini bartaraf etish uchun zarur chora-tadbirlar qabul qilishi zarur. Kamomadlar, talon-taroj qilishi shuningdek mansab mavqeyini suiste'mol qilishi bilan bog'liq va shunga o'xshash boshqa holatlar aniqlanganda bank rahbari ikki kun ichida nazorat yakunlari bo'yicha materiallarni tergov organlariga topshirishlari talab qilinadi.

Bosh buxgalter va so'nggi nazorat xodimi keyingi muntazam tekshiruvlar chog'ida aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilishi kuzatib borishlari va zarur hollarda takroriy tekshiruvlar tashkil etishlari lozim.

Bank boshqaruvchisi bankdagi hisob ishlarining olib borilishi, hujjatlar aylanishi va bank ichki nazoratining olib borilishi bo'yicha asosiy javobgar shaxsdir.

Banklar orqali o'tkaziladigan har bir operatsiya ma'lum bir hujjatlar orqali rasmiylashtirilgan ekan, ushbu buxgalteriya hujjatlari banklarda yo'qotilmay saqlanishini ta'minlanishi kerak. Buxgalteriya hujjatlarni saqlash yuzasidan belgilangan tartibga rioya etilishi hamda bu ishlar to'g'ri tashkil etilishi uchun javobgarlik bank rahbari va bosh buxgalter zimmasiga yuklatiladi. Ular o'z xodimlariga hujjatlarni saqlash bo'yicha yo'l-yo'riq beradilar, zarur bo'lgan hollarda ularni bexatar joylarga olib chiqishi tartibi va navbatini belgilaydilar.

Tayanch iboralar:

Tahlil, ko'rsatgich, miqdor, sifat, bank faoliyati, bank xususiyatlari, pultovar munosabatlari, boshqaruv, foyda, rentabellik.

Nazorat savollari:

1. Bank tahlili mazmuni va usullari.
2. Bank faoliyati ko'rsatgichlari.
3. Bank xizmatlari tahlili.
4. Bankning moliyaviy tahlili.
5. Bank xizmatlari ko'rsatshichlari.
6. Bank hisoboti va uning foydalanuvchilari.
7. Bank hisobotini taqdim etish tartibi.
8. Markaziy bank va tijorat banki majburichtlari.

4-BOB. BANKLARNING KREDIT SIYOSATI VA TEXNIKASI

1. Tijorat banklarining kredit siyosati, maqsadi va vazifalari
2. Bank kredit operatsiyalari va ularni turlari
3. Bank kredit siyosati va uni bulimlari
4. Banklarni kredit turlarini ko'paytirish yo'llari

Kreditlashni tashkil etish kredit munosabatlarining ikki sub'ekti – bank va qarz oluvchining o'zaro majburiyatlari hamda manfaatlarini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Kreditor sifatida banklarning olib boradigan faoliyati ular uchun me'yoriy bo'lgan xujjat kredit siyosatida o'z aksini topadi. Tijorat banklari kredit siyosatini mustaqil tuzadilar.

Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda, o'z kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlash faoliyatining muhim tomoni hisoblanadi. Tijorat bankining kredit siyosati kreditlarni boshqarishning asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2000 yil 2 martdagi «Tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar to'g'risida» gi Nizomiga asosan bankning kredit siyosatiga quyidagicha ta'rif beriladi: *Bankning kredit siyosati* – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir.⁷ Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart.⁸

Tijorat banklarining kredit siyosati kredit menejmentini samarali olib borishning asosi hisoblanadi. Bu siyosat bank xodimlarining kredit berish, bankning kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq ob'ektiv standartlarini va mezonlarini aniqlab beradi. Kredit siyosatini to'g'ri tuzish va olib borish, barcha bo'limlar tomonidan bu siyosat maqsadining aniq tushinilishi bank boshqaruviga kredit standartlarini to'g'ri olib borishiga, yuqori risklardan o'ochishga, bank imkoniyatlarini to'g'ri aniqlashga asos hisoblanadi.

Yaxshi ishlab chiqilgan kredit siyosati kredit riskini boshqarish va uni kamaytirishga yaxshi imkon beradi.

Kredit siyosatining zarurligi shundaki, bank katta yoki kichikligidan, unda kam yoki ko'p xodim ishlashdan qat'iy nazar, bankda bu siyosat bo'lishi lozim. Chunki bu siyosat kredit bo'yicha unifistirlashgan umumiy qoida va tamoyillarining bajarilishini, operatsiyalar bajarilishining ketma-ketligini ta'minlaydi. Bankning kredit siyosati bankning hamma xodimlari - kichik xodimdan yoki bank boshqaruv raisigacha bir xil bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham siyosatni oldindan belgilab olingan qoida va echimlarning to'plami deyiladi.

Kreditlash siyosati va uning samaradorligi to'g'ri kredit narxlar belgilangan sharoitida muvaffaq'iyatli bo'lishi mumkin.

Kredit siyosatini samarali olib borishda bank xodimlari bank mijozlarining mablag'larini kimlarga foydalanishga berish mumkinligini yao'qol bilishi lozim.

Bank qanday kreditlar, o'ancha miqdorda, qanday shaklda, kimga, qaysi shartlar bilan berilishini hal qilishi zarur. Biznesning shunday turlari borki, bank kredit bera turib ular bo'yicha tez qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun har bir faoliyat risk bilan bog'liq ekanligi hech qachon esdan chiqarmaslik lozim. Bankning kredit siyosati uning faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli holatlarning oldini olishiga, buning uchun depozitlar va kreditlar o'rtasidagi nisbatning, bank majburiyatlari bilan kapitali o'rtasidagi va boshqa ko'rsatkichlarning me'yorda bo'lishini taqoza qiladi. Oqilona kredit siyosat beriladigan kreditlarning sifatini oshiradi. Shuning uchun kredit siyosatining asosiy maqsadi - boshqaruv jarayoni, fondlarning etariligi, risklarni sifat darajasi bo'yicha turkumlari, kredit portfelining balansi, majburiyatlarning tarkibiy qismlarini ajratish kabi elementlarini o'z ichiga olmog'i lozim. Endi biz bank siyosatiga to'xtaladigan bo'lsak, bank siyosati - bankning depozit siyosati, kredit siyosati, foiz siyosati, valyuta siyosati, mijozlarga


⁷ O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T.: «O'ZBEKISTON», 2003 y. 326 b.

⁸ Abdullaeva Sh.Z. «Bank risklari va kreditlash». T.: «MOLIYA», 2002 y. 33-56 b.

kassa-hisob xizmatini ko'rsatish siyosati va boshqa bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha siyosati, banklarning likvidligini ta'minlash siyosati, kadrlar siyosati majmuasidan iboratdir. Shunday qilib, banklarning faoliyat siyosati quyidagi asosiy elementlardan tashkil topgan.

Kredit siyosati bank umumiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Buni biz quyidagi chizmadan ko'rishimiz mumkin.

Bank siyosatining asosiy elementlari



Kredit siyosatining mazmunini chuqurroq o'rganish maqsadida uning nimalardan tashkil topganini ko'rib chiqamiz.

Bank kredit siyosatining mazmuni quyidagilardan iborat:

- Bank kredit portfelini aniqlash va shakllantirish (kredit turlari, qoplash muddatlari, miqdori va sifati) bilan bog'liq masalalar;
- Bank raisining kredit faoliyati uchun javob beradigan o'rinbosari, kredit o'z-o'zidan raisi va kredit inspektoriga yuklangan vakolatlar ro'yxati (eng ko'p kredit summalari va turlari);
- Bankning kredit berish sohasidagi huquqlari va axborot taqdim etish bo'yicha jami majburiyatlar;
- Kredit arizalari bo'yicha tekshirish va qaror chiqarish tizimi bayoni;
- Kredit arizasiga ilova qilinadigan zaruriy hujjatlar va kredit ishida albatta saqlanadigan hujjatlar ro'yxati (qarzdorning moliyaviy hisoboti, kredit shartnomasi, garov, kafolat haqida shartnoma va hokazolar);
- Kredit ishlari saqlanishi va tekshirilishi uchun kim javobgarligi, kim va qanday holatda ularni olish huquqiga egaligi to'g'risida batafsil ma'lumotlar;
- Kreditning ta'minlanganligi va uni o'zlashtirish, baholash va amalga oshirishning asosiy qoidalari;
- Barcha kreditlar sifatini belgilaydigan me'yorlar bayoni;
- Eng yuqori kredit imtiyozlarini belgilash va ko'rsatish (ya'ni kredit summalari va bank yalpi aktivlarining eng yuqori nisbati);

- Bank xizmat ko'rsatadigan mintaq, kredit qo'yilmalarining asosiy qismi joriy etiladigan tarmoo', iqtisodiyot sohasi yoki sektori;
- Muammoli kreditlar tarkibi va tahlili, bunda muammolarni qanday hal etilishi ehtimollari ko'rsatiladi;

Qolgan hujjatlarda ta'qiqlanadigan yoki nomaqbul kredit turlari tavsiflanadi (to'lovga qodirligi shubhali bo'lgan yoki hujjatlar to'liq ro'yxatini taqdim etmagan qarz oluvchilar va hokazolar).

Kredit siyosati malakali tuzilib, bank rahbaridan tortib operatorgacha barcha darajalarda me'yorda amalga oshirilsa, bu bank rahbariyatiga to'g'ri qarorlar chiqarish, ortiqcha risklardan xolos bo'lish, bank kreditlarini to'g'ri baholash imkonini beradi. Shu bilan bir vaqtda kredit siyosati siyosiy, iqtisodiy va huquqiy shartlarni hisobga olgan holda ancha yumshoq bo'lishi darkor.

Har qanday tijorat banki kredit siyosatining maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo'ladi: kredit qo'yilmalari hajmining o'sishini, risk yuqori bo'lgan operastiyalarning oqilona diversifikastiyasini, o'rta va uzoq muddatli kredit qo'yilmalari hajmini keskin ko'paytirish va ularning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Shuningdek, kredit siyosatining asosiy e'tibori investition kreditlar salmog'ini oshirish, ustun darajada iqtisodiyotning real sektorini kreditlash, ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi asosiy yo'nalishlarni ham o'z ichiga o'amrab olgan bo'lishi lozim.

Kredit siyosati bankning o'ziga xos «kredit tili»ni yaratadi va u bank faoliyati yomonlashganda hamda kredit vakolatlari va majburiyatlari o'zgarganda huquqni saqlab qolish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qat'iy siyosat asosida berilgan bank umumiy kreditlash faoliyatining bank umumiy kreditlash faoliyatining rivojlanishi va kreditlarning samarali ishlatilishi uchun zamin yaratadi. Kredit siyosati qoidalariga rioya etish bankning asosiy maqsadlari: foyda olishni ta'minlash, risklarni boshqarish, bank faoliyati me'yorlariga rioya etishga erishish imkonini beradi.

Kredit siyosatining mavjudligi, eng muhimi – barcha darajalarda ishlab chiqilgan siyosatga rioya etish bank ssuda portfelini sifatli boshqarish uchun asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, uning qarzdorlari va akstiyadorlari foydasini ko'paytiradi va farovonligini oshiradi.

Masalan, aniq bir tijorat bankning kredit siyosatida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari qilib quyidagilar qilib belgilab olinganligini ko'rishimiz mumkin:

Bular:

- kredit risklarini darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, ularni baholash va bartaraf etish;
- qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvolini kredit riskini bashorat qilish;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash va ularni so'ndirish choralarini ishlab chiqish;
- kredit qo'yilmalarni diversifikastiya qilishni, ularning likvidliligini va daromadliligini ta'minlash;
- kredit olgan mijoz bilan doimiy aloqada bo'lib turish;
- kichik va o'rta tadbirkorlikni, dehqon va fermer xo'jaliklarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Bank tomonidan, xo'jalik sub'ektlarining aylanma mablag'lari etishmasligi, mavjud mablag'larning me'yordan ortiqcha tayyor mahsulot qoldiqlariga jalb qilinishi, mablag'larning tayyor mahsulot sifatida qotirib qo'yish sabablarini o'rganib borish, zararga ishlayotgan va bankrotlik alomatlari ko'zga tashlanayotgan xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy ahvolini doimiy monitoringini tashkil qilish bank kredit siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biridir.

Kredit siyosati bank tomonidan beriladigan kreditlar toifasi va turlarini aniqlashi va belgilashi lozim. Masalan, kreditlash sohalari bo'yicha: tijorat faoliyati, sanoat, qishloq xo'jaligi, kapital qo'yilmalarni moliyalash va boshqa tarmoqlarga kredit berish, kredit turlari bo'yicha: "kredit liniyalarini ochib va ochmay" kreditlash yoki kreditlashning boshqa usullarini qo'llashni belgilab berishi mumkin.

Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim, kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida rahbariyatga xabar berishlari lozim. Qarzdor yoki garov ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'o'tishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha «to'lovsizlik» tushunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, shuningdek, bank Boshqaruvi va Kengashining tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichiga olishi lozim. Kredit siyosatida qarzlarni qaytarishga doir izchil, boso'ichma-boso'ich chora tadbirlar ko'rilishini talab qilishi kerak. Rahbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kredit siyosatini ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank Kengashi va Boshqaruvi a'zolariga yuklatilgan. Odatda tijorat bankning kredit siyosati yo'nalishlari quyidagilardan tashkil topishi mumkin:

- bank o'zni va obro'sini moliyaviy-barqaror banklardan biri sifatida yaxshilash;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativlariga muvofiq darajada o'z kapitalining etarililigi ta'minlash;
- bankning samaradorligi va barqarorligini qo'llab-quvvatlagan holda uning daromadlarining maksimallashtirishini ta'minlovchi aniq kredit va investitsiya siyosatini o'tkazish;
- strategik jihatdan muhim shahar rayonlarida yangi omonat kassalarini ochish bilan bog'liq bo'lgan bank tarmoqini kengaytirish.

Kreditlash jarayonida bank siyosati bank oldidagi majburiyatlarni bajara oladigan mavjud va yangi mijozlarni kredit resurslari bilan ta'minlash, sinf darajasidagi kreditlarni taqdim etishni kengaytirish hisoblanadi. Tijorat banki foydaliligini hisobga olgan holda xalqaro standartlar miqyosida mijozlarga sifatli kredit xizmatini taqdim etishga intiladi. Shuning uchun bank-kredit siyosatining asosiy tamoyillariga quyidagilar kiritilgan:

- kreditlash to'g'risida qarorlar o'abul qilishning barcha darajalariga javobgarlikni taqsimlash;
- bank tomonidan amalga oshiriladigan kredit operatsiyalari uchun aniq belgilangan shartlarning mavjudligi;
- maxsus kreditlash tamoyillari – muddatlilik, to'lovlilik, qaytarib berishlilik, ta'minlanganlik va rentabellik asosida beriladigan kreditlarni majburiy nazorat qilish;
- bank boshqaruvining umumiy siyosati bilan maxsus faoliyat yo'nalishlari siyosati (ya'ni depozitlar bo'yicha, investitsiya bo'yicha, aktivlar va passivlarni boshqarish bo'yicha va hokazo) ning uzviy bog'liqligidir.

Hozirgi kunda kredit siyosatini tuzishda har bir tijorat banki mustaqil bo'lib, ular kredit siyosatining mohiyati, maqsadi va tarkibi takomillashtirib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning faoliyatida xo'jalik sub'ektlarini kreditlash funktsiyasi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lganligi uchun banklar faoliyatining samaradorligi va likvidiligi ta'minlash uchun avvalom bor banklarning kredit siyosatini to'g'ri ishlab chiqishga e'tibor berish zarur. Banklar oladigan daromadlar uning aktiv operatsiyalari natijasida, asosan kredit operatsiyalar tufayli vujudga kelishi banklar tomonidan kredit siyosatni oqilona tanlash va o'tkazishni takozo qiladi.

Kredit siyosati bank strategiyasining bir bo'laki sifatida kredit bozorida bankning harakat qilishidan ko'zlagan maqsadini, tamoyillarini va yo'nalishlarini o'z ichiga oladi, taktik jihatdan esa moliyaviy yoki boshqa instrumentlarni, kredit bitimlarni amalga oshirishdan bankning maqsadlariga erishish yo'nalishlarini va qoidalarini, hamda kredit jarayonini tashkil etish tartiblarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida xulosa qilib aytganda, kredit siyosati kredit risklarni kamaytirish orqali bankning xavfsizligi, likvidiligi va rentabelligini ta'minlash maqsadida kreditlash bo'yicha oldindan belgilangan qoida va echimlar majmuasi asosida tashkil qilingan kredit

portfelini boshqarish sohasidagi bankning strategiya va taktisidir. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa omillarni inobatga olgan holda mustaqil o'zining kredit siyosatini ishlab chiqishi va olib borishi mumkin.

Odatda ssuda operastiyalari bank foydasining asosiy kismini tashkil qiladi. Shuni inobatga olgan holda banklar o'z kredit siyosatini ishlab chiqishda va olib borishda ssuda operastiyalaridan keladigan daromad va ularning samarali olib borilishiga katta e'tibor berishlari lozim. Bankning kredit operastiyalarini olib borish va ularning samaradorligi uchun javob berish bankning direktorlar kengashi zimmasiga yuklatiladi. Direktorlar kengashi kreditlarni berish bilan bog'liq vazifalarni boshqaruvning quyi tabaqalariga yuklaydi. Kredit siyosati hay'ati kreditni qaysi sohalarga berish, kredit berishning umumiy tamoyillari, uni berishdagi cheklanishlar va boshqalarni ishlab chiqadi hamda shularning amalga oshirilishini nazorat qilib borishi lozim.

Xorijiy davlatlarning yirik banklarida yozma ravishda bankning kredit siyosati to'g'risida memorandum ishlab chiqiladi va barcha bank xodimlari o'z faoliyatini shu memorandum asosida olib borishlari zarur. Memorandumning tarkibi har bir bankning faoliyat xususiyatini hisobga olgan holda har xil bo'lsada, u bank faoliyatining asosiy yo'nalishlarini qay tario'ada olib borishni o'z ichiga oladi. Memorandumda olib boriladigan siyosatning asosiy, masalan ko'proq ishonchli va foyda keltiruvchi kreditlar berish, kreditlar berishda mavjud kredit resurslarni hisobga olish, beriladigan kreditlarning risklilik darajasini hisobga olish, kredit berishning oxirgi chegarasini belgilab berish va boshqalar ko'rsatiladi.

Hujjatda qaysi kreditlarni berish bank uchun foydali va qaysi kreditlarni berishdan bank saqlanishi lozimligi, bank xodimlariga kreditlar berish, kreditlarning sifatini nazorat qilish shakllari va boshqalar ko'rsatiladi.

Buning uchun quyidagilar aniqlanadi:

- bank uchun mas'ul bo'lgan kreditlar turlari;
- qanday kreditlar, berishdan bank o'zini tutishi;
- ko'ngildagiday bo'lgan qarzlarning tarkibi;
- ko'ngilsiz qarzlarning tarkibi;
- bankning kreditlash bilan bog'liq faoliyati doirasi;
- bankning o'z xodimlariga kredit berish doirasidagi siyosati;
- qarzdorlikning har xil darajalariga ko'ra kreditlarning hajmini o'isqartirish;

kredit riskini boshqarish, tekshiruv va nazorat doirasidagi bankning siyosati.

Yirik bir amerika banklarining memorandumi sxemasi 5 bo'limni, ya'ni umumiy qoidalar, kreditlar kategoriyasi, kredit siyosatining har hil masalalari, kredit portfeli sifati ustidan nazorat hamda bank o'omitalarini o'z ichiga oladi (ilova №1).

1-ilovadan ko'rinib turibdiki, kredit siyosati bo'yicha memorandum umumiy tavsiya va yo'llanmalarini o'z ichiga oladi va u bank xodimlarining amaliy ishbilarmonligini cheklab qo'ymaslikni ta'minlaydi.

Hozirgi kunda tijorat banklari mustaqil ravishda o'z kredit siyosatini ishlab chiqadilar. Lekin amaliyot shuni ko'rsatadiki, ba'zi banklar faoliyatida bu siyosatni ishlab chiqishda ma'lum kamchiliklarni ko'rish mumkin. Birinchidan, kredit siyosatini ishlab chiqishda ko'proq bosh banklar aktiv rol o'ynab ular har doim ham bankning quyi bo'g'inlarining kredit ishlarini inobatga olmaydigan holatlarni uchratish mumkin.

Ikkinchidan, bank salmog'i katta-kichikligidan qat'iy nazar har bir bank xodimi bankning kredit siyosatining hech bo'lmaganda maqsadi, umumiy yo'nalishlari bilan tanish bo'lishi, ularning bajarilishi bo'yicha faoliyat olib borish lozim.

Ko'pgina tijorat banklarining kredit siyosatida asosiy e'tibor kreditlar barishi bo'yicha erkinlik, kredit turlari, kreditlarni to'lash, foiz stavkalari, kredit bo'yicha garov qiymati va uning bahosi, mijoz to'g'risida moliyaviy axborot, o'z vaqtida to'lanmagan va muddati kechiktirilgan kreditlar, bank kengashi va boshqaruvchiga beriladigan hisobotlar, kreditlarning konstantrastiyasi, aloqador shaxslarning ishlash tamoyillari, riskni baholash, kredit portfelini audit qilish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga olishi ko'zda tutilgan bo'lsada, ularning mohiyatini ochib berishda ba'zi bir noaniqliklar mavjud edi. Masalan, kreditlarni konstantrastiya qilish to'g'risidagi yo'nalishida

kreditlarning turi, xududiy joylanishi va boshqa belgilari bo'yicha konstantraziya qilish lozim deyilsa, yana shunday kreditlar konstantraziyasi banklarini katta zararlarga quyishi mumkinligi ta'kidlanadi yoki mijozlarning moliyaviy ahvolini ifodalovchi kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumotlarni ifodalovchi kreditning bahosi va samaradorligini ko'rsatuvchi yo'nalishlar keltirilmagan. Tijorat banklari kredit siyosatini ishlab chiqishda ish yo'nalishlar bo'yicha aniq ma'lumot va hujjatlarga ega bo'lishi, va kredit siyosati sifatida rejalashtirishlari, bizning fikrimizcha banklarni katta risklardan oldindan himoya qilishi mumkin. Undan tashqari yuqorida keltirilgan kreditni konstantraziyalash bo'limi o'rniga kreditlarni diversifikatsiyalash yoki kredit portfelini boshqarish bo'limi deb kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Banklar tomonidan beriladigan kreditlar respublikani iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga, infrastrukturani takomillashtirishga, ustuvor, eksport salohiyatini kengaytiruvchi sohalarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Tijorat bankining kredit siyosati va kredit bozorini tahlil qilish va eng kichik kredit riskka ega bo'lgan maqsadli bozorlarni aniqlash; mablag'larni depozitga jalb qilish; kreditlash jarayonida yuqori samaradorlikka erishish; bankning depozit va kredit portfelini boshqarishni optimallashtirish; muammoli kreditlar salmoYoini kamaytirish; bankning likvidiligi va to'lovga layoqatlilikini ta'minlash kabi masalalarni o'z ichiga olishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora- tadbirlar to'g'risida" gi 21 mart 2000 yildagi farmoni tijorat banklarining faoliyatini olib borishda va ularning kredit siyosatini tuzishda to'la erkinlik va mustaqillik berilishiga yo'l ochib beradi. Endilikda tijorat banklari o'zlarining mustaqil kredit siyosatini ishlab chiqmoqdalar. Chunki hamma banklar uchun to'g'ri keladigan, yagona kredit siyosati mavjud emas. Alohida olingan tijorat banki bankning faoliyatiga ta'sir qiluvchi ichki va tasho'i risklarni inobatga olgan holda mintaqa, viloyat, tumandagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy holatdan kelib chiqish o'z kredit siyosatini ishlab chiqishlari kerak. Bankning aniq kredit siyosatiga ega emasligi bank risklarini oshiradi. Kredit siyosatining aniq emasligi belgilab qo'yilgan vazifalarining to'liq bajarilishiga va undan kutilgan samaraga erishishga to'sqinlik qiladi.

Bankning kredit siyosatini olib borish uchun kredit portfelining samarali natijasini ta'minlashni ko'zda tutganligi uchun banklarning kredit portfelini tashkil qilishga ta'sir qiluvchi omillar ichida banklar xizmat ko'rsatish bozorining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan har bir bank o'zi tanlagan bozor sektoridagi asosiy mijozlarning qarz mablag'iga bo'lgan talabini hisobga olishi kerak.

Bankning foiz siyosati kredit siyosatining asosiy bo'limi hisoblanadi. Bu siyosat turli kreditlar va qarzдорlar bo'yicha belgilanuvchi foiz stavkalarini aniqlashda foydalaniladigan quyidagi 3 omillarni o'z ichiga oladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi;
- 2) kredit resurslari (o'z va jalb qilingan mablag'lari) manbalari;
- 3) kreditlash va qarzдорlar turlari va yo'nalishlari.

Jalb qilingan kredit resurslarini boshqa tijorat banklari hamda markazlashtirilgan fondlaridan sotib olish sifatida foydalangan holda kreditlardan foydalanish uchun foizlar jalb qilingan resurslar summasi plyus bank (daromadi) marjasi oro'ali aniqlanadi. Bu 3 dan 7% miqdorgacha oshmasligi kerak.

Garov ta'minoti bo'yicha talablar aniq sifatli xarakteristikalariga mos bo'lishi kerak, ya'ni (saqlash) uzoq muddat saqlashning mavjudligi; narxlarning nisbatan barkarorligi; garovga qo'yiladigan jihoz, mulkning bozor talablariga mos kelishi, likvidiligi va boshkalar.

Favo'ulotda holatlar yuz beradigan bo'lsa, garov egasi garov mulkini o'z hisobidan uning to'liq qiymatini sug'urta qilish uchun tayyor bo'lishi kerak.

Garovga olingan mulk qiymati kredit summasiga nisbatan 20% yuqoriroo' bo'lishi darkor.

Tijorat banklarining kredit taqdim etishdagi asosiy vazifasi – omonatchilarning pullarini kimga ishonib topshirish mumkinligini hal etishdan iborat. Bu faoliyat o'ta muhim va o'ta ta'sirchan jarayon bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish sarmoya tuzilmasidagi leverajni jiddiy

oshirish imkonini beradi. Bank kreditlarni qachon, kimga va qanday shartlarda berishni aniq belgilab olishi shart.

Bank faoliyati doimo turli risklar bilan bog'liq. Shuning uchun kreditlar, depozitlar va boshqa majburiyatlar bilan o'z mablag'lari o'rtasida maqbul muvozanatni saqlash bankning eng muhim maqsadlaridan biridir. Oqilona kredit siyosati bank kredit portfelini sifat jihatdan tartibga solish qo'lamini, mablag' olish imkoniyati, eng yuqori risk darajasi, ssuda portfeli manbalari va muddatlari bo'yicha mutanosibligini, bank majburiyatlari va aktivlari tuzilmasini mosligini hisobga olish kerak. Kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari bank direktorlari Kengashi tomonidan belgilanadi.

Bank murakkab va muntazam o'zgarib turadigan iqtisodiy sharoitlarda, avval hech qachon duch kelinmagan Yoki to'liq hal etilmagan vazifa (masalan, risk konstepstiyasini ishlab chiqish va ssudalar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni ko'ra bilish, kreditlar jamlanishi hisobini yuritish va iqtisodiy sharoitning qarzdorlar daromadlariga o'anchalik ta'sir ko'rsatishini aniqlash) ko'ndalang turganida kredit siyosatining o'rni ayniqsa muhimdir. Kredit siyosatini ishlab chiqish foyda olish va samarali ish yuritish holati saqlangan holda, bozor ehtiyojlari qondiriladigan eng yuqori risk darajasini aniqlashni taqozo etadi.

Kredit siyosati bankning o'ziga xos «Kredit tili» ni yaratadi. Bu siyosat bank faoliyati Yomonlashganda hamda kredit vakolatlari va majburiyatlari o'zgarganda huquqni saqlab qolish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qat'iy siyosat asosida yaratilgan kredit tili bank umumiy kredit siyosatining rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Mas'uliyatli shaxslar kredit siyosati bilan tanishishlari hamda unga to'liq muvofiq ishlashlari shart. Kreditlarni tanlab, tasdiqlanganida va hatto berilgandan keyin ham ularga qat'iy rioya etish zarur. Ular tashqi va ichki auditorlar, mustaqil kreditni tahlil qilish xizmatlari, direktorlar Kengashi va tartibga solish organlari tomonidan nazorat etiladi.

Kredit siyosatidan har qanday chetlanish to'liq xujjatlashtirilishi, asoslanishi va istisnalar tusiga ega bo'lishi shart.

Shu tariqa, kredit siyosatini qat'iy va batafsil ishlab chiqish har qanday bank uchun katta ahamiyat kasb etadi va u kreditlash tadbirlari mazmunini ayonlashtiradi. Bu tadbirlarni amalga oshiradigan xodimlar majburiyatlarini belgilab beradi. Kredit siyosati qoidalariga rioya etish bankning asosiy maqsadlari: foyda olishni ta'minlash, risklarni boshqarish, bank me'yorlariga rioya etishga erishish imkonini beradi.

Kredit siyosatining mavjudligi, eng muhimi – barcha darajalarda ishlab chiqilgan siyosatga rioya etish bank ssuda portfelini sifatli boshqarish uchun asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, uning qarzdorlari va akstiyadorlari foydasini ko'paytiradi va farovonligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda tijorat bankining kredit siyosati bankning kreditlashni amalga oshirishdagi maqsadi va strategiyasini, kredit berish jarayonida bank xodimlarining vakolat darajasi va mas'uliyatini, tijorat banki tomonidan beriladigan kreditlarning turlari va toifasi, bank krediti yo'naltiriladigan iqtisodiyot sohalarini belgilab olish, kreditlash usullari, kreditlash ko'rsatkichlari, kreditlarni qaytarib to'lash shartlari va qoidalar, kreditning muddati, qarzdorlikni undirib olish bo'yicha chora-tadbirlar, yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar, mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida ifoda qiluvchi qarzdorlarning faoliyatiga oid moliyaviy axborotlar, garov ta'minotiga qo'yiladigan talablar, kredit monitoringiga qo'yiladigan talablar, foiz stavkalari bo'yicha bajariladigan operastiyalar, ko'zda tutilmagan holatlar moddalari, kredit portfelini audit qilish bo'yicha talablar, bank Boshqaruvi va Kengashiga taqdim qilinadigan hisobotlar bo'yicha talablarni o'zida ifoda qilishi lozim.

Jahon iqtisodiy inqirozi kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilash alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

«Faqat 2008 yilning o'zida "O'zsanoatqurilishbank", "Asakabank", "Paxtabank", "G'allabank" kabi etakchi banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha qator muhim qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashning asosiy kredit markazlaridan biri bo'lgan "Mikrokreditbank"ning

nizom jamharmasini ko'paytirishga oid farmoni qabul qilingani ham shu yo'ldagi amaliy ijodam bo'ldi.

Natijada mamlakatimiz banklarining jami kapitali, qo'shimcha resurslarni jalb etish hisobidan, 2007 yil bilan taqqoslaganda 40 foizga ko'paydi. Bu ko'rsatkich 2010 yilgacha bo'lgan davrda ikki barobar oshadi.

Ayni paytda banklarimizning umumiy aktivlari hajmi aholi va yuridik shaxslarning hisob rahamlaridagi mablag'lardan ikki barobardan ham ko'pdir. Bu esa ushbu mablag'larni ishonchli himoya qilish hamda ularga o'z vaqtida va to'la hajmda xizmat ko'rsatishni kafolatlaydi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan fuharolarning banklar depozitlaridagi omonatlari, ularning miqdoridan qat'i nazar, davlat tomonidan to'la kafolatlanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimi kapitalining etarlilik darajasi Bank nazorati bo'yicha xalharo Bazel qo'mitasi talablari asosida belgilangan xalqaro standartlardan hariyb uch barobar ko'p ekanini ta'kidlash joiz.

Hozirgi vaqtda respublikamiz bank tizimining umumiy joriy likvidligi dollar hisobida 1,5 milliard dollardan ortiqdir. Bu tashqi nodavlat qarzarlar bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan to'lovlar hajmidan 10 barobar ko'pdir. Bu esa bizda likvidlik, ya'ni to'lovlarga qodirlik darajasi bo'yicha muammo yo'q, deb aytish uchun asos beradi»⁹.

Banklarning kredit siyosatiga muvofiq kreditlash strategiyasini shakllantirish, kredit portfelini samarali yuritish, kredit berish va monitoring olib boruvchi bank tarkibiy tuzilmalari faoliyatini nazorat qilish kredit qo'mitasi tomonidan olib boriladi. Kredit qo'mitasi vazifalari, funktsiyasi hamda huquq va vakolatlari Kredit qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda belgilab qo'yiladi. Mijozga kredit ajratish, lizing va faktoring amaliyotlarini amalga oshirish Kredit qo'mitasi va kredit komissiyalarining mutlaq vakolatiga kiradi. Kredit qo'mitasi kredit ajratishdagi vakolatlarichegarasi bank Kengashi tomonidan, filial Kredit komissiyalari kredit ajratish vakolatlari chegarasi Kredit qo'mitasi taklifi bilan bank Boshqaruvi tomonidan belgilanadi. Uchichi shaxslar majburiyati yo'zidan bank kafolati filial Kredit komissiyalvri tomnidan Kredit qo'mitasi rolziligi bilan beriladi.

Kreditlash jarayonini tashkil qilish va uning ustidan nazorat yuritish Kaznacheylik tomonidan amalag oshiriladi. Kaznachey bank kredit amaliyotlari yuzasidan ko'zatuvchi, nazoratchi va ma'muriyat funktsiyalarini bajaradi. Kaznacheylik, tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llash va monitoring Boshqarmasi, Tashqi iqtisodiy faoliyati va loyihaviy moliyalashtirish Boshqarmasi, Yuridik bo'lim, Muammoli aktivlar bo'limi, Ichki audit xizmati va filial kredit komissiyalari kreditlashni tashkil qilish va monitoring yuritish bo'yicha mas'ul tarkibiy tuzilmalar hisoblanadi. Zarur bank kredit qo'mitasi (uning raisi) butun bank bo'yicha, filial kredit komissiyalari (uning raislari) filialdagi har qanday tarkibiy tuzilmasini yoki bank xodimini kreditlash, monitoring yuritish va ularni undirish bilan bog'liq tadbirlarga jalb qilish vakolatiga ega hisoblanadi. Bank Kaznachey kredit portfeli ustidan yalpi nazorat yuritadi. Bank filiallari tomonidan kredit ajratishda tavakkalchilining to'g'ri baholanishi, kredit berish tamoyillari va iqtisodiy me'yorlarga rioya qilinishi, kreditlashning to'g'ri amalga oshirilishi va ularning o'z vaqtida so'ndirilishini nazorat qilish ob'ektlarining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llash va monitoring boshqarmasi bank kredit siyosatida kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish, tadbirkorlik sub'ektlarini qonunchilik talablariga mos ravishda kreditlanishi yuzasidan umumiy nazorat yuritadi. Boshqarma bank Imtiyozli kreditlash jamg'armasi va byudjetdan tashqari jamg'armalar kredit liniyalar hisobidan kreditlashning sifat va samaradorligi, ularning to'g'ri amalga oshirilishi yuzasidan ma'muriyat va bosh mas'ul tarkibiy tuzilma hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va loyihaviy moliyalashtirish Boshqarmasi mijozlarni erkin ayirboshlanadigan valyuta va chet el moliya institutlar va banklar mablag'lari hisobidan kredit ajratish bo'yicha umumiy nazorat yurituvchi tarkibiy tuzilma hisoblanadi.

⁹I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi.O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.»O'zbekiston .T.2009.y.

Mijozlarni kreditlashda amaldagi qonun hujjatlariga va bank ichki me'yoriy hujjatlariga rioya qilinishini o'rganib borish, so'ndirilmagan kreditlar bo'yicha sud-da'vo ishlarini tashkil qilish, undirilgan mulklarni sotish bo'yicha tadbirlarda ishtirok etish, shu yo'nalishda sud va boshqa huquqni muhofaza qilish idoralariga murojaatlar kiritish va ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish Yuridik bo'lim tomonidan, filiallarda yurist-maslahatchilar tomonidan amalga oshiriladi. Bankning muammoli akitivlar bo'limi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va yuzaga kelgan muammoli aktivlarni aniqlash, ular bo'yicha muammolarni hal qilish, kredit evaziga olingan va olinayotgan mulklarni baholash va qayta baholash hamda sotishda ishtirok etadigan mas'ul tarkibiy tuzilma hisoblanadi.

Bankning kredit siyosatini izoxlashda, boshqaruv organlari tomonidan kreditni foydaliligini ta'minlash uchun, eng asosiylaridan biri bu belgilangan standartlarga rioya qilinishidan iborat bo'ladi. Bunday izoxlash kredit inspektorlari va bank rahbariyatiga tavsiya etiladi. Kredit siyosatini to'g'ri tashkil qilish, bankning kredit portfelini tartibli tashkil qilinganligini aks etiradi. Agarda kredit siyosati effektivligi to'g'ri tashkil qilinmasa eki amalga oshirilmasa rahbariyat tomonidan bu siyosat qayta ko'rib chiqilishi va chora tadbirlar qayta ko'rib chiqish kerak. Bankning kredit siyosati o'z ichiga nimalarni kiritishi kerak.

1. Kredit portfelini tashkil etishdan maqsad, ya'ni yaxshi kredit portfeli xususiyatlarini ko'rsatish; kredit turlari; qaytarish muddati; xajmi va sifati shulardan iborat bo'ladi.

2. Kredit berish sohasida, vakolatlarni izoxlashda, belgilangan kredit inspektorlari va kredit qo'mitasi o'rtasida taksimlab berish(maksimal pul mablagi va kredit to'rini, belgilangan xodim va kerakli imzo orqali tasdiklanishidir).

3. Kredit boshqarmasi tomonidan huquqlarni berish majburiyati va ma'lumotlarni etkazishlar chegaralanishi.

4. Iltimosnoma (praktika) amaliyoti, tekshiruvlar, baho berishlar va mijoz kredit talabnomasi ustidan qaror qabul qilinishi.

5. Har bir kredit talabnomasiga kerakli xujjatlarni ilova qilish va shu kabi xujjatlar, ya'ni kredit papkasida saqlanmogi shart.

6. Bank xodimlari huquqlarini tulik ko'rsatilishi, kredit xujjatlarini tekshirilishi va saklanishining javobgarligi.

7. Asosiy usul koidalari, baholari va kredit ta'minotini amalga oshirilishi.

8. Siyosatni va amaliyotlarni izoxlash, foiz stavkasini urnatish va kredit qaytarilishi shartlari bo'yicha komissiyani belgilash.

9. Kreditlarga kullanilaetgan standartlarni sifatini izoxlamok.

10. Kredit mablaglari sarfining maksimal ulchamini ko'rsatmok (ya'ni kredit mablaglarinig sarfi maksimal ruxsat etilgan darajadagi nisbati va aktivlar tuplamiga).

11. Xizmat ko'rsataetgan bankning regioni, izoxi va kredit qo'yilmalarini asosiy qismi kayerga yunaltirilganligi.

12. Tahlilning aniqlanish amaliyotini izohlash va muammoli kreditlarga bog'liq bo'lgan xolatdagi qarori.

Bankning kredit siyosati, davlatning pul kredit siyosati va iqtisodiyotdagi axvolni hisobga olgan holda shu regionni xo'jalik xolatini urganib chiqib, ishlab chiqiladi. Misol tarikasida ikkita bankning kredit qo'yilmarini yo'nalishini mijozlar turlari bo'yicha kredit portfelini ko'rib chiqamiz. A bank qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan bank bo'lib, bunda asosan ajratilgan kreditlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishga va ularni qayta ishlashga berilgan. Bu kreditlarni yo'nalishi bo'yicha ko'rib chiqamiz.

1-jadval

"A" banki tomonidan berilgan kreditlar

Yo'nalishi bo'yicha	Mln. sum	foiz %
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish jamoa xo'jaliklar	44	37
Sanoat kurilish korxonalari	34	28
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta	27	22

	ishlovchi korxonalar		
	boshqalar	16	13
	Jami	121	100

B bank ixtisoslashmagan universal tijorat bank bo'lib, bunda asosan kreditlar har-xil tarmoqdagi korxonalarga berilgan buni biz quyidagi jadvalimizdan ko'rib chiqishimiz mumkin.

2-jadval

“B” banki tomonidan berilgan kreditlar

	Yo'nalishi bo'yicha	mln. sum	foiz. %
	Savdo tashkilotlari	130	32
	Ishlab chiqarish korxonalari	121	30
	Maishiy xizmat korxonalari	41	10
	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari	61	15
	jamoa korxonalar	40	10
	boshqa korxonalar	12	3
	Jami	405	100

Har bir boshqaruvchi kredit portfelini analiz qilishda, kredit portfeli strukturasi e'tiborini qaratishi kerak. Bu ikki bankning kredit portfelini strukturasi ko'rib chiqib, ularga baho beramiz. A bankimiz ko'rib turganimizdek qishloq xo'jaligiga moslashgan bank bo'lib, uning 37 foizi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi jamoa xo'jaliklarida, 28 foizi sanoat kurilish korxonarida, 22 foizi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida, 13 foizi esa boshqa turdagi korxonalarga yunaltirilgan. Ko'rib turganimizdek, kreditlarni diversifikatsiyalash asosan bitta tarmoq bo'yicha, ya'ni ularning 59 foizi qishloq xo'jaligiga yunaltirilgan. Bu kreditlar mavsumiy harakterga ega bo'lib, kreditni kaytmaslik riskini oshiradi. Buni yakindan tahlil qiladigan bulsak kreditlarning asosiy qismi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishga berilgan. Bizga ma'lumki qishloq xo'jaligi sektori mavsumiy harakterga ega bo'lib, u tabiatdagi obixavoni emon kelishi okibatida muljallangan xosilni etishtira olmasligi mumkin. Bo'larning hammasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarini ish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va natijada qishloq xo'jaligini qayta ishlovchi korxonalarining olgan kreditlari ham ma'lum darajada riskini ko'payishiga olib keladi. Sanoat kurilish korxonalariga berilgan kreditlar umumiy kredit portfelini 28 foizini tashkil eilib, ularning kreditlarini risk darajasi ishlab chiqargan mahsulotiga va ko'rsatayotgan xizmatlariga bog'liqdir. Agar korxona mahsuloti xalqaro standartlar darajasiga javob bersa va shu ishlab chiqarilaetgan mahsulotga talab bulsa, bu korxonalarining kreditlarini risk darajasi qonikarli deb hisoblanadi. Yana bir narsani hisobga olish kerakki mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona xomashe etkazib beruvchi korxonaga bog'liq bulmasligi kerak. Agar xomashyo etkazib beruvchi korxonalar kam bulsa, mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonaning ishi sekinlashadi va xomasheni monopol narxlarda sotib oladi, ishlab chiqargan mahsulotini bahosi qimmatga tushib ketadi va natijada mahsulotga talab kamayadi. Bu esa korxonaning olgan kreditlarini qaytmaslilik riskini oshiradi.

B bank ixtisoslashmagan universal tijorat bank bo'lib, bunda asosan kreditlarni diversifikatsiyalash bir necha yo'nalishdagi korxonalar bo'yicha bo'lgan. Jumladan : savdo tashkilotlari 32 foiz; ishlab chiqarish korxonalari 30 foiz; maishiy xizmat korxonalari 10 foiz; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari 15 foiz; jamoa xo'jaliklari 10 foiz va boshqa turdagi korxonalar 3 foizni tashkil qiladi. Bo'lardan eng ko'p kreditlar savdo tashkilotlariga berilgan kreditlar. Bo'lar asosan tez oborot buluvchi qisqa muddatli kreditlar bo'ladi va bankka stabil daromod keltirib turadi. Kreditlar ajratilaetganda bank xodimlari tomonidan, savdo tashkiloti chakana savdo uchun olib kelmokchi bo'lgan mahsulotini talab darajasini urganib chiqishi, ya'ni marketing bilan shueullanganligini bilish kerak. Agarda sotiladigan tovarlar bozor talablariga javob bermasa, haridorlari ko'p bulsa ajratilgan kreditlar riskga tortilmaydi. Ko'rib turganimizdek

V bankning tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyalash yaxshi darajada tashkil qilingan deb hisoblashimiz mumkin.

Yuqorida ko'rib utganimizdek banklarda kredit siyosati qanday yo'lga kuyilishi va kreditlarni berilishi bir tarmoqlarga emas, balki bir necha tarmoqlarga berilishi kerak. Bo'lar bankning kredit siyosatini to'g'ri tashkil qilinganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklari faoliyatining barqarorligi va raqobatbardoshligi ularning resurslarini to'g'ri tashkil qilish ulardan unumli foydalanishga bog'liq.

Banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o'rinni egallash uchun ularning kredit portfelini tashkil etishi kasb etadi.

Banklarning kredit portfeli uning xolati to'g'risida fikr berishdan oldin dastlab kredit portfelining iqtisodiy mohiyatini tushunib olishimiz kerak.

Bank tomonidan beriladigan barcha kredit operatsiyalar ularning kredit portfelida o'z ifodasini topadi. Har bir bank kredit portfelining sifatli bo'lishiga erishish zarur.

Banklarning aktiv operatsiyalari deb banklarning o'zining kapitali va jalb qilingan mablag'larini daromad olish maqsadida joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalariga aytiladi.

Aktiv operatsiyalar 4-guruxga bo'linadi.

Xo'jalik sub'ektlarni kreditlash bilan bog'liq bo'lgan kredit operatsiyalari.

Banklarning investitsion operatsiyalari.

Mijozlarga kassa va hisob operatsiyalari.

Zarur infrastrukturani tashkil qilish bilan bog'liq boshqa aktiv operatsiyalar.

Banklarning kredit portfeli deb kreditlarning sifati va tarkibi bo'yicha turkumlanishdir. Kredit portfelining sifat bo'yicha tavsifi kreditlarning qaytarilishi va kredit riskining qisqartirilishini bank tomonidan ta'minlanishini baholashda qo'llaniladi.

Kreditlarning belgilangan muddatda qaytarilishi qo'yidagi sabablarga bog'liq:

-aloxida olingan banklarda kredit berish jarayonining tashkil qilinishi darajasi:

-ssudalar berilishi va qaytarilishi tartibiga amal qilinishi darajasi:

-ssudalar va ayniksa muddati o'zaytirilgan va muddati o'tgan, ssudalarni hisobga olish jarayonini to'g'ri aks ettirilishi:

-ssudalarning to'g'ri tasniflanishi:

-ssudalar bo'yicha extimoliy yo'qotishlarga ajratilgan zaxiralar miqdori.

Kredit portfeli uning mohiyatini ochib berishda qo'yidagi omillarni inobatga olish kerak.

-kreditlar bo'yicha risk darajasi

-kredit berish ob'ektlari

-kredit foydalanish muddati

-kreditning xajmi va ta'minlanganligi

-mijozning moliyaviy xolati, mulk shakli va x.k.

Kredit portfeli faqat normal kreditlarni emas, balki muddati o'tgan kreditlarni ham o'z ichiga oladi.

Kredit risklarning darajasi banklarning kredit portfelini ifodalovchi mezonlardan asosiysi hisoblanadi. Aynan shu ko'rsatgich darajasiga qarab kredit portfelini baholash va taxlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Banklarning kredit portfelini tashkil qilishning asosiy maqsadi bankning kredit siyosati soxasidagi strategiyasini ishlab chiqish, kreditlarning sifatini taxlil qilish va uni yaxshilash choralarini ishlab chiqarish kerak.

Banklarning kredit portfelini tashkil qilishda:

-kredit risklarini darajasini inobatga olgan xolda ularning sifatini baholash mezonini tanlash:

-ular asosida kredit sifatini baholash usullari.

-kreditlarni turkumlash

-har bir kredit guruxi bo'yicha risk foizi darajasini aniqlash

-har bir kredit va bank bo'yicha kredit riskini absolyut so'mmasini aniqlash.

-koeffitsientlar bo'yicha kredit portfelining sifatiga baho berish.

Kredit portfelini tashkil qilishda kreditning asosiy tamoyillari maqsadlilik , muddatlilik, ta'minlanganlik, to'lovga qobiliyatligi va qaytarib berish tamoyillariga rioya qilgan xolda olib boriladi. Kreditlash tamoyillarini buzilish kredit portfelini sifatini tushib ketishiga olib keladi.

Shunisi xususiyatliki Respublika banklari tomonidan berilgan kreditlar tarkibida shubhali ishonchsiz kreditlar xam mavjud bo'lib ohirgi davrda ularning salmog'i kamayib bormoqda. Respublika bo'yicha substandart kreditlar xajmi 1G`X 2004 yilda 1G`I 2001 yilga nisbatan 0,7 punktga, shubhali kreditlar 0,2 ishonchsiz kreditlar esa 0,1 punktga kamaygan.

Tijorat banklari faoliyatida xavfli bo'lgan kredit qo'yilmalar – muammoli kreditlar xisoblanadi. Muammoli kreditlar odatda qarz oluvchining kreditni to'lashi uchun etarli pul mablaqlari bo'lmagan xollarda yuzaga keladi.

Ba'zi xolarda ular mijozning schyotidagi mablag'larning bo'la turib kreditni to'lashni xoxlamaganda xam yuzaga kelishi mumkin. Pul mablag'larining etishmovchiligining ichki va tashqi belgilari bo'lishi mumkin. Shuning uchun bank doimo mijozining faoliyatidan doimo baxobar bo'lishlari o'zi uchun zarur axborotlarni yig'ib tahlil qilish kerak.

Bank xodimlari muammoli kreditlar yuzaga kelganini aniqlanganida qo'yidagilardan amalga oshirishi kerak:

- ✓ qarz oluvchining muammolarini tahlil qilish;
- ✓ Mijozning moliyaviy ahvoli to'g'risida raxbariyatni xabardor qilish;
- ✓ Mijozning umumiy tashkiliy asosi;
- ✓ Kredit xujjatlarini kafolat, garov, veksel shartnoma va boshqalarni ko'rib chiqish;
- ✓ Muammoli xolatdan chiqish rejasini ishlab chiqarish.

Banklar muammoli kreditlar bo'yicha extimoli yo'qotishlarga zaxiralar ajratishlari, zaxira fondlari etariligi eng kamida 1 oyda bir marta ko'rib chiqilishi kerak.

Substandart va shubhali kreditlar bo'yicha barcha extimoli yo'qotishlar ssudaning amal qilish muddati davomida zaxira fondiga yaxshi va standart aktivlar uchun extimoli yo'qotishlar esa kelgusi 12 oy davomida zaxira fondiga kiritilishi kerak.

Iшонchsiz kreditlar esa xisobdan chiqarilishi va zaxira fondi shu zaxoti kerakli miqdorga qisqartirilishi kerak.

4-jadval.

Kreditlarni sifati bo'yicha shakllantirilishi lozim bo'lgan zaxiralar normasi

Kreditlarning sifati bo'yicha sinflari	Ehtimolli yo'qotishlar bo'yicha zaxiralar uchun ajratmalar normasi
Yaxshi	-
Standart	10%
Substandart	25%
Shubhali	50%
ishonchsiz	100%

Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar sifatining pastligi ularni to'lash bo'yicha muammolarni ko'pligi bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kreditning manbalari, ta'minlanganligi, muddatlari va boshqalar bo'yicha taxlil qilish mumkin. Banklarning kredit operatsiyalari kata risk bilan bog'liq bo'lganligi tufayli biz respublika banklarining kredit portfelini tahlil qilib, undagi ahvol, kredit operatsiyalar Bilan Kredit potrfelini boshqarishda asosiy o'rinni aloxidla olingan ssudalarning sifatini baholash me'zonlarini ishlab chiqish asosiy o'rinni egallaydi. Jahon amaliyotida banklar tomonidan berilgan kreditlarning sifatini baholashning 10 xildan ortiq yunalishlari mavjud. Kreditning sifatini baholash kreditning maqsadi, uni to'lash usuli. Mijozning kreditga layoqatlilik darajasi, uning kaysi tarmoqqa ta'lukli ekanligi va mulk shakli, mijozning bank bilan munosabatining harakteri, bankning mijoz to'g'risida to'liq

axborotga ega ekanligi va uning etariligi darajasi, ssudalarning ta'minlanganligi xajmi va boshqa mezonlar kiradi.

Rossiyada kreditlar sifatini baholash ko'rsatkichlari cheklangan bo'lib, xozirgi kunda Rossiya markaziy banki yo'riqnomasiga binoan bu soxada ikkita me'zon qo'llaniladi. Bular ssudani qaytarishni ta'minlash darajasi va oldindan berilgan ssudalarni to'lashning haqiqiy xolati hisoblanadi.

Bank aktivlarining sifatini aniqlashga ularning kredit portfelini o'rnatilgan me'yorlar asosida tavsiflab chiqish orkali erishilishi mumkin. O'zbekistonda 1996 yil iyulidan boshlab Markaziy bank tasdiqlagan ko'rsatmaga asosan tijorat banklari aktivlarini tavsiflash va ssudalar bo'yicha yo'qotishlar bo'yicha rezervlarni tashkil qilish amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Markaziy banki» to'g'risidagi va «banklar va bank faoliyati to'g'risidagi» konunlariga asosan aktivlarni tavsiflash muammoli yoki harakatsiz kreditlar bo'yicha rezervlarni tashkil qilish amalga oshirilmokda.

Bu me'yoriy xujjatga asoslanib banklar tomonidan berilgan kreditlar bo'yicha qarzlarning sifati, mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari, uning moliyaviy xolati, kredit riskining darajasi, kelajakda kreditni qaytib berish imkoniyati, kreditning ta'minlanganlik darajasini kreditni to'lash muddatidan necha kun o'tganligini kabilarni inobatga olgan xolda guruxlarga tasniflanadi. Kreditlarni tasniflashda asosiy maqsad qarz oluvchining to'lay olish qobiliyatini hamda qarzning o'z vaktida qaytarilishi uchun pul oqimining xolatini baholashdan iborat:

Kreditlarni tasniflash qarz oluvchining faoliyatini qo'yidagi mezonlar orkali baholashdan boshlanishi kerak:

- mijozning to'lovlari tarixi:
- tarmoqning kelajagi va an'anaviy rivojlanish usullari:
- korxonaning umumiy xolati:
- kreditlanadigan loyixasining xolati va samaradorligi.
- korxonaning moliyaviy xolati.
- korxonada boshqaruv va raxbarlik sifati:
- korxonaning rivojlanish rejasi, strategiyasi va boshqalar.
- Banklarning kredit portfelini qo'yidagi yunalishlar bo'yicha tasniflash mumkin.

Undan tashqari manbalariga va qarz oluvchining mintaqaviy o'rni va manzili bo'yicha ham tijorat banklarining kredit portfelini tasniflash mumkin. Tasniflashni asosan milliy valyutada amalga oshiriladi. Ba'zi xollarda qayta moliyalashtirish va o'z mablag'lari hisobidan beriladigan kreditlar qattiq valyutada ham amalga oshirilishi mumkin.

Tijorat banklari faoliyatida yuqorida keltirilgan risk turlarining barchasi uchrab turadi, lekin ularning faoliyatiga ko'prok ta'sir qiladigan risklar kredit riski, likvidlik riski va foiz stavkasi riski hisoblanadi. Tijorat banklar faoliyatining asosiy qismi kreditlar berish va shu asosda foyda olishga yunaltirilgan bo'lganligi uchun ular faoliyatida bu risklarning salmog'i ham yuqori bo'ladi.

Tasniflangan kreditlarning har kaysi guruxga kirishi darajasi tez sotiladigan aktivlar va yuqori likvid mablag'larning mavjudligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruv tomonidan 9 noyabr 1998 yilda tasdiqlangan №242-sonli «Aktivlar sifatini tasniflash, mumkin bo'lgan yo'qotishlar bo'yicha tijorat banklari tomonidan rezervlar tashkil qilish va undan foydalanish qoidasiga asosan tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar yuqorida keltirilgan mezonlar bo'yicha «yaxshi», «standart», «substandart», «shubhali», «umidsiz» yoki «ishonchsiz» kreditlarga tasniflanadi.

Kredit portfelini berilgan ssudalarning ta'minlanganlik darajasiga qarab qo'yidagi turlarga bo'lish mumkin.

Tijorat bankining kredit portfelining sifat darajasi bank tomonidan beriladigan kreditning ta'minlanganligiga bog'liq. Bu ta'minlanganlikning bo'lishi berilgan kredit bo'yicha riskning yuqori yoki past bo'lishini belgilab beradi.


Agar berilgan kredit muammoli ta'minotga ega bo'lsa va ushbu ta'minotning qiymati qaytarilmagan qarz miqdoridan kam bo'lsa, bu xolda ushbu kredit shubhali yoki ishonchsiz deb tavsiflanadi.

Shubhali yoki ishonchsiz deb tasniflangan muammoli kredit ta'minotga ega bo'lmasa, lekin ba'zi bir aniq omillar asosida yaqin kelajakda qisman qoplanish ehtimoli bo'lsa, u xolda bunday ssuda yuqorida aytib o'tilgan qoplanish ehtimoli bo'lgan qiymatga teng bo'lgan to'lanmagan qarz miqdorida shubhali deb, qarzning qolgan qismi esa ishonchsiz deb tavsiflanadi.

Kredit portfelining sifat darajasini tahlil qilish qo'yidagi bosqichlar bo'yicha tahlil qilish mumkin.

Tijorat banklarining kredit portfelining xar tomonlama tahlil qilish ularning sifatini yaxshilash, yuzaga kelish ularning sifatini yaxshilash, yuzaga kelish mumkin bo'lgan risklarning oldini olish va bankning kelgusi yildagi kredit siyosatini ishlab chiqishda juda muhim o'rin tutadi.

Bozor iqtisodiyoti keng rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining kredit portfelini tashkil qili shva undan foydalanish jarayoniga kata e'tibor berilmoqda. Chunki kredit potrfelini to'g'ri tashkil qilish bankning samarali faoliyatini amalga oshirishning, uning kredit investitsiya siyosatini olib borishining asosi xisoblanadi. Mayjud resurslarni sifatli va daromad keltiradigan qilib, joylashtirish banklarning moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklarining kredit portfelini ularning sifat darajasi, risk darajasi bo'yicha, tarmoqlar bo'yichabog'liq risklarga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlamoqchimiz.



4-rasm. Tijorat banklarining kredit portfelini tahlil qilish bosqichlari.

Tijorat banklari faoliyatida xavfli bo'lgan kredit qo'yilmalar – muammoli kreditlar xisoblanadi. Muammoli kreditlar odatda qarz oluvchining kreditni to'lashi uchun etarli pul mablaqlari bo'lmagan xollarda yuzaga keladi.

Ba'zi xolarda ular mijozning schyotidagi mablag'larning bo'la turib kreditni to'lashni xoxlamaganda xam yuzaga kelishi mumkin. Pul mablag'larining etishmovchiligining ichki va tashqi belgilari bo'lishi mumkin. Shuning uchun bank doimo mijozining faoliyatidan doimo baxobar bo'lishlari o'zi uchun zarur axborotlarni yig'ib tahlil qilish kerak.

Bank xodimlari muammoli kreditlar yuzaga kelganini aniqlanganida qo'yidagilardan amalga oshirishi kerak:

- ✓ qarz oluvchining muammolarini tahlil qilish;
- ✓ Mijozning moliyaviy ahvoli to'g'risida raxbariyatni xabardor qilish;
- ✓ Mijozning umumiy tashkiliy asosi;

✓ Kredit xujjatlarini kafolat, garov, veksel shartnoma va boshqalarni ko'rib chiqish;

✓ Muammoli xolatdan chiqish rejasini ishlab chiqarish.

Banklar muammoli kreditlar bo'yicha extimoli yo'qotishlarga zaxiralar ajratishlari, zaxira fondlari etariligi eng kamida 1 oyda bir marta ko'rib chiqilishi kerak.

Substandart va shubhali kreditlar bo'yicha barcha extimoli yo'qotishlar ssudaning amal qilish muddati davomida zaxira fondiga yaxshi va standart aktivlar uchun extimoli yo'qotishlar esa kelgusi 12 oy davomida zaxira fondiga kiritilishi kerak.

Ishonchsiz kreditlar esa xisobdan chiqarilishi va zaxira fondi shu zaxoti kerakli miqdorga qisqartirilishi kerak.

Kreditlarni sifati bo'yicha shakllantirilishi lozim bo'lgan zaxiralar normasi.1

Kreditlarning sifati bo'yicha sinflari	Эътимолли йы=отишлар быйича захиралар учун ажратмалар нормаси
Yaxshi	-
Standart	10%
Substandart	25%
Shubhali	50%
ishonchsiz	100%

Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar sifatining pasligi ularni to'lash bo'yicha muammolarni ko'pligi bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tayanch iboralar:

Kredit, siyosat, balans, operatsiya, aktiv, garov, kafolat, kafillik, majburiyat, kredit texnikasi, diversifikatsiya, risk, zahira.

Nazorat savollari:

1. Bank aktiv operatsiyalarida kredit urni.
2. Bank kredit operatsiyalari va ularni tuzilishi.
3. Kredit siyosati va uni boshqarish.
4. Kredit diversifikatsiyasi va uni baholash.
5. Kreditlash texnikasi va uning xususiyatlari va istiqbollari.
6. Bank kredit texnikasi va bosqichlari.
7. Tijorat banklari kredit portfeli va ularni muammolari.
8. Tijorat banki kredit portfelini boshqarish.

5-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KREDITLASH USULLARI VA ULARNI BOSHQARISH

1. Zamonaviy kreditlashtirish tizimining asosiy tartibi va kredit turlari
2. Bank kredit portfeli va uni baholash
3. Kreditlashtirishni xujjatlashtirish va rasmiylashtirish, kredit shartnomasi shartlarini ko'rib chiqish va tuzish
4. O'zbekiston Respublikasida banklar amaliyotida yangi kredit turlarini tadbiq etish muammolari.

2009 yilda xizmat ko'rsatish va kichik biznes sohasini aholi bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishning eng muhim omili sifatida yanada jadal rivojlantirish — ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

«Bizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatimizda kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qanday katta ahamiyat berilayotganini yana bir bor takrorlashning hojati yo'q, deb o'ylayman. Faqat e'tiboringizni shunga qaratmoqchimanki, kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor kon'yunkturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga nisbatan tez moslasha olishi uni jahon iqtisodiy inqirozi davrida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylantiradi.

2009 yilda kichik biznesni yanada qo'llab-quvvatlash vazifasi har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kichik biznes yangi-yangi ish o'rinlarini yaratib, bizning sharoitimizda ish bilan band aqoli daromadining 70 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda.

Shu sababli Inqirozga harshi choralar dasturida kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirishga alohida e'tibor haratilgan. Ushbu chora-tadbirlar soliq va kredit imtiyozlari bilan bir qatorda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay biznes muhitini yaratish maqsadida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ham o'z ichiga oladi.

Jumladan, yangi tashkil etilayotgan kichik va xususiy korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kredit jamharmasining resurs bazasini ikki barobar oshirish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati o'zaytirildi, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlarning eng uzoq muddati 12 oydan 18 oyga oshirildi»¹⁰.

Tijorat banklari o'zining xalq xo'jaligida tutgan urni va o'ziga xos faoliyati bilan bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi sifatida yuzaga keldi. Tijorat bank larining bugungi kundagi faoliyatiga e'tibor beradigan bulsak, xalq xo'jaligining xech bir sub'ekti yukki, u bugun bank xizmatidan foydalanilmayotgan bulsin.

Bundan tashkari banklar o'z mijozlariga moliyaviy broker sifatida ham xizmat ko'rsatmoqda. Banklarning bunday funktsiyani bajarishlari korxona tashkilotlarning qimmatli qog'ozlar bozori operatsiyalarida katnashishlari uchun kulay sharoit yaratmoqda.

Aktivlarni boshqarishning asosiy maqsadi tavakkal qilishning eng past darajasi sharoitida daromad foiz tushumlari va harajatlar orasidagi farqni mumkin kadar oshirish eki uni juda bulmaganda barqaror darajada saqlab turishdan iborat ekanligi malum.

Iqtisodiyot nuqtai nazaridan aktivlarni boshqarish masalalari passivlardan aloxida ko'rib chiqiladi, biroq amaliyotda ular o'zaro bog'liqdir. Bank balansining passiv qismidagi jalb etilgan mablag'larning manbalarini tahlil kilmasdan aktiv operatsiyalarni amalga oshirish kiyin. Tijorat banki yunaltiriladigan resurslarni depozitlar muddatligi asosida vaqtivaqti bilan aniqlash va tartibga solish muammosiga duch keladi.

Ushbu vazifa zamirida foiz stavkalarini oshirish eki pasaytirish, uzoq muddatli va qisqa muddatli foiz stavkalari o'rtasidagi nisbatning o'zgaririshi kabi funktsiyalar etadi, negaki bankning aksari passivlari qisqa muddatli, aktivlar(ssuda)ning talay qismining qaytarilishi esa uzoq muddatlarga ega. Jalb etilgan mablaglar bo'yicha foiz stavkalari o'sishi xavfi tugilganda bank foydasini himoyalash uchun qarshi choralarni ko'rish zarur.

Tijorat banklarining operatsiyalari ichida kredit operatsiyasi asosiy o'rinni egallaydi.

¹⁰I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.»O'zbekiston .T.2009.y.

Tijorat banklarining kreditlari bank faoliyatida asosiy o'rin tutgan operatsiyalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi «Bank va banklar to'g'risidagi qonuni»da bank terminiga tushuntirish berilganda bu tashkilot uchta operatsiyani albatta amalga oshirishi kerakligiga urg'u berilgan bo'lardan biri kredit berish operatsiyasidir. Jahon bank faoliyatida bank terminiga moliyaviy univermag degan tushuncha berilganiga qaramay kredit operatsiyalari barcha banklar faoliyatida muxim o'rin egallagan. Bir tomondan bank krediti iqtisodiy sub'ektlar uchun zaruriy xollarda vaqtincha yuzaga kelgan moliyaviy kiyinchiliklarni echishda yordam beruvchi muxim manbaa hisoblanadi. Ikkinchi tomondan esa banklar olib borayotgan jarayonlari ichida eng ko'p foyda beruvchi jarayondir.

Banklarning kredit jarayonlari o'z navbatida muddat bo'yicha uchga bulinadi:

- qisqa muddatli 1 yil muddatgacha bo'lgan;
- o'rta muddatli 13 yilgacha bo'lgan;
- uzoq muddatli 3 yildan ortik.

Agar biz bu ko'rsatkichni Respublikamiz banklari bo'yicha tahlil qiladigan bulsak, u holda o'rtacha 50 foiz atrofidaligini kurishimiz mumkin. Kredit operatsiyalarining bank faoliyatida eng riskli jarayonlardan biri hisoblangan bir vaqtda, uning daromadliligi ham yuqoridir. Bugungi bank tajribasi shuni ko'rsatmokdaki, rivojlangan davlatlar banklari daromadida kredit jarayonlaridan olingan foiz daromadi salmokli ulushni tashkil etmokda. AQSh banklari bo'yicha bu ko'rsatkich o'rtacha 85,9 foizni tashkil kilgan.

Ba'zi bir mijozlar kredit olish, uni tuldirish jarayonida oldingi davrdagi kabi kredit ob'ektlari bo'yicha xujjat tudiradilar, ba'zi bir mijozlar esa yangi usul yordamida kredit olish uchun harakat qiladilar. Bo'larning barchasi hozirgi davr kredit berish tizimiga o'tish davrini boshidan kechirayotganidan xabar qiladi. O'tish davrining asosiy kamchiliklari bo'lib esa quyidagilar hisoblanadi.

1. Turli tijorat banklari faoliyati xali ham eski kredit berish usullarining saklanib kolayotganligidir.

2. Tijorat va maxsus banklarning texnik jihatdan tulik rivojlanmaganligi, texnologiyaning tulatukis bank operatsiyalari joriy qilinmaganligidir.

O'tish davri kredit berish tizimining eng muxim xususiyati shuki, unda tashkilot va axolini unifitsirlashgan usullarning kredit berish saklanib kolganidir.

Bu xususiyatlar quyidagilardan iboratdir.

1. Kredit berish tizimi bankning korxona sifatida o'z resurslariga bevosita asoslanadi. Ma'nosi shuki, banklar oldingi davrga uxshab yuqoridan kredit resurslari bilan ta'minlanmaydilar balki o'zlari joylarida yaratgan, jalb kilgan mablaglari evaziga faoliyat ko'rsatadilar.

2. Xosil bo'lgan kredit mexanizmi tijorat harakteriga egadir. Tijorat banklari hozirgi kunda savdo korxonasi xususiyatlarini olmokda. Ularga arzon olib, qimmat sotish printsipi to'g'ri kelishini ta'kidlash maqsadga muvofiq bulmokda.

3. Bugungi kundagi kredit berish tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, ularning nafaqat o'z kredit mablaglariga bog'liqligi, balki Markaziy bank tomonidan urnatiladigan iqtisodiy normativlarga ham bevosita bog'liqligidir.

4. Hozirgi davr kredit berish tizimining eng muxim belgilaridan (xususiyatlaridan) yana biri ularning shartnomaga asoslanmaganligidir. Kredit berish uni boshqarish davrida vujudga keladigan barcha muammolar shu mijoz bilan tuziladigan shartnoma orkali xal qilinadi. Bunda bank va mijozning huquq majburiyatlari qonun, hamda kelishuv asosida belgilab kuyiladi. Mijoz tomonidan ham, bank tomonidan ham qiziqish qolmagan takdirdagina shartnoma bekor qilinishi mumkin.

5. Kredit berish tizimining yaqqol ajralib, ko'zga tashlanadigan belgisi bu kredit berish tizimining ob'ektidan sub'ektiga utganligidir.

6. Yangi kredit berish tizimi, kreditning eski, ammo printsiplari (maxsus) printsiplariga asoslanadi. Ya'ni kredit berish jarayonida uni ng maxsus printsiplari qaytarib berishlik, tulovlilik, ta'minlanganlik va muddatlilik prints iplariga tulatukis amal qilinadi.

7. Kredit berish tizimining yangi zamonaviy belgilaridan keyingisi bu banklar tomonidan yuqori darajada kafolatlangan, bank ssudalarini berishni tashkil qilishdir.

Kredit tuplamini tashkil qilish va uni tahlil qilish jarayoni quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. Kredit olish uchun berilgan buyurtmanomani ko'rib chiqish.
2. Kredit oluvchining kredit qobiliyatini va qarz berish bilan bog'liq xatarni baholash.
3. Kredit foizini belgilash.
4. Kredit shartnomasini tuzish.

Kredit shartnomasida quyidagilar o'z aksini topadi:

- kredit maqsadi va summasi;
- majburiyatni ta'minlash shakli, foiz stavkasi, tulov shakli;
- tomonlarning huquqlari;
- guvohnomalar hisob kitoblar ruyxati;
- bankning nazorat utkazishi va boshqalar.

Qisqa muddatli kreditlarga quyidagilar kiradi:

1. Lombard.
2. Kontakorrent.
3. Overdraft.

Umuman Bankda kredit berish jarayoni qarz oluvchilar sonini ancha ko'paytirishga, mijozlarni moliyaviy axvolini har tomonlama va chuqur tahlil qilish, ishonchli mijozlarni tanlash asosida, kredit sohasida uchraydigan tavakallarni kamaytirish, kreditdan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish, kredit olishga qaratilgan takliflarni shu yo'nalishda taksimlash va qabul qilish, kreditning qaytarilishini ta'minlaydigan kushimcha shakllardan foydalanish tomonga yunaltirilgan.

O'zbekiston tijorat banklari o'z faoliyatlari davomida qator muammolarga duch keladilar, ularni xal qilish esa iqtisodiyotimizning kelajakdagi taraqqiyoti uchun muhim hayotiy masaladir. Bu muammoni birinchi navbatda, ko'pchilik bank mijozlarining qoniqarsiz moliyaviy ahvoli keltirib chiqaradi. Sir emaski, qachonlardir o'z bank tizimlarini islox qilgan mamlakatlarning qariyb barchasi u yoki bu darajada shu muammoni xal qilish zarurati bilan tuqnashganlar.

Chet el mamlakatlari Tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini quyidagi to'rt guruhga bo'lish mumkin.

Bo'lar:

- kredit operatsiyalari;
- qimmatbaho qog'ozlarga investitsiya operatsiyalari;
- kassa (g'azna) operatsiyalari;
- boshqa aktivlar.

Mukofot bu bankning kreditga olgan daromadidir. Bank mukofoti ikkita asosiy elementdan tashkil topgan. Bo'lar: kreditni ochganligi uchun mukofot va kredit uchun foiz. Foiz stavkalari har bir bank tomonidan alohida urnatiladi. Kredit riski eki qarzning qaytarmaslik xavfi kreditorning kredit kelishuviga asosan kreditni o'z vatida qaytarilishiga va kredit shartlarini bajara olishiga ishonchsizligidan kelib chiqadi. Kredit riski bank faoliyatida uchraydigan risklarning eng yirigidir.

Bu holat quyidagilar ta'sirida vujudga kelishi mumkin:

a) tadbirkorlikda, iqtisodiy eki siyosiy muhitda kutilmagan o'zgarishlar yo'z berishi natijasida qarzdorning pul tushumini kerakli darajada ta'minlay olmasligi;

b) kreditga kuyilgan garovning kelajakdagi qiymati va sifatiga bo'lgan ishonchsizlik (narx o'zgarishi, kuyilgan mulkning haridorligi)

s) qarz oluvchining tadbirkorlik dunesida obrusiz bo'lib kolishi.

Yuqorida kayd etilgan xolatlar banklarning risklarni boshqarish va ularni rejalashtirish uchun doimiy ishlar olib borishiga majbur etadi.

Agrar sektorni isloh qilish yoki tarmoqni rivojlantirish strategiyasini belgilashda dehqon o'zining ijtimoiy va ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan eng asosiy o'rinda turishi lozim. Prezidentimizning 2003 yil 24 martdagi "qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmonida dehqonning barcha muammolari bosh mezon qilib

olingan. qishloq xo'jaligi tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchilaraning manfaatlarini to'la ta'minlashga haratilgan iqtisodiy va huquqiy shartsharoit yaratish, xizmat ko'rsatuvchi va mahsulotni sotib oluvchi barcha tashkilotlar faoliyatini ushbu maqsadga bo'ysundirish asosiy masala sifatida e'tirof etiladi.

1chizma

qishloq xo'jalik infratuzilmasi va uning bo'linarlari.

Yuqoridagi 1chizmadan ko'rinib turibdiki, respublikaning etakchi muassalari, idoralari va tashkilotlari agrior soha bilan bog'liqdir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning ustivor yo'nalishlaridan biri bu kichik dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirishdir. Aytish lozimki, dehqon va fermer xo'jaliklariga qulayliklar yaratilmoqda va imtiyozlar berilmoqda. Xususan yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari ikki yilgacha barcha turdagi soliqlardan ozod etilganini, ularga boshlang'ich sarmoyani shakllantirish uchun kreditlar ajratilayotgani soha rivojida muhim omil bo'lmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 19 maydagi 195sonli "Tijorat banklarining kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag'batlantirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi 195 sonli qarorida banklar foydasining 25 foizigacha miqdorini ajratish hisobiga imtiyozli kredit berish maxsus jamharmasi tashkil etilishi qayd qilingan.

Shu bilan birga, qarorda tijorat banklarining mazkur jamharna hisobidan kreditlash evaziga olgan daromadlari imtiyozli kreditlash jamharmasini ko'paytirishga yo'naltirilgan taqdirda 5 yilgacha soliqdan ozod qilishdek rag'batlantirish mexanizmi ko'zda tutilgan.

Ushbu qayd etilgan qaror qabul qilingandan buyon 2003 yilning 1 aprel holatiga qadar tijorat banklari sof foydasining 25 foizigacha o'tkazish hisobiga mamlakatda 37.3 mlrd. so'mlik imtiyozli kredit berish jamharmasi tashkil etilgan, ushbu mablag' kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlashga yo'naltirilgan.

Bundan tashhvari, Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 10 sentyabrdagi "Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarini mablag' bilan ta'minlash, moddiytexnik ta'minlash, ularga bojxona imtiyozlari berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi 366sonli qarori talablaridan kelib chiqqan holda "Tijorat banklari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini byudjetdan tashhvari jamharmalar kredit liniyalari hisobidan kreditlash tartibi to'g'risida" Nizom ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2001 yil 3 oktyabrdagi 1074 raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Mazkur tartib asosida, Biznesfond hamda Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamharmalari mablag'lari hisobidan boshlang'ich sarmoyani shakllantirish uchun kreditlar davlat ro'yxatidan o'tganiga 6 oydan ko'p bo'lmagan davrda kredit olish uchun tegishli buyurtmanomalar bergan mikrofirmalar va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklariga eng kam oylik ish haqining 150 barobari miqdorigacha, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklariga eng kam ish haqining 300 barobarigacha aylanma mablag'larni to'ldirishga, investitsiya loyihalarini texnik iqtisodiy asoslashga va asbobuskunalar sotib olishga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 1/6 qismi miqdorida, foizlarni 12 oy muddat o'tgach va asosiy qarzni kredit olgandan keyin 1824 oy

o'tgach, qaytarish shartlari asosida 3 yilgacha bo'lgan muddatga boshlang'ich sarmoya shaklida kredit berish tartibi joriy qilindi.

2chizma

qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy manbalari tuzilmasi. 1

Bugungi kundagi yana bir dolzarb masalalardan biri bo'lgan "Davlat ehtiyojlari uchun harid qilinadigan paxta xom ashyosi va halla etishtirish bo'yicha fermer xo'jaliklarining harajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlashning vaqtinchalik Tartibi" ishlab chiqildi. 1

Bu qaror asosida eksprimet tariqasida respublikaning Buxoro, Namangan, Far'gona va Xorazm kabi to'rtta viloyatida qo'llanildi. Kreditlar davlat ehtiyojlari uchun harid qilinadigan paxta xom ashyosi va don qiymatining 50 foizigacha miqdordagi limit chegarasida ularni etishtirish bo'yicha harajatlarni moliyalashtirish uchun beriladi.

Imtiyozli kreditlarni qaytarmaslik xatarini sug'urtalash yoki garovni sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lash, ish haqi to'lovlari, mineral o'g'itlar va o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarini sotib olish, MTPlar xizmatlari to'lovlari, elektr quvvati to'lovlari, paxta ekish uchun polietilen plyonka sotib olish, kollektordrenajlar tozalash bo'yicha xizmatlar to'lovlari, yagona er solig'ini to'lash kabi maqsadlarga ajratiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklari o'zlarining kredit resurslari hisobidan to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan xo'jaliklarga yoqilg'imoylash materiallari, energiya manbalari, mineral o'g'itlar, qishloq xo'jaligi texnikasi va boshqa moddiy texnika resurslarini olish uchun maqsadli kreditlar ajratilishi bilan birga, tijorat asosida samaradorlik bilan ishlaydigan xo'jaliklarga hosilning 50-80 foizi qiymati doirasida ishlab chiqarish meyo'rlariga rioya qilgan holda "biznes reja" asosida tog'ridan-tog'ri kredit mablag'lari berilmoqda.

Qishloqda tadbirkorlikni, qayta ishlash kichik korxonalarni yanada rivojlantirish maqsadida, tijorat banklari tomonidan dehqon fermer va shirkat xo'jaliklariga texnika, texnologiya, uskunalar va mexanizmlar sotib olish uchun uzoq muddatli kreditlar ajratilishi yo'lga qo'yilgan.

Qarz oluvchining to'lovga qurbi etmasligi tufayli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ssudalar berish qiyinlashib bormoqda. Qishloq xo'jalik korxonalari iqtisodiy nochorligining mazkur uch tarkibiy qismi qishloq xo'jaligini moliyalashtirish va kreditlash bo'yicha mavjud tizimni yanada takomillashtirishni zarur qilib qo'ymoqda.

Qishloq xo'jalik korxonalarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zaminida rivojlantirish uchun sarflanayotgan barcha mablag'lar ularning moliyaviy mablag'lari hisoblanadi. Qishloq xo'jalik korxonalaridagi moliyaviy mablag'larning mohiyati va shakllanish manbalarini mantiqan quyidagicha turkumlash mumkin.

Korxonalarining moliyaviy mablag'larga bo'lgan talabi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanishi maqsadga muvofiqdir. Lekin o'tish davrining hozirgi bosqichida korxonalar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlar bo'zilib oqibatida ularning moliyaviy mablag'larga bo'lgan yuqori darajadagi talabi o'z va unga tenglashtirilgan hamda qayta taqsimlash natijasida shakllantirilayotgan moliyaviy mablag'lar hisobidan to'liq qondirilayotgani yo'q. Shuning uchun aksariyat qishloq xo'jalik korxonalarini vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'larni chetdan jalb etishiga, ulardan oqilona, samarali foydalanishga katta e'tibor bermoqdalar. Hozirgi davrda moliyaviy mablag'lar tarkibida bank kreditlari eng muhim va ahamiyatli o'rin tutadi. Ular faoliyat ko'rsatayotgan xo'jaliklar uchun samarali natijalarga erishish vositasi hisoblanadi. Korxonalarining o'z mablag'lari hamda chetdan jalb etilgan moliyaviy mablag'larlarning aksariyat qismi ularning aylanma kapitalini to'ldirishga va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

Aylanma mablag'larning tarkibi va tuzilmasi turli omillar ta'sirida vujudga keladi. Ular xo'jalikning ishlab chiqarish yo'nalishi, ixtisoslashuvi, iqlim sharoitlari, iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, etishtirgan mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlarini realizatsiya qilish jarayonlari hamda shu kabi faoliyat natijalariga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi ko'z atishlardan ko'rishimiz mumkinki qishloq xo'jaligi korxonalarida aylanma mablag'larga bo'lgan talabi yuqori bo'lmoqda. Shu munosabat bilan bu korxonalarda qisqa

muddatli kreditlarning salmog'i kattadir. Demak korxona aylanma mablag'lar va unda kreditning rolini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Korxonaning aylanma mablag'ga bo'lgan ehtiyoji o'zgarmas miqdordan iborat emas. Uning o'zgarish sabablari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- faoliyat ko'lamining kengayishi, bunda asosiy kapitalga qo'yilmalarga aylanma kapitalga qo'shimcha qo'yilmalar mos kelishi lozim; aylanma kapitalga qo'shimcha ehtiyojlarni moliyalashtirish manbalari investitsiya loyi'asini moliyalashtirish rejasiga kiritiladi;
- Sotish hajmlarini ko'paytirgan yoki kamaytirgan holda korxona tez moslashgan holda o'z munosabatini bildirishi lozim bo'lgan bozor konyunkturasining qisqa muddatli o'zgarishiga, bu qo'llaniladigan aylanma mablag' miqdorining mos ravishda o'zgartirishini talab qiladi;
- Bir qator tarmoqlar uchun xos bo'lgan, aylanma kapitalga ehtiyojning mavsumiy tebranib turishi. Aylanma mablag'lar doimiy bo'lmagan ehtiyoj asosan tabiiy omillar, mavsumlar almashishi bilan bog'liq, ishlab chiqarish va tijorat faoliyatining bir qator turlari uchun xosdir. Mavsumiylik elementi tabiat bilan bilvosita bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarishlarda ham, hatto to'quvchilik sanoatida ham kuzatiladi;
- ta'minot shartlarining mahsulot ishlab chiqarish va tarqatish omillari bilan o'zgarishi; masalan, aylanma mablag' ortishiga ehtiyoj etkazib berish (ortib jo'natish) chastotasi, ta'minotchilar (haridorlar) tarkibi hamda soni, tovarlar, ishlar, xizmatlar yuzasidan hisobkitoblar shakllarining o'zgarishi natijasida o'zgartirilishi mumkin;
- masalan korxona uchun eng qulay paytda tovar zaxiralarining to'planishini ko'zda tutadigan, korxonaning bozor strategiyasi;
- debitorlik qarzlarning haddan tashqari chetlashishi;
- inflyatsiya oqibatida "eyilib" ketayotgan aylanma mablag'larni to'ldirish.

Korxonaning qo'shimcha aylanma mablag'larga ehtiyojini o'z manbalari hisobidan moliyalashtirilishi mumkin, biroq joriy moliyalashtirishning eng qulay va tez moslasha olishi qisqa muddatli kreditdan foydalanish hisobiga ta'minlashnishi mumkin. Joriy moliyalashtirish manbalariga ehtiyojni aniqlash uchun aylanma mablag'lar ikki qismga bo'linadi:

- doimiy aylanma mablag'lar (aylanma aktivlarning muntazam qismi), unga ehtiyoj butun operatsion davr maboynida nisbatan o'zgarmasdir;
- o'zgaruvchan aylanma kapital (joriy aktivlarning o'zgarib turuvchi qismi), unga ehtiyoj u to'liq yo'q bo'lishiga qadar sezilarli bo'lmagan darajada o'zgaradi.

Bu bo'linish joriy aktivlarni moliyalashtirishning to'rtta taniqli modellari asoslariga qurilgan bo'lib, ular korxonaning joriy moliyalashtirishda qisqa muddatli majburiyatlarning roli nuqtai nazaridan o'zaro farq qiladi.

Qarz berish shartnomalari asosida qarz pullar va mablag'lar jalb etiladigan moliyaviy veksellar pul, kreditbozorining mustahil sementini o'zida ifodalaydi. Ayni paytda xo'jalik kreditlashning o'ziga xos xususiyati mavjud bo'lib, u korxonalar professional kreditor emasligi bilan bog'liq. Bu bo'sh pul mablag'lari taklif etiladigan ochiq bozor emas. Bu erda pul resurslariga talab va taklif aksariyat holda kreditor hamda qarz oluvchi o'rtasida yuzaga kelgan xo'jalik o'zaro munosabatlari bilan bog'liq. Odatda iqtisodiy jihatdan o'zaro ta'minot, texnologik zanjir bilan o'zaro bog'liq bo'lgan korxonalar kreditlar bilan ta'minlanadi. Bunda aynan xo'jalik vazifalari, masalan ta'minot yoki sotishning kafolatlanganligi hal etiladi, shuning uchun kredit yuzasidan to'lov turli kredit bitimlarida sezilarli darajada o'zgartirilishi mumkin, shunga haramay pul bozorida umumiy vaziyat, qayta moliyalash stavka darajasi ham hisobga olinadi. Xo'jalik kreditining o'ziga xos turi qarz berish shartnomasi asosida jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb etishdan iborat.

Banklar professional kredit beruvchi sifatida mijozlarga joriy faoliyatni moliyalashtirish uchun g'oyat turlituman kreditlarni taklif etadilar, ularning ichida eng tez moslanuvchanlari overdraft va kredit liniyalardir.

Tashkilot joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun qisqa muddatli byudjet yordamidan ham foydalanishi mumkin, u turli darajadagi byudjetlar tomonidan quyidagi shakllarda taqdim etiladi:

- pul mablag'larining qarz oluvchiga haqiqatda berilishi;
- kreditlashning imtiyozli shartlarini ta'minlash uchun bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalaridagi farqni qoplanishi;
- bank kreditlari yuzasidan byudjet kafolatlarining taqdim etilishi;
- byudjet oldidagi majburiyatlarni vaqtincha kamaytirish vositasida kreditlash.

Byudjet krediti faqat qaytarilishi asosida avval taqdim etilgan byudjet mablag'lari yuzasidan muddati o'tgan qarzlar mavjud bo'lmagan yuridik shaxslarga berilishi mumkin. Vakolatli organlar kreditning amal qilish paytida har qanday vaqtda byudjet krediti oluvchisining tekshirish huquqiga egadirlar, shuningdek, byudjet kreditidan maqsadli foydalanilishini tekshiradilar. Yuridik shaxslarga taqdim etilgan byudjet mablag'larning qaytarilishi, shuningdek ulardan foydalanganlik yuzasidan to'lov byudjetga to'lovga tenglashtiriladi.

Korxona aylanma mablag'ni saqlab turilishi uchun soliqlarni to'lash bo'yicha muddatini o'zgartirish, bo'libbo'lib to'lash va soliq kreditlaridan foydalanishi mumkin.

Ushbu kreditlash shakllarida umumiy jihat shundan iboratki, ular byudjetga soliqlar va yig'imga to'lash muddatlarining o'zgartirilishi bilan bog'liq.

Soliq krediti bir yoki bir necha soliqlar bo'yicha uch oydan bir yilgacha muddat bilan taqdim etilishi mumkin. Agar soliq krediti manfaatdor shaxsga tabiiy ofatlar, texnik halokatlardan zararlar va boshqa engib bo'lmas kuch holatlari yuzasidan taqdim etilayotgan, shuningdek agar uning tegishli byudjetdan kamroq moliyalashtirish holati mavjud bo'lsa to'lov undirilmaydi. Agar soliq krediti bir vaqtning o'zida soliq to'lanishi holatida ushbu shaxsga bankrotlik tahdid qilishi munosabati bilan taqdim etilsa, foizlar soliq krediti tog'risida shartnoma davrida bo'lgan, Markaziy Bankning qayta moliyalash stavkasi miqdorida belgilanadi. Soliq krediti summalari to'lovning har bir muddatdagi bo'yicha teng ulushlarda yoki bir yo'la foizlarni to'lash bilan mablag'larni tegishli byudjetga daromadga o'tkazish yo'li orqali kamaytirilishi lozim.

Shunday qilib, korxonaning aylanma mablag'larga bo'lgan qo'shimcha ehtiyoji kredit harakteridagi turli tuman manbalar hisobidan qoplanishi mumkin. har qanday holatda ham qisqa muddatli kredit va korxonaning aylanma mablag'lari quyidagi ko'rinishlarga ega:

- qisqa muddatli kreditlash muddati aylanma mablag'ning aylanish muddatli bilan bog'liq bir yilga qadar;
- qisqa muddatli kredit korxona joriy faoliyatidan tushumlar, tovarlar (ishlar, xizmatlar)dan tushumlar hisobiga so'ndiriladi, aylanma mablag'lar elementlari tannarxning aksariyat qismini tashkil etishi bois aylanma kapital davriy aylanishining o'zluksizligi qisqa muddatli kreditni so'ndirishning sharti hisoblanadi;
- qisqa muddatli kreditni jalb etish uchun harajatlar buxgalteriya (moliya) hisobida harajatlar (tannarx) tarkibiga, soliq hisobida esa o'rnatilgan cheklashlar doirasida kiritiladi.

Ushbu tartib Paxta bank tomonidan yuritilayotgan kredit siyosatining ajralmas qismi bo'lib, xo'jalik sub'ektlari va ularga xizmat ko'rsatayotgan bank filiallarini o'zaro kredit munosabatlarini tartibga soladi.

Kreditlar, xo'jalik yurituvchi sub'ektni qaytarib olunguncha asosiy depozit hisob rahami joylashgan joyiga harab beriladi. Boshqa banklar mijozlariga, shuningdek zarar ko'rib ishlayotgan, nolikvid balansga ega xo'jalik sub'ektlari faoliyatini kreditlash man etiladi. Kredit resurslarini uzoq muddatga mo'ljallangan moliyaviy keskin o'zgarishlar, xo'jasizlik va zararlarni qoplashga ishlatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Kreditlar, berilish muddatiga ko'ra, qisqa, o'rta va uzoq muddatli turlarga bo'linib, kredit shartnomasida qayd etilgan muddatda, maqsadga muvofiq ishlatilishi va ta'minlanganlik hamda foizlilik tamoyili, qaytarishlik shartlari asosida beriladi.

Qaytarilish muddatlari kechiqtirilgan kreditlar bu, so'ndirilish muddati etib kelgunga qadar qarzdor tomonidan yozma ravishdagi asoslangan iltimosnomasiga ko'ra, bank Kredit qo'mitasi

qarori asosida qayta rasmiylashtirilgan kredit hisoblanadi. Bunda kreditni so'ndirilish sanasi kechiqtiriladi.

Paxta Bank filiallari, Kredit qo'mitasining qaroriga asosan, mijozga qisqa muddatli kreditlar bo'yicha so'ndirilish muddatini, qarz mablag'laridan foydalanish 12 oydan oshmaslik sharti bilan, kechiqtirish imkonini bir marta berish mumkin.

Kreditning so'ndirilish muddatini kechiqtirish, asosiy shartnomaga qo'shimcha shartnoma tuzish va ilgari kredit ta'minotini qayta rasmiylashtirish sharti bilan rasmiylashtiriladi. Ishonchli kreditlar bo'yicha kredit muddatini o'zaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu tartibga ko'ra kreditni rasmiylashtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Kredit ishini shakllantirish va uni tahlil etish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- kredit olishga buyurtmani ko'rib chiqish va bo'lg'usi qarzдор bilan suhbat;
- qarz oluvchining kredit layohatligini va ssuda berilishi bilan bog'liq riskini baholash;
- kredit bahosini (foizini) aniqlash;
- kredit shartnomasi va uni xulosasini tayyorlash.
- qarz oluvchining moliyaviy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini quyidagi yo'nalishlarda tahlili:
 - mahsulotning talabgorligi, talab va taklifni o'rganish;
 - tovar moddiy qimmatlarni etkazib berishga tuzilgan kontraktlarni mavjudligi;
 - kreditlanayotgan tadbir samaradorligi;
 - qarz oluvchi hisob rahamiga pul mablag'larining kelib tushishi davriyligi;
 - kredit va hisoblanadigan foizlarning so'ndirilish manbasi;
 - kredit bo'yicha ehtimol qilingan to'lov hisobkitobi va uni davriyligi;
 - bundan oldingi davr (yil, chorak, oy) moliyaviy xo'jalik faoliyatini retrospektiv tahlili;
 - joriy davrga istiqbolni belgilash (Biznes-reja).
 - tahliliy va istiqbol ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda qarz oluvchi kredit olishga kredit buyurtmasi va iltimosnomasi tuzadi.

Iltimosnomaga quyidagilar qo'shib beriladi:

- kredit buyurtmasi;
- albatta pul o'lchimi taqilili ko'rsatilgan Biznesreja;
- so'ngi hisobot sanasiga bo'lgan, 90 kundan oshiq qarzдорlikka solishtirish aktlari bilan birgalikda debitorlik va kreditorlik qarzlari yoymasi, davlat soliq xizmati tomonidan tasdiqlangan buxgalterlik balansi;
- foyda va zararlar harakati haqida hisobot;
- boshqa kreditorlardan qarzga olingan mablag'lar mavjudligi va boshqa banklarda saqlanayotgan bo'sh mablag'lar haqida ma'lumot;
- o'z kapitali bildan boshqa korxonalar tashkil etishda ishtiroki haqidagi ma'lumotlar.
- Kredit so'ndirilmaslik xataridan xoli bo'lish maqsadida qarz oluvchi ishonch kreditidan farqli o'laroq, tez sotiluvchanlik talabiga javob beradigan ta'minotga ega bo'lishi lozim.

Ta'minotning asosiy shakllari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: mulk garovi, uchinchi shaxs kafilligi, banklar va boshqa kredit tashkilotlari kafolatlari, qarz oluvchi tomonidan kreditni va u bo'yicha qarzlarni so'ndirmaslik xatarini sug'urta qilinganligi tog'risida sug'urta kompaniyalarining sug'urta polisi.

Berilayotgan kredit summasi, sug'urta bahosida, garovga olinayotgan mulk qiymatini 80 foizidan oshmasligi kerak.

Kredit qo'mitasining ijobiy xulosasidan so'ng, bank va qarz oluvchi tomonidan tomonidan kredit shartnomasi imzolanadi.

Kredit shartnomasi tuzilganidan so'ng, buxgalteriyaga muddati vak foiz stavkasi ko'rsatilgan holda ssuda hisobrahamini ochish tog'risida kredit xodimi farmoish beradi.

Ssuda berilishi tog'risida qarorni qabul qilinishi bilan qarz oluvchiga kredit kartochkasi ochiladi. Bu kartochka asosida kredit ustidan nazorat o'rnatiladi. Bank kreditidan foydalanganlik uchun haq, foiz stavkasida ifodalangan kredit bahosini tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini (jamoat xo'jaliklari, shirkat xo'jaliklari, dehqon va fermer xo'jaliklari) kreditlash alohida "kredit liniyasi ochmasdan" ssuda hisobrahamidan ishlab chiqarish harajatlari "Biznes-reja"si asosida berilayotgan kredit va foizlarni 50 foizni so'ndirmaslik xataridan va qolgan 50 foizi notarial tasdiqlangan va Davlat kadastiri yoki BTIning tuman ko'chmas mulk xizmatlarida ro'yxatga olingan yuqori likvidli mulk garov shartnomasini sug'urta qilishga haratilgan sug'urta polisi mavjudligi sharoitida amalga oshiriladi.

Alohida olingan qishloq xo'jaligi korxonasini kreditga talabi bir yilga, choraklarga bo'lingan holda, uning daromadlari va harajatlarini o'rganish, "Biznesrejada" ko'zda tutilgan mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishni hisob hajmidan muomalasidagi shaxsiy manbalar hisobidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. hisobkitob asosi sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotini sotishdan bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lash, bank kreditlarini so'ndirish, buyudjet bilan hisobkitoblar va boshqa pul harajatlarining rejadagi ma'lumotlari olinadi.

Kredit sotib olinayotgan urug'lik va o'tkaziladigan ekinlar, yoqilg'imoylash materiallari, mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoyalash vositalari, ehtiyot qismlar, chorva, em hamda mahsulot tannarxiga kiradigan MTP tomonidan bajarilgan ishlar, texnologik kartada ko'zda tutilgan mahsulot ishlab chiqarishga eng katta yo'l qo'yiladigan harajat me'yorlari chchegarasida, pul hisob-kitob xujjatlarini to'lashga beriladi.

Kredit so'ndirilishi bank tomonidan kredit shartnomasida ko'zda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi. Kredit shartnomasida kredit so'ndirilishi quyidagi tartibi ko'zda tutilishi mumkin:

- so'ndirilish muddati etgan majburiyatlar bo'yicha ssuda qarzlarni qarzdorni qaytarib olgunga qadar asosiy depozit hisobrahamidan undirish orqali;
- muddatidan oldin, qarzdor to'lov topshiri?nomasi bilan uning qaytarib olguncha depozit hisobrahamidan ssuda hisobrahamiga pul mablag'larini ?oldi?ini o'tkazish orqali;
- bank tomonidan kafillik bo'yicha olingan majburiyatlarni, sug'urta polisi bo'yicha sug'urta qoplamasini, bank va boshqa kredit tashkilotlari kafolatlarini hamda garov huquqini sotishdan olingan mablag'larni ishlatilishi orqali.

Xo'jalik sub'ektlarini "kredit liniyasi ochgan holda " kreditlash alohida ssuda hisobrahamidan, kreditlash ssumasining kredit shartnomasida oldindan kelishilgan chegaralarda, amalga oshiriladi. Mazkur kreditlash summasi hisobiga qarz oluvchining asosiy faoliyatiga aloqador tovarmaterial qimmatliklarga, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul hisobkitob xujjatlari pul to'lanadi.

"Kredit liniyasi ochgan holda" ssuda berish bank kafolat majburiyati bilan rasmiylashtiriladi. Bu bilan bank kredit shartnomasida o'rnatilgan miqdori, muddati va bank korrespondent hisobrahamining holatidan qat'iy nazar, kreditlash limiti chegarasida qarz oluvchiga to'siqlarsiz kreditni taqdim etilishini kafolatlovchi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 7 noyabrdagi 383sonli qarori bilan Buxoro, Namangan, Farg'ona, Andijon, Jizzax, Navoiy va Samarqand va Xorazm viloyatlarida amaldagi avans berish mexanizmi o'rniga, fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi va g'alla ishlab chiqarish harajatlarini ularga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklari orqali tog'ridantog'ri imtiyozli kreditlash mexanizmini sinab ko'rishga rozilik berildi.

Fermer xo'jaligi kredit olish uchun tegishli bank bo'limiga ariza bilan birgalikda ushbu hujjatlarini taqdim qilishi lozim:

- tayyorlov korxonasi bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomasining nusxasi;
- pul oqimi ko'rsatilgan biznes reja;
- so'ngi sanaga buxgalteriya balansi;

- muddati 90 kundan oshgan qarzдорlik uchun solishtirma dalolatnomalar;
- kredit ta'minotini tasdiqlovchi xujjat.

Fermer xo'jaliklari yuqoridagi hujjatlarni to'liq topshirgan kundan boshlab, bank 5 kun muddat ichida fermer xo'jaligi bilan kredit shartnomasi to'zadi. Agar rad javobi berilsa, u yozma shaklda asoslangan bo'lishi lozim.

To'lovlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- oylik ish haqi to'lovlari uchun agrotexkartalarda belgilangan me'yorlarda;
- mineral o'g'it va o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari uchun to'lovlarda, mablag'lar "O'zqishloqxo'jalikkimyo" DAK, "O'z kimyosanoat" DAK tegishli korxonasining maxsus 23222 hisob raqamiga o'tkaziladi. Bio mahsulotlarini shirkat xo'jaliklaridan sotib olishda, mablag'lar ularning maxsus 23222 hisobrahamiga o'tkaziladi;
- "O'zagroservis" uyushmasi MTPlarining xizmatlari uchun to'lovlarda, mablag'lar teng ravishda bo'linib 50 foizi ularning maxsus 23218sonli va qolgan 50 foizi 23210 (23220) hisobrahamiga o'tkaziladi;
- mu'obil MTPlar, SFUlar (suvdan foydalanuvchilar uyushmalari), boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hamda olingan mahsulotlar uchun to'lovlarda, mablag'lar ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning talab qilib olinguncha depozit hisobrahamlariga o'tkazib beriladi.

Falla etishtirish harajatlariga ajratiladigan kreditlar hisobkitobi ham paxtaga ajratiladigan kreditlar singari hisoblanadi.

Risk tushunchasi ham, uning amalda bo'lishi ham yangi emas. Uning safdoshi kat'iyasizlik, voqea yuz berishi yoki yuz bermasligini yuz foiz aniqlik bilan oldindan ayta bilish imkoniyati yo'qligidir. Turmushda risklar borligiga ikror ekanmiz, ularni kamaytirishga, ularga duch kelmaslikka harakat qilamiz. Ayni vaqtda osonroq yo'l bilan borish imkoniyatiga ham egamiz. Shunday yo'lni tanlash uchun har bir tavakkal ishning xajmi va qudratini, xilini aniq bilishimiz zarurdir.

Kredit riski yoki qarzning qaytarmaslik xavfi kreditorning o'z vaqtida qaytarilishiga va kredit shartlarini bajara olishiga ishonchsizligidan kelib chiqadi. Kredit riski bank faoliyatida uchraydigan risklarning eng yirigidir.

Bu xolat qo'yidagilar ta'sirida vujudga kelishi mumkin:

- a) tadbirkorlikda, iqtisodiy yoki siyosiy muxitda kutilmaan o'zgarishlar yuz berishi natijasida qarzдорning pul tushumini kerakli darajada ta'minlay olmasligi;
- b) kreditga qo'yilgan garovning kelajakdagi qiymati va sifatiga bo'lgan ishonchsizlik (narx o'zgarishi, qo'yilgan mulkning haridorligi);
- v) qarz oluvchining tadbirkorlik dunyosida, obro'siz bo'lib qolishi.

Yuqorida qayd etilgan xolatlar banklarning risklarni boshqarish va ularni rejalashtirish uchun doimiy ishlar olib borishga majbur etadi.

Kredit riski darajasiga ta'sir etuvchi omillar.

Kredit risklari tarkibiga qo'yidagi risklarni kiritish mumkin:

Kreditni o'z vaqtida qaytarmaslik bilan bog'liq risk. Bu risk qarz oluvchining kredit shartnomasining shartlarini bajarmasligi.

Likvidlik riski (to'lovlarning muddatida o'tkazmaslik), bu risk kreditni va foizlarni muddatida qaytara olmaslik natijasida bank likvidlik mablag'larning kamayishiga olib kelishi bilan bog'liq.

Kreditni ta'minalsh bilan bog'liq risk, bu riskni alohida ko'rib bo'lmaydi, balki bu kreditni qaytarmaslik bilan bog'liq bo'lgan risk bilan birgalikda o'rganiladi. Bu risk turi kredit uchun qo'yilgan garovni sotishdan tushgan mablag' ajratilgan kreditni qoplash uchun etarli emasligi bilan bog'liqdir, natijada bank o'z talabini to'la qondira olmaydi.

Qarz oluvchining ishbilarmonligi bilan bog'liq risklar. Bu risk korxonaning ish faoliyati bilan bog'liq bo'lib (sotib olish, ishlab chiqarish va sotish), ammo boshqa risklardan farqli ularoq bu riskka korxona raxbaridan bog'liq bo'lmagan faktorlar ta'sir ko'rsatadi, masalan tarmoqning rivojlanishi va kon'yunkturasi. Bu riskning xajmini investitsion dastur va ishlab chiqaradigan mahsulot turi va sifati belgilaydi.

Kapitalning tarkibiy qismi bilan bog'liq risklar. Bu risklar passivlarning tarkibiy qismi va ishbilarmonlik riski bilan bog'liq.

Bank kredit riskining darajasi quyidagi faktorlarga bog'liq:

Bank kredit faoliyatining ma'lum bir soxada markazlashuvi darajasi;

O'ziga xos ma'lum qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan mijozlarga kredit va boshqa bank xizmatlaring qancha to'g'ri kelishi;

Kam o'rganilgan, yangi, noan'anaviy sohalarda bank faoliyatining markazlashuvi;

Kredit berish, qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish bo'yicha bank siyosatiga xususiy va jiddiy o'zgarishlar kiritish;

Yangi va yakinda jalb qilingan mijozlarning foizi;

Qisqa vaqt ichida amaliyotga juda ko'p xizmatlarning kirg'izilishi (u vaqtda bankda salbiy talablar ko'payishi mumkin);

Bozorda sotilishi qiyin bo'lgan qimmatliklarni yoki qiymati tez tushadigan narsalarni garov sifatida qabul qilib olish va boshqalar.

Kredit riskini boshqarish muammolari.

Kredit risklarini baholashning besh asosiy o'lchovi mavjud:

a) Reputatsiya. Mazkur jarayon shaxsiy muomala, ham ish bo'yicha tajribasidan iborat bo'lishi kerak (kreditor, maxsulot etishtirib beruvchilar va mijozlarni tekshirish);

b) Imkoniyatlar. Qarz oluvchining o'zining barcha operatsiyalari bo'yicha (o'zining butun faoliyati davomida qarz oluvchining olgan pullari) yoki aniq loyixa bo'yicha mablag' olish qobiliyati va pul vositalarni boshqarish qobiliyati (bu avvvalgi loyihalardan ma'lum bo'lishi kerak);

v) Kapital. Qarz oluvchining kapital bazasi va kredit so'ralgan loyiha uchun o'zining mablag'larini sarflashga doir qat'iyligi. Qarz oluvchi loyiha xavfi ma'suliyatini kredit beruvchi bank bilan birga o'z zimmasiga olishi, o'zining xissadorlik kapitalining qabul qilinishi mumkin bo'lgan qismini taqdim etib, o'ziga tegishli bo'lgan majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak;

g) Shart-sharoitlar. Mahalliy, xududiy va umummilliy iqtisodining joriy axvoli va tavsifi, shuningdek qarz oluvchi xo'jaligining sohalari;

d) Garov. Kreditni garov yoki kafillik shaklida ishonchli ta'minlash boshqa tomondan kuchsizliklarni yo'qqa chiqarib qo'yadi. Yaxshi bir qoida bor: faqat garov va kafillik asosida xech vaqt kredit bermang.

Quyidagi faktorlarni inobatga olish zarur:

Garov sifati – asbob uskuna eskirib olganmi yoki bo'zilganmi, haridorligi, bozorda sotilishi mumkinligi, garov sifatida inflyatsiyadan himoya qilinganmi?

Majburiyatlar bajarilmaganda garov engillik bilan qonuniy tarzda undirilishi mumkinmi?

Garovning bozor narxi va kredit miqdorining o'zaro mumkin bo'lgan nisbati va uning tezqtez qayta ko'rib chiqilishi lozimligi?

Kredit risklarining darajasiga baho berishning muhim usullaridan biri reyting tizimidir. Banklar o'z kreditlarini tekshirishda va aktivlar monitoringida uni keng qo'llaydilar. Bu sistemadan foydalanish xavf tug'ilishi paytida kreditdan olinadigan daromadni aniqlashga yordam beradi.

Banklar odatda kredit sifati bo'yicha o'zlarining xususiy reyting sistemalarini ishlab chiqadilar. Ayrimalri oddiy sxemalardan foydalanadilar, boshqalari murakkab va bo'linib ketgan, hamma narsani o'z ichiga oladigan sxemalarni ishga soladi.

Shunday bo'lsa ham maqsad doim bir bo'lishi kerak: kredit berishda ham, uning bahosini belgilashda ham bankning kredit bo'limi uchun qaror qabul qilish jarayonini engillashtirish. Oddatda bu narsa risk toifalarini raqamlar yoki harflar bilan atash, ularni klassifikatsiya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Reyting doim qator faktorlarga asoslanishi va hamma vaqt quyidagilarni o'z ichiga olishini qayd qilish muhimdir:

Kreditning maqsadlilikligi;

Kredit miqdori va yo'qotishlar extimolining umumiy miqdori;

qarz oluvchining ishlaydigan sohasi;

qarz oluvchining moliyaviy axvoli va avval olgan kreditlari.

Kredit risklarini kamaytirishda tijorat banklarining kredit siyosatining to'tgan o'rni.

Tijorat banklari eng avvalo har bir kredit talabi bilan murojaat qilgan mijozlar bilan ishlash uchun o'zining kredit siyosatiga ega bo'lishi kerak. Bankning kredit siyosati avvalo bank bank tomonidan sifatli kreditlar berishga hamda daromad olishga qaratilgan bo'lib kredit inspektorlari va bank boshliqlari uchun kredit berishda qaror qabul qilish vaqtida asosiy e'tiborni qaysi sohalarga va yo'nalishlarga qaratishlari kerakligi haqidagi hamda bankning kredit portfeli strukturasini tashkil etish haqidagi tavsiyanomadir. Bankning kredit siyosati bir vaqtning o'zida rasmiy nazorat tashkilotlari tomonidan tijorat banklarning kredit berish jarayonlarida etarli xattetkorlikka amal qilishlari bo'yicha belgilangan cheklovlarni ham o'z ichiga oladi.

Bankning kredit siyosatini tashkil etuvi elementlarni qo'yidagicha ko'rib o'tish mumkin:

Maqsad hamda undan kelib chiqqan xolda kredit portfelini tashkil qilish. Bu kredit turlari, berilish muddatlari, xajmlari va sifati kabilardan iboratdir.

Har bir kredit inspektori hamda kredit qo'mitasi tomonidan kredit berish bo'yicha qaror qabul qilishda ularga yuklatilgan vakolatlar chegaralari.

Kreditlarni boshqarish doirasida vakolatlarni va axborotlarni berish bo'yicha majburiyatlar.

Kredit talabnomalarini tekshirish, baholash hamda qaror qabul qilish amaliyoti va tartibi.

Har bir kredit talabnomasiga nisbatan qo'shimcha talab etiladigan zaruriy xujjatlar va kredit yig'ma jildida saqlanishi zarur bo'lgan xujjatlar. Bular: moliyaviy xujjatlar, kafolat xatlari va garov shartnomalari kabilar.

Kredit berish qarori qabul qilinish jarayonida har bir bank xizmatchisiga huquq va javobgarliklari bo'yicha detallashtirilgan ko'rsatmalar (kim xujjatlar saqlanishiga javobgar, kim moliyaviy taxlilga javobgar va x.q.).

Kredit berish bo'yicha mijozlarni qabul qilish. Baholash hamda kredit talabini amalga oshirish bo'yicha asosiy qoidalari.

Foiz stavkalari, komission to'lovlarning o'rnatilishi berilgan kreditlarni sundirilish shartlari bo'yicha bankning siyosatlari hamda amaliy ko'rsatmalari.

Barcha kreditlar qo'llaniladigan sifat standartlari ko'rsatkichlari.

Beriladigan kreditlarning jami aktivlarga nisbatan maksimal xajmi.

Bankning asosiy xizmat ko'rsatayotgan regionlari.

Muammoli kreditlar bilan bog'liq holatlarni aniqlash, taxlil qilish va ularni bartaraf qilish usullari narxi.

Yuqorida yozib o'tilgan bankning kredit siyosati birinchi navbatda beriladigan kreditlardan bo'lishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar riskini kamaytirishga qaratilgandir.

Tijorat banklarida kredit siyosatining mavjud bo'lishi bir vaqtning o'zida bir necha muammolarni echimiga yordam beradi.

Masalan, kredit jarayonlari bilan bog'liq risklarni nazorat qilish, foydalilikni ta'minlash va nazorat tashkilotlari talablariga to'la javob bergan xolda faoliyatni amalga oshirish.

Belgilangan kredit siyosatiga asoslangan xolda tijorat banklari kredit berish jarayoni bo'yicha risklarni kamaytirish va o'rganish maqsadida turli xil etaplarda taxlillar o'tkazishlari mumkin. Kredit riskining bir qismi o'z navbatida kredit berish qarori qabul qilingunga qadar taxlil o'tkaziladigan har etapda bo'lishi mumkin bo'lgan risklardan ham iboratdir. Bunday risklar, xodimlar bilan bog'liq risklar, mijozni etarli darajada o'rganish riski kabilardir. Shu sababli kredit

qarorlarini qabul qilishgacha bo'lgan davrni etaplarga bo'lgan holda taxlil qilishimiz kerak bo'ladi. Bu o'rganish davri kredit so'mmasi xajmi hamda amalga oshirilishi kerak bo'lgan maqsadlardan kelib chiqqan xolda har turli bo'lishi mumkin. Masalan bir xaftadan bir yilgacha bo'lishi mumkin. Chunki oddiy iste'mol krediti bilan loyihalarni amalga oshirish uchun talab etiladigan kreditlarni taxlilini birlashtirib bo'lmaydi bu vaqtlarda taxlillar murakkabligi jixatidan ham ajralib turadi.

Har bir taxlil etaplari risk nuqtai nazaridan chuqur taxlil qilinishi kerak bo'ladi.

Kredit talabini bildirgan mijozni o'rganish etaplarini qo'yidagicha tashkil qilish mumkin:

Mijoz bilan suxbat – mijoz bankga kredit olish talabi bilan kelgan vaqtda kredit inspektori oldida ikki muhim masala o'z echimini kutadi. Suxbat vaqtida kredit inspektori mijozga uning amalga oshirmoqchi bo'lgan maqsadi bo'yicha kreditlarning qaysi turidan foydalanish bo'yicha maslaxat berish orqali birinchidan bo'lishi mumkin bo'lgan yaxshi mijozni aniqlay olishi kerak. Ikkinchidan esa asossiz bo'lgan kredit talabini o'z vaqtida to'xtatish mumkin.

Mijoz xaqida axborot yig'ish – bu eng avvalo mijozning haqiqatda bor yoki yo'qligi haqida axborot yig'ish bilan boshlanadi. Buning uchun albatta mijoz korxonasiga tashrif buyurish bilan bir qatorda davlat tomonidan olib boriladigan qayd yozuvlari ham tekshirilishi lozim. Mijozning yuridik statusi aniqlanishi kerak. U o'z statusi bo'yicha kredit olish huquqiga egami yoki yo'qmi.

Kredit risklarini hisoblash usullari.

Moliyaviy taxlil kredit operatsiyalarining riskini kamaytirishning eng asosiy usullaridan biri mijoz hisobotlari asosida uning moliyaviy xolatini to'g'ri va etarli darajada taxlil qilishdir. Bunda biz eng avvalo mijozdan qaysi xujjatlarni talab qilish mumkinligini va ularda ko'rsatilgan raqamlarning to'g'riligini tasdiqlanganligiga e'tibor berishimiz kerak. Hozirgi kunda korxonalar moliyaviy xolatiga berilayotgan xulosalar o'z navbatida bank uchun bu ishda katta yordam bermoqda. Bank mijozdan bugungi kunda talab qiladigan hisobotlari quyidagilardir:

korxona balansi

moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (foyda va zararlar).

Bank mutaxassisi eng avvalo korxona moliyaviy xolati to'g'risida umumiy fikrga ega bo'lishi uchun balans moddalarida ko'rsatilgan barcha raqamlarni nisbiy hamda absolyut nuqtai nazardan o'zgarish dinamikasini taxlil qilishi kerak. Jahon banklari tajribasida moliyaviy taxlil uchun banklar 3-5 yillik hamda kredit talabi yil ichida quyilgan bo'lsa oxirgi kvartal hisobotlari asosida olib borishni tavsiya etiladi.

Kredit risklarini kamaytirishda garov, kafolat va kafillikni ahamiyati.

Banklar kredit riskini kamaytirish maqsadida ko'pincha qo'yidagilardan foydalaniladi:

Garov (ta'minotlar)

Kafolat.

Kafillik

Ta'minotlar- bu bank garov sifatida qabul qilishi bo'lishi mumkin va kerak vaqti realizatsiya qilish uchun huquq ega bo'lishi mumkin bo'lgan moddiy aktivlar. Bank tomonidan qabul qilingan ta'minotlar xar turli bo'lishi mumkin. Ular qo'zg'almas mulkdan tortib to tarixiy eksponatlarga bo'lishi mumkin. Lekin bu moddiy aktivlardan qaysi biri garov sifatida qabul qilish mumkin degan savolga javob berishi uchun bu ta'minotlar 3ta printsiptal talabga javob berish kerak.

Tez sotilishi uchun o'z bozoriga ega bo'lishi kerak.

Saqlanuvchi bo'lishi kerak. Ya'ni saqlanish davrida va o'zining xususiyatlarini yo'qotmasligi kerak.

Boshqa garovdan xoli bo'lishi kerak.

Garovga olinayotgan xar qanday ta'minot yuqorida yozib o'tilgan 3ta talabga javob berishini aniqlash kerak bo'ladi. Agar biz ta'minotning boshqa garovdan ozod ekagligini aniqlashda qiyinchiliklar uchratmasak xam ta'minotni saqlanuvchanligi bo'yicha ba'zan eksport xulosalarni olishga to'g'ri keladi. Bu esa o'z navbatida oshiqcha xarajat talab qilishi mumkin. Bu talablarning ichida eng qiyin aniqlanadigan xam xamda eng muximi bu ta'minotning likvidligidir. Xozirgi

vaqtda garovga olinayotgan moddiy aktivlar balans qiymati bo'yicha qabul qilinmoqda, lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida balans qiymati bilan olish etarlimi degan savol paydo bo'ladi. Shu bilan bir qatorda garovning bozor baxosini aniqlash sharti paydo bo'lgan xolda bu narxni aniqlash bo'yicha maxsus metodikalarga ega bo'lishi kerak yoki bu ishni amalga oshirib beruvchi maxsus eksport xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi. Agar bunda eksportlar mavjud bo'lsa. Masalan garov sifatida qo'yilayotgan qo'zg'almas mulkni baxolash o'z navbatida ko'pgina faktorlarga bog'liq: garov joylashgan joy infrastrukturasini garovning xolati, garovni ishlatish bo'lgan maqsadlar.

Xozirgi sharoitda garov sifatida davlat qimmat baxo qo'ozlarni olish mumkin. Yozib o'tilganlarga xulosa qilgan xolda shuni aytish mumkinki berilayotgan kreditlar eng avvalo garovga olingan mulkning haqiqiy bozorda sotilishi mumkin bo'lgan baxosiga nisbatan xisoblanishi kerak. Shu bilan bir qatorda garov bo'yicha belgilangan mamlakat qonunlari mukammal bilish garov bilan ishlashda eng muhim omillardan biridir. Kafolat – bu 3chi shaxs tomonidan, agar qarzdor belgilangan muddatda qarz xamda foizlarni to'lamagan taqdirda bu qarz bo'yicha to'lovni xech qanday shartsiz to'lab berish bo'yicha xaqidagi yozma majburiyat.

O'z – o'zidan ko'rinib turibdiki 3chi shaxs tomonidan to'lov bo'yicha majburiyatni o'z bo'yniga olishlik o'z navbatida bankning mijozini moliyaviy xamda boshqa tomonlarda tekshirishni engillatiradi va to'lovga qobiliyatlik bo'yicha taxlil kafolat bergan 3chi shaxsga ko'chadi va bu ish kafolat bergan bank tomonidan amalga oshiriladi. Bu narsa kredit talabi bilan murojat qilgan mijoz umuman tekshirilmaydi degan gap emas albatta. Chunki 3chi shaxsdan talab etilgan narsa faqat kreditni qaytarilishi muddati etarli ozod mablag'larga ega bo'lishlikdir. Kafolat berish xamda uni qabul qilish jarayonlari xam o'z navbatida xar turli risklarga ega. Kafolatni banklar bilan bir qatorda boshqa tijorat tashkilotlari va fondlar berishi mumkin.

Leкин xar qanday kafolat berilgan uchun javobgarlik to'g'ridan to'g'ri kafolatchi banki zimmasiga tushadi. Kafolat asosida kredit berish jarayonidan kafolatning qonun ko'rsatkichlari asosida belgilangan tartibda to'ldirilishiga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Kafolat xatida albatta kafolat beruvchi tashkilot raxbari va bosh muxosibi imzolari bilan bir qatorda, belgilangan majburiyat buzilgan xollarda qarzni to'lash bo'yicha majburiyat bank zimmasiga o'tish to'g'risidagi yozuv bilan bir bank rahbari va bosh muhosib imzosi bo'lishi shart. Xatarli vaziyat nimalardan iborat bo'lvadi

Kafolatchi banki bu xat bo'yicha tegishli balansdan tashqari yozuvlarni amalga oshirganmi? Kafolat summasiga depozit olinganmi yo'qmi? Kafolat xatida ko'rsatilgan summa kredit va uning foiz to'lovlariga etarlimi yo'qmi? Kafolat bergan tashkilotning kafolat amal qilgan davrda soliq to'lovlari bo'yicha muammolarining paydo bo'lmasligining to'g'ri taxlili. Kredit risklarining kamaytirishda to'g'ri taxlil asosida qabul qilingan garov va kafolatni roli juda kata. Chunki qaytarilmagan mablag'ni o'rnini faqat shu narsalar to'ldirish mumkin.

Jaxon amaliyotida banklar kreditlash operatsiyalardan oladigan daromad bank foydasining asosiy qismini xosil qiladi. Shu bilan birga bir vaqtda, kreditlarning asosiy yiriklari bankning bankrot bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuning uchun xom banklarning kreditlash faoliyatini to'g'ri tashkil etishi va mavjud risklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit risklari ularning sifati va darajasini aniqlash va taxlil qilishdan iborat.

Kredit riski deb, qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarini bajarilmasligi ya'ni kredit summasining (qisman yoki to'liq) ko'rsatilgan muddatlarda to'lanmasligi tushuniladi. Shuning uchun kredit risklarini aniqlash va boshqarish bankning rivojlanishi va taraqqiy etish maqsadiga erishishi uchun ishlatiladigan usullarining ayrilmas qismidir.


Ma'lumki, bank amaliyotida foyda asosan berilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foizlardan tashkil topadi.

Kredit riskini minimallashtirish maqsadida kreditor kredit berishdan oldin riskni aniqlashga xarakat qiladi.

Riskni yuzaga kelishiga qo'yidagi sabablar bo'lishi mumkin:

- a) turli xil makro va mikro iqtisodiy omillar iqtisodiy qonunchilik va me'yorlarda o'zgarishlar;
- b) qarz oluvchi faoliyatida bo'ladigan iqtisodiy va siyosiy muxitda o'zgarishlar;

- v) kreditni ta'minlanganligi uchun olingan garovni qiymati va sifati bo'yicha ishonchning yo'qligi;
- g) yuqori bilimga ega bo'lgan bank xodimlarini etishmasligi;
- d) qarz oluvchi sub'ektning maxalliy yoki davlat miqyosida obro'sining tushib ketishi bankning kreditlash jarayonini:



Kreditlash jarayonining 2,3,5 bosqichlarida kredit risklari va ular darajasini aniqlash mumkin.

Kredit riskini vujudga kelishi 2 asosiy parametr kredit beruvchi va qarz oluvchi o'z vazifalarni qay darajada bajarilishisha bog'liq. Qarz oluvchi tomonidan tayyorlangan kredit paketini taxlili qili shva kredit berish bo'yicha loyixa tayyorlagan kreditlovchi bank uchun risk va uning turlarini aniqlab olish imkoniyatini beradi.

Bu bosqichda kredit beruvchi:

Qarz oluvchining iqtisodiy, moliyaviy axvoli, uning ishchanlik, ma'naviy qiyofasi, ishlab chiqarish imkoniyatlari marketingi, moliyaviy boshqaruvi va boshqalari:

kreditga bo'lgan talabning qanchali darajada to'g'ri asoslanganligi va bu asos korxonaning chinakam iqtisodiy xolatidan kelib chiqqanligi;

kreditning maqsadi bank manfaati uchun xam to'g'ri kelishi kabi savolarga javob olish.

Kreditlarni risk darajasi bo'yicha guruxlash kredit qo'yilmalarning qaysi(qancha) miqdori me'yoriy risk yoki yuqori risk zonasida ekanligini ko'rsatadi.

Kredit riskining darajasini aniqlashda risk koeffitsientidan foydalaniladi..

6-jadval

Risk koeffitsientini tartibi

Ko'rsatkichlar	Variantlar	
	Birinci variant	Ikkinchi variant
1. O'z mablag'lari mln	10000	60000

so'm.		
2. Mumkin bo'lgan yo'qotishlarning summasi.mln.so'm.	6000	24.000
3. Risk koeffitsienti	0,6	0,4
Demak 2 variant bo'yicha kapital qo'yish riski birinchi variantga nisbatan 1,5 kam 06:04=15		
1.Асака Тошкент шаҳри бўлим ҳисоботидан олинган		

Risk tufayli yo'qotishlar xajmiga qarab risk zonasini aniqlash mumkin.

1. Risksiz zonada yo'qotishlar yo'q, uning o'lchami «O» ga teng, bu xolda foyda darajasi yuqorida bo'ladi.

5-jadva

Risk zonasini qo'yidagichi ifodalanadi

Yutuqlar	Yo'qotishlar			
Salbiy yo'qotishlar yo'q.	Bo'lishi mumkin bo'lgan risklar zonasi	Kritik risk zonasi	Xalokatli risk zonasi	Maksimal risk(yo'-otishlar xajmi yuqori).
Risksiz zona foida	Tushum mavjud	Yo'qotish xavfi bor.	Aniq yo'qotishlar mavjud.	Mulkni xam yo'qotish xolati

2.kritik risk zonasi yo'qotishlar bo'lish xavfi borligini ifodalaydi, olinadigan foydadan bir qismining Biron jarayon uchun yo'naltirilganini vash u mablag'larning qaytib kelishida xavf borligini ifodalaydi.

Xalokatli risk- aniq yo'qotishlar muqarrarligini va bankning foydasi, mulkiy zarar Bilan yaqinlashini ifodalaydi.

Kredit riskining darajasini aniqlashdagi muxim ko'rsatkichlaridan biri bu korxonaning moliyaviy jixatdan mustaqilligini ifadalovchi koeffitsientdir. Muxtorlik koeffitsienti xissadorlarning aktsiya egalarning va kreditorlarining mafaatlarning vash u bilan birga moliyaviy mablag'larini tarkibini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich orqali korxonaning moliyaviy axvoliga baxo berish mumkin.

Qoplash koeffitsienti- (Kk) likvid mablag'lar summasining qisqa muddatli majburiyatlar summasi nisbatini ifodalaydi. Bu degan so'z qisqa muddatli majburiyatlarning xar bir so'miga likvid mablag'lar xar 2 so'mdan kam bo'lmagan qismi to'g'ri kelishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatida bu ko'rsatkich qo'yidagicha belgilanadi..

I. Toifaga kiruvchilar- 2 va undan ortiq.

II. Toifaga kiruvchilar 1 2.

III. Toifaga kiruvchilar 0,5 1 qilib belgilangan

Absolyut likvidlik koeffitsienti- bu ko'rsatkich eng mukammal ko'rinishi likvidlik koeffitsientidir. (Kk) u yuqori va o'rta likvidli mablag'lar summasi Bilan qisqa muddatli qarzdorlik o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi.

I. Toifaga korxonalar uchun – 1,5 yuqori

II. Toifaga korxonalar uchun- 1,0 – 1,5 ga

III. Toifaga korxonalar uchun- 1,0 kam qilib belgilangan.

Qarzdorlik koeffitsienti bu ko'rsatkich korxona aktiviga qo'yilgan o'z mablag'lariga qancha jalb qilingan mablag'lar to'g'ri kelishini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichni guruhlab taxlil qilish mumkin;

Debitor qarzdor summasi

$$\begin{aligned} \text{Debitor qarzdorlik koef-ti Kdk} &= \frac{\text{O`z kapitali summasi}}{\text{kreditor qarzdor summasi}} \\ \text{Kreditor qarzdor summasi K(k.k)} &= \frac{\text{summasi}}{\text{o`z kapitali summasi}} \\ \text{Jalb qilingan kapital Kjm} &= \frac{\text{sotuvdan tushum x 100}}{\text{Aylanish koefitsienti o`z kapitali o`rtacha summ}} \end{aligned}$$

Bu koefitsient xar ishlab chiqaruvining tashqi qarzlarga qanchalik bog`liqligini tasvirlaydi.

Tijorat banklar faoliyatida uning aktivlari va ular bilan bog`liq aktiv operatsiyalarning risklilik darajasini aniqlash bu jarayonning boshqarib borish muxim o`rin tutadi.

Tijorat banklarining aktivlari o`ziga xos belgilari mavjuddir:

- Likvidlik darajasiga qarab
- Risk darajasiga qarab

Daromad darajasiga qarab 3 guruxga bo`linadi

Birinchi gurux-yuqori likvidli aktivlar.

- a) kassadagi va yuldagi nakd pullar, kimmatbaho toshlar, moneta, cheklar va boshqalar.
- b) korschetdagi mablag` koldiklari.
- v) «Nostro» va «Vostro» schetlaridagi koldiklar
- g) majburiy rezervlar scheti bo`yicha mablag`lar
- d) qimmatli qog`ozlar schetdagi mablag`lar koldigi xazina veksellari va boshqalar.

Ikkinchi gurux likvid aktivlar

- a) berilgan kreditlar.
 - b) O`zbekiston investitsiyalari
 - v) boshqa qimmatli qog`ozlar
- uchinchi gurux nolikvid aktivlar.
- a) Muddati o`tgan sudalar.
 - b) Muddat o`tgan foizlar
 - v) Sud aralashuvi bilan o`zlashtirilishi ko`zda to`tilgan ssudalar.
 - g) Tugallanmagan ishlab chiqarish
 - d) Asosiy vositalar.

Risklilik darajasiga qarab aktivlar to`rt guruxga bo`linadi.

1 gurux-riskdan xoli bo`lgan aktivlar. Bularga nakd pullar Nostro, Vostro hisob varaq koldiqlar MB qimmatli qog`ozlar va obligatsiyalar.

2-gurux (kichik) minimal riskli aktivlar Nostr, Vostro korschetdagi olinishi lozim bo`lgan mablag`lar , evro obligatsiyalar, kiska muddatli birinchi sinf ta'minlanganlikka ega bo`lgan kreditlar . Bu aktivlar bo`yicha risk darajasi 20 % ga teng.

3-gurux. Yuqori riskli aktivlar, boshqa banklarga berilgan kreditlar , boshqalar uchun bank bergan garov va kafolatlar bu aktivlar bo`yicha risk 50%ga teng.

4-gurux. Eng yuqori darajadagi riskli aktivlar:

qimmatli qog`ozlar sotish va sotib olish scheti, sotib olingan veksellar, trost xujjatlar va akkreditivlar bo`yicha mijozlarning majburiyatlari, sud jarayonida bo`lgan kreditlar, akkreditivlar, forvard, bank va banklararo sotish va sotib olish.

Bu aktivlar bo`yicha risk darajasi 100%.

Daromad keltirishga qarab bank aktivlari daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo`linadi.

1. Daromad keltiruvchi aktivlarga:
2. Barcha berilgan kreditlar

3. Investitsiyalar o'ziniki
4. Xazina veksellari.
5. Davlat obligatsiyalari.
6. qimmatli qog'ozlar

Daromad keltirmaydigan aktivlar:

1. Pul aktivlari guruxi
2. Asosiy vositalar
3. Kapital harajatlar
4. Barcha moddiy aktivlar
5. Nomoddiy aktivlar

Daromad keltirmaydigan aktivlar shartli ravishda deb belgilaymiz va ularning darajasi umumiy aktivlarning xajmidan 3% oshmasligim lozim.

Agarda bunday aktivlar miqdorda 2 va undan ortiq o'rnatilgan normadan ko'p bo'lsa bank faoliyati juda muammoli, uning kredit siyosati juda zaif deb baholanadi.

Tijorat banklarining faoliyatini taxlil qilish va aktivlar bahosini belgilashning asosi bo'lib uning balansi hisoblanadi. Balans asosida tijorat banklarining faoliyatini taxlil qilishda bir marta bo'ladigan harajatlar yoki daromadlarni aloxida hisobga olgan ma'quldir. Chunki bu bir martalik bo'ladigan tushum yoki harajat bank faoliyatining olib borilishi uning likvidligi ko'rsatmasligi mumkin.

Bularni neytral harajatlar va neytral daromadlar deyiladi.

- a) Neytral harajatlar
- b) Bir martalik to'lovlar (yongin, pul ugirish)
- c) Bank biznesiga ta'lukli bo'lmagan to'lovlar.
- d) O'tgan davrdagi foizlar bo'yicha harajatlar.
- e) Neytral daromadlar:
- f) Bir martalik tushumlar
- g) O'tgan davrdagi foizlar bo'yicha tushumlar
- h) Bank biznesiga ta'lukli bo'lmagan tushumlar

Banklarning asosiy daromad keltiruvchi operatsiyalari kredit operatsiyalari hisoblanadi. Shu sababli bank kredit operatsiyalari bo'yicha oladigan daromadi va u bo'yicha risk darajasini aniqlashi lozim.

Banklar kredit berishda o'z kapitaliga to'g'ri kelishi mumkin bo'lgan foiz stavkasini hisoblashi kerak. Chunki bank kapitaliga to'g'ri keluvchi foiz yoki foyda normasi bank likvidligini ta'minlashning asosi hisoblanadi.

Bank o'zi beradigan kreditning samaradorlik darajasini aniqlash uchun bankda amalga oshiriladigan har bir operatsiya bilan bog'liq harajatlarni aniqlashi lozim. Bu esa har bir operatsiya uchun sarflanadigan vakti aniqlashni talab qiladi. Operatsiyani amalga oshirish uchun ketadigan vakt aniq bo'lishi uchun bu jarayon 2-3 hafta 1 oy davomida yozib borilishi: har bir operatsiya vakti, minutlari xronometrik yul bilan ulchanishi kerak.

Bir bo'limning harajati 320 ming so'm

Bankning shu bo'limning harajati 420 ming so'm

Bo'limning ma'lum vaktida 182 operatsiya amalga oshirgan

Bir operatsiyaning qiymati 2,32 so'mga teng bo'ladi: $(420:182) \times 2,32$ so'm

Faraz qilaylik tijorat banki to'rt xil faoliyati to'rini amalga oshiradigan bulsin.

To'rt xil faoliyat to'rini amalga oshirish sharoitida bir operatsiya qiymatini hisoblash tartibi.

Bank bergan krediti bo'yicha qancha samaradorlikka erishganlikni aniqlash uchun barcha aktiv, passiv operatsiyalar, xizmatlar va boshqa vositachilik operatsiyalari bo'yicha oladigan daromadlar hisoblab chiqiladi. Shundan so'ng bank faoliyatining rentabellik darajasini aniqlanadi.

Bu ko'rsatkichlarni qo'yidagi sxematik hisob kitoblariga asosan aniqlanadi.

7-jadval

Aksioner tijorat banklar aktivlari hajmi, mln.so`m

Kredit turlari	Aktiv hajmi mln.so`m	Foiz evaziga tushgan tushum	M ijoz stavka si%	B ozor stavka si%	Foiz oshishidan tushgan tushum %	Operatsiya harajatlari so`m	Risk bilan bog`liq haraj.	qo`plash summasi
Kis ka muddat kreditlar	70 .000	900	7	5	050	50	380	17
O` zok muddat kredit.	90 .000	675	7	6	900	40	210	29
jami	16 0.000	116 50	-	-	195 0	90	590	46

1) tijorat banklari hisobotidan olingan

Shunday jadvalni bankning passivlarini xajmini ko`ramiz

8-jadval

Aksioner tijorat bank passivlari xajmi mln.so`m

	Passiv xajmi mln so`mm	Foiz to`lash bilan bog`liq haraj.	Fo iz stavkasi	Bo zor foiz stavkasi	Mini rezerv ajratma %	F oiz oshishi tushum	X arajatlari	K o`plash so`mma si
Depozitlar	30 .000	100	0.	4.	0.45	1	2	83
Bank kapitali	50 .000	200	4.	5.	0.35	3	2	12
Jamgarmalar	60 .000	180	3.	5.	0.27	1	7	56
Jami	14 0.000	390	-	-	-	2	1	15

Endi bankning barcha faoliyat turlari bo`yicha natijalarni jamlaymiz.

Aktiv operats.bo`yicha qo`plash so`mmasi 460 mln so`m.

Passiv operats. Bo`yicha foyda 1521 mln.so`m

Vositachilik operatsiyalar bo`yicha 300 so`m

Akts.tij.bank.foydaning umum. So`m. 2281 mln.

Bu ko`rsatkich ijobiy faoliyat natijasini ko`rsatadi, hali bank faoliyatining samaradorlik darajasini aniq ifoda qilmaydi.

Yuqorida keltirilgan tijorat banki bo`yicha qisqa muddatli kreditlarning barchasi 70.000mln so`m o`zok muddatli kreditlardan aytaylik 50 % 90000q45000 to`lanishi kerak.

To`lanishi kerak bo`lgan kreditning umum xajmi 115000 mln so`mni tashkil qiladi.

O`z kapitalini minimal miqdori ega bo`lish 8%, ushbu me'yorga asosan tG`b ustav kapitali mln 9200 so`mga teng bo`ladi.

Bankni rentabelligini aniqlaymiz

$(2281 (100\%G'115000(8\%))=24.79 \%$ tijorat bankning kapitaliga to'g'ri keladigan foyda 24.79 % teng.

Banklarning aktiv operatsiyalari bilan bog'liq risklarni taxlil qilishda asosiy o'rinni kredit operatsiyalari egallaydi va ular bilan bog'liq bo'lgan kredit risklari tashkil qiladi.

Bank faoliyatida vujudga keladigan kredit risklarining turlari va shakllari kredit risklarini boshqarishda bankning o'z siyosatini ishlab chiqishga majbur qiladi. Kredit jarayonida bank tomonidan qarz oluvchi faoliyatining nafaqat ijobiy. Balki salbiy tomonlarini ham e'tiborga olishlari zarur. Chunki qarz oluvchi yaxshi rivojlanib qarzinin o'z vaktida qaytarsa bank o'zining mablag'larini va foizlarini oladi xolos, agarda qarz oluvchining ishi yurishmay kolsa bank ham o'z mablag'laridan ajralib koladi.

Banklar mijozning inkirozga uchrashini o'z vaktida sezishlari va baho berishlari zarur, chunki bu banklarga o'z vaktida kredit xajmini qisqartirishga va kerakli choralari qabul qilishga yordam beradi.

Bozor iqtisodiyotiga utish davrida bank va moliya institutlari xo'jalik sub'ektlarining yuqori darajada kredit risklariga moyil ekanligini nazarda tutib, bu risklardan himoya uslublarini ishlab chiqishlari, kredit risklarini boshqarish tizimini rejali asosda takomillashtirishlari lozim.

Kredit risklarini taxlil qilish va baholash. Bank axborot manbalaridan kredit risklarini va ular o'rtasidagi bog'liqlarni o'rganib chiqishi hamda ularni nazorat qilinadigan va boshqariladigan risklarga ajratishi kerak.

Risk miqdorini aniqlash. Riskning miqdoriy ko'rsatkichini aniqlash extimoliy yo'qotishlar miqdorini aniqlashga va aktiv boshqarish instrumentlari vositasida risk darajasini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

Kredit risklarini boshqarish. Boshqariladigan risklar va ularning miqdori aniqlanganidan keyin, kredit risklarini boshqarish metodologiyasi va strategiyasi ishlab chiqilishi zarur. Kredit risklarini boshqarish kredit risklari vujudga kelishining oldini olishga karatilgani kabi, kredit risklarining bank likvidliligi va rentabelliligiga salbiy ta'siriga yul kuymasligiga yunaltirilgan bo'lishi mumkin.

Kredit risklarini samarali boshqarish ustidan nazorat. Risklarni boshqarish bo'yicha tadbirlar natijalari nazorat ostida bo'lishi lozim. Ushbu nazorat vujudga kelgan risk miqdorining rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan chetlanishini aniqlashga karatilgan bo'ladi. Taxlil qilish uchun kredit faoliyatining natijalarini belgilovchi, risk tarkibi risklarning vujudga kelishi bilan bog'liq zararlar kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Kredit risklarini boshqarish instrumentlari banklar tomonidan risklarini kelib chiqishi va ular bilan bog'liq salbiy xollarning oldini olish maqsadida aloxida kredit mikesida ishlatilishi bilan birga bank kredit portfelida mikesida ham ishlatiladi.

Risklar nazorati esa, ya'ni ularni rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish bankka kredit riski xajmi va harakteri to'g'risida aniq axborotga ega bo'lishiga va shu asosda vujudga kelgan risk miqdorining rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan chetlanishini aniqlashga yordam beradi: bu esa o'z navbatida bank tomonidan tegishli choralar ko'rishga yordam beradi.

Aloxida kredit mikesida kredit risklarini boshqarish instrumentlari. Kredit riski mijozning kreditga layoqatligiga bog'liq bo'lib, risklarni kelib chiqish sabablarini boshqarish instrumentlari yordamida urganish, bankka kredit riskining miqdorini aniqlashga imkon beradi.

Mijozning kreditga layoqatliligi uning huquqiy statusiga, ishbilarmonligiga va uning moliyaviy axvoliga bog'liq. Mijoz bankka takdim etgan huquqiy va moliyaviy xujjatlari yordamida taxlil o'tkazilib, moliyaviy natijalarning kelajakda iqtisodiy o'zgarishlar natijasida qanday o'zgarishi ham e'tiborga olinishi zarur. Bu o'z navbatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan kredit risklarini vakt davomida miqdorini va xususiyatlarini urganishga va kredit ishlab turgan paytda ko'zatishlar natijasida ma'lum choralar ko'rishga imkon yaratadi.

Bank kredit portfelida vujudga keladigan risklarni boshqarish instrumentlari.

Kredit talabnomalarini va mijoz haqidagi axborotni sifatli o'rganib chiqish, kredit jarayonini tashkil etish uchun samarali axborot tizimini va nazoratni joriy etish kreditlashtirish jarayonidagi sub'ektiv kamchiliklarning oldini olishga imkon yaratadi. Bank faoliyatining asosiy maqsadi-

kreditlarning xajmini emas, balki operatsiyalarning daromadligini oshirishdir. Bank infrastrukturasi va texnologiyalarning rivojlanishi bank kredit boshqarmalarga yuqorida kayd etib o'tilgan axborotlarni aniq va tez yig'ishga imkon yaratib bermokda. Har bir mijoz, uning bankka takdim etgan talabnomasi, tashqi axborotlar bank kredit portfelini sifatli boshqarishga imkon beradi, shu bilan birga har bir bank tarkibida kreditlarni nazorat qiluvchi ichki nazorat bo'limi bo'lishi zarur. Ichki nazorat bo'limining asosiy maqsadi tashkiliy tizimni, kreditlashtirish strukturasi va aloxida tanklash asosida kreditlarni tekshirish va nazorat qilish.

Tashkiliy tizim-bunda kredit ishiga baho berish: kredit talabnomasini kiska muddat ichida ko'rib chiqish, taxlil qilish bu ishlarni bajarishda tasdiqlangan me'yoriy xujjatlarga amal qilish kabi ishlarning qanday olib borilishi va sifati.

Kreditlashtirish strukturasi nazorat qilish-bunda bank jami kredit portfelini kredit turlari, miqdorlari, foiz miqdorlari. Muddat. Ta'minlanganligi va boshqa xususiyatlariga qarab taxlil qilish. Taxlil natijasi asosida kredit portfelida vujudga keladigan risk darajasi to'g'risida xulosa chiqarish.

Bank bergan kreditlarini nazorat qilib turishi zarur va bu zarurat berilgan kreditning o'z vaktida qaytarilishini, kelishilgan shartlarning to'g'ri bajarilishini va bu kreditlarning oxir okibatda muammoli kreditlar katoriga qo'shib ketmasligiga ta'minlashga karatilgandir. Shu bilan birga katorida paydo bo'ladigan muammolarni o'z vaktida aniqlash va ularga karshi choralar ko'rishdir. Bundan kelib chiqadigan maqsad shundan iboratki berilgan kreditlar bo'yicha muammolar paydo bulayotgani oldindan aniqlansa bank mijoz bilan maslaxatlashgan xolda yuzaga kelayotgan muammoni oldini olishi mumkin. Banklar eng avvalo bergan kreditlarni foizlari bilan xech qanday muammosiz va oshikcha sarf harajatsiz ishlatib foyda olishni xoxlaydilar. Berilgan kreditlar ustidan keyingi nazorat bank raxbariyati uchun nafaqat qarzdor ustidan nazorat qilishdir, balki kredit bo'limi mutaxassislarining bankning kredit siyosatiga kaydarajada rioya qilayotganini nazorati hamdir.

Olib boriladigan tekshirishlar va nazorat vaktlarda mijozga berilishi mumkin bo'lgan yordam hamdir. Bunday yordam maslaxat ko'rinishida, kredit muddatida belgilashda xatoga yul qo'yilgan bo'lsa uni o'zgartirishi. To'lovlar muddatiga o'zgartirishlar kiritish kabilar bo'lishi mumkin. Bank tomonidan berilgan kreditlarni qaytib kelishini ta'minlash maqsadida belgilangan nazort ishlari olib borilishiga qaramay bari bir ba'zi kreditlar o'z vaktida qaytarilmay kolmokda va natijada muammoli kreditlar safiga qo'shib bormokda. Muammoli kreditlarning paydo bo'lishi mijozning moliyaviy xolatida qandaydir salbiy o'zgarishlar paydo bo'lganligini bildiradi. Bunday xolatlarda bank doimo tayyor turishi kerak bo'ladi. Berilgan kreditlar har turli hamda o'ziga xos muammolarga ega bo'lishiga karamay ularning hammasi xos bo'lgan muammolar ham mavjud. Bunday xolatlarda bank nima ishlarni amalga oshirishi kerak bo'ladi.

Bankda aloxida muammoli kreditlar bilan ishlash bo'limi bo'lishi kerak va bu bo'lim faoliyat kredit berish bo'lim faoliyati bilan aralashmasligi kerak.

Qarzdor tomonidan bankga belgilangan muddatlarda topshirilishi kerak bo'lgan xujjatlarning o'z vaktida topshirilmaligi hamda qarzdor va bank o'rtasidagi aloqalarda o'zlashlar paydo bo'lishidir.

Firma, korxonalar uchun berilgan kreditlar amortizatsiya ajratmalari hisoblashda, tovar moddiy boyliklar zaxiralarini baholashda, solik hisoblashda, foydani hisoblashda bo'ladigan har qanday o'zgarishlar.

Firma, korxonalar uchun berilgan kreditlarda qarzdorning kredit reytingining o'zgarishi, aktsiyadorlarga dividend to'lashda kiyinchiliklarning paydo bo'lishi yoki to'lashdan voz kechilishi.

Qarzdor aktsiyalari bahosining qonakarsiz ravishda o'zgarishi.

Qarzdor kapitali strukturasi salbiy o'zgarishlar (aktsioner kapitalning qarz majburiyatlarga bo'lgan nisbati ko'rsatgichi hamda likvidligida, ishchanlik aktivligida (sotish xajmining zaxiralarga nisbati).

Kredit talabnomasida ko'rsatilgan sotish xajmi hamda pul oqimi grafiklaridan og'ishlar.

Muammoli kreditlarning bank kredit portfelidagi salmogini baholash uchun mavjud kreditlar risk jixatidan klassifikatsiya qilinadi hamda ularga karshi rezerv mablag' ajratish kerak bo'ladi. Xozirgi kunda kredit portfeli sifat jixatidan qo'yidagicha klasifikatsiya qilinadi:

Yaxshi. Yaxshi kreditlar o'z vaktida qaytarilishiga shubxa bo'lmagan kreditlardir, qarzdor moliyaviy xolati turgun, yuqori rentabellikga ega, xususiy kapital darajasi yuqori, debitorlik qarzlarning aylanish muddati kiska. Kredit ta'minoti tez pulga aylanishi jixatidan ishonchli. Ta'minotlar berilgan kreditni foizi bilan qo'shib olganda ham etarli bo'lgan xolda sotish davrida konuniy jixatdan muammolar tugdirmaydi. Ta'minotlar bo'yicha kerakli xujjatlar konun asosida to'liq koldirilgan.

Qoniqarli. Bu kreditlar to'liq ta'minotga ega bo'lgan xolda vaktincha qaytarilmagan kreditlar hisobida 30 kundan 60 kungacha bo'lgan kreditlar hamda etarli darajada ta'minlanmagan va to'lov muddatidan 30 kungacha o'tgan kreditlar. Bunda mijoz moliyaviy xolati turgun, lekin konikarsiz xolatlar mavjud. Bu kreditlar katoriga yomon xujjatlashtirilgan kreditlar ham kiradi.

Substandart. Bu sifatsiz kreditlar bo'lib ularni qaytarishda ma'lum darajada muammolar paydo belishi mumkin. Bu kreditlarni qaytarishda birinchi darajali manbalar etarli emas. Bank boshqa manbalarni kidirishi kerak bo'ladi. Masalan garovni sotish, boshqa kapital oqimini mijozning joriy moliyaviy xolatining to'lovga qobiliyatligi bilan himoyalangan. Garov xujjatlarining etarli darajada emasligi hamda uni nazorat qilib turishda etarli ma'lumotlarning yo'qligi. Yaxshi ta'minotga ega bo'lgan xolda to'lov muddatidan 60 kundan 180 kungacha o'tkazilgan, etarli darajada taminlanmagan xolda 30 kundan 60 kungacha o'tkazilgan kreditlar hamda taminlanmagan xolda 30 kungacha bo'lgan kreditlar.

Shubhali. Bu kredit yuqorida yozilgan jami kamchiliklarga ega bo'lgan xolda qo'shimcha ravishda yomon taminlangan kreditlar. Zarar ko'rish extimoli yuqori, lekin kelajakda ba'zi bir faktorlar yordamida uni kamaytirish mumkin. Etarli ta'minotga ega bo'lgan xolda qarz asosiy so'mmasining to'lov muddati 180 kundan o'tgan, etarli ta'minotga ega bo'lgan xolda 60 kundan 180 kungacha hamda ta'minotsiz xolda 30 kundan 60 kungacha bo'lgan kreditlar.

Yo'qotilgan. qaytarilishiga ishonch bo'lmagan kreditlar. Ularning qiymati minimal darajada hisoblangan xolda ularni bank balansida ushlab turish maqsadga muvofik emas deb sanaladi.

Etarli darajada ta'minlanmagan xolda asosiy so'mma bo'yicha to'lovlar 180 kun va undan ortiq davr ichida amalga oshirilmagan bo'lsa hamda ta'minlanmagan xolda 60180 kunlik davr ichida to'lanmagan kreditlar.

Kreditlar birinchi darajali ta'minotlar Bilan ta'minlangan xisoblanadi. Agar qo'yidagi taxminotlar bo'lsa:

- Davlat kafolati;
- Markaziy bank kafolati;
- Markaziy bank maqullagan xolda chet-el bankning kafolati;
- Erkin valyutadagi garov;
- Davlat qimmat baho qog'ozlari;
- Qimmatbaho metallar.

Boshqa turdagi ta'mingtlar Bilan ta'minlangan xisoblanadi. Agar qo'yidagi ta'minotlar bo'lsa:

- Mulk garovi;
- Korxonalarga tegishli qimmatbaho qog'ozlar garovi;
- Agar ta'minot berilgan kredit hajmining 60% tashkil qilsa u xolda bu etarli darajada ta'minlangan xisoblanadi.
- Ta'minot olinmagan xolda berilgan kreditlar, ta'minlanmagan xisoblanadi. (blank).

Risk nuqtai nazardan klasifikatsiya qilingan kreditlarga qo'yidagi tartibda rezervlar ajratiladi:

8-Jadval

Rezervlar ajratish foizlari

To'lov muddatidan o'tgan davr bo'yicha	Risk klasifik nomi	Ajratiladigan rezerv foizi
Bir kundan 30 kungacha	Yaxshi	Yo`q
30 kundan 60 kungacha	qoniqarli	10
60 kundan 90 kungacha	Substandart	25
90 kundan 180 kungacha	Ishonchsiz	50
180 kundan oshgan	Yo`qotilgan	100

Bunday metodning ishlatilishi eng avvalo berilgan kreditlarning qaytmasligi natijasida bankning qiyin ahvoliga qolishining oldini oladi. Bunda olingan daromadni eng avvalo yo`qotilgan kreditlar o`rnini to`ldirish orqali bank kreditlash yoki aktiv operatsiyalar olib borish qobiliyatini qayta tiklash imkoniga ega bo`ladi.

Biz misol tariqasida 2ta bankning bergan kreditlari bo'yicha qanchali riskga tortilganligini va ularga qancha miqdorda rezerv ajratilganini qo'yidagi jadval orqali ko`rib chiqamiz.

8-Jadval

Bank tomonidan ajratilgan kreditlarning risklilik darajasi va ajratilgan rezervlar

	Jami qarz-lar	Yaxshi	qoniqarli	Risk10	Substandart	Risk25	Shubxali	Risk 50%	Umid-siz	Risk100	Jami Risk	Jami qarzlar Riskga ega % xisobidan
«A» bank	21	3	1		5		3		9	9	42	35%
«B» bank	05	40	0		5		0	5			22	5%

Bu jadvaldan «A» bankining jami bergan kreditlari 121 mln. so`mni tashkil qilib ulardan 43 mln.so`mi yaxshi kreditlar, 21 mln. so`mi qoniqarli kreditlar, 15 mln.so`mi substandart kreditlar, 13 mln so`mi shubxali kreditlar va 29 mln.so`mi umidsiz kreditlarni tashkil qiladi. Berilgan jami 121 mln. so`mlik kreditni 42 mln.so`mi riskga tortilib, b u jami berilgan kreditga bo`lgan nisbatni 35 % tashkil qiladi. Bu bank uchun 42 mln. so`mlik rezerv xosil qilishni talab qiladi. Agarda xosil qilingan rezervlar qarzlarini berkitishga etarli bo`lsa, u xolda ssuda qarzlar va xosil qilingan rezerv o`rtasidagi farq bankning zararlariga olib borilishi kerak. Bu qo'yidagicha provodka Bilan amalga oshiriladi:

- Debet-foyda va zararlar schyoti.
- Kredit-muddati o'tgan ssuda qarzlar schyoti.

Shu narsani aytib o'tish kerakki tijorat banki yilning oxirida bu qurilgan zararni o`z fondlarini kamaytirish xisobidan va oldingi yillarning ishlatilmagan daromadlardan berkitishlari kerak. Bu provodka qo'yidagicha amalga oshiriladi.

Tayanch iboralar:

Bank aktiv operatsiyalari, kredit operatsiyasi, kredit turlari, zamonaviy kreditlash tizimi, xususiyat, mavsumiy kredit, mikrocredit, avans krediti, boshlan?ich sarmoya.

Nazorat savollari:

1. Banklarning aktiv operatsiyalari va ularga tavsif.

2. Banklarning kredit operatsiyalari va ularning turlari
3. Banklarning kredit berish jarayoni va ularni rasmiylashtirish tartibi.
4. Kredit portfeli va uni bahosi.
5. Kreditlashtirishni hujjatlashtirish va rasmiylashtirish tartibi.
6. O'zbekistonda ipoteka kreditlashtirishning rivojlantirish xususiyatlari va istiqbollari.
7. Tijorat banklari kredit portfeli va ularni muammolari.
8. Mavsumiy harakterli tarmoqlar xususiyatlari va ularga tavsif.
9. Turli mulk sub'ektlarini kreditlash tartibi.
10. Kreditni ta'minlash va qaytarish muammolari.

6-BOB. BANKNING INVESTITSION FUNKTSIYASI

1. Banklarning investitsion operatsiyalari
2. Pul va moliya bozori instrumentlari
3. Qimmatbaho qog'oz bilan operatsiyalar
4. Banklarning ishonch operatsiyalari

«Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. 2008 yilda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan 6,4 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb etildi. Bu 2007 yil bilan taqqoslaganda, 28,3 foizga ko'p bo'lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan investitsiyalar hajmi 23 foizni tashkil etdi.

O'zlashtirilgan barcha investitsiyalarning 50 foizga yaqini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo'naltirilganini ta'kidlash darkor.

Keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmining izchil va barqaror o'sib borayotgani e'tiborga sazovordir. 2008 yilda 1 milliard 700 million AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Bu 2007 yildagiga nisbatan 46 foiz ko'p demakdir. Eng muhimi, xorijiy investitsiyalarning 74 foizini tog'ridan-tog'ri investitsiyalar tashkil etdi. Jahon inqirozi davom etayotganiga haramasdan, 2009 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar hajmi 1 milliard 800 million dollarga ko'payadi, buning to'rtidan uch qismi tog'ridan-tog'ri investitsiyalardir.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash kerakki, o'zlashtirilgan barcha investitsiyalarning haryib 54 foizini korxonalar va aholi mablag'lari tashkil etadi»¹¹.

Tijorat banklari asosiy maqsadi foyda olishdan iborat. Bank foyda olish maqsadida turli xil aktiv operatsiyalarni amalga oshiradi. Ma'lumki, bank foydasining asosiy qismi kredit takdim etish va kimatli qog'ozlar bilan bog'liq turli xil operatsiyalarni etkazish hisobiga shakllanadi. Kredit va qimmatli qog'ozlar bank investitsion siyosatning asosini tashkil qiladi. Shunday ekan, tijorat bankinging investitsion siyosati bank faoliyatini yuritishda asosiy negiz bo'lib hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotida sharoitida, tijorat banklari nafaqat ?zaro, turdosh banklari bilan, balki boshqa moliya — kredit muassasalari, jumladan turli xorijiy banklari bilan ham raqobatlashadi. Kuchli raqobat sharoitida tijorat banklari ishining asosiy yo'nalishi investitsion faoliyatidir. Banklar asosan jalb etilgan mablaglar hisobiga xizmat ko'rsatganligi sababli, ular aktiv va passiv operatsiyalarni amalga oshirishadi. Jalb etilgan mablaglardan foyda olish maqsadida turli xil ob'ektlarga qo'yilgan kapital kredit yoki qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ko'rinishida aks etadi. Kredit investitsion resurs bo'lgani uchun uni takdim etish bilan bog'liq tadbirlar ham investitsion faoliyat bo'lib hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tijorat banklari amaliyotida daromad manbai sifatida ikkinchi o'rinda kreditdan so'ng qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan investitsiyalar keladi.

Investitsiyaning asosiy maqsadi bank va kompaniyalar o'ziga mos qilib ishlab chiqqan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Investitsiya portfelinig shakllantirishda o'ziga mos holda kapitalning minimal o'sish darajasi, joriy daromadning minimal darajasi, investitsiya riskining maksimal darajasi kabi me'yorlarni ishlab chiqiladi. Ushbu bir qator mezonlar nafaqat umumiy portfel uchun, balki unga aniq moliyaviy instrumentlar tanlanganida ham qo'llanilishi mumkin.

Bundan tashkari, ko'p mamlakatlarda nazorat organlari banklardan o'z investitsion siyosatini yozma xujjat k'rinishida tashkil etishlarini talab qilib, unda quyidagilar aks etiriladi:

- Bank qabul kilshpi kerak bo'lgan, muddati o'tgan qimmatli qog'oz bo'yicha risk darajasi;
- Qaytarish muddati kelgungacha qimmatli qog'ozlarning rejalashtirilgan aylanish davri, shuningdek barcha qimmatli qog'ozlarning likvidlilik darajasi;
- Investitsiya portfeli orkali bank o'zi erishmokchi bo'lgan maqsadlar;

¹¹I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.»O'zbekiston .T.2009.y.

- Bank riskni pasaytirish maqsadida ishlatadigan, investitsiya portfelining diversifikatsiya qilish darajasi.

Tijorat banklari mablaglarini kredit sifatida ishlatish bilan uni qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish maqsadida ishlatish o'zaro farqlanadi.

Birinchidan, bank resurslarining kredit sifatida ishlatishi mablaglarning ma'lum vaqt ichida ssuda foizi bilan birga qaytarilishini anglatadi. Investitsiya maqsadida qo'yilgan mablaglari xali o'z egasiga kaytib kelishidan oldin uzoq vaqt mabaynida bankka daromad keltirishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, bank mablaglarning kredit sifatida ishlatilishida tashabus qarz oluvchi tomonidan bo'ladi. Investitsion faoliyatda esa qimmatli qog'ozlar bozorida aktivlarni sotib olishga intiluvchi tijorat banklari tashabbus ko'rsatadi.

Uchinchidan, bank kreditida bank va qarz oluvchi bevosita boglangandir. Investitsiyada esa tomonlar turli xil qimmatli qog'ozlar orkali alokaga kirishadi. qimmatli qog'ozlar portfelini tashkil etishda ularning likvidiligi va daromadlilik albatta hisobga olinadi. Natijada investitsiyalarni amalga oshirishning maqsadli harakteri yuzaga keladi. Daromadlilik va likvidlilik tijorat banklarining inveestitsion siyosat bilan alokador faoliyatining asosiy omilidir. U turli xil qimmatli qog'ozlar: oddiy va imtiyozli aktsiyalar, obligatsiyalar, davlat qarz majburiyatlari, depozit sertifikatlar, veksell va xokazolarga mablaglarning qo'yilishi orkali amalga oshiriladi.

AQSh banklari amaliyotida davlatning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish, odatda, kam daromad keltirsada, ular yuqori likvidli bo'lib hisoblanadi. Uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar yuqori daromad keltiradi, buning uchun banklar ularni muddati tugagunga kadar saklashadi. Banklar o'z mablaglarini muniipalitsetning qimmatli qog'ozlariga ham qo'ishadi, chunki ularga to'lanadigan foizga soliq solinmaydi.

Yaponiyada tijorat banklarining fond birjalariga a'zo bo'lishi takiklangan. Lekin ular litsenziya olgan xolatda, qimmatbaho qog'ozlarni hamma to'rini o'zlarining schetlari bo'yicha yoki mijozlarning topshiriklari bo'yicha sotish va sotib olish (broker kompaniyalari va birjaga a'zo bo'lgan firmalar vositachiligida) huquqiga egadirlar. Bo'lardan tashkari tijorat banklari davlatning qimmatbaho qog'ozlarni bilan bo'lgan tez muddatli operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

Uzoq vaqt yapon tijorat banklarida yangi qimmatbaho qog'ozlarni vositachilik funktsiyalarni amalga oshirish huquqlari bo'lmagan. Faqat 1981 yili ularga davlat obligatsiyasi va sanoat kompaniyalar obligatsiyasini birja tashqarisida vositachilik qilishga ruxsat etilgan, Shuningdek, yapon tijorat banklariga mijozlarning qimmatbaho qog'ozlarni boshqarish man etilgan.

Bank muassasalarining qimmatbaho qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalariga aktiv katnashishiga Germaniya tajribasi yorqin misol bo'la oladi.

Bu davlatda qimmatbaho qog'ozlar bilan bo'ladigan hamma operatsiyalarda faqatgina tijorat banklari katnashish huquqiga egadir. Aslida Germaniya davlatida broker kompaniyalar va firmalar yo'q. Tijorat banki funktsiyalarining unversalligi mijozlarning talab va extiyojlariga yuqori darajada javob beradi. Germaniya davlatining qimmatbaho qog'ozlar bozorini bank muassasalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularning bu bozordagi roli juda katta.

Banklar katta miqdorda obligatsiyalar chiqaradi, investitsion gruppalarining egalari yirik investorlik vazifasini bajaradi, ularga qimmatbaho qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalar xajmining eng katta qismi to'g'ri keladi, bank sindikatlari davlat qarz xujjatlarini chiqarish va tarkatishda katta jonbozlik ko'rsatadi.

Bank obligatsiyalarni chiqarish uchun 3 ta asosiy shartni bajarishi zarur;

— moliyaviy ko'rsatkichlar proporsiyasini saklash;

— bank moliyaviy axvolining oshkoraligi;

— jami kapitalning va bank rezervlaridan darajasidan oshishi.

Obligatsiyalarni chiqarish to'grisidagi ruxsat Moliya vazirligi tomonidan olinishi kerak. U haqidagi xabar esa Federal yustitsiya vazirligi gazetasida bosilib chiqariladi. Odatda 3 yildan ortik muddatga chiqarilgan obligatsiyalar GFR fond birjalarida muomalada bo'ladi.

Lekin ularni sotish va sotib olish kelishuvlarning ko'p qismi birjadan tashkari oborotda amalga oshiriladi. Universal tijorat banklari ko'pincha yadro vazifasini bajarib, uning atrofida moliya bank guruxlari, bir necha nisbatan mustakil bo'linmalarni o'z ichiga olgan.

Bu mustakil bo'linmalar, masalan investitsion fondlar va konsalting firmalar bo'lishi mumkin. Bu mustakil bo'linmalar daromad olish markazlari hisoblanadi. Aslida gruppaning yadrosini tashkil etgan bank markaziy apparatdan, maxalliy va chet el filiallardan iborat. Banklarning markaziy apparatlari odatda fond birjalari bo'lgan katga shaharlarda joylashgan.

Tijorat banklari investitsion faoliyati daromadlilikiga qator iqtisodiy va tashkiliy omillar ta'sir etadi:

- barqaror rivojlanuvchi iqtisodiyotning mavjudligi;
- tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi turli mulkchilik shakllarining rivojlanishi, shu jumladan, bank faoliyatida xususiy va aksioner mulk shakllarining ustuvorligi;
- moliya — kredit tizimining barqaror, maqsadli va samarali faoliyat yurituvchi tarkibi;
- qimmatli qog'ozlar bozorining zamonaviy va takomillashgan muassasalarining mavjudligi;
- qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va qimmatli qog'ozlar bozori katnashchilari faoliyatni doimiy nazorat etuvchi huquqiy — me'yoriy asoslar va tartiblarining amal qilishi;
- investitsion faoliyat sohasi va qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish mas'uliyati yuklanishi mumkin bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar va tadbirkorlarning mavjudligi, ularni tayorlash hamda malakasini oshirish va xokazalar.

Bankning investitsion portfeli shakllantirishdagi olib boradigan siyosati ikki y'nalishda, passiv yoki agressiv bo'lishi mumkin. Agar bankning investitsion portfeli bank kapitalining 15% dan kam bo'lsa, bankning investitsion siyosati passiv bo'ladi, agarda 40% dan yuqori bo'lsa agressiv bo'ladi. Agar 15% dan kam bo'lsa, bu holda bankning investitsion harajatlarni koplamasdan koladi, agarda 40% dan oshadigan bo'lsa unda bankning investitsion sohasida olib borayotgan siyosati agressiv hisoblanadi va investitsiya bilan bog'liq risklari oshib ketadi.

Alohida olinagan qimmatli qog'ozlar turlari va guruxlarining daromadligi bank investitsiya portfelinin bozor bahosiga bog'liq bo'ladi. U o'z navbatida quyidagi o'zgarishlar ta'sirida tebranadi: obligatsiyalarning foiz stavkalari, hisobga olish foizlari, veksellar bo'yicha foizlar, aktsiya bo'yicha dividendlar va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talab va taklif.

Odatda, qimmatli qog'ozlarning bozor bahosi va undan tijorat banklari oladigan daromad o'rtasidagi bog'liqlik teskari mutanosiblikda bo'ladi: qimmatli qog'ozlar bahosi past bo'lganda ulardan keladigan daromad yuqori va aksincha. Shuning uchun qimmatli qog'ozlar foiz past bo'lganda ularni sotib oluvchi investor foiz stavkalari oshgan qimmatli qog'ozlarni real bozor kiymatining pasayishi muammosi bilan duch kelishlari mumkin. Foiz stavkalari pasayganda qimmatli qog'ozlarning bozor bahosi oshadi. Shunday qilib, foiz stavkalarining oshuvchi salbiy va ijobiy xislatlarga ega.

Qimmatli qog'ozlarning foiz stavkalari oshganda mablaglarning investitsiya qilinishi bankka foyda keltirishi mumkin, ammo yuqori foiz stavkalari tijorat banklari investitsion portfelinin kadsizlanishini btsldiradi. Bunday xolat qimmatli qog'ozlar bozorida yo'z berganda, amalda bankning investitsion mablaglari boglangan yoki «yopilgan» deyiladi.

Qimmatli qog'ozlarning Aloxida turlari b'yicha daromadlilik darajasi foiz stavkasining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lganda qimmatli qog'ozning muddati muxim o'rin tutadi. Qimmatli qog'ozning amal qilish muddati kanchalik qisqa bo'lsa, uning bahosi ham shunchalik barqaror va kanchalik Uzoq bo'lsa, foiz stavkalari darajasi o'zgarishi tebranish ta'siriga uchraydi.

Qimmatli qog'ozlarning nominal va sotish narxlari orasidagi manfiy farq muddatiga karab turlicha bo'lishligi qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarning Uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga qaraganda ko'proq, qiziqish uygotishni bildiradi.

Bankning qimmatli qog'ozlarni sotib olishdan asosiy maqsadi nafaqat bankka daromad keltirish va rezervni to'ldirishning muxim manbaini tashkil etish (nakd pul va boshqa banklarning qarzlari), balki amalda sezilarli yo'qotishlarsiz, eng kam risk bilan, qisqa vaqt ichida qimmatli qog'ozlarni naqd pulga aylantirish imkoniga ega bo'lish hamdir.

O'zining yuqori reytingini va faoliyatida samaradorlik, to'lovchanlik, likvidlilik darjasi kabi sifat ko'rsatkichlarini yuqori saviyada ushlab turish maqsadida tijorat banki har kuni o'z investitsion faoliyatining markaziy muammolaridan birini xal etishi lozim, ya'ni bankka omonat qo'yanlar va uning aktsiyalarining manfaatlari va bankning likvidlilik va daromadlilik o'rtasidagi

mutanosiblikni ta'minlash masalasini ijobiy xal etishda o'z aksini topadi. Mazkur muammo tijorat bankining deyarli har bir operatsiyasida namoyon bo'ladi. Bir tomonidan, aktsiyadorlar yuqori daromad olishni istaydilar, biroq buning uchun tijorat banklarining mablarlaridan shunga yarasha foydalanishlari lozim, ya'ni bank Uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga investitsion mablaglarni sarflashi lozim, ikkinchi tomondan esa tijorat banklariga omonatlarini istagan vaqt tezda qaytarib olish imkoniga ega bo'lishlari lozim.

Tijorat banklari likvidiligi va daromadlilik bir vaqtda ta'minlash masalalari o'rtasidagi ziddiyat investitsiya riskini aniqlaydi va u tijorat banki tomonidan yuqori daromadlikka likvidlilik darajasini pasaytirmagan holda erishish imkoniyatini ifodalaydi.

Investitsion faoliyatda tijorat banki riskining quyidagi ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkin: kredit riski, bozor va foiz riski.

Kredit riski qimmatli qog'oz emitentining moliyaviy axvoli, imkoniyatining pasayishi bilan bog'liq bo'lib, bunda u o'z moliyaviy majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lmaydi. Mazkur risk hukumat va davlat organlarining axolidan olinagn zayomlari bo'yicha to'lash qobiliyati bilan ham bog'liqdir.

Davlat xokimiyati nafaqat uning zayomlarni olish qobiliyati uchun, balki shu bilan birga davlat qimmatli qog'ozlarni bozorining oyoqqa turishi va butun moliya kredit mexanizmining aniq faoliyat yuritish uchun ham muximdir.

Bozor riski qimmatli qog'ozlar bozorida kutilmagan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, buning okibatida ba'zi bir qimmatli qog'ozlarning investitsiya ob'ekti sifatida kadri tushishi mumkin va ularning sotuvchi bank faqatgina katta chegirma bilan amalga oshirishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarining afzalliklari ular bilan bog'liq risk darajasini pasaytirishga xizmat kilmaydi. Tijorat banklari uchun bunda ikki xil risk mavjud: 1) foiz stavkasining o'zgarish riski, ya'ni qimmatli qog'ozlarning bozor bahosining o'zgarishi natijasida davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarining daromadlilik darajasi pasayishi mumkin; 2) valyuta riski. Valyuta kursining keskin tebranishi natijasida davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarining real qiymati keskin pasayib ketishi mumkin. Bunday xolatda tijorat banklari ma'lum darajada zarar ko'rib kolishi mumkin. chunki O'zbekistonda foizli svop, forward, fyuchers, opsiyon kabi qimmatli qog'ozlarni kurs bozor instrumentlari mavjud emas.

Tijorat bankining likvidlilikdan voz kechib daromad sari intilishi yoki buning aksi bo'lishi o'zini katta yoki kichik riskka solish bilan, ya'ni investitsiya riskiga borish extimoli bilan birga bo'ladi. Bunda tijorat bankining investitsion faoliyati qimmatli qog'ozlar hamda aktiv operatsiyalar riski bilan bog'liqdirki, bu xolat bank rahbariyatidan bu sohada aniq ish rejasini ishlab chiqishni, ya'ni faol va samarali investitsiya siyosatini ishlab chiqishni talab etadi.

Shunday qilib, investitsiya siyosati tijorat bankining risk darajasi bilan xususiyatlanuvchi, uning qimmatli qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalariga asoslangan, unda mablaglarning daromadligi va likvidlilikini ta'minlashga qaratilgan faoliyat va tadbirlar tizimidir.

Investitsiya faoliyatining tamoyilari va qimmatli qog'ozlarga jalb etilgan mablaglarning asosiy omillari daromadlilik, likvidlilik va risk orasidagi bog'liqlikni doimo hisobga olishning holati va darajasi har bir tijorat banki investitsion siyosatining muvaffakiyatli yoki kamchiliklarini xususiyatlaydi.

Investitsiya bilan bog'liq riskni kamaytirish usullaridan biri tijorat banklarining diversifikatsiya siyosatidir. Mazkur siyosat bank portfelida turli xildagi qimmatli qog'ozlarning mavjudligini bildiradi. Mablaglardan diversifikatsiya usulida foydalanish asosida investitsiya siyosatini amalga oshirishda banklar turli qimmatli qog'ozlarni alohida hisobga olishlari zarur.

Qimmatli qog'ozlarning geografik tarkalishiga nisbatan diversifikatsiyalash maqsadi— foiz stavkalarining tebrinishi bilan bog'liq risk oldini olishdan iborat. Bunday investitsion siyosatni amalga oshirishda tijorat banklari odatda qimmatli qog'ozlarning tugatilish muddati bo'yicha pogonali tarkibidan foydalanishadi. Bunday pogonali tarkib natijasida muddati tugagan qimmatli qog'ozlar bo'lmaydi va ularni uzoq muddatli yuqori daromadli qimmatli qog'ozlarga reinvestitsiya qilish imkoni tutiladi.

Chet el amaliyotida investitsion faoliyatning faolligini ragbatlantiruvchi muxim tadbirlardan biri, milliy va xorijiy investorlarning huquq me'yorlari doirasida barqaror xo'jalik ishlarini yuritish uchun huquqiy asoslarini yanada mustaxkamlash bo'lib hisoblangan.

O'z faoliyatini savdo aylanmasi ehtiyojlariga xizmat kilgan chet el tijorat banklari asosan qisqa muddatli operatsiyalarni amalga oshirishgan va sanoatning rivojlanish davrida sanoat kapitalida ishtirok etishga qonunchilik to'siq kilmagan bo'lsada qiziqish bildirmaganlar. Modomiki, XIX asr o'rtalarigacha bunday ishtirokning eng kulai instrumenti aktsiyalar xali rivojlanmagan edi.

XIX asr ikkinchi yarmida sanoatlashtirishga metalurgiya, transport (temir yo'l), kemasozlik kabi kapital talab kiluvchi sohalar kirib kela boshlashi bilan bu vaziyat rivojlangan mamlakatlarda bir muncha o'zgardi. O'sha paytlarda kapital etmasligi tufayli, ochiq aktsionerlik jamiyati k'orinishidagi tadbirkorlik shakllari keng tarkala boshladi. Ular minglab katga bo'lmagan jamgarmalarni yigib, aloxida tadbirkorlar kila olmaydigan loyixalarni amalga oshirish imkonini berardilar.

Bu vaqtlarda banklarning rivojlanishi sanoatlashtirish sohasidagi ishtirokiga xususan yangi istiqbolli sohalaridan mijoz orttirishga bog'liq edi. Shuningdek bu paytda ko'plab tijorat banklari paydo bo'lgan. Ularning ba'zilar uzoq muddatli zaymlar berish va bu bilan o'z o'zini aktsiya va obligatsiya chiqarish bilan qayta moliyalashtirish yoki tashkilotlar chiqargan obligatsiyalar haridi, ulush qo'shishga ixtisoslashgan bo'lishsa, boshqalari depozit mablaglaridan moliyalashtiriladigan veksel va bank aksepti hisobi, qisqa muddatli kreditlar takdim etishga ixtisoslashgan. Ba'zi bir tijorat banklari esa har ikkala operatsiyalarni bajarishar edi, bu esa o'z navbatida, ularning ko'pchiligining XIX va XX asrlardagi davriy inkirozlarda kasodga uchrashlariga sabab bo'lgan. Shu sababli ko'p mamlakatlarda tijorat banklari ikkiga: birlari oddiy tijorat banklari boshqalari investitsion banklarga bo'linishgan. Boshqa mamlakatlarda, masalan nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda koidalar bir muncha barqaror bo'lganligi uchun banklar o'z universalligini saqlab koldilar.

Shundan buyon fond bozorini ikkiga bo'lib o'rganish qabul qilingan, ularning farqlari tijorat banklarini o'zlari hisobidan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni etkazishga ruxsat berilganlik yoki aksincha man etilganligi bo'lib hisoblanadi. Buning misolida: «angolosakson» mamlakatlar (AQSh va Buyuk Britaniya) modeli, ularda tijorat banklarga qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish man etilgan; «olmon» mamlakatlar (Germaniya va Shvetsariya) modeli, bu bo'yicha banklar qimmatli qog'ozlarga xech qanday cheklovlersiz investitsiya qila oladilar.

Bunday xolatni asoslash uchun quyidagi savollarga topish kifoya: Banklarning inkirozga uchrashi aktsiyalar bilan bog'liq operatsiyalarga qanday darajada asoslangan. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishlarini man etishga asosiy sabab nima bo'lgan?

Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi boshqaruv kompaniyalari bo'lishi mumkin. Ular aniq yuridik shaklda tashkil etilishlari talab qilinmaydi va qimmatli qog'ozlarni boshqarish faoliyatiga ruxsat beruvchi davlat litsenziyasiga egalik qiladilar.

U yoki bu mamlakatning milliy qonunchiligining tashkil etilganligi, milliy fond bozorlarining shakllanishi xususiyati va tarixiy urf odatlariga karab banklar turlicha o'rin egallaidilar.

Jahon amaliyotida, oddiy bank faoliyati va qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatining ajratilishiga ikki xil yondashuv mavjud.

Ularning biriga ko'ra, banklar qimmatli qog'ozlar bozoridagi ba'zi bir professional faoliyat(broker, diller, bozorni tashkil etuvchi) bilan shurullanishlari man qilinishi kerak, shuningdek investitsiya faoliyatiga ham bir kadar cheklashlar (nodavlat qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar) qo'yilishi kerak.

Bunday tadbir AQShda XX asr 30 — yillarida banklarning ommaviy inkirozga uchrashiga javoban ko'rilgan.

So'ngi o'n yillik mobaynida AQSh da investitsion va tijorat banklar o'rtasidagi farq sustlasha boshladi. Bunga qonunchilikka o'zgartirishlar kiritilishi, tijorat banklar xizmat

doirasining kengayishi, shuningdek to'gridan to'gri qonunchilikka zid kelmaydigan, yangicha bank xizmatlarining tadbik etilshni sabab bo'ldi. AQSh banklarining asosiy investitsiya imkoniyatlarini quyida keltirilgan rasm bo'yicha tahlil qilish mumkin.

1933 yilda (Glass — Stigal qonuni) qabul qilingan qonunga muvofiq AQSh tijorat banklari sanoat kompaniyalarning obligatsiyalari va aktsiyalarini chiqarishni tashkil qilishda ishtirok eta olmaydilar. Shunga karamay qonunda juda ko'p istisnolar mavjud bo'lib, ular bankka pullarni operativ qo'yish, davlat qimmatbaho qog'ozlarni chiqarishni tashkil etish, shtat va maxalliy xokimiyat organlarning obligatsiyalari, shuningdek turli xalqaro tashkilotlar va federal muassasalar chiqargan qarz xujjatlarni (majburiyatlari) bilan ishlash huquqini beradi. Bo'lardan tashkari banklarga o'zlarining mijozlari hisobiga, sanoat kompaniyalarining aktsiya va obligatsiyalarini sotish va sotib olish kabi brokerlik funktsiyalarini bajarish ruxsat etilgan. Shu bilan birga Amerika tijorat banklari sanoat kompaniyalari va firmalarining aktsiya paketlarini haqiqiy egasi sifatida trast operatsiyalarining (qimmatbaho qog'ozlar portfellarini boshqarish operatsiyalari) katga xajmini amalga oshiradilar.

1929-1933 yildagi banklarni bankrotga uchrashida qimmatli qog'ozlar bo'yicha risklarning o'rni, qaytarilmagan ssudalarga qaraganda sezilarli emas edi. Shunday bo'lsada, kreditlarning asosiy qismi qimmatli qog'ozlarni garovga k'yish asosida berilar edi.

Qimmatli qog'ozlar b'yicha operatsiyalarning takiklanishining yana bir sababi banklarning ulkan moliyaviy kudratta ega bo'lib ketganlariga bog'liq b'ldi. Bu takikning AQShda hozirgacha amal qilishi amerikaliklarning har qanday ta'siri kuchayib ketayotgan ulkan narsaga karshi chiqish xususiyatidan kelib chiqadi.

Tijorat banklarining investitsion bank ishidan ajratilishi AQSh bank tizimining boshqa xususiyatlari bilan bir qatorda AQShda o'ziga xos bo'lgan moliya tizimi vujudga keldi. Bank kapitalining mavjud to'siqlar tayziqi ostida etmasligi moliya bozorlarida korporativ sektorning extiyojlarini mablag bilan ta'minlay olmasligini keltirib chiqardi. Shunday qilib, iqtisodiyotning nomoliyaviy sektorini tashki moliyalashtirishda qimmatli qog'ozlar orkali jalb qilinadiagn mablaglar hissasi bank kerditiga karaganda katta ulushga ega. AQShda qimmatli qog'ozlar bo'yicha moliyalashtirish 40% ni tashkil qilsa, Germaniya va Yaponiyada bu ulush 20%. Bundan tashkari AQSh tijorat banklari boshqa moliya institutlari (investitsion va pension fondlar, investitsion banklar va boshqalar) bilan kattik raqobat muxitida faoliyat yuritishadi.

Glass Stigal qonunining qabul qilinishi tijorat banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini cheklash bir qatorda bu tadbirning bir maromda amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida quyidagilar qabul qilindi:

- Depozitlarni sugo'rtalovchi fedaral tizimni tashkil qilish;
- Chek va talab qilib olinguncha depozit hisob varaklari bo'yicha foiz to'lanishini taqiqlash;
- Insayderlar faoliyatini cheklash;
- Hisobot va nazorat jarayonlari bo'yicha talabni kuchaytirish.

Bu qonun bank tizimiga bo'lgan ishonchni qisqa muddatga bo'lsada yana tiklab olishga yordam berdi. Ammo bu xolat moliya bozorining raqobatbardoshligining pasayishi hisobiga yuzaga keldi. qonunning qabul qilinganidan so'ng 50 yil o'tgach, uning salbiy ta'sirlari asta sekin o'zini ko'rsata boshladi. Shundan so'ng, huquq va bozor kuchlari qonun cheklovlarini yo'qota boshlashdi. Bu kuchlar moliya bozorining aloxida ishtirokchilarini birga qo'shishga harakat qila boshlashdi.

1987 yil 19 oktyabrda AQSh moliya bozorlari inqirozni boshlaridan etkazdilar, Dou —Djons indeksi 508 bo'limga tushib ketdi. Bu «qora dushanba» nomini olgan inqiroz 1929 yil 28 oktyabrdagi «qora seshanba»dan ham qoraroq bo'ldi. 1929 yildagi inkiroz FZT (Federal Zaxiralar Tizimi) iqtisodiyotning likvidliligini ta'minlab bera olmaganligi tufayli Uzoq cho'zildi. Va aksincha 1987 yilda FZT moliya tizimi, o'z navbatida iqtisodiyotga etarlicha likvidlilik bilan ta'minlab berishini e'lon qildi. Ma'lum manfaatlarni k'ozlab, banklarning tijorat va investitsion faoliyatini ajratishda Buyuk dipressiyadan foydalangan ba'zi bir guruxlar kabi, birlashtirsh

tarafdorlari 1987 yildagi Fond birjasi inqirozdan qimmatli qog'ozlarning biznesida banklar mavkeini tiklashda foydalandilar.

Fond bozorining Germaniya modeliga to'xtaladigan bo'lsak, aytib o'tilganidek, u tijorat banklarining korxonalar aksiyasi bilan bog'liq operatsiyalarda cheklovlarning mavjud emasligi harakterlanadi.

Buning oqibatida, Germaniya moliya tizimi quyidagicha xususiyatga ega bo'ldi:

- banklar nemis korxonalari kapitalining asosiy qismiga egalik qiladilar;
- korxonalar bank kreditidan, jumladan tashki moliyalashning asosiy manbai sifatida uzoq mudatli kreditlardan foydalanadilar;
- Germaniya fond bozori «anglosakson» mamlakatlar modeliga asoslangan mamlakatlardagiga qaraganda etarlicha rivojlanmadi;
- Fond bozorlarining asosiy va deyarli ulushi bo'yicha yagona tijorat banklari hisoblanib, ular aralashmagan biron bir investitsion biznes mavjud emas.

Fond bozorining Germaniya modelini baholaydigan bo'lsak, bir tomondan banklarning moliya bozorlarida monopollashuvi korporativ sektorning moliya masalalarini mustaqil xal qilishlariga to'sqinlik qilib, ularni o'z boshqaruviga oladi. Masalan, Germaniyaning eng yirik banki hisoblanadigan «Doyche bank» «Daymler — Bents» (28,34%), «Filipp Xolzman» (30%), «Karlstadt» (25,08%) kabi ilgor milliy korxonalarning aksiyalariga egalik qiladi.

Boshqa tomondan bank aksiyalarga egalik qilish mijozlarga bergan kreditlarni turi sarflanishini nazorat qilib boradi, shuningdek nemis sanoatini arzon va muximi Uzoq muddatli kreditlarga bo'lgan extiyoji doim kondirib kelinganligini aloxida ta'kidlash joiz.

«Anglosakson» mamlakatlar modeliga qaytadigan bo'lsak, hozirgi paytda ularning deyarli barchasi korxonalar aksiyalari bilan bog'liq operatsiyalar b'yicha banklarga cheklovlarni kamaytirganlar yoki umuman olib tashlaganlar.

Aksiyalar bilan operatsiyalar takiklangan yagona mamlakat bo'lib hozirgacha AQSh bo'lib kelmoqda. Ammo bu erda ham mavjud cheklovlarni bekor qilish ko'rilmogda.

Yaponiyada ikkinchi jahon urushidan so'ng, dzaybatsu nomini olgan asosan monopol va Yaponiyaning oligarxini bildiruvchi gurux tarkatilib, tijorat banklarining ishi qonunchilik asosida investitsion va bank ishiga bo'lindi. Hozirgi paytda Yaponiya banklari o'z ta'sirini yangi tashkil etilayotgan sanoat sohalari orkali etkazishga harakat qilmoqdalar. Natijada, bank va sanoat sektori bilan chambarchas bog'liqlik yuzaga kelmokda. Tijorat banklarining aksionerlik kapitalida ishtiroki cheklangan bo'lsada, ular firmalar boshqaruvida norasmiy katnasha oladilar. Jahon moliya bozorlarining yakinlashuvi okibatida qimmatli qog'ozlar bozori va institutsionallashgan investitsiyalar Germaniya va Shvetsariyada muxim o'rin egaladi, Buyuk Britaniya, Kanada, Yaponiya va AQSh tijorat banklari amaliyotida asosan investitsion bank ishi katnashadigan b'ldi.

Bizning milliy va MDHning boshqa mamlakatlari tijorat banklari qimmatli qog'ozlar b'yicha operatsiyalarni investor va emitentga tegishli bo'lgan umumiy koidalar, jumladan Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy xujjatlar asosida noprofessional tarzda amalga oshiradilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlariga investitsiyalarni moliyalashtirishning o'ziga xos manbalari shakllantirilgan bo'lib bunday manbalari korxonalarning o'z o'zini moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan holda qo'yidagi manbalari mavjuddir:

1. Korxona va jismoniy shaxslar jamg'armalari;
 2. Bank kreditlari hisobiga moliyashtiriladigan investitsiyalar
- Horijiy investitsiyalari

Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiyalar.

So'nggi yillarda investitsiyalar tarkibi, xususan, byudjetdan ajratiladigan investitsiyalar va bank kreditlari ahamiyati keskin o'zgardi. Davlat byudjetining investitsiya sarflari 2003yilda 29,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2004 yilda 0,9 foizga ko'paygan, ya'ni 30,3 foizni tashkil etdi. Xorazm statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, bu ko'rsatkich Xorazm viloyatida 2004yilda 2003 qaraganda 14,6 ko'paygan.

Monetar siyosat ko'chaytirilishi korxonalar moliyaviy ahvolidan barqaror emasligi korxona va jismoniy shaxslar mablag'laridan moliyalashtiriladigan investitsion loyihalarning hajmiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymaydi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishga va korxonalar uchun samarali bo'lishiga iqtisodiy infratuzilmaning markaziy bug'ini moliyaviy mexanizmning tarkibiy qismi bo'lgan soliqlar mexanizmi hisoblanadi. Chunki soliqlar ham har bir korxona miqyosida tuzilgan investitsion loyihalarning iqtisodiy samarasi taqdirini hal qilishda asosiy o'rinni egallaydi.

O'zbekistonda ham investitsion loyihalarni tuzishda va moliyalashtirish uchun qo'lay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha izchil chora- tadbirlar ko'rib chiqilmoqda. Ularning negizida ikkita asosiy omil etadi:

- iqtisodiy barqarorlik;

- inflyatsiya jarayonlarini tartibga solish va milliy valyuta- so'mning to'lov qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida qo'lay investitsiya loyihalarni tuzish va ularni moliyalashtirish bo'yicha qo'yidagi omillar aniq ko'rsatib beradi:

- investitsion loyihalar bilan shug'ullanuvchi shaxslarni rag'batlantirish;

- sanoatning ustivor sohalari, ekilg'i, energetika majmualari bo'yicha investitsion loyihalar tuzishning jadallashtirilishi;

- halq xo'jaligi ilm fan talab tarmoqlarida ishlab turgan quvvatlarni yangilash va yangilarini barpo etish bo'yicha intellektual investitsion loyihalarning amalga kiritilishi;

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalarni investitsion loyihalar asosida jalb etish ko'p jihatdan turli xil investitsiya muassasalari faoliyatining avj olishiga, qimmatli qog'ozlar bozori tashkil topishi, inflyatsiya jarayonlari bartaraf etishi va ishlab chiqarishning barqarorlashishiga bog'liqdir.

Mamlakatimiz investitsion loyihalarni moliyalashtirish va rag'batlantirish bevosita qo'yidagi masalalarni hal etishga yordam beradi:

- yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish, bir necha yillar davomida sifatsiz, haridor talabiga javob bera olmaydigan mahsulot ishlab chiqaruvchi eski texnikalardan tezroq qutilish;

- yangi ish joylarini tashkil qilish va aholining ishsiz qismini ish bilan ta'minlash, shu bilan birga, horijning ilg'or boshqarish tajribasini joriy etish va shu orqali mehnat unumdorligini oshirish;

- jahon bozori talablariga mos sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni eksport qilish evaziga mamlakatga qadri baland valyutalarning ko'proq kirib kelishini ta'minlash.

Bundan tashqari ayrim investitsion loyihalar bo'yicha olinadigan daromadlari bo'yicha soliq va bojxona imtiyozlari mavjud. Bunga misol qilib qo'yidagilarni keltirib o'tamiz:

- respublika investitsiya dasturiga kiritilgan investitsion loyihalarga sarf etilayotgan horijiy sarmoyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari foyda solig'idan 7 yilgacha ozod qilindi. Avval bu muddat 5 yil edi;

- qo'shma korxonalarda horijiy sarmoyalar ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lsa, bu korxonalar daromadidan olinadigan soliq foizi jamg'arma miqdoriga qarab, 300,0 ming AQSh dollaridan 1 mln. dollargacha 20 foiz, 1 mln. AQSh dollariga teng va yuqori bo'lgandan 16 foiz foyda solig'i belgilandi;

- agar ishlab chiqarish hajmida 25 foizdan ko'proq mahsulot bolalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, bu korxona ishlab chiqarish boshlangandan 5 yil muddatga daromad soligini to'lashdan ozod etiladi;

- korxona investitsion loyihalarini moliyalashtirishda horijiy investorlarning hissasi 50 foiz va undan yuqori bo'lsa, ular 2 yil muddatga daromad solig'idan ozod buladi.

Bularning barchasi investitsion loyihalar asosida korxonalarning jahon bozoriga bemaol chiqishi va O'zbekiston Respublikasi eksport salohiyatini oshirish uchun texnologiya va mahsulotlarning sifatli va raqobobardoshligini ta'minlash imkonini beradi.

Davlatimiz tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish har tamonloma qo'llab quvvatlanib kelmoqda. Hozirgi kunda investitsion loyihalarni moliyalashtirishning aksariyat qismi

horijiy investorlarning manbalariga tug'ri keladi. Agar O'zbekiston Respublikasida o'zlashtirilgan investitsiyalar 2001yilda 122,8 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2002yilda bu ko'rsatkich 27,9 mln. so'mga ko'paygan, ya'ni 150,8 mlrd so'mni tashkil qilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda chet el investitsiyalarini moliyalashtirish manbalarining 50-60 foizi tashkil qilinishini inobatga olsak, hozirgi paytda mamlakatimizga chet el investitsiyalarini ko'prok jalb qilish va ular ishtirokida qo'shma korxonalar tashkil qilish muhim ahamiyatga egadir.

Iqtisodiyot erkinlashtirilishi islohotlarni hozirgi bosqichning bosh strategik yo'nalishiga aylanib bormoqda. Bu iqtisodiyot subektlari bo'lmish korxona, xo'jalik va tashkilotlarning to'la tukis mustaqil bo'lishini, o'z faoliyatini bozor talablariga binoan tashkil etishlarini taqozo etadi. Erkinlikning muhim talabi o'z-o'zini moliyalashtirish printsipligiga izchil amal qilish, ya'ni har bir xo'jalik sub'ekti o'z harajatlarini o'z daromadlari bilan qoplashidir. Bu moliyalashtirish tor ma'noda korxonaning ichki mablag'i hisobidan, keng ma'noda kredit hisobidan ham amalga oshirilishi mumkin. Investitsion loyihalarni o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish bu ichki manbai ya'ni taqsimlangan foyda va amortizatsiya ajratmasidir. Bu erda investitsion loyihalarini moliyalashtirishning ichki imkoni 3 narsa bilan chegaralanadi:

Birinchisi, nodavlat korxonalarning ko'pligini, ayniqsa agrar sohada norentabellik, qolganlarida rentabellikni past bo'lishi, foydani qayta moliyalashtirishga chegara qo'yadi.

Ikkinchisi, nodavlat sektorda amortizatsiyaga investitsion loyihalarning moliyalashtirishga yuborish imkonining ozligi. Ko'pgina korxonalarda asosiy fondlar tuzib bo'lganiga qaramay amortizatsiya ajratmalari etarli emas. Buning ustiga nodavlat sektordagi kichik korxonalar, tarmoqqa xo'jaligi va yakka tartibda ishlash sermehnat bo'lganidan asosiy fondlar g'oyat kichik, amortizatsiyaga ajratma esa jiddiy investitsion manbai bo'la olmaydi. Masalan, kichik biznes korxonalarida yalpi sarflar 62 mlrd. so'm bo'lgan bo'lsa, shundan moddiy sarflar atiga 8,3 mlrd. so'mni (13,4%) tashkil etadi va bu asosiy kapital etarli emasligini ko'rsatadi;

Uchinchisi, aktsiyadorlik korxonalarida foydani dividend uchun ajratish zarurati uning taqsimlanmagan qismini qisqartirib, uni qayta moliyalashtirishni cheklaydi. Bu erda aktsiyadorlarning dividend olish ishtiyoqi bilan kelajakni ko'zlab taqsimlanmagan foydani ko'paytirish o'rtasida ziddiyat bor. Shu bois, ko'p hollarda foydani qayta moliyalashtirish dividend berishdan voz kechish hisobidan bo'ladi. Masalan, «Yulduz» aksionerlik tikuvchilik firmasi 2001 yilda dividend berib, investitsiyaga mablag' ajrata olmasa, 2002 yilda investitsiyaga mablag' qo'yib dividend olmaydi. Aytilgan omillar ta'sirida ichki moliyaviy investitsiyalar hissasining kamayib borishi yuz bermoqda. Bunday tendentsiya iqtisodning hamma sektoriga xos bo'ladi. Agar 2002yilda jami korxonalarning o'z mablag'i jami moliyaviy investitsion loyihalarida 46,2% bo'lsa, 2003yilda 21,9% bo'ldi. Ammo bu korxonalarning moliyaviy ahvoliga qarab har xil bo'ldi, chunonchi fermer xo'jaligida 43,1%, ijara korxonalarida 46,1%, qo'shma korxonalarda 2,3%, shirkatlarda 69,5%. Agar ba'zi bir toifada korxonalarda investitsion loyihalarni o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish ularning ahvoliga bog'liq bo'lsa, boshqa toifa korxonalarda masalan, qo'shma korxonalarda u pulni investitsiyalashtirishga katta zaruriyat bo'lmasligidan kelib chiqadi, chunki bu erda horij investitsiyasi mavjud.

O'z o'zini moliyalashtirish manbalari bilangina emas, balki korxona mablag'ini nimaga investitsiyalashtirish bilan ham farqlanadi. Investitsion loyihalar har xil oqimda kechadiki, ular firmalar va dehqon xo'jaligi mablag'laridan iboratdir. Bu oqimlarni ta'minlovchi moliyaviy resurslar turlicha, ular o'z mablag'lari va bank kreditlaridan iborat, lekin ularga murojaat etish bir xil emas. Bu investitsion loyihaning moliyaviy ahvoli bilan izohlanadi, ammo ularning investitsion loyihaga talabi ixtiyoridagi asosiy mablag'lariga bog'liq.

O'z manbalari hisobidan investitsion loyihalarni resurslar bilan ta'minlash bir maromda bormaydi. Chunki, korxonalar moliyaviy jihatdan tabaqalanadi. Foyda va amortizatsiyani moliyalashtirish bir xil kechmaydi. (1- jadval).

Korxonaning zamonaviy investitsiya siyosati keng ko'lamli, nihoyatda murakkab va bir biriga o'xshamaydigan investitsiya qarorlari shaklida namoyon bo'ladi. Bunday korxonalar «mablag'larni

qo'yish tashabbuskori» sifatida ham, «Tashqi investitsiyalar ob'ekti» sifatida ham maydonga chiqadi.

Korxonalarning investitsiya siyosatida bevosita investitsiyalar muhim o'rinni egallaydi. Bevosita investitsiya qarorlarini amalga oshirish uchun jalb etiladigan moliya zahiralarini miqyosi va o'zoq davom etuvchi xususiyatlari tufayli bu turdagi investitsiya qarorlari jiddiy xatarlar bilan chambarchas bog'langandir. Bu sharoitlar bevosita investitsiya qarorlarining juda muhim ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatini nazarda tutib fundamental tadqiqotlar predmeti sifatida nisbatan mustaqil ilmiy oqimni keltirib chiqadir. Bu nisbatan mustaqil ilmiy oqim-investitsion loyihalarni investitsion loyihalashtirish deb ataladi.

Jahon tajribasida investitsion loyihalashtirishni uch asosiy bosqichga o'rganish qabul qilingan:

- investitsiyadan oldingi bosqich;

- investitsiya qilish bosqichi;

- amalga oshirilgan investitsion loyihani ekspluatatsiya qilish bosqichi.

YuNIDOning umum tan olgan tizimiga ko'ra investitsiyadan oldingi bosqich 4 qismga bo'linadi:

- investitsion qarorlarini (tizimlarini) izlash;

- investitsion loyiha oldidan(birlamchi) tayyorlash;

- investitsion loyihani uzil kesil rasmiylashtirish va uni texnik iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy tomondan yaroqligini baholash;

- loyihani so'ngi marta ko'rib chiqish va uni moliyalash tug'risida qaror qabul qilish.

Investitsion loyihalashtirishning birichi bosqich- investitsiya qarorlarini izlash va tanlashdan iboratdir. Bu amaliyotda bir muncha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Uni shu bilan izohlash mumkinki, har qanday investitsiya qarorlarini qabul qilish qisman ko'p sonli fuqarolarning, yuridik shaxslarning, jamoat tashkilotlarining, birlashmalarining harakatlarini manfaatlari bilan bog'liqdir. Bunda, xamma yaxshi ma'lumki shu qarorga tegishli barcha tomonlar manfaatlarining muvozanatiga erishgan holdagina investitsiya qarorini muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin.

Halqaro amaliyotda investitsiya qarorlarining eng ko'p tarqalgan qo'yidagi tasniflari qabul qilingan.

Majburiy investitsiyalar- korxona o'z faoliyatini davom ettira olishi uchun zarur bo'lgan investitsiya qarorlari. Qoidaga ko'ra, bu sinfga atrof muhitga ko'rsatiladigan zararli ta'sirni kamaytirishga, korxona xodimlarinig ish sharoitida davlat me'yorlari darajasida yaxshilashga va boshqa shunga o'xshash ishlarga qaratilgan investitsiya qarorlari kiradi.

Sarf harajatlarni kamaytirishga qaratilgan investitsiya qarorlari- o'zoq davom etadigan raqobat ko'rashiga bardosh berish zarurati ko'rashiga bardosh berish zarurati tufayli yuzaga keladigan investitsiya qarorlarining eng keng tarqalgan turidir. Bu sinf qo'llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirishga, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirishga, mehnatni tashkil etish va boshqaruvni yaxshilash hamda shu kabi ishlarga qaratilgan investitsiya qarorlarini o'z ichiga oladi.

Investitsion xarakterning boshqarilishini hal etish qabul qilish jarayonida mavjud investitsiyani kelajakdagi pul tushishini baholash va taqqoslash yotadi. Vaholanki, taqqoslash ko'rsatkichlari vaqtning turli fursatlariga tug'ri keladi. Bu erdagi asosiy muammoning echimi ularni birlashtirishda unga turli xil yondashish mumkin ya'ni, ob'ektiv va sub'ektiv shartlarni hisobga olan holda: inflyatsiya darajasi, bashorat qilish gorizonti, tasniflashning darajasi va boshqalar.

Investitsion faoliyatni taxlil etishdagi usullarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- Diskotlangan bahoga asoslangan;

- Hisoblangan bahoga asoslangan;

Investitsion loyihalar miqdor va sifat jihatdan ko'rib chiqiladi. Maqsad, investitsion loyihalarni loyihaviy moliyalashtirish jarayonidagi tavakkalchilik darajasini pasaytirishdir. Qolaversa, berilgan baholar loyihaviy moliyalashtirishni qay yo'sinda ketishni belgilab beradi.

Investitsiyani egallash muddati.

Bu usul – jahon analitik-hisob amaliyotida eng keng tarqalgan usullardan biri bo'lib, moliyaviy faoliyatni vaqtincha tartibga solishni ko'zda tutmaydi.

Algoritm egallash muddati hisobi investitsiya bashorat qilingan foydani taqsimotidagi muvozanatidan kelib chiqadi. Agar foyda yillar bo'yicha tug'ri taqsimlangan bo'lsa unda egallash muddati bir vaqtdagi harakatlarni yillik foyda miqdoriga bo'lish orqali hisoblanadi. Butun son chiqmagan holda ushbu son o'zidan katta bo'lgan bu tug'ri songa aytiladi.

Sof joriy qiymatni hisoblash usuli. Bu usul natijaviy investitsiya miqdorini sof diskontlangan pul qo'yilmasi summasi bilan bir o'rtaga keltirish bilan asoslanadi. Pul mablag'alari oqimi aktga ko'ra tasdiqlanganligini hisobga olgan holda, u $Q \llcorner r$ koefitsienti bilan diskontlangan bo'ladi. Bu erdagi $\llcorner r$, investorlarning o'zlaricha yillik hisoblash usuli foizidan kelib chiqib o'rnatiladi. Faraz qilaylik, investitsiya $\llcorner n$ yil mobaynida amal qilmoqda, yillik daromadlar $R_1, R_2, \dots, R_n$ miqdorida. Diskontlangan daromadni umumiy yig'ilgan miqdori (RV) va (NRV) qo'yidagi formulalarda ifodalanadi:

Ko'rinib turibdiki, agar: $NRV > 0$ bulsa, loyiha qabul qilinadi.

$NRV < 0$ bo'lsa, qabul qilinmaydi.

$NRV \approx 0$ bo'lsa, befoyda va bezarar.

Yillar bo'yicha daromadni bashorat qilish sharoitida mavjud loyihaga ta'sir etishi mumkin bo'lgan, imkoni boricha barcha ishlab chiqarish va o'z navbatida noishlab chiqarish xarakterlarini hisobga olishi zarur.

Belgilab qo'yish lozimki, NRV ko'rsatkichlari korxonaning ko'zatilgan loyihani qabul qilishi sharoitidagi iqtisodiy potentsialni o'zgartirishni baholashda bashorat etishni aks ettiradi. Bu ko'rsatkich vaqt mezonini bo'yicha ta'sirlidir. Turli loyihalarni NRV ni summalashtirish mumkin. Bu juda muhim hususiyat bo'lib boshqa barcha pretermiyalardan ajratib turadi. Hamda investitsion portfelni optimalligini tahlil etishi sharoitida asos sifatida foydalanishga imkon beradi.

Investitsion loyihalarning rentabelligini umumiy hisob usuli. Bu investitsiyaning rentabellik indeksini hisoblash usuli oldingi usullarning davomi hisoblanadi. Rentabellik indeksi (RI) ushbu formula bo'yicha hisoblanadi:

Bunda agar: $RI > 1$ bo'lsa loyiha qabul qilinadi.

$RI < 1$ bo'lsa qabul qilinmaydi.

$RI \approx 1$ bo'lsa loyiha foydali ham zararli ham emas.

Keltirilgan sof samarador farqli ularoq rentabellik indeksi aloqador ko'rsatkich hisoblanadi. Rentabellik indeksi yordamida NRV si taxminan bir xil bo'lgan bir necha loyihalar ichidan eng optimal loyihani tanlab olish mumkin.

Investitsion loyihalarning rentabellik normasini hisoblash usuli. Investitsiyaning rentabellik normasi deganda (IRR) NRV si «O»ga teng loyihaning dispotlash koefitsienti tushuniladi.

IRR_{qr} unga kura $NRV_{qf}(r)_{qo}$

Rejalashtirilgan investitsiyaning samarasini tahlil etish sharoitida bu koefitsient qo'yidagicha hisoblanadi. IRR shu loyihaga aloqador barcha harajatlarni eng yuqori darajasini ko'rsatadi. Masalan: loyiha to'liq tijorat bankining qarzi evaziga moliyalashtirilsa, IRR loyihani zarar keltiruvchi darajadagi bank foiz stavkasini chegaralangan o'sishining ko'rsatadi.

Amaliyotda har qanday korxona o'z faoliyatini turli manbalarga asoslangan holda moliyalashtiriladi. Korxona faoliyatida avanslashtirilgan moliyaviy resurslardan foydalanganligi uchun to'lov sifatida, u foiz, dividend, rag'batlantirish kabi korxona iqtisodiy qudratini ushlab turishga asoslangan harajatlarni amalga oshiradi.

Bu harajatlar darajasining xarakterlovchi ko'rsatkichlarni avanslashtirilgan kapital bahosi deyish mumkin. Bu ko'rsatkichni korxona faoliyatida qo'yilgan eng kam qaytaruvni o'zida aks ettiradi, uning rentabelligi o'rtacha tortilgan arifmetik formula bo'yicha hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichning iqtisodiy ma'nosi qo'yidagicha ifodalanadi: Korxona joriy ko'rsatkichdan past bo'lmagan rentabellik darajasiga ega har qanday investitsion xarakterga ega qarorni qabul qilish mumkin. Xuddi o'sha bilan IRR ko'rsatkichi taqqoslanadi.

Agar analitik ixtiyorida maxsus moliyaviy hisob kitob bo'lmasa, u usulni amalga oshirish qiyinlashadi. Bunday sharoitda dispodlangan kupaytirgich tabulyatsiyasiga doir ketma-ketlilik usulidan foydalaniladi. Buning uchun tablitsa yordamida ikki diskontlangan koeffitsent tanlanadi.

Investitsion loyihalarni samaradorligini baholashda noaniqlik va xatar sharoitlarida uch o'zgaruvchan miqdorlarni o'rganib chiqishga tug'ri keladi:

1 Realizatsiyadan tushgan daromad

2 Mahsulot

3 Ishlab chiqarish harajatlari va investitsiya

Noaniqlikning ko'prok umumiy sababi bo'lib: inflyatsiya, texnologik o'zgarish, qurilishi muddati va loyihaviy qudratni o'zlashtirish. Zararsizlik nuqtasi- mahsulot realizatsiyadan kelib chiqib tushgan daromad uni ishlab chiqarishi uchun ketgan harajatlarga teng bo'lgan sharoitda algebraik yoki grafik usulda topilgan nuqtadir.

Zararsizlik rasmiy ravishda ifodalab berishi istarlicha soddadir. Unga ko'ra, sotuv hajmining Q o'zgarishi foydaga P qanday ta'sir etishi ko'rib chiqish kerak. Tenglik elementlari bo'lib yuvar birligining narxi (Ts) mahsulot birligining ishlab chiqarish uchun ketadigan harajatlar Un va doimiy harajatlar Un .

Bu qo'yidagicha: $PqQTs-(QUnQUn)$

yoki

$PqQ(Ts-Un)-Un$

Demak, yuqoridagi tenglik foyda sotilgan tovarlar va xizmatlar miqdoridan, kelib chiqadi, narx va mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ketadigan harajatlar bilan narx o'rtasidagi tofavutdan kelib chiqishini ko'rsatadi.

Investitsiya bilan ta'minlanadigan xar qanday tadbirlar majmuasi Invetitsion loyixadir.

Investitsiya –foyda olish maqsadida kiritilgan sarmoyadir.

Jami investitsiyalarni 2guruhga ajratib ko'rsatish mumkin: real investitsiyalar, portfelli investitsiyalar.

Real investitsiyalar: Bu sarmoyaning o'zoq mudatli qo'yilmasi bo'lib, bir yo'nalishga aniq moliyaviy qo'yilmadir.

Portfelli investitsiyalar - loyihalarga kapital qo'yilmasi bo'lib, ma'lum bir faoliyotda qimmatli qog'ozlar sotib olish natijasida ulush shakllantirishdir.

Jadval raqamlari o'z-o'zini moliyalashtirish imkoni farqlanishini ko'rsatadi. Bu bozor talablariga javob bera oladigan darajada ishlaydigan korxona rivojlansa, aksincha bo'lsa, korxona zaiflashadi va xatto xonavayron bo'ladi.

Nodavlat sektorida investitsion loyihalarni cheklovchi yana bir omil bu- investitsion resurslar etishmasligidir. Horijiy investitsion resurslar talab qilinmagan sharoitda esa moliyaviy investitsiyani tashki omil cheklamaydi, chunki uning ekvivalenti bo'lmish ichki resurslar mavjud bo'ladi. Bu erda cheklovchi omil sifatida korxonaning moliyaviy xolati yuzaga chiqadi. Shu sababli investitsion loyihalarni moliyaviy sog'lomlashtirish o'z investitsiyasi o'z hisobidan moliyalashtirishga yo'l ochadi.

O'zini o'z moliyalashtirishning asosiy manbai foyda va amortizatsiya hisoblanadi. Ammo, korxonaga tegadigan foyda ulardan undiriladigan soliq yukiga bog'liqdir, bu yuk qanchalik og'ir bo'lsa, shunchalik sof foyda miqdori kamayadi, uning yalpi foydadagi ulushi qisqaradi. Foyda ko'rgan nodavlat korxonalarda uning katta qismining soliq sifatida byudjetiga o'tishi yuz beradi. Bu albatta davlatning investitsiyalarini moliyalash imkonini kengaytiradi, ammo korxonalarni o'zini o'zi moliyalash imkonini qisqartirish hisobidan yuz beradi.

Loyihaviy moliyalashtirish – bu bank kreditlashining bir turi bo'lib, investitsion loyixalarni kreditlashda kreditor qisman yoki to'liq majburiyatni (xatarni) o'z bo'yniga oladi. Proektlarni tuzishda bevosita loyihaviy kompaniyalar ishtirok etadi.

Oddiy kredit operatsiyalarida bank mijozning to'lov qudrati, loyihaviy holati bilan qiziqsa, loyihaviy moliyalashtirishda asosiy diqqat loyihaviy tahlilga qaratiladi. Buning uchun loyihaning ta'sirchanlik darajasini baholanishi, «zararsizlik nuqta»sini belgilanishi va boshqacha usullar qo'llaniladi. Loyihaviy moliyalashtirishda xatar darajasi yuqoriligini hisobga olib,

kreditorlar investitsion loyihalarni amalga oshirishda amal qiluvchi xatarlarni boshqarishni eng foydali bo'lishini ta'minlashga harakat qiladi.

Xatarni kamaytirishning an'anaviy usullaridan tashqari, investitsion loyihalar amalga oshirishdagi ishtirokchilarga uni taqsimlash usullari ham qo'llaniladi. Investitsion loyihalarni amalga oshirishdagi xatarlarni kreditor va qarz oluvchi o'rtasida taqsimlashda loyihani moliyalashtirish qo'yidagicha tasniflanishi mumkin:

Loyihani moliyalashtirishdagi kreditorning qarzdorga nisbatan huquqsizligi;

Chegaralangan miqdorida loyihani moliyalashtirish ;

To'liq miqdorida loyihani moliyalashtirish.

Loyihani moliyalashtirish, bank-kreditor uchun yuqori xatarda xarakterlansa, tavakkalchilik moliyalashtirish bilan o'xshashlik tomonlari bor.

Tavakkalchilik moliyalashtirish tavakkal biznes fondlari orqali ta'minlanadi, bu fondlar yuqori xatardagi faoliyatni mablag' bilan ta'minlash uchun tashkil etiladi. Qoidaga ko'ra bu loyihalar asosan yangi texnologiya va mahsulotlar o'stida izlanishlardan iborat.

Loyihaviy moliyalashtirishning turli texnologiyalardan foydalanib, an'anaviy maxsulotlarni etishtirishda foydalanilsa, (neft, oltin, energetikalar). Tavakkalchilik moliyalashtirishda zarar qismi o'z-o'zidan katta bo'ladi.

Iqtisodiyotning og'ir sektorlariga loyihaviy moliyalashtirish orqali bank kapitali oqib kirishni rag'batlantirish maqsadida, hukumat tug'ridan-tug'ri yoki aylanma to'rtki berishi mumkin. Hususan kafolat berish va boshqalar.

Kreditor uchun loyihaviy moliyalashtirish yuqori xatar bilan bog'liq bo'lishini hisobga olganda, asosiy e'tibor proektni puxtalik zaxirasini baholashga qaratishadi. U qarzni qoplash koeffitsenti bilan belgilanadi. Loyihadan ko'tilayotgan sof summasini kredit qarzdorligi bo'yicha to'lov (ejalashtirilgan) ga aloqasi bilan topildi. Har qanday holatda DCR 1dan kichik bo'lmaydi. Jahon amaliyotida 80 yillardagi bu ko'rsatkichning eng past darajasi etib 2:1 (200%). Bugungi kunga kelib jahon bozorida LK borasidagi o'tkir raqobat bu koeffitsentni 1,3:1 (13%) tushirdi. Albatta kreditni qaytarilishi tartibi singari LM dagi kreditlarni o'zishda DR (deficated rorcentage) kabi usullardan ham foydalaniladi. Unga ko'ra bank naqd pul olishiga foiz belgilash asosida qarzni o'zishga imkon beradi. DR DCR darajasiga ko'ra belgilanadi. DCR koefitsenti 1ga tushishi DR ni 100% chiqishiga sabab bo'ladi.

Loyihaviy moliyalashtirishning moliyaviy chizmasini 2ga ajratish mumkin: 1) Loyihalarni parallel moliyalashtirish 2) Loyihalarni izchil moliyalashtirish.

1) 1chi turi qo'shma moliyalashtirish deb ham yuritiladi. Kredit tashkilotlari loyihaviy moliyalashtirishni amalga oshirishi uchun zayomlarni bir nechta kreditorlar o'rtasida bo'lib olishi mumkin. Bunda investitsion loyihalar yirik kapital sig'imga ega bo'lib bunday loyihalarni bir bank moliyalashtirish imkoniyatlariga ega bo'lmaydi va xatar darajasi o'ta yuqori bo'ladi. Shuning uchun bunday loyihalar bir nechta banklar yoki kreditorlarning o'zaro kelishuvlari asosida moliyalashtiriladi. Bunday loyihalarni moliyalashtirish sindikatlashtirilgan moliyalashtirish deb ham yuritiladi yoki turli xil kontsorsiumlarni tashkil qilish vositasida moliyalashtirish tashkil qilinadi.

2) Loyihalarni moliyalashtirishning izchil turida yirik banklar bosh tashabuskor bo'lib xizmat qiladi.

Tayanch iboralar:

Investitsiya, qimmatbaho qo'oz, aktsiya, obligatsiya, sertifikat, moliya bozori, moliya tizimi, lombard, garov, vosita, trast, portfel, mulk qo'uzi, ishonch operatsiyalari.

Nazorat savollari:

1. Bank investitsiya vazifalari.
2. Banklarning uzoq muddatli kreditlari.
3. Banklarning qimmatbaho qo'ozlar bilan operatsiyalari ?
4. qimmatbaho ko'ozlar bozorida tijorat banklari o'rni.
5. Asosiy kapitalni investitsiyalash shakllari tahlili.
6. Tijorat banklarining qimmatbaho ko'ozlar bilan aktiv operatsiyalari.

7. Tijorat banklarining investitsion faoliyati.
8. Moliyaviy bozor tushunchasi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari.
9. Moliyaviy bozor instrumentlari, qimmatbaho qog'oz bozori va uni tashkiliy tuzilishi.
10. Banklarning qimmatbaho bilan operatsiyalarning boshqa turlari.
11. Bank tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarining daromadligi darajasi.
12. Banklarning qimmatbaho bilan operatsiyalarini rivojlantirish muammolari.

7-BOB. LIKVIDLILIK, ZAHIRALARNI BOSHQARISH STRATEGIYASI VA TAKTIKASI

1. Bank balansi likvidligi va mohiyati
2. Bank likvidligini aniqlash ko'rsatgichlari
3. Bank likvidli zaxiralarini boshqarish strategiyasi

«Bank ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh mablag'larini tijorat banklari depozitlariga jalb qilishni rag'batlantirish ishlari ham 2009 yilda ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash masalasi doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda va bu o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Biroq, bu boradagi ishlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish kerak. Nega deganda, aynan banklar, ta'bir joiz bo'lsa, butun iqtisodiyotimizni oziqlantirib turadigan qon tomirlari hisoblanadi, mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ko'p jihatdan ularning samarali faoliyatiga bog'liq»¹².

Tijorat banklari paydo bulishi bilan ularning likvidligini davlat tomonidan boshqarish muammosi yuzaga keldi. chunki bank tizimidagi nolikvidlik makroiqtisodiy siyosatning barqarorligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida muammoning dolzarbligi yanada oshadi, chunki utkazilayotgan isloxotlar muvaffakiyatining bosh omillaridan biri bank tizimining ishonchli faoliyat ko'rsatishidir.

Ma'lumki, tijorat banklari kundalik faoliyatlarida quyidagi o'zaro bog'liq muammolarni xal etib borishlari lozim:

- a) o'z operatsiyalarining foydaliligiga erishish;
- b) likvidlikning zarur darajasini saqlab turish;
- v) tulovga layokatlikning zarur darajasini saqlab turish.

Birok shuni kayd etish zarurki, bankning daromadliligi va likvidligi tezkari mutanosib ko'rsatkichlardir. Yuqori likvidlikni ta'minlash bankning yuqori daromadliligiga zrishishga qaramaqarshi, chunki likvid aktivlar nolikvidlarga nisbatan kam foiz keltiradi. Boshqa tomondan eng ko'p foydaga erishish yo'lida faol siyosat olib borayotgan banklar likvidlik aktivlarini ruxsat etilgan eng kichik darajada saqlab turishga harakat qiladilar. Likvidlik va daromadlilik o'rtasidagi bunday boglanish bank siyosati nomuvofiq olib borilgan takdirda, yuqori likvidlik xolatida bankning norentabelliligi yoki likvidlikning juda past darajasidir. Bu xol bankni yuqori daromad olishiga olib kelishi va uning bankrotligini ham keltirib chiqarishi mumkin. Demak likvidlik va foydalilikni optimal boglab shakllantirish uchun banklar ushbu ko'rsatkichlarni birgalakda tahlil qilib borishlari lozim.

Banklar likvidlikni ta'minlash zaruratini tushunib olishlari va tegishli siyosat yurgizishlari mumkin «bank likvidligi» nima ekanligini anglab olishlari lozim. Likvidlik atamasi (lotincha liquidusokuvchan suyuqlik) sotish, aktivlarni pul mablag'lariga aylantirishning asosan amalga oshirilishini, ya'ni bankning Markaziy bank yoki vakil banklardan nakd pul mablag'larini okilona narxda sotib olish, likvid aktivlarini sotish imkoniyati va haqozolarni anglatadi.

Ko'pincha bank likvidligi va bankning tulovga layokatlikligi atamalarida adashtirish xollari uchraydi. Tulovga layokatliklik likvidlikka nisbatan kengrok tushuncha bo'lib, bank zarur muddatlarda kreditorlaromonatchilar, banklar, davlat oldidagi majburiyatlarini tula summada bajara olish layokatini bildiradi. Amalda aynan nolikvidlik banklar tulovga layokatsizligining asosiy sababi bo'lib, ularni bankrotlikka va bank tizimining beqarorligiga olib keladi.

Bundan kelib chiquvchi qonuniyat shuki, bankning barqaror faoliyat yuritishida likvidlikbirinchi omil, tulovga layokatliklik ikkinchi omil hisoblanadi. Boshqacha aytganda, likvidlik bank faoliyatining asosiy xususiyati bo'lib, uning ishonchliligini ko'rsatadi.

¹² I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» O'zbekiston .T.2009.y.

Tijorat bankining likvidligi uning balans tuzilmasi bo'yicha belgilanib, unda aktivlar passivga doir muddatli majburiyatlarni koplash uchun o'z qiymatini tushirmagan holda yukotishlarsiz pul mablaglariga aylantirilishi lozim.

Bank likvidligini tahlil qilish masalasi bank nazorati bo'yicha Bazel bitimida ayniqsa, chukur ko'rib chiqilgan. Ushbu bitimga muvofiq likvidlikni tahlil qilish bankning o'z majburiyatlarini muddatida va zarar kurmagan holda bajarish zarurati yuzaga keladi. Majburiyat bajarilmagan takdirda bank o'z obrusini yukotadi va bu ham bankni bankrotlikka olib kelishi mumkin. Likvidlikni ta'minlashning eng oddiy usuli bankning bir qism aktivlarini likvid shaklida, masalan, nakd pul, Markaziy bank va boshqa banklardagi vakillik hisob varagidagi koldiklar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari(DQMO) shaklida saqlash hisoblanadi.

Banklar likvidlikning o'zgarishiga ta'sir kiluvchi omillarni hisobga olgan holda likvid aktivlarining zarur miqdorini belgilab olishlari lozim. Mazkur omillarga quyidagilar kiradi:

1)Omonatlarning ko'payishi eki kamayishiga ko'ra mablaglarga ega bo'lish eki ularni yuqotish; bank jalb qilingan mablaglar bo'yicha majburiyatlarni yakinda bajarishi lozim, bu omonatlar va boshqa passivlarning muddatlari bilan bog'liq hamda bankda koladigan depozitlar miqdorini (asosiy depozitlar) hisobvarakdan olinadigan eki darxol tulanadigan depozitlar va boshqa passivlar («uchuvchan mablaglar») bilan kieslagan holda tahlil qilishni ko'zda tutadi;

2)Omonatlar summasining o'sishi yoki qisqarishiga muvofiq majburiy zaxiralar me'yoriy miqdorining ko'payishi yoki kamayishi ham likvidlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki majburiy zahiralar me'yorini bajarishga yo'naltirilgan mablaglar likvid aktivlarning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi;

Ssudalar va investitsiyalar summasining oshishi eki kamayishiga kura mablaglar okib ko'payishi yoki pasayishi;ushbu omilning ta'siri shundan iboratki,ssudalar va investitsiyalar miqdorining har bir oshishi likvid aktivlar ulushini kamaytiradi,chunki investitsiyalar uzoq muddatga asoslangan.

Daromadlilik oshayotgan bir paytda likvidlikning makbul darajasini ta'minlash uchun bank jalb etilgan omonatlar muddatlari va ularga doir harajatlarni tahlil qilib chiqib, ularni kredit qo'yilmalari va investitsiyalar muddatlari hamda rejalashtiriladigan daromadlar bilan takkoslashi lozim. Bunday takkoslash joylashtiriladigan va jalb etilgan mablaglarni muddatlari bo'yicha solishtirish asosida bank likvidligi xolatini aniqlash, shuningdek, likvidlikning zarur darajada eng ko'p foydaga erishishi uchun qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlarning optimal nisbati bilan kredit siyosatini olib borish imkoniyatini beradi.

Banklarda likvidlik muammosining muvaffakiyatli xal etilishi aktiv va passiv operatsiyalarning bir paytda samarali boshqarilishiga bog'liq Banklar aktiv operatsiyalarni utkazish uchun pul resurslariga extiyoj sezadilar. Ularini passiv operatsiyalarni amalga oshirish orkali jalb etish mumkin va qarz majburiyatlarini koplav borishi lozim. Qarz majburiyatlarini koplash uchun banklar foyda olib faoliyat yuritishlari va bunda tulovga layokatlilikning makbul darajasini saklashlari hamda likvidlikni ta'minlashlari kerak. Aktiv va passiv operatsiyalarni, shuningdek, likvidlikni kompleks va o'zaro boglab boshqarish zarurati shunday izoxlanadi. Yuqorida qayd etilganidek, banklar likvid mablaglarga bo'lgan zaruratni kondirish uchun kerakli miqdorda omonatlar va depozitlarni safarbar etadilar. Bunda banklar depozitlar miqdorining usishini kredit portfelining usishi bilan takkoslashlari hamda depozit bazasining barqarorligini avvalo muddatli jamgarma depozitlari va talab qilib olinuvchi depozitlar hisobidan taminlashi lozim . Banklar aktivlar miqdorini oshirish uchun depozit bazasini saqlav turishga layokatli bulmagan holda likvid mablaglar etishmasligini koplav uchun Markaziy bankdan yoki banklararo bozordan mablag qarz olishlari mumkin . Biroq qarz mablaglariga bunday bog'liqlik uzoq vaqt davom etsa, likvidlikni boshqarish muammosi tus olgan deyish mumkin bo'ladi .

Banklar kredit portfelini boshqarish orkali likvidlik darajasini boshqarishlari mumkin. Likvidlik muammosi yuzaga kelganda ular likvid mablaglarini ko'paytirish uchun kreditlar berishni vaqtincha tuxtashishi yoki berilgan kreditlarni koplav muddatlarini qayta ko'rib chiqishi yoki ilgari berilgan kreditlar bo'yicha muddati utgan qarzlarni qayta tuzishni yaxshilashi va ularning qaytarilishini taminlashi mumkin.

Aktivlarni konvertatsiyalash nolikvidlikka ega aktivlarga aylanishini ta'minlaydi. Banklar asosiy vositalarining bir qismini sotib, ularning urniga yuqori likvid vositalar qatoriga kiradigan davlat qisqa muddatli majburiyatlarini sotib olishi mumkin. Ko'pgina banklar likvidlikni boshqarishda asosiy e'tiborni aktiv operatsiyalarni boshqarishga qaratadilar, biroq banklarning likvidlik yomonlashganda qarz mablag'larini tez topish imkoniyati bank faoliyati barqarorligini ta'minlashning muxim omili hisoblanadi. Likvidlikni boshqarish siyosatini to'g'ri tuzish va unga aniq rioya qilish likvidlik bilan bog'liq muammodan kutilishga yordam beradi. Bu erda likvidlikning eng kichik darajasi va uning meyoriy ko'rsatkichlari muxim ahamiyatga ega bo'lib, quyida ularni hisoblab chiqish uslubi to'g'risida so'z boradi. Mazkur majburiy ko'rsatkichlar Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilishi va barcha tijorat banklari ularga rioya qilishi lozim.

Likvidlik bank portfelini, ya'ni aktivlar va passivlarni boshqarishga bog'liq bo'lib, u banklar faoliyatining barqarorligi va ishonchliligini ta'minlovchi likvidlik, foydalilik va tulovga layokatlikka erishishni ko'zda tutadi. Portfelni boshqarish tavakkalchilik darajasini hisobga olgan holda doimiy ravishda muvozanatlash zarurati bilan bog'liq. Shu ma'noda aktivlarni tavakkalchilik darajasi bo'yicha tasniflashning ahamiyati katta. O'zbekistonda bankning likvidligini baholash uchun aktivlar bank qo'yilmalari va ular kiymatining bir qismi yukotilishi tavakkalchiligi darajasiga kura turtta guruxga bulinadi. Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib va aktiv operatsiyalar tavakkalchiligi omilini hisobga olgan holda shuni kayd etish zarurki, 1 gurux aktivlari birlamchi zaxira bank aktivlarga kiradi. Birlamchi zaxiralarni boshqarish ularni bankning qarz majburiyatlarni o'z muddatida ijro etish uchun etarli bo'lgan miqdorda saqlab turishdan iborat.

Keyingi gurux aktivlarining tavakkalchilik darajasi kichik va kam daromadli, biroq ularning likvidlik darajasi etarli darajada yuqori va ozgina kechiqish bilan hamda o'z kiymatini ozgina yukotgan holda pul mablag'lariga aylantirilishi mumkin. Ushbu gurux aktivlarining vazifasi majburiy zaxiralar darajasi pasayganda birlamchi zaxiralarni tuldurish manbai bo'lib xizmat qilishidir.

III guruxga yuqori daromadli, shuningdek, tavakkalchiligi katta va kam likvidli aktivlar kiradi. Oxirgi gurux kichik, biroq eng daromadli aktivlardir. Bank bush binolarni ijaraga berish yoki asbobuskunalarni sotishdan daromad olishi mumkin. Likvidlikni sifatli baholash, bankning moliyaviy axvolini tahlil va nazorat qilish uchun koeffitsientlar uslubidan foydalaniladi. U deyarli barcha davlatlarda kullaniladi, biroq meyoriy kiymatlari turlicha bulishi mumkin. Bank nazorati bo'yicha bazel qo'mitasi likvidlikni tahlil qilishning quyidagi tamoyillarni taklif etadi. Ularga muvofiq likvidlikning oltita koeffitsientlari mavjud. Dastlabki ikki koeffitsient MB talablari bajarilishini nazorat qilish uchun, kolgan to'rtasi likvidlik bilan bog'liq axvolning yo'nalishlarini tahlil etish uchun hisob kitob qilinadi.

1. Naqd pul zaxiralariga doir talablarga rioya qilish koeffitsienti. Bazel bitimi maxrajda likvidlikning zarur darajasini, sur'atda esa bankning muayyan sanadagi nakd pul zaxiralarini ko'rsatishni taklif etadi. Agar ushbu koeffitsient kiymati birga teng bulsa, MB talablari kat'iy bajarilayotgan bo'ladi. Agar ko'rsatkich birdan kam bulsa, bankda likvidlikning etishmasligi yoki teskari vaziyat bulishi mumkin.

2. Likvid aktivlarga doir talablarga rioya kili koeffitsienti.

Uning maxrajida likvidlikning talab etiladigan darajasini kuyish, sur'atda esa likvid aktivlarning muayyan sanadagi amaliy miqdorini ko'rsatish zarur. Tushuntirish oldingi koeffitsientdagi kabi.

3. Kreditlardepozitlar. Mazkur koeffitsient likvidlik bilan bog'liq ishlarning axvolini ko'rsatadi va uning kichik kiymati likvidlik etarli darajada ekanligidan dalolat beradi.

4. Aylanma mablag'lari aktivlar ;

5. Aylanma mablag'lari depozitlar;

6. Aylanma mablag'lar depozitlar qarz mablag'lari.

4 koeffitsient bankning barcha aktivlaridagi likvid aktivlar ulushini ko'rsatadi. Keyingi koeffitsient likvid aktivlari bilan koplangan depozitlar ulushini aniqlaydi. 6 koeffitsient aylanma mablag'larning depozitlar va qarz mablag'lariga nisbatini ko'rsatadi. Mazkur uch koeffitsient muayyan sanadagi likvidlikni aniqlaydi. Ularning kiymati kancha katta bulsa, banklardagi likvidlik

darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Likvidlik koeffitsientlari tahlil maqsadiga kura farqlanishi mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda likvidlikning quyidagi umumiy formulasi beriladi:

Likvidlik koeffitsienti= Likvid aktivlar: jalb etilgan mablaglar

Ushbu koeffitsientni muddatlar bo'yicha bo'lib chiqish mumkin, masalan, qisqa muddatli likvidlik koeffitsienti (KMK) va o'rta muddatli koeffitsienti (UMK):

$Kmk = (Kassa + Nostro \ x/v \ bo'yicha \ koldiklar + DKMO) : (Joriy \ va \ jamgarma \ x/v + qisqa \ muddatli \ depozitlar)$;

$Ksr = (Koplash \ muddati \ 1dan \ 5 \ yilgacha \ bo'lgan \ qimmatli \ qog'ozlar \ va \ ssudalar) : \{Koplash \ muddati \ 1dan \ 5yilgacha \ bo'lgan \ depozitlar \ va \ zayomlar\}$;

Bankning qisqa muddatli majburiyatlarini koplash uchun Likvid mablaglar bilan ta'minlanganlik darajasini baholash maqsadida likvidlikning quyidagi koeffitsientlaridan ham foydalaniladi:

$K1 = (Kassa + Vakillik \ hisobvarakalaridagi \ mablaglar + DQMO) : qisqa \ muddatli \ depozitlar$;

$K2 = (Qisqa \ muddatli \ likvid \ aktivlar + O'rta \ muddatli \ qimmatli \ qog'ozlar) : Qisqa \ muddatli \ omonatlar$;

$K3 = (Qisqa \ muddatli \ likvid \ aktivlar + O'rta \ muddatli \ qimmatli \ qog'ozlar + Uzoq \ muddatli \ qimmatli \ qog'ozlar + Immobilizatsiya) : Qisqa \ muddatli \ jalb \ qilingan \ mablaglar$.

K1 formulasini tahlil qilgan holda kayd etish zarurki, ushbu ko'rsatkichning makbul kiymati 11,5 doirasida bulishi lozim. Agar ushbu koeffitsient 1,5dan yuqori bulsa, demak bankda aktivlar nomuvofiq taksimlanmokda, bu esa bank moliyaviy faoliyatining kam rentabelliligiga olib keladi. Agar koeffitsient 1dan kichik bulsa bankning likvidlik darajasi kichik ekanligidan dalolat beradi. Bunday xolatda DQMO va o'rta muddatli qimmatli qog'ozlarni sotib likvidlik etishmasligini koplash mumkin.

O'zbekistonda banklarning likvidlik ko'rsatkichlari. O'zRMBning «Tijorat banklari faoliyatini tartibiga solish to'g'risida»gi 10Koidaga asosan likvidlikni tahlil qilishning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- likvidlik koeffitsientlari tizimini to'g'ri hisoblashni tartibga solish;
- bank likvidligidagi ijobiy va salbiy yo'nalishlarni aniqlash;
- salbiy yo'nalishlarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash;
- bank likvidligining axvoli to'g'risida xulosa chiqarish;
- bank likvidligini tahlil qilish natijalari asosida bankka tavsiyalar tayyorlash.

Mazkur koidaga muvofiq laxzalik, joiriy va qisqa muddatli likvidlik ko'rsatkichlari me'yoriy hisoblanadi. Likvidlik bankning majburiyatlarga doir tulovlarni bajarish talablarini o'z vaqtida va tulik bajarish layokati hamda mijozlarining kreditga bo'lgan extiyojini kondirishga tayyorgarligi asosida baholanishi mumkin. Bank likvidligi quyidagilar koplanishini ta'minlashi lozim.

- depozitlarning olinishi;
- aktivlar va majburiyatlarni koplash muddatlari o'rtasidagi farqlar;
- pul bozorlarining o'zgarishlari;
- rejalashtirilmagan harajatlar.

Har bir aktiv va majburiyat uchun eng kichik muddat belgilanib, u shu muddat ichida koplanishi lozim. Respublikamiz tijorat banklarinig likvidligi buxgalterlik balansi asosida koeffitsientlar uslubi yordamida hisoblanadi va nafaqat ularning faoliyatini MB nazorat qilish uchun, balki tijorat banklarining ichki auditi uchun ham xizmat qiladi. Bundan foydalaniladigan koeffitsienlarni ko'rib chiqamiz.

1. Joriy likvidlik koeffitsienti yuqori likvid aktivlarning talab qilib olinadigan va 30 kunlik muddatli majburiyatlar summasiga nisbatini tavsiflaydi hamda bank omonatchilarning mablaglari jalb etilayotgan muddatlar va ushbu mablaglar aktiv operatsiyalarda joylashtiriladigan muddatlar o'rtasidagi kat'iy muvofiqlikka rioya qilishi lozimligini anglatadi.

Jl.k.=Yuqori likvid aktivlar av bankning koplash muddati 30 kunlik qo'yilmalari : 30 kunlik muddatgacha bo'lgan talab qilib olinadigan majburiyatlar.

O'zbekistonda ushbu ko'rsatkichning yo'l kuyilishi mumkmn bo'lgan darajasi 0,3. Joriy likvid koeffitsienti quyidagi xollarda yaxshilanishi mumkin:

a) talab qilib olguncha majburiyatlarni bir oydan ortik muddatli depozitlarga qayta rasmiylashtirish orkali kamaytirilganda;

b) likvid aktivlar usishining ilgarilab ketuvchi sur'atlari hisobidan;

c) yuqori likvid davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish orqali va hokazo.

2. Laxzalik likvidlik ko'rsatkichi bank yuqori likvid aktivlarinig majburiyatlar summasiga nisbati sifatida hisoblanadi.

Ll. k. Bankning pul shaklidagi aktivlari : talab qilib olguncha majburiyatlar.

Bu koeffitsient bankning omonatchilar oldidagi majburiyatlarini berilgan paytda bajarish layokatini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichning yo'l kuyilishi mumkin bo'lgan eng kichik kiyati 0,25 miqdorda belgilangan. Rossiyada u tuplangan balanslar bo'yicha 1996 yil 1 iyo'l xolatiga 0,1; 1997 yil 1 fevralda 0,2 miqdorni tashkil etgan ya'ni ilgari Rossiyada kulanilmagan ushbu koeffitsientning makbul ko'rsatkichiga erishishi bosqichmabosqichma joriy etilmokda.

3. Qisqa muddatli likvidlik koeffitsienti ham 30 kundan 1 yilgacha muddatli jalb qilingan va joylashtirilgan mablaglar muddatlarining muvofiqligini ko'rsatadi.

Kml.k.=30 kundan 1 yilgacha muddatli aktivlar : (bank sarmoyasi+ 30 kundan 1 yilgacha muddatli depozitlarga doir majburiyatlar)

Ushbu ko'rsatkichning maksimal qiymati 1.

O'zbekistonda tijorat banklarining laxzalik likvidlik koeffitsientini hisoblash ularning ayrimlarida ushbu ko'rsatkich oshirib yuborilgan darajada ekanligini ko'rsatadi. Masalan, 1998 yil 1 yanvar xolatiga kura laxzalik likvidlik koeffitsienti minimal daraja 25 foiz bo'lgan holda 120-150 foizga etgan. Bu aktivlarni boshqarishda qator muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Bunday yo'nalishning saqlanib qolishi aktivlarni muvofiq diversifikafikatsiyalash oqibatida ularning rentabelligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Tayanch iboralar:

Likvidlilik, to'lov qobiliyati, koeffitsient, kapital etarlilik darajasi, bank balansi likvidligi, risk darajasi, iqtisodiy normativlar.

Nazorat savollari:

1. Bank balansi likvidligi tushunchasi va talablari.
2. Bank balansi likvidligini koeffitsientlari.
3. Tijorat banklari likvidligi va to'lov qobiliyatini tartibga solishda xorij tajribasi.
4. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari to'lov qobiliyatini boshqarish muammolari.
5. Bank faoliyatini tartibga solishning pulkredit usullarining tahlili.
6. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari likvidligi va to'lov qobiliyatini tartiba solish.
7. Banklarning likvidlilik risklar va ularni boshqarish.
8. Bank balansi likvidligiga ta'sir kiluvchi omillarni boshqarish strategiyasi.
9. O'zbekiston Respublikasi Tijorat banklarining to'lov qobiliyati va likvidlilikini ko'paytirishda xorij tajribasi.

8-BOB. BANK MABLAG'LARI MANBALARINI BOSHQARISH

1. Bank mablaglari mohiyati va tuzilishi
2. Bank mablaglari manbalari
3. Bank mablaglarini boshqarish yo'llari

«Bugungi kunda banklarda omonatlarning ko'payishiga, ularning bank tizimiga jalb etilishiga nimalar to'sqinlik qilayotganini har tomonlama chuqur tahlil qilish va bu borada qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish kerak. Bu o'rinda gap aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh mablag'larini bank sektoriga jalb qilishda ta'sirchan va uzoq muddatli rag'batlantirish omillarini tashkil etish, iqtisodiyotning real sektoriga kredit ajratishni ko'paytirish uchun banklarning imkoniyatini kengaytirish haqida bormoqda. Banklar zimmasiga investitsiya faoliyatini kengaytirish vazifalari yuklangani sababli ularning ishini tubdan qayta tashkil etish lozim. Birinchi navbatda, bu borada investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va moliyalashni tashkil etish bo'yicha tijorat banklarining maxsus xizmatlarini mustahkamlash zarur. Inqirozga harshi choralar dasturida ko'zda tutilgan tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirish jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining tahdid va xatarlariga munosib harshi turish, uning iqtisodiyotimizga salbiy ta'sirining oldini olish imkonini beradi. Ayni paytda bu dastur inqirozdan so'ng O'zbekiston iqtisodiyotining yanada kuchli, barqaror va mutanosib rivojlangan holda maydonga chiqishi, jahon bozorlarida o'zimizning mustahkam o'rnimizni egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish bo'yicha oldimizda turgan ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun ishonchli zamin yaratadi»¹³.

Pul jamgarishning ko'pgina usullari mavjuddir. Bizning fukarolarimizga eng yaxshi tanish bo'lgani bank omonatlaridir. Banklarning axoli mablaglarini jalb qilish borasidagi muvaffakiyatli faoliyati nafaqat ayrim kishilar, balki butun iqtisodiyot manfaatlariga javob beradi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan ko'pgina davlatlarning xo'jalik amaliyoti shundan dalolat beradiki, korxonalar va davlat muassasalari odatda olayotgan daromadiga nisbatan ko'p miqdorda pul sarflaydi. Foiz stavkalari darajasi omonatchining bankni tanlashida muxim omil bo'lib hisoblanadi. Bankning omonatchilariga tulaydigan foiz stavkasi ularning pullaridan foydalanilganlik haqidir. Agar mablag omonatning "Talab qilib olinadigan"turiga kuyilgan bulsa, undan cheklovsiz foydalanish mumkin.

Aynan bir xil muddatga kuyilgan omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini takkoslab chiqaylik. Bu muayyan muddatga bankka pul kuymokchi bo'lgan odamga qaysi bank makbulligini aniqlash imkonini beradi. Agar siz pulingizni kadsrizlanishidan saklamokchi bulsangiz, bironbir qarorga kelishdan oldin barcha omillarni, jumladan, bank resurslarni qisqa muddatga jalb qilishni avzal kuradimi, shularni hisobga olishingiz lozim bo'ladi. Axoli omonatlarining har bir turi bo'yicha eng yuqori, eng kam va o'rtacha foiz stavkalarining usishini tahlil etish umumiy manzarani tasavvur qilish imkonini beradi. Umuman olganda banklar "talab qilinganida beriladigan" omonatlari bo'yicha 1996 yil oxirida yil o'rtasidagiga karaganda pastrok miqdorda foiz tulaganlar. Muddati 90 kungacha bo'lgan depozitlar haqida ham shunday deyish mumkin. Foiz stavkasining eng kuyi darajasi unchalik o'zgarmadi va butun davr davomida yiliga 1012 foizni tashkil kildi. Eng yuqori stavka iyo'lnoyabr oyi davomida 30 foizdan ortik bandga pasaydi va dekabr oyida u yana bir muncha oshdi. O'rtacha foiz darajasi ham pasaydi, bu banklar siyosatining foiz tulovlarini qisqartirishga qaratilganini bildiradi.

Bularning ichida eng ko'p o'zgargani 3yildan ortik muddatga kuyilgan depozitlarga doir kuyi foiz stavkasidir. Natijada u davr oxiriga kelib davr boshidagiga nisbatan 40 bandga pasaygan. Bu eng kam foiz stavkasining eng katta pasayishidir. Okibatda u 90 kungacha va 91 kundan 1 yilgacha bo'lgan omonatlar foiz stavka darajasiga tushib koldi. Agar o'rtacha foiz me'yori haqida gapiradigan bulsak, uning eng katta ko'rsatkichlari 3yilgacha va undan yuqori muddatga kuyilgan

¹³I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.»O'zbekiston .T.2009.y.

omonatlarga to'g'ri keladi. Ammo ko'rib chiqilayotgan davr oxirida bu omonat turiga doir foiz 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan omonatlar foizlari bilan tenglashib koldi. Bunday monandlik avvalo bank va mijozlarda "bir yildan ortik muddat shunchalik kattaki, bunda vaqt foiz darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omil bulmay koladi", degan tasavvur tugilganligini bildiradi. Mijozlar va bankirlarning tavakkalchilik va noaniqlik bilan bog'liq bo'lgan nisbatan uzoq muddatli davr haqidagi fikrlarining bir xilligi shu narsa bilan tasdiklanadiki, agar "tanlab qilib olinadigan" depozitlarni 91 kundan 365 kungacha bo'lgan muddatga 1820 ta bank jalb qilingan bulsa, 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan muddatli omonatlarni faqat 48 ta bank jalb kilgan, 3 yildan ortik muddatga esa 411 bank jalb qilingan. Omonat muddati ko'paygani sayin bankka pul kuymokchi bo'lgan mijozlar soni kamayib bormokda. Agar investor uzoq istiqbolda narxlar qanday o'zgarishini aniq bilaolmasa, bu holda albatta mablaglardan erkin foydalanish huquqini saqlab kolish va narxnavo oshgan takdirda yukotishlardan muxofazalanish maqsadida qisqa muddatga mablag sarflangan ma'kul.

Yuqorida tilga olib utilgan barcha omonatlar foiz stavkalarining pasayishida Markaziy bankning kredit berish shartlarini tartibga solishi muxim rol uynaydi. Foiz stavkalarining usishini umumiy tavsiflash bilan bir qatorda banklarning bu yo'nalishida olib borayotgan ishlar haqida ham aytib o'tish lozim. Biz bu o'rinda bir mezondanqo'yilmalarning daromaddorligidan kelib chiqamiz. Foyda olishni yaxshirok rejalashtirish uchun omonatchi banklar foizlarni qanday hisoblab kushishlarinni bilishi zarur. Foizlar "talab qilib olinadigan", jamgarma va muddatli depozitlar bo'yicha kamida oyiga bir marta, shuningdek jamgarma va muddatli depozitlar tulik tulanida, almashtirilganida yoki yil oxirida qayta rasmiylashtirilganida kushiladi. Bank hisoblab kushish usuliga karab oddiy va murakkab foizlarni kullashi mumkin. Oddiy foizlar kullanganida omonatning butun davri uchun tulov miqdori hisoblab kushish davrlari soni va muddatidan tashkari uning summasiga karab belgilanadi. Pullarni qisqa muddatga depozitga kuyishda olinadigan foizlar summasi masalasini xal etish uchun summa, muddat va foiz stavkasini ko'p marta ko'paytirish hamda shundan sung natijani jamlash kerak emas. Ushbu o'rinda murakkab foizlar fomulasini kullash etarlidir. Bunda utgan davrda kushilgan foizlar summasi asosiy omonatga kushiladi va keyingi davirlardagi foizlar shu yangi summa asosida hisoblab kushiladi. Shunday qilib, murakkab foizlarni kushish bazasi oddiy foizlarda kullanadiganidan farqli ravishda mablaglar banka kuyilgan umumiy muddatning bir qismi bo'lgan har bir hisoblab kushish davrida ortib boradi. Murakkab foizlar yiliga bir necha marta hisoblab kushilishi mumkin. Murakkab foizlar samarasiga yuqorida ko'rsatilganidek foizlari kushilgan summa bankdan olingan va darxol aynan shu muddatga qayta rasmiylashtirilgan paytda ham erishiladi. Bunday xolatlarda davr uchun foiz stavkasi yoki yillik stavkani bilishlozim. Umuman omonat summasi turli xolatlarda turlicha bulishi mumkin. Masalan, omonatchi 10000 sumni 90 kun muddatga va 5000 sumni bir yil muddatga bankka kuyishga hamda ularni keyinchalik qayta investitsiya qilishga tayyor. Agar foiz stavkasi 90 kunlik depozitlar buicha 33 foiz va yillik depozitlar bo'yicha 38 foiz darajasida saklanayotgan bulsa, bu qayta investitsiya qilishni ko'zda tutgan holda qisqa muddatga mablag kuyishda mutlok foiz tulovlari summasi yuqori bulishiga karmay, bir yil muddatga mablag kuyishning nisbatan katta foyda keltirishi haqidagi fikrni o'zgartira olmaydi.

Yuqorida keltirilgan hisobkitoblar omonatchiga o'z daromadlariga taxmin qilish hamda bush mablaglarini saklash va ko'paytirish uchun eng yaxshi investitsiya qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi hamda boshqa vakolatli organlar kimoshdi savdolarini puxta tayyorlash va aktsiyalari savdoga kuyiladigan korxonalarini tanlash bilan shugullanadilar.

Xususiylashtiriladigan korxonalar haqidagi birlamchi axborot qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Markazining xududiy bulimlari tomonidan tuplanadi va sungra XIFlar dasto'rini amalga oshirish boshqarmasiga beriladi. XIFlar dasto'rini amalga oshirish boshqarmasi kushimcha ravishda ushbu axboratlarni tuplaydi: korxona tomonidan tulanen dividendlar haqidagi axborot, xususiylashtirilgan korxona aktsiyalarining kunlar bo'yicha joriy tarkatilishi haqidagi axborot.

Xususiylashtiriladigan korxonalarning axvolini urganishda quyidagi ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi:

- mustakillik koeffitsenti aksiyadorlik sarmoyasining balans pasivlari summasiga nisbati, bu korxonalarning qarz mablaglariga bog'liqlik darajasini ko'rsatadi;
- zaxira va chiqimlarning moliyalash mambalari bilan ta'minlanganlik koeffitsenti aksiyadorlik sarmoyasi bilan asosiy mablaglar kiymati o'rtasidagi farqni zaxiralar va chiqimlar kiymatiga bo'lib aniqlanadi;
- sof foydaning aksiyadorlik sarmoyasiga nisbati.

Kim oshdi savdosiga tayyorgarlikning keyingi bosqichi xususiylashtiriladigan korxonalarni tanlash hisoblanadi. Davlatning ulushi bu kiymatga teng yoki undan ko'p bo'lgan korxonalarga ustunlik beriladi. Agar davlatning ulushi 30 foizdan kam bulsa, XIFlarga sotish uchun tavsiya qilinadigan aksiyalarning umumiy miqdori korxona ustav fondining kamida 30 foizini tashkil qilishi sharti bilan erkin sotuvdagi ulush va boshqa ulushlar koldiklari mavjut bo'lganda korxona aksiyalari kimoshdi savdosiga kuyilishi mumkin. Kimoshdi savdosi uchun shu tarika tanlab olingan korxonalardan ikki ruyxat: asosiy va zaxira ruyxat tuziladi.

Tayanch iboralar:

Passiv, kapital, jalb qilingan mablag'lar, aktsiya, majburiyatlar, depozit, plastik kartochkalar, nodepozit mablag'lar, foizlar, ustav fondi, daromad.

Nazorat savollari:

1. Bank passiv operatsiyalari.
2. Bank mablag'lari tushugchasi va ularning tuzilishi.
3. Bankning depozit operatsiyalari.
4. Bankning nodepozit mablag'lari.
5. Bank kredit potentsiali.
6. Tijorat banklari mablag'larini ta'minoti va barqarorligini tahlili.
7. Bank kredit mablag'lari, tuzilishi.
8. Bank kapitali va uni boshqarish.
9. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari mablag'lariga o'yiladigan talablar va iqtisodiy normativlar.
10. Bank tizimi va aholi jamgarmalari.

9-BOB. AKTIV VA PASSIVLARNI RISKDAN HIMOYALASH STRATEGIYALARI. BANKNING YANGI XIZMATLARI

1. Bank aktiv va passivlarini boshqarish usullari
2. Bank aktivlarini aniqlash koeffitsientlari
3. Bank risklari va ularni pasaytirish yo'llari

Aktivlar va passivlarni boshqarishning asosiy maqsadi tavakkal qilishning eng past darajasi sharoitida daromad foiz tushumlari va harajatlar orasidagi farqni mumkin kadar oshirish eki uni juda bulmaganda barqaror darajada saqlab turishdan iborat ekanligi malum.

9-jadval

AQSh tijorat banklarining aktivlari.
(umumiy aktivlarga nisbatan % hisobida)


	Aktivlarning turlari	2005 y.	2006 y.	2007 y.
1.	Xazina aktivlari	13	9	7
2.	Ssudalar	60	67	61
3.	Qimmatli qog'ozlar	21	19	25
4.	Boshqa aktivlar	6	5	7
5.	Jami:	100	100	100

Iqtisodiyot nuqtai nazaridan aktivlar va passivlarni boshqarish masalalari birbiridan aloxidaaloxida ko'rib chiqiladi,birok amaliyotda ular o'zaro bog'liqdir. Bank balansining passiv qismidagi jalb etilgan mablaglarning manbalarini tahlil kilmasdan aktiv operatsiyalarni amalga oshirish kiyin . Tijorat banki yunaltiriladigan resurslarni depozitlar muddatligi asosida vaqtivaqti bilan aniqlash va tartibga solish muammosiga duch keladi. Masalan,mijozning kushimcha kredit berish to'g'risidagi iltimosini kondirish uchun shu paytda bankda mablaglar etarli eki etarli emasligini depozit fondini kengaytirish imkoniyati kanchalik realligi bilish lozim . Bank aktivlari va passivlarini moxirlik bilan boshqarish uning bir maromdagi faoliyatini ta'minlashning garovi bo'lib,jahon tajribasida aktivlar va passivlarni boshqarishning amaliy modellariga asoslangan bir kancha usullari ishlab chiqilgan. Hozirgi paytda jahonda aktivlar va passivlarni boshqarishning quyidagi ikkita asosiy usuli keng tarkatilgan:

- umumlashgan manba usuli;
- fondlarning manbalarini bulish usuli.

Bo'lardan birinchisining mohiyati uning nomida aks etgan. Bu usulga muvofiq bankning jalb etilgan resurslari va o'z resurslari birlashtiriladi. Tijorat banki aktiv operatsiyalarini ana shu manba hisobida amalga oshiradi. Ushbu usulni amalda kullash ma'kul bulsada,birok,uning zaif tomonlari ham bor. Bunda aktivlar va passivlar o'rtasidagi o'zviy alokadorlikning ta'siri e'tibordan chetda koladi. Shu sababli bu usulni bozor munosabatlariga o'tish sharoitida,ayniqsa,bank mijozlarining moliyaviy xo'jalik faoliyatini unchalik yaxshi bilmaydigan sharoitda kullash juda xavflidir.

Fondlarning manbalarini bulish usuli aniq manbalarni dikkat bilan sinchiqlab karab chiqishni talab qiladi . Bunda aktivlardan foydalanishning muayyan yo'nalishlari passivlardagi mablaglarning muayyan manbalari bilan o'zviy bog'liqlikda, ularning tegishli likvidliligi va daromadliligini ta'minlashni ko'zlagan holda,muvofiqlashtiriladi. Bunda har bir manba mablaglari ularning aylanishini hisobga olgan holda,turlicha ta'minlanganlikni takozo etishi e'tiboga olinadi.



Bir paytning o'zida tavakkal(risk)ni va foiz stavkalari o'zgaruvchanligini oshirgan holda aktivlar va passivlarni boshqarish texnikasini rivojlantirish fondlarni bulish usuli deb atalgan endashuvdan foydalanishni maqsadga muvofiq qilib kuyadi. Rivojlangan xorijiy banklar faoliyatida hozirgi kunda shunday endashuv ustunlikga ega. Ushbu endashuv doirasida quyidagi masalalarni xal qilish talab etiladi:

a) aktivlar va passivlarning tuzilishi,foydasi eki ular bilan bog'liq harajatlarni nazorat qilish ;
 b) aktivlar va passivlar ustidan ularni yaxlit boshqarishni ta'minlash maqsadida nazorat qilish,aktivlar bo'yicha daromadlar va majburiyatlar harajatlari o'rtasidagi farqni maksimallashtirish (daromadni oshirish);

v) daromadlar va harajatlarni balansning ikkala aktiv va passiv tomonlariga kiritish,aktivlar bo'yicha ham,passivlar bo'yicha ham daromadlarni maksimallashtirish va bank xizmatlarini tannarxini minimallashtirish (kamaytirish).

Respublikamiz iqtisodiyoti tarakkietining hozirgi bosqichida bu usulning afzalligi quyidagilardan iborat:

- u mablaglarning asosiy qismi olinadigan aniq manbalarni ko'rib chiqishni takozo etadi;
- jamgarma va muddatli omonatlar miqdori nisbatini, shuningdek,pul bozoridagi zaemlar xajmi va majburiyatlar umumiy kiymatini ko'zatib borish imkonini beradi.

Masalan,bank fondlari nisbatan beqaror va qisqa muddatli manbalar hisobidan shakllantirilsa,unda mablaglarning katta ikki qismi qisqa muddatli kreditlarga va qimmatli qog'ozlarga sarflanishi kerak. Eki aksincha: fondlarni uzoq muddatli mablaglar (muddatli depozitlar) hisobidan shakllantiradigan bank ularni bir muncha xavfli tavakkal(risk) bilan uzoq muddatli zaemlarga,ya'ni kuchmas mulkka,tadbirkorlikka ishlatishi mumkin.

Hozirgi vaqtda ba'zi xorijiy banklarda aktivlar va passivlarni boshqarish strategiyasi aktivlar va passivlarni boshqarish bo'yicha maxsus qo'mitalarning qarorlariga muvofiq amalga oshirilmokda. Bunda qo'mitalar foiz stavkalarining o'zgarishlari xavfiga karshi kurash strategiyasini tanlaydi, shuningdek,qisqa muddatli va uzoq muddatli rejalashtirish bilan shugullanadi, nolikvidlilik xavfidan ximoyalanish choralari ishlab chiqadi,berilaetgan kreditlarning sifati va kreditlash uchun mablaglarni jalb etish harajatlari hamda soliq majburiyatlari ustidan nazoratni tashkil etadi.

Aktivlar va passivlarni samarali boshqarish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. Bank marjasini eki daromadlar va harajatlari o'rtasidagi tafovutni barqaror tarzda saqlab turish. Bunga odatda "bahosi past" resurslarni jalb etib,keyin ularni nisbatan yuqori foizlar bilan berish orkali erishiladi. Jalb qilinadigan majburiyatlar (mijozlarning hisob raqamlari) oz chiqimli resurslarga misol bulishi mumkin,negaki mijoz hisob varaklariga xizmat ko'rsatish harajatlari boshqa resurslarga qilingan harajatlarga nisbatan arzon bo'lib,ularning balans passividagi ulushini ko'paytirish banklarning foiz harajatlarini qisqartiradi va daromadlarini oshiradi. Ammo har doim ham bunday qilishning iloji yuk. chunki bozor mexanizmi bunday imkoniyatni cheklaydi. Ayni

chogda bu oldindan bashorat qilib bulmaydigan depozit vositasi bo'lib,uning bank resurs bazasidagi ulushining yuqori bulishi bank likvidliligini zaiflashtiradi.

2. Bankning yuqori darajada likvidliligini saqlab turish. Bunda mablaglarnidavlat qisqa muddatli majburiyatlariga,Markaziy bankning qimmatli kogzlariga, huningdek,kassalarda va vakillik hisob varaklaridagi koldiklarni ko'paytirish orkali bunga erishiladi. Oxirgi ikkita omil o'z navbatida foydani kamaytiradi, chunki ular darpomad keltiradigan aktivlar hisoblanmaydi. Demak,ushbu vazifaning mohiyati ana shu karamakarshi talablarni epchillik bilan uygunlashtirishdan iborat.

Bundan tashkari,O'zbekistonda tijorat banklarining likvidliligi Markaziy bank tomonidan bir qator koeffitsientlar vositasida tartibga solinadi. Ulardan asosiysi sifatida direktiv tarzda urnatilgan joriy likvidlilik koeffitsientining mavjudligi(30%)ni ko'rsatish mumkin.

Bu masalada likvid mablaglarni,kutilaetgan tushumlarni va bulgusi tulovlarni nazorat qilish imkonini beradigan operativ axborotlar bilan ta'minlash ancha ahamiyatlidir.

3. Kredit resurslarini ularning risk darajasiga,qarzlarining qaytarilishini ta'minlash shakllariga, daromadlilik darajasiga karab boshqarish . Bunda kreditlar har bir guruxining bank kredit mablaglari umumiy summasidagi ulushlarini hamda ularning kredit siyosatiga muvofiqravishda o'zgarishini aniqlash ham zarur.

4. Foiz stavkalari o'zgarishi xavfidan ximoya qilish. Bu vazifani xal etish uchun e'tiborni kredit portfelining balansdagi ham aktiv,ham passiv qismlari doirasidagi foiz stavkalariga o'zgarishiga eng ta'siryaan unsurlariga qaratish kerak bo'ladi. Kreditlar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromad qarzga olingan mablaglar bo'yicha foiz hisobidagi harajatlar qisqarishiga nisbatan tezrok pasayganda xavfni kamaytirishning mumkin bo'lgan yo'llarini ishlab chiqish talab qilinadi.

5. Foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirchan aktivlar va foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirchan passivlar o'rtasidagi muvozanatni saqlab turish. Ushbu vazifa zampirida foiz stavkalarini oshirish eki pasaytirish,uzoq muddatli va qisqa muddatli foiz stavkalari o'rtasidagi nisbatning o'zgaririshi kabi funktsiyalar etadi,negaki bankning aksari passivlari qisqa muddatli,aktivlar(ssuda)ning talay qismining qaytarilishi esa uzoq muddatlarga ega. Jalb etilgan mablaglar bo'yicha foiz stavkalari usishi xavfi tugilganda bank foydasini ximoyalash uchun karshi choralarni kurish zarur.

Shunday qilib,aktivlar va passivlarni boshqarish faoliyati axborot tuplash,uni tahlil etish,kredit siyosati bo'yicha qarorlar qabul qilishda namoen bo'ladi. Banklar o'zlarining qimmatli qog'ozlarini chiqarish asosida o'z ustav va aylanma fondlariga kushimcha resurslarini jalb qilish extiyoji kuchayib borishi ham ularning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faollashuvida muxim omildir

Nixoyat, qimmatli qog'ozlarning samarali tulov va garov vositasi sifatidagi roli bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida muttassil oshib borayoganini ham e'tibordan chetda koldirib bulmaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar faolligining eng muxim sub'ektiv shartlari jumlasiga quyidagilarni qo'shmoq kerak: birinchidan, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun xujjatlarida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan utkaziladigan ko'pchilik turdagi operatsiyalarni takomillashtirishda ishtirok etishlariga yo'l kuyadi;

ikkinchidan, banklarning nisbatan barqaror moliyaviy axvoli va operatsiyalarining yuksak daromadlilik ularga bank xizmatlarining yangi turlarini o'zlashtirishga kattagina moliyaviy mablag sarflash imkonini beradi. Qimmatli qog'ozlar operatsiyalarining ko'pchiligi esa ayni shu mablag bilan bog'liq;

uchinchidan, banklar ixtiyoridagi texnika, axborot va kadrlar, keng tarmoqli filiallar va mijozlar bazasi ularni qimmatli qog'ozlar bozorining eng harakatchan katnashchilariga aylantiradi;

turtinchidan, banklar bilan boshqa moliyaviy iqtisodiy muassasalar o'rtasida kuchayib borayotgan raqobat, ko'pgina an'anaviy bank xizmatlari (kredit berish, moliya valyuta, vakillik operatsiyalari) ning foyda berishi kamayib borayotganligi banklarni o'z faolligi markazini qimmatli qog'ozlar bozori sohasiga kuchirishga majbur qiladi. Mazkur shart sharoitlar va kulay omillarning mavjudligi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishlari mikiyosini kengaytirish uchun

katta imkoniyatlar ochadi. Bu narsa amalda, birinchi galda, banklarning emissiya faolligida – aktsiyalar, ablegatsiyalar, depozit va jamgarma sertifikatlar, veksellar va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Bank qimmatli qog'ozlarining birinchi sxemada berilgan assosiy turlari taxminiy tasnifi moliyaviy mablaglarini safarbar etishning manashu samarali vosita tarkibi va imkoniyati haqida birmuncha batafsil tasavvur xosil qiladi.

Tijorat banklarining vujudga kelgan makomi, tuplangan imkoniyatlari va xodimlarining yuksak kasb maxorati tufayli ular o'zlarining qimmatli qog'ozlari bilan ham shuningdek boshqa emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan ham turli operatsiyalar utkazishlari mumkin, bu narsa ikkinchi sxemada yakka xol ko'rinib turibdi.

Treyder operatsiyalari, ya'ni o'z mablagiga va o'z manfaatlari yo'lida ham (dilerlik operatsiyalari), mijozlarning mablagi va manfaatlari yo'lida ham (brokerlik operatsiyalari) immatli qog'ozlarni olish va sotish operatsiyalari banklar uchun asosiy o'rin va eng zur joziyuadorlikka ega bo'ladi. hozir respublikada 35 milliard sum ustav fondiga ega bo'lgan 5.5 mingta aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyat ko'rsatadgan bir paytda u ish ayniqsa muximdir.

Banklar vositachilik asosida, emitentlar bilan kelishuvga binoan O'z zimmalariga qimmatli qog'ozlarni chiqarish va aylantirish xizmatini (anderryayting, tranfertagentlik xizmatlarini) olishlari mumkin.

Turli toifadagi investorlar uchun banklar mijozlarining investitsiya strategiyasini shakllantirishga, loyixani moliyalashni tashkil etishga kumaklashishdan boshqa qimmatli qog'ozlar majmuini boshqarish va sotib olingan aktsiyalarning devidentlarini olishgacha bo'lgan maslaxat xizmatlarining ko'pgina turlarining ko'rsatishlari mumkin.

Banklar qimmatli qog'ozlar bozorida qimmatli kokozlar operatsiyalari bo'yicha kreditlik yoki sugo'rtachilar, depozitori va kliring hisob – kitob markazlari rolda atnashishlari mumkin. Jumladan, tijorat banklari qarz oluvchilardan berilayotgan qisqa muddatli kreditlar uchun garov sifatida qimmatli qog'ozlarni qabul qilish mumkin. Kreditlarga ko'rsatiladigan ko'pdan ko'p xizmatlar orasida banklarning veksellar bilan utkazadigan operatsiyalari ham bor.

Keyingi yillarda banklar yirik aktsiyadorlik jamiyatlarining aktsiyalarini boshqarish uchun vakolat olish, investitsiya va xsusiylashtirish fondlari bilan ishlash kabi investitsiya faoliyatining obruli yo'nalishlarga ko'prok e'tibor bermoqdalar.

Tijorat banki o'z aktsiyalarini chiqarish orqali asosan moliya-kredit muassasa sifati emas, balki aktsiyadorlik jamiyati sifatida harakat qiladi.

Tijorat banrlari oblegatsiyalar, jamgarma va depozit sertifikatlarini chiqarish yo'li bilan mamlakatning pul aylanmasini to'ldirmoqda, yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh turgan pul mablaglarini iqtisodiyotning ustivor tarmoqlariga sarflashga ko'maklashmoqda. Ular veksell muomilasiga xizmat qilish orqali o'zaro hisob-kitoblarni jadallashtirmoqda va to'lov intizomini mustahkamlamoqda.

Banklar diler va moliyaviy vositachi sifatida harakat qilib, investorlar tomonidan qimmatli qog'ozlarga bo'lgan doimiy talabni ta'minlamoqda. Tijorat banklari vositachilik asosida, qimmatli qog'ozlarni chiqargan tashkilotlar bilan kelishuv bo'yicha o'z zimmalariga uularni tarkatish va ixcham qilish majburiyatini olishi mumkin.

Banklar qimmatli qog'ozlar bozori katnashchilariga depozitar xizmat kusatish orkali emitentlarning depo hisob varaklarini ochish va yuritish, qimmatli qog'ozlarni ishonchli saklash va ularga bo'lgan huquqlarni aniq hisobga olish, qimmatli qog'ozlar bilan birjadan tashkari bitishuvlarga tez xizmat ko'rsatish, aktsiyadorlarning reestrini yuritish, dividendlarni hisobkitob qilish, yozish va to'lash ishlarini amalga oshiradilar.

Banklar investitsiya sohasida maslaxatchilik rolini bajarib, qimmatli qog'ozlar bozori katnashchilariga malakali yordam bermokda, bu ish ularga qimmatli qog'ozlar bozorida to'g'ri yo'lni topib olish imkonini beradi.

Davlat qimmatli qog'ozlar bozori qimmatli qog'ozlar milliy bozorining faol tarkibiy qismidir. 1996 yil 28 mart kuni davlat qisqa muddatli obligatsiyalarning birinchi kimochdi savdosi utkazilganida bu bozorga asos solingan edi. 1996 yil 1 iyo'lga kelib bu erda sotilgan obligatsiyalarning jami kiymati nominal bo'yicha 3 milliard 858 million 200 ming sumlikka etadi.

Mazkur mutlako yangi, yuksak likvidli moliyaviy vositaning qimmatli qog'ozlar bozorida paydo bulishi darhol mamlakat tijorat banklarining e'tiborini tortdi, chunki ularga bush turgan mablaglarini qisqa muddatga investitsiya tarzida sarflash va unchalik tavakkal kimay soliq solinmaydigan yuqori daromad undirish imkoniniberar edi. Ko'pchilik banklar respublikada valyuta birjasida utkazilgan daslabki 4 ta kim ochdi savdosida investor mijozlarning mablagini jalb etmay, o'z resurslari hisobidan DQMO harid qilish operatsiyalarini amalga oshirganliklari bejiz emas biroq O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga kura banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini birmuncha cheklash ko'zda tutilgan. Bu cheklashlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat: bank, agar jalb etilgan mablaglar tarkibida fuqarolarning mablag'lari bo'lsa, nodavlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha investitsiya muassasi bo'la olmaydi;

bank, basharti sarflangan mablag bilan bog'liq bo'lgan barcha tavakkalchiliklar (mazur mablag evaziga bozor bahosi o'zgarishidan olinadigan daromadlar va ko'riladigan zararlar) to'la hajmda muayyan fondning egasi (aktsiyadorlari) hisobiga o'tkaziladigan bo'lsa, u holda investitsiya fondi vazifasini bajarishi ya'ni investorining pul mablagini jalb qilish va fond nomidan shu mablagni qimmatli qog'ozlarga, shuningdek bank hisob varaqalariga va omonatlariga qo'shishi maqsadida aktsiyalar chiqarishi mumkin emas; bank moliyaviy broker vazifalarini fond birjasi orqali bajargan taqdirdagina investitsiya kompaniyasi va moliya brokeri faoliyatini birlashtirishi mumkin.

Ko'rsatilgan cheklashlar qimmatli qog'ozlar bozori barcha qatnashchilarining manfaatlarini har tomonlama hisobga olish uning faoliyatini demokratiyalash zarurligini ko'zlaydi va bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Bank qimmatli qog'ozlari bozori O'zbekiston Respublikasi fond bozorining muxim tarkibiy qismi bo'lib, aktsiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlar, veksellar, shuningdek mamlakat tijorat banklari chiqaradigan xosila qimmatli qog'ozlari kabi fond vositalarining butun bir majmuini o'z ichiga oladi.

Xalqaro banklar nafaqat o'z vatanlarida, balki xorijiy davlatlar tashkilotlari va ko'p millatli korporatsiyalar uchun asosiy kredit manbai hisoblanadi. Ular xalkaro moliya bozorini taxlil qiladilar. Ular xom ashyo sotib olish va ish haqi to'lovlarini, binolar qurilishi va boshqa muhim uzoq muddatli loyihalarni qisqa va uzoq muddatli moliyalanishini ta'minlaydilar.

Xalqaro banklarning taklif etadigan qarzlarining asosiy qismini suzib yuruvchi foiz stavkadagi qisqa muddatli tadbirkorlik kreditlari bo'lib, bu foiz stavkalari qaysidir xalqaro bazis foiz stavkalariga bog'liq holda aniqlanib olib boriladi. Bunday ko'rinishdagi foiz stavkalardan eng an'anaviy hisoblangan LTsBOR xalqaro banklar orasidagi evro dollarlar depozitlar bozorida harakat qiladigan xalqaro banklarning qarzlar bo'yicha taklifning London stavkasidir. Keyingi yillarda xalqaro banklar ochiq bozorda o'z mijozlariga qarz bo'yicha kredit kafolatlarini taklif etmoqdalar. Bunday ko'rinishlardan biri majburiyatli qimmatli qog'ozlar emissiyasi tizimidir. 80 yillarda birinchi marta chiqarilgan bunday qimmatli qog'ozlar xalqaro banklarning o'z mijozlari (yirik korporatsiyalar va davlat tashkilotlari) bilan o'rta muddatli kredit bo'yicha tuzadigan bitimi bo'lib, bunda bu qimmatli qog'ozlar emissiyasi mijozi qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni (to'lov muddati 90 kundan 180 kungacha) ma'lum davrlar mobaynida chiqarish huquqiga ega bo'ladi (5 yilgacha, masalan). Bunda bank boshqa investorlardan emas, balki shu mijozning barcha qog'ozlarini sotib olish yoki LIBOR stavkasi bo'yicha qo'shimcha ssudalar berish majburiyatini oladi. Ko'pgina hollarda qarzdorlik qog'ozlari dollar ko'rinishida yirik nominalda chiqariladi. Masalan 1 mln. dollar va undan ko'p bo'lgan qiymatda.

Shuningdek xalqaro bozorda evrotijoriy qog'ozlar tezda ko'payishiga ham xalqaro banklar kalit rolini bajaradilar, chunki ulardan ko'p millatli kompaniyalar bir necha hafta yoki oyga qisqa muddatli kreditlarni oladilar. Bu qisqa muddatli ssudalar bozori London moliyaviy regionlari bilan kontsentrlashtirilgan bo'lib, unda allaqachon qalqaro banklar va nomoliyaviy kompaniyalar investorlar sifatida jalb etilgandir. Bu vaqtda ba'zi qarzdorlar evrotijoriy qog'ozlarni sotib olgan AQShda bu qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar olib boradilar, ya'ni amerika qimmatli qog'ozlar bozorida bunday qog'ozlarga ega bo'lgan amerika kompaniyalari ularni kreditga layoqati yuqori bo'lgan uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar va boshqa tijoriy qimmatli qog'ozlarga almashtirishga

harakat qiladilar. Keyingi vaqtlarda bunday bozorlarni kengayish harakatiga Yaponiya moliyaviy faoliyatining boshqaruvini misolga keltirish mumkin: Hozirda yapon banklari nafaqat o'x territoriyasidagi va uning xorijdagi filiallari, balki yapon bo'lmagan firmalar ham yapon banklari tijoriy qog'ozlarini sotib olib va ienalarda sotish huquqiga ega bo'lmoqdalar. Xalqaro banklar hozirda evrotijoriy qog'ozlarni sotib olishda eng aktiv xaridorlar hisoblanadilar. Ular o'zlarining mulki sifatida bu qog'ozlardan investitsiya sifatida ham foydalanadilar, hamda o'z mijozlariga sotishlari ham mumkindir. Masalan, «Sitikorp», «Investment benkltd», «Sunss benking korporeyshn interneshnl» banklaridagi ulushlarning 30 foizini keyingi yillarda investorlarga sotilgan jami qimmatli qog'ozlar tashkil etadi.

Shunga o'xshash, amerika banklari o'z mijozlariga xorijiy kreditlarni olishni xohlovchilarga amerika depozit kvitantsiyasini (ADK) taklif etadilar. ADK – amerika banki tomonidan chiqarilgan hujjat bo'lib, u xorijiy qarzdorning qimmatli qog'ozini AQSh investoriga sotishini engillashtiradi. Uning mohiyati shundaki, amerika kompaniyasi bo'lmagan kompaniyalarni (neamerikanskie kompanii) qimmatli qog'ozlar yoki kapitallardagi merosxo'r sifatidagi harakatini ta'minlovchi hujjatdir. Amerika banki chiqarilgan qimmatli qog'ozni o'zida ushlab turishga rozi bo'ladi va investorlarga ADKni qimmatli qog'oz sifatida qimmatli qog'ozlarning talabi bo'yicha sotadi. Bunga misol qilib, 1988 yil kuzda «BENK OF Nyu-York» banki tomonidan emissiya qilingan ADK frantsiya hukumati obligatsiyalariga almashtirilgan.

Agar qimmatli qog'oz emitenti ba'zida bir-biriga o'xshash bitimlarga ruxsat bersa, ADK emitentining «homiyligiga ega bo'ladi. Agar xalqaro bank AQSh investorlarini qiziqitirish uchun har qanday xorijiy qimmatli qog'ozlar paketiga ega bo'lish va ADKni ham emitent roziligisiz sotish mumkin deb qisoblasa, unda bu ADK homiysiz ADK deyiladi, ya'ni homiysiz depozit kvitantsiyalar deyiladi. ADK qimmatli qog'ozlar bo'yicha va birjalar bo'yicha AQSh komissiyasi tomonidan registratsiya qilinishi yoki registratsiya qilinmasligi mumkin (homiysiz ADK registratsiya talabiga to'g'ri kelmasligi mumkin) va ular har qaysi AQSh fond birjalarida sotiladi. Bu qog'ozlarning AQSh investorlarini jalb etuvchi xislati shundaki, unda valyuta riskining yo'qligi, chunki taqdim etiladigan ADK ko'rinishidagi barcha qimmatli qog'ozlar qiymati bo'yicha AQSh dollarida o'zgarishi (transformirovat) mumkin. Bundan tashqari, amerikalik investorlar endi o'z portfellarini diversifikatsiya qilishda quyidagilarga ham ahamiyat beradilar, ya'ni ADK sotib olish va o'z mablag'larini ADKni tezroq likvidatsiya qilish yo'li bilan qaytib olish tez va oson amalga oshadiki, xorijiy qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha imkoniyatlarga qaraganda.

5. Xorijiy mijozlarga omonat jamg'armalari va to'lov vositalarini taklif etilishi

Xalqaro banklarning xalqaro savdo va tijorat ishlarida mijozlarga taklif etadigan xizmat turlari xalqaro banklarning rivojlanish va unda harakatlanadigan investorlar uchun juda muhimdir. Shunday xizmatlarning asosiysi to'lov vositalari va omonat jamg'armalaridir. Banklar nafaqat chegara ortida naqd pul to'lovlarini amalga oshirish uchun o'z mijozlariga xorij valyutalarini taklif etadilar, balki korrespondent banklarga depozitlarni global tizimlar orqali ham o'tkazishi mumkin. Xalqaro banklar milliy territoriyadan tashqarida sotib olingan tovarlar va xizmatlar uchun to'lov vositasi sifatida tratta (o'tkazma veksellar)lar to'lovini qabul qiladi va chiqaradi. Bankning bunday qaytmas (bezvozvratno'e) to'lov majburiyatlari taqdim etuvchiga o'tkazma veksell shaklida olib borilishi mumkin. Bunday to'lovlar tovarlar boshqa mamlakatga jo'natilishi uchun yuklangandan so'ng belgilangan muddat ichida amalga oshiriladi. Tez bajariluvchi (srochno'e) tratalarda odatda importer o'z bankiga kafolati asosida akkreditiv berishini so'rab iltimos bilan murojaat qiladi, qachonki bunda importer tovarli eksportlardagi ba'zi munosabatlarda o'zi bajarishi mumkin bo'lmagan holatlarga tushib qolganda va bank bunday to'lovni bajarishi kerak bo'ladi. Bunday holatda eksporter o'z bankining vositachiligi orqali to'lov shetini yozib beradi, bu esa importer bankiga aktsept uchun va keyingi to'lovlar uchun ko'rsatiladi. Xalqaro banklar, shuningdek, xorijiy valyutalarda yo'l cheklarini muomalaga chiqaradilar va mijoz ko'rsatgan har qanday manzilga telegraf yoki telefaksga mos keluvchi vositalar orqali jo'natish majburiyatini oladilar.

Bundan tashqari, xalqaro banklar o'z mijozlari orasida qisqa va uzoq muddatli jamg'arma bo'lib hisoblanadigan omonat jamg'armalari muomalasini kengaytirmoqda. Bunday jamg'arma hujjatlarning katta qismini depozitli sertifikatlar (DS) tashkil etadi, ya'ni bular bankka qo'yilgan pul

vositalari haqidagi foizli kvitantsiyalardir. DS o'zgarmas stavkali jamg'armalar ko'rinishidagi hujjatlar turida shakllantirilgan bo'lsada, uning ba'zi qismi aniqlashtirilgan bazis stavkasi dinamikasiga bog'liq bo'lgan suzuvchi foiz stavkasiga egadir, xuddi LIBOrga o'xshab. Bu hujjatlar harakat muddatida kurslarning barqaror harakati davriga va kurslarning tebranish davrlariga bo'linadi, ya'ni bunda kurslarning tebranish davridagi bazis stavkalarida qanday holat yuz berishidagi bog'liq o'zgarishlar tufayli foiz stavkalarining o'zgarishi kutiladi. Har kuni yirik xalqaro banklar kelgusidagi investitsiyalar maqsadida bu depozitlar bo'yicha talabga bog'liq holda o'zgaradigan foiz stavkalarining yuqori yoki past holatdaligini e'lon qilib borish bilan birga, depozitlarning so'ndirish muddatini kengaytirish uchun DS foiz stavkalarining publikatsiyasining har kunligini ham uyushtiradilar.

Xalqaro banklarda kapitallarni boshqarishda bir qancha muammolar bo'lishiga qaramay, keyingi yillarda bank instrumentlari bo'lgan kapitallarning ko'payishi DSni jahon miqyosida ko'payishiga olib keldi. Dollar ko'rinishida bo'lgan evrodollar DS avvaliga Londonda 1 mln. dollar bo'yicha, keyinchalik barcha yirik moliya markazlarida sotila boshlandi. Hozirgi vaqtda evro DSning kattagina qismi yirik Amerika, Yaponiya, Britaniya va G'arbiy Evropa kliring banklari va ularning filiallaridan chiqarilmoqda. Baholash bo'yicha «Morgan gerenti» kompaniyasining bunday qimmatli qog'oz bozorida qiymat hajmi 3 trln. Dollarga yaqinlashgan. Yirik kupyuradagi evro DS xalqaro bank faoliyatiga daxldor bo'lib, uni «DS biriktirilgan» deb ataydilar, investorlarning keng doirasida sotiladigan evro DSning mayda kupyuralaridan iborat paketini esa ulushi DS yoki traishlar deb ataydilar.

Suzuvchi foiz stavkali DS (FSDS) va suzuvchi stavkadagi majburiyatli (dolgovo'e) qimmatli qog'ozlar (SSMQQ) 70 yillarda paydo bo'ldi. Bundan maqsad investor va qarzдорlarni foiz stavkasi tebranishi riskidan himoya qilish edi. Egiluvchan (gibkiy) foiz stavkali bir-biriga o'xshash investitsion hujjatlar yo'nalishi bo'yicha o'rta va uzoq muddatli bo'lib, so'ndirish muddati FSDS uchun 1-5 yil; SSMQQ uchun 20 yilgachadir.

6. Foiz stavkasi tebranishi xataridan bank mijozlarini himoyalash.

Xalqaro banklarga mijozlar o'z mablag'larini foiz stavkasi riskidan himoya qilishni so'rab tez-tez murojaat qiladilar. Qarz oluvchilar bozor kon'yukturasi o'zgarishida tebranayotgan foizlar asosida ssudalar olishga harakat qiladilar. Foiz stavkalarining ko'tarilishi bank mijozining qarzlarini bo'yicha xarajatlarini ko'payishiga olib keladi va kapitallar qo'yilmasi dasturidagi sof foydaning qisqarish xavfini keltiradi. Qarama-qarshi, bank mijozi foiz stavkasi tushib ketsa zarar ko'rish holatlarini ham boshidan kechirishi mumkin, agar bu mijoz mablag'larini suzuvchi foiz stavkali depozitlarga qo'yilma qilgan bo'lsa yoki boshqa foiz stavkasi darajasi ancha past bo'lgan qisqa muddatli investitsiyalari bo'lsa ham. Agar bank mijozi qat'iy belgilangan foiz stavkada qarz olgan bo'lsa ham bozordagi foiz stavkasi pasayishidan foyda ko'rmasligi mumkin, qachonki bunday holatlar rivojlanishida oldindan oldindan kerakli choralar ko'rib qo'yilmagan bo'lsa.

Foiz stavkalaridagi svoplar. Xalqaro banklar o'z mijozlarini foizli riskdan himoya qilishda foiz stavkali svoplar haqidagi bitimlardagi vositachilikdan foydalanadilar. Bu bitim har qaysi tomon bir yo'la yoki qismlarga bo'lib foizlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradi. Foiz stavkasi svopi nafaqat ikki tomonining foiz to'lovlari bo'yicha xarajatlarini kamaytiradi, balki bu bitim asosi har bir partneri manbalardagi o'z aktivlaridan foydalanishida naqd pullar oqimini aniq balanslashtirishga yordam beradi. Albatta, bu erda bank qarzlarini bundan mustasno.

Moliyaviy fyucherslar va opsiyonlar. Xalqaro banklar o'z mijozlariga moliyaviy operatsiyalarda fyuchers va opsiyon kontraktlari bo'yicha ham xizmat ko'rsatadilar. Agar mijoz foiz stavkasining ko'tarilishidan ko'radigan jiddiy zararga duch kelishini sezsa, unda o'z valyutalarini riskdan saqlash maqsadida qisqa muddatli fyuchersli xejirlashdan foydalanishi mumkin, bunda opsiyon «put»ga o'xshab, ssuda foizining ko'tarilishi natijasidagi barcha zararlarni kompensatsiya qiladi. Mijozning foiz stavkasi tushinishi natijasida ko'rishi mumkin bo'lgandagi kutilajak zarari uzoq muddatli fyuchersli xejirlash yordamida yoki opsiyon «koll» usulidan foydalanish asosida ma'lum darajada cheklanadi.

Tayanch iboralar:

Trast, ishonch, vositachilik, daromad, risk diversifikatsiyasi, komissiya operatsiyalari, mukofot, foiz, ulush, xavfxatar, noaniqlik, foyda, likvidli mablag'lar.

Nazorat savollari:

1. Tijorat banklarining balansdan tashhari operatsiyalari mohiyati
2. Banklarning kafolat operatsiyalari va ularni o'tkazish tartibi
3. Tijorat banklarni komission va omborli operatsiyalari, ularni turkumlashtirish.
4. Tijorat banklar tomonidan kushimcha xizmat turlari (marketing, huquqiy vositachilik va boshqalar, yuqoridagilar kategoriyasiga kiruvchi boshqa bank operatsiyalari.
5. Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan trast operatsiyalarini o'tkazish va ularni oshkarish muammolari.
6. Bank faoliyatida vujudga keladigan risklar.
7. Bank kredit portfeli diversifikatsiyasi muammolari.
8. Na?d pulsiz hisobkitoblar sohasida bank tавvakalchiligi va uning turlari.
9. Tавvakalchilikni boshqarish vositalari.
10. O'zbyokistondagi tijorat banklarda, bank tавvakalchiligining sugo'rtasinini rivojlantirish muammolari va istiqbollari.
11. O'zbekiston Respublikasi bank tizimida korporativ bshkaruv xususiyatlari va trast operatsiyalari.
12. Bank aktiv va passivlarini boshqarish usullari.
13. Bank xizmatlarini kengaytirish yo'llari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Ўзбекистон Республикаси қонунлари

1.1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Т.: “Ўзбекистон”, 2002.

1.2. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Марказий банки туғрисида”ги қонун, Т.: “Ўзбекистон”, 1995.

1.3. Ўзбекистон Республикасининг “Банклар ва банк фаолияти туғрисида”ги қонун, Т.: “Ўзбекистон”, 1996.

1.4.Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси, Халқ сузи, 09.01.2002.

1.5.Ўзбекистон Республикасининг “Валютани тартибга солиш туғрисида”ги қонуни, 11.12. 2003.

1.6.Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг банклардаги омонатларини ҳимоялаш кафолатлари тўғрисида»ги қонуни. 04.04. 2002.

1.5. Ўзбекистон Республикасининг «Микромолиялаш тўғрисида»ги қонуни. 15.09. 2008 й.

2.Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармонлари ва Қарорлари

2.1. “Банкларнинг капиталлашувини янада ошириш ва иқтисодиётни модернизациялашдаги инвестиция жараёнларида уларнинг иштирокини фаоллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. Тошкент. 2007 й. 12 июль.

2.2. “Қимматли қоғозлар бозори фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. Тошкент. 2008 й. 27 сентябрь.

2.3. «Микрофирмалар ва кичик корхоналарни ривожлантиришни рағбатлантириш борасидаги чора-тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Тошкент. 20.06.2005

2.4. «Бозор ислохотларини чуқурлаштириш ва иқтисодиётни янада эркинлаштириш соҳасидаги устувор йўналишлар амалга оширилишини жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Тошкент. 14.06.2005.

2.5. «Тадбиркорлик субъектларини ҳуқуқий ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Тошкент. 14.06.2005.

2.6. «Тадбиркорлик субъектлари томонидан тақдим этиладиган ҳисобот тизимини такомиллаштириш ва уни ноқонуний талаб этганлик учун жавобгарликни кучайтириш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Тошкент. 15.06.2005.

2.7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 15 апрелдаги «Банк тизимини янада ислох қилиш ва эркинлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги Қарори. «Халқ сўзи» 16.04.2005.

2.8. «Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб этишни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. «Халқ сўзи» 12.01.2005.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси Қарорлари

3.1.«Пул маблағларини банкдан ташқари муомаласини янада қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маҳкамасининг қарори. 05.08.2002.

3.2.«Пул-кредит кўрсаткичларни тартибга солиш механизминини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маҳкамасининг қарори.04.02.2003.

4.Ўзбекистон Республикаси Президенти асарлари

4.1. Каримов И.А. “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари” Т. “Ўзбекистон” 2009. 53 б.

4.2.Каримов И.А. Янгиланиш ва барқарор тараққиёт йўлидан янада изчил ҳаракат қилиш, халқимиз учун фаровон турмуш шароити яратиш- асосий вазифамиздир. Тошкент оқшоми. 13.02.2007

4.3. Каримов И.А. «Бизнинг бош мақсадимиз-жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир». Т.: Ўзбекистон, 2005.

4.4. Каримов. И.А. «Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик тўғрисида». Т.: Ўзбекистон, 2005.

5. Ўзбекистон Республикаси вазирликлари меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлари

5.1. Ўзбекистон Республикаси банклари тўғрисида электрон тўловлар тизими бўйича ҳисоб-китоблар юритиш тўғрисида Низом (янги таҳрир) 02.05.2004.

5.2. Ўзбекистон Республикасида нақд пулсиз ҳисоб-китоблар тўғрисида Низомга ўзгартириш ва қўшимчалар. 23.06.2004.

5.3. Кредит ахбороти миллий институтининг маълумотлар базасини шакллантириш ҳамда банкларaro кредит бюросига ва тижорат банкларига кредит ахборотларни тақдим этиш тартиби тўғрисида Низом. 21.05.2004.

5.4. Фермер хўжаликларининг давлат эҳтиёжлари учун харид килинадиган пахта ва ғалла етиштириш харажатларини тижорат банклари томонидан кредитлаш тартиби тўғрисида Низом. 16.01.2004.

5.5. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг меъёрий ҳужжатлари тўплами. Т.: 2003.

6. Дарсликлар.

6.1.1. Абдуллаева Ш.З. Банк иши. Дарслик. Т.: «Молия» 2005, 510 б.

6.1. Рашидов О.Ю. ва бошқалар. Пул, кредит ва банклар. Дарслик. Т.: ТДИУ, 2007. 398 б.

6.2.1. Гвозденко А.А. Страхование. Учебник. – М-ТК, Велхи, 2004. -464 с.

6.2.2. Жарковская Е.П. Банковское дело. Учебник. - М., ОМЕГА-Л, 2005. -440 с

6.2.3. Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебник. -М., Финансы и кредит., 2003., 654 с.

6.2.4. Миляков Н.В. «Финансы». Учебник. -М., ИНФРА-М, 2004. -543 с.

6.2.4. Поляк Г.Б. «Финансы, денежное обращение, кредит» - М., 2003, 458с.

6.2.5. Финансы. / Под ред. Г.Б. Поляка. - М., ЮНИТИ-ДАНА, 2004. – 607 с.

6.2.6. Стародубцева. Е. Б. Основы банковского дела: Учебник. – М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2008. – 256 с.

6.2.7. Банковское дело: Учебник / под ред. Белоглазовой Г.Н., Кроливецкой. Л.П. - 5-е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2008. 265-292 с.

7. Ўқув қўлланмалари

7.1.1. Гулямов С.С. и др. «Деньги, кредит, банки: Учебное пособие. Куvasай 2004 г.

7.1.2. Алимов И.И., Хусанбоев А./ Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан операциялари. Ўқув қўлланмаси. ТДИУ., 2008. 221б.

7.1.3. Рашидов О.Ю. ва бошқалар. Пул муомаласи, кредит ва молия. Ўқув қўлланмаси. ТДИУ. 2005. 310 б.

7.1.4. Тожиев Р.Р. Халқaro валюта-кредит муносабатлари. Маъруза матнлари. ТДИУ. 2005., 320б.

7.1.5. Тоймухамедов И.Р. Банк иши. Ўқув қўлланмаси. ТДИУ. 2005., 239 б.

7.1.6. Тоймухамедов И.Р., Астанов Х.З., Рахимов А.А. Банк менежменти. Ўқув қўлланма. Т.: ТДИУ. 2007.

7.1.7. Ахунова Г.Н. Образовательная технология по курсу «Маркетинг в сфере образования» Книга 3. Технологии обучения в экономическом образовании. Т., ТГЭУ, 2005. - 102 б. 50 эз.

7.1.8. Голыш Л.В. Введение в технологизацию обучения в экономическом вузе: Книга 2. Технологии обучения в экономическом образовании. –Т., ТГЭУ, 2005. - 796. 100 экз.

7.2.1. Боровкова В.А. «Рынок ценных бумаг» - М., «Финансы», 2003, -280с.

7.2.2. Дон Патинкин. Деньги, процент и цены. - М.: Экономика, 2004. – 375с.

7.2.3. Дробозина И.А. «Финансы» - М., 2003, -381с.

7.2.4. Дробозина Л.А. «Финансы» - М., 2003, -398с.

7.2.5.Мазурина Т.Ю., Скамай Л.Г. Финансы фирм. Практикум: Учеб. пособие. - М.:ИНФРА-М, 2004. – 185 с.

7.2.6.Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение, кредит. Экспресс справочник для студ. вузов. - М., ИКЦ Март, Ростов н/Д. Изд. центр Март, 2004. – 288с.

7.2.7.Семенов К. А.Международный валютные и финансовые отношения.- М., ТЕИС, 2003. – 125 с.

7.2.8.Синицина Н. М. Рынок ценных бумаг: Учеб. пособ.-Н., Новгород, 2004. –179с.

7.2.9.Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение, кредит. Экспресс справочник для студ. вузов. – Ростов н/Д., изд. Центр Март, 2004.–179с.

7.2.10.Скамай Л.Г. Страхование. (Вопрос-ответ): Учеб. пособ. - М., ИНФРА-М., 2004.- 160 с.

7.2.11.Сплетухов Ю.А., Дюжиков Е.Ф. Страхование: Учеб пособие. - М., ИНФРА-М, 2004. – 312с.

7.2.12.Сухоруков М.М. Технология продаж страховых продуктов. - М., Анкил, 2004. – 136 с.

7.2.13. Титова Н.Е., Кожаев Ю.П. “Деньги, кредит, банки” - М., 2003, с. 156.

7.2.14. Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования: Учебное пособие. / Афанасьева О.Н., Корниенко. С.Л., под ред. засл. деятеля науки РФ, д.э.н., проф. О.И. Лаврушина. - 2-е изд. – М.: КНОРУС, 2008. – 256 с.

8. Илмий монографиялар ва мақолалар

8.1.1.Гозибеков Д.Г. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. Т., “Молия” 2003, 332 б.

8.1.2.Акрамов Э.А. Экономические реформы Республики Узбекистан.-М., ТОО «Люкс арт», 2003 - 235 стр.

8.1.3.Болтаев Т. Развитие рынка синдицированного кредитования. // Бозор, пул, кредит. № 10, 2005 г. с. 22-24.

8.2.1.Буздалин А.А. Факторы оптимальной ликвидности. //Банковское дело. М. 2005 г. №1 стр. 2-7.

8.2.2.Крупнов Ю.С. О природе эмиссионных ресурсов Центральных банков. // Банковское дело № 8, 2005 г. с. 38-43.

8.2.3.Малахова Н.Г. Деньги, кредит, банки. конспект лекций. – М.: Приор, -2004. -96с.

8.2.4.Международные инвестиции и международные закупки. Под.ред. Есипова В.Е. СПб, ГУЕФ, 2003-313.

8.2.5.Миркин Я.М. Ценные бумаги и фондовый рынок. М.: Перспектива, 2003-523.

8.2.6.Черкасов В.Е. Международные инвестиции. М.: Дело. – 2003- 160с.

11. Газета ва журналлар

11.1. Банк ахборотномаси. 2008-2007 й.№1-5

11.2. Бозор, пул ва кредит. 2008-2007 й. №1-6

11.3. Банковское дело. 2008 г. №1-6

11.4. Финансы и кредит. 2008г. №1-13

12. Статистик маълумотлар тўпламлари

12.1.Ўзбекистон Республикасининг 2008 й январ-март статистик ахборотномаси.

12.2.Ўзбекистон иқтисодиёти. Тахлийи шарх.. 2008 й. №3

12.3.Экономика Узбекистана. Аналитический обзор за 2008-2007 г.

13. Интернет сайтлари

13.1.www.travel-library.com

13.2. www.thebanker.com

13.3.www.bank.uz

13.4.www.bankir.uz

13.5.www.cb.uz

IZOHLI LUG'AT

1. Kredit o'z egalari qo'lida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga xaq to'lash sharti bilan olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatdir.
2. Kredit tamoyillari tovar va pul ko'rinishidagi mablag'larni:
qaytarib berishlik,
muddatlilik
foiz to'lash shartlari asosida berish natijasidir.
3. Kredit o'zga mulki bo'lgan pulni qarzga olib ishlatish borasidagi munosabatdir.
4. Moliyabarcha xo'jalik sub'ektlarining o'ziga tegishli pul mablag'lari xususidagi aloqadir.
5. Kredit sub'ektlari korxona, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholidir.
6. Kredit ob'ekti vaqtincha bo'sh turgan, berilishi mumkin bo'lgan pullar va tovarlardir.
7. Kredit vazifalari
pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat) yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik oborotiga jalb qilishdir
bo'sh turgan pul mablag'larini harakatdagi, ishdagi kapitalga aylantirib, pulni pul topadi, degan qoidani amalga oshirishdir.
qarz berish orqali pul mablag'larini turli tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlash bilanishlab chiqarish resurslarining ko'chib turishini ta'minlashdir
qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdir.
8. Tijorat kreditisotuvchilarning haridorlarga tovar shaklida beradigan kreditidir.
9. Bank kreditibanklar pulni uning so'ziblariga foiz to'lash sharti bilan o'z o'lida jamlaydilar va o'z nomidan qarzga berib, foiz olishdir.
10. Iste'mol kredititijorat banklari iste'molchilarga tovar sotib olish uchun bergan qarzidir.
11. Davlat krediti banklar davlatdan qarz olishidir.
12. Xalqaro kredit bu ssuda kapitalining xalharo miqyosdagi harakati bo'lib, bu harakat tovar va valyuta ko'rinishidagi mablag'larni qaytarib berishlik, muddatlilik va xaq to'lashlik asosida berish bilan bog'liqdir.
13. Ssudaqarzga beriladigan pul ssuda deyiladi.
14. Ssuda kapitaliqarzga berilgan pul ishga solinib, yangidan pul topish, daromad olish uchun ishlatilishidir.
15. Kreditni qayta taqsimlashjamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini bu pullarga extiyojmand bo'lgan sub'ektlar o'rtasida qayta taqsimlashdir.
16. Kredit turlari
qisqa muddatli kreditlar (muddati bir yilgacha bo'lgan kreditlar)
uzoq muddatli kreditlar (muddati bir yildan ortiq bo'lgan kreditlar) dir.
17. Kreditlash chegarasikredit munosabatlarining sub'ektlariga yoki ssudalarning turlariga nisbatan aniq ko'rsatkichlar shaklida belgilab qo'yiladigan kreditdan foydalanishning qat'iy chegarasi kreditlash chegarasidir.
18. Kreditning chegaralarikreditning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqli tomonlarini, ayni vaqtda, o'sha kategoriyalar bilan o'zaro alohalarini mujassamlashtiruvchi tushunchadir.
19. Kreditlashtirishkredit resurslari hisobidan tadbirlarni amalga oshirish darajasidir.
20. Lizing bu zavodlarni, sanoat tovarlarini, uskunalarini, o'zhalmas mulklarni mulk egasi tomonidan ularni ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatish uchun ijaraga berish tog'risidagi shartnomadir.
21. Lizing turlari
operativ lizing
moliyaviy lizing
22. Forfeyting ma'lum xuquqlarga yon berishdir.
23. Kontokorrent kreditibankning mijozi bo'lgan korxona ko'p sonli korxonalar bilan ikki tomonlama aloqada bo'lgan hollarda qo'llashdir.
24. hisobli kreditvekselni tijorat bankiga sotish yo'li bilan olinadigan kreditdir.

25. Lombard krediti qisqa muddatli, miqdori qat'iy belgilangan ssuda bo'lib, oson sotiladigan ko'zhaluvchi mulkdir.
26. Aktseptli kredit –bunda bank, unga mijoz tomonidan qo'yilgan o'tkaziluvchan vekselni ma'lum shart bilan aktseptlashdir.
27. Rambursli kreditakkreditivni aktseptli kredit bilan uyg'unlashuvdir.
28. Bank aktsepti importyor banki tomonidan uning vekselini aktseptlanishidir.
29. Evrokreditlarevroyutalarda beriladigan kreditlardir.
30. Evroyutaga o'sha valyutani mamlakat tashkariidagi barcha yig'indisidir.
31. Kredit mexanizmi xo'jalik mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, kreditlash shartlarini usullari va kreditni boshqarishdir.
32. Kreditga layoqatlilik korxonaning bankdan so'ragan ssudani u o'z vaqtida va tuliiq qaytara olish imkoniyatidir.
33. Kredit siyosatibankning kredit resurslarini joylashtirish sohasidagi qarorlarni qabul qilishga imkon beruvchi qoidalar va cheklanishlar majmuidir.
34. Foiz stavkasiqarzdor kishining olgan qarzi uchun pul egasiga to'laydigan to'lovidir.
35. Marja savdo, birja, sug'urta va bank amaliyotida tovarlar narxi, valyuta va qimmatbaho qog'ozlar ko'rsi, foiz stavkalari va boshqa ko'rsatkichlar farqini ifodalash uchun ishlatiladigan atamadir.
36. Kredit ekspansiyasimamlakatning ssuda kapitallari bozorida foiz stavkalarining pasayishi natijasida kredit oluvchilarning ko'payishi va buning oqibatida, kredit qo'yilmalari hajmining keskin ko'payishidir.
37. Remoliyalashtirish siyosati markaziy bank tomonidan tijorat banklari ixtiyoridagi tijorat veksellarni hamda qimmatbaho qog'ozlarni garovga olish va shu yo'l bilan kredit berishdir.
38. Kredit resurslarining auktsionikredit resurslarini erkin, ochiq tarzda auktsion orqali sotishdir.
39. Majburiy zaxiralar siyosatitijorat banklari jalb qilgan mablag'laridan ma'lum bir qismini Markaziy bankning zaxira fondiga o'tkazilishidir.
40. Libor Londondagi jahon ssuda kapitallari bozorida etakchi erkin almashinadigan valyutalar AQSh dollari, Germaniya markasi, Yaponiya ienasi, Buyuk britaniya funt sterlingi kabi valyutalardagi depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasidir.
41. Foiz xavf xatari foiz stavkalarining darajasi va harakatining o'zgarishi natijasida zarar ko'rish xavfidir.
42. Foiz xavf xatarini boshqarish usullari
aktivlarni boshqarish
passivlarni boshqarish
foiz marjasini boshqarish
«pep» ni boshqarishdir.
Substandart kreditlar 2 to'lov davrida foiz yig'indisi to'lanmagan kreditlardir.
Shubhali kreditlar 3 to'lov davrida foiz yig'indisi to'lanmagan va 1 marta asosiy qarzi yig'indisi to'lanmagan kreditlardir.
- Muammoli ssudalar qaytarilish muddati kelgan, lekin bank mijozining to'lovga noqobilligi tufayli to'lanmayotgan ssudalardir.